


KBK 65.2

HUJAYRA BIOLOGIYASI

I.A.Abdulov

X.U.Xalbekova



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
100 yilligiga bag'ishlanadi*

**H.U.HALBEKOVA
I.A.ABDULOV**

HUJAYRA BIOLOGIYASI

Darslik



Toshkent
«VNESHINVESTPROM»
2019

UO‘K 253.562.8

KBK 652.9

H.U.Halbekova, I.A.Abdulov.

Hujayra biologiyasi. Darslik.

-T.: “Universitet” nashriyoti, 2019. –216 b.

Ushbu darslik Biologiya yo‘nalishi bo‘yicha 5141000- Biologiya ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi bakalavrlar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, bu darslikda Genetika mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan magistr va tadqiqotchi-izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:
akademik J.S.Sattarov

Taqrizchi:
O‘zRFA “O‘simlik va hayvonot olami genofondi” instituti, b.f.d.
Duschanova G.M.

Darslikda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagи 603-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4888-4-7

©VNESHINVESTPROM, 2019

SO‘Z BOSHI

“Hujayra biologiyasi” fani organizmning asosiy tarkibiy qismi - hujayralarning mikroskopik va ultramikroskopik tuzilishini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Talabalar bu fanni o‘rganish bilan prokuriot va eukariot hujayralarning tuzilishi asoslari va xususiyatlari, hujayraning bo‘linishi, hujayra evolyutsiyasi, bir-biriga bog‘lagan holdu tasvirlab berishi mumkin. Shunday qilib, hujayra biologiyasi fani malakali biologlar umumbiologik tayyorgarligidagi asosiy poydevorlurdan biri hisoblanadi.

“Hujayra biologiyasi” fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabularga organizmning asosiy tarkibiy qismi - hujayra to‘g‘risida har tomonlama va chuqur bilim berishdan iborat. Ushbu fan talabalarni prokuriot va eukariot hujayralarning tuzilishi asoslari, hujayralarning tuzilishi va xususiyatlari, hujayra evolyutsiyasi bilan tanishtiradi. Bularidan tashqari eukariot hujayralarning kompartmentaliz jarayonlari, ularning yuzaga kelishi va o‘zaro bog‘liqligi, hujayralarning turli tumanligi, tuzilishi bilan faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik singari bilmalarni umumlashtirishni ko‘zda tutadi.

“Hujayra biologiyasi” fani asosiy umumkasbiy fan hisoblanadi. Chunki hamma tirik mavjudotlarning tuzilish birligi bo‘lgan hujayraning tuzilishini o‘rganmay turib, boshqa biologiya sohasidagi funnlarni egallab bo‘lmaydi. Shuning uchun bu fan o‘quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalari, biometriya, fizika, anorganik va analitik kimyo, organik kimyo, fizik va kolloid kimyo), umumkasbiy (zoologiya, botanika, gistologiya, genetika, individual rivojlanish biologiyasi, biokimyo, mikrobiologiya, o‘simliklar, odam va hayvonlar fiziologyjasi, biofizika, biotexnologiya, evolyustion ta’limot) va ixtisoslik (gidrokimyo, baliq mahsulotlarini qayta ishlash va marketing xizmati, baliqlar kasalliklari) fanlarini o‘zlashtirishda bu fandan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

“Hujayra biologiyasi” fani yutuqlarining tibbiyot sohasida qo‘llanishini ta’min etish, jumladan, odamda uchraydigan kasalliklarni hujayra miqqosida o‘rganish, ularning hujayralarda kelib chiqish sabablarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Stitologik va gistologik tahlil usullari yordamida tibbiyot oldida turgan muhim

muammo saraton kassaligining kelib chiqish sabablari va uning oldini olish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Bu esa inson salomatligini saqlash va iqtisodiy yordam uchun muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Talabalarni "Hujayra biologiyasi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va za-monaviy usullaridan foydalanish, yangi informastion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Fanning o'qitish turlari dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Shuningdek atroficha bilim olishni ta'minlash maqsadida talabalarga mustaqil ish mavzulari ham beriladi. Ma'lumotlar ko'rgazmali o'quv qurollari, multimedia, mikroskop, total va kesmali preparatlar yordamida olib boriladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishda fanning ilg'or texnologiyalaridan foydalanilgan holda olib boriladi: "Aqliy xujum", "Klaster", "FSMU", "Diskussiya" usullari qo'llaniladi.

Talabalar hujayra va uning tuzilishi, hujayra stitoplazmasining tarkibi, submikroskopik tuzilishi, hujayra organellalari, ularning tuzilishi va vszifalarini, xromosoma va uning hujayra bo'linishi jarayonida morfologik o'zgarishlar hosil bo'lishi, yadroning vazifikasi, bo'linishi, interfaza va ishchi holatlari, hujayraning oddiy va murakkab bo'linishlari, hujayraning qayta tiklanishi kabi stitologiya fanining muhim qismlarini bilishlari lozim. Bulardan tashqari, ular mikroskopning tuzilishi, mikrotexnika usullarini, mikropreparatlar tayyorlash, ularni bo'yash, rasmini chizish, mikrofotografiya texnikasi kabi ishlar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar tomonidan "Hujayra biologiyasi" fanini chuqur o'rganish, o'quv dasturidagi nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtira olishlari kerak. Bu kursni o'zlashtirish uchun talabalar fizika, kimyo, evolyutsion ta'limot va o'rta muktab hajmidagi umumiyligi biologiyadan bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

MA’RUZA 1. “HUJAYRA BIOLOGIYASI” FANINING MAZMUNI VA TARIXI

Reja:

1. Hujayra biologiyasi faniga kirish.
2. Fanning mazmuni va asosiy vazifalari.
3. Fanning rivojlanishiga hissa qo’shgan olimlar.
4. Hujayra biologiyasi fanining dolzarb muammolari va istiqbolari.

Tayanch iboralar. *Sitologiya, o’simlik, hayvon va odam organizmi, fiziologik, patologik jarayonlar.*

Mashg’ulotning maqsadi: talabalarda “Hujayra biologiyasi” fanning mazmuni, rivojlanish tarixi, vazifasi, hujayra nazariyasining yaratilishi va uning mazmuni haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

Mashg’ulot jihozlari: Antonio van Levenguk, Robert Guk, Yan Purkine, Matias Shleyden, Teodor Shvann portretlari, Robert Guk yaratgan birinchi mikroskop tasviri.

1. Hujayra biologiyasi faniga kirish¹. Hujayralar va ularning strukturasi to‘g’ridan - to‘g’ri ko‘rib, eshitib, ushlab bo‘lmaydigan darrajada juda kichik. Shunday ulkan to‘sinq bo‘lishiga qaramay, hujayralarni o‘ta kichik strukturasining har bir xususiyati doimiy nashr qilinadigan minglab ilmiy maqolalarning asosiy mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Hujayra biologiyasini tadqiq qilishga bo‘lgan qiziqish yig‘ma asboblar yaratilishiga va murakkab usullarning o‘ylab topilishiga sabab bo‘ldi. Bu hujayra va molekulyar biologlar o‘rtasida monopoliya borligini anglatmaydi. Ilmiy spektrning bir tomonida astronomlar 13 milliard yillar avval, katta portlashdan faqatgina bir necha yuz yillardan keyin paydo bo‘lgan va yyerdan juda uzoqda bo‘lgan ibtidoiy galaktikalarni tasvirga olish uchun aylanuvchi teleskopni qo’lladilar. Spektrning boshqa tomonida yadro fiziklar Xuggsbozonining zarracha nazariyasi mavjudligini isbotlash uchun yorug‘lik tezligiga yaq-inlashtirishda protonlarni boshqa bir protonlar bilan to‘qnashtirishga

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 45 p.

majbur bo'ldi. Shubhasiz, koinotimiz o'rganish uchun barcha jihatlari mavjud bo'lgan olamlar ichidagi olamlardan iborat. Ushbu kitob orqali hujayra va molekulyar biologiya reduksionisti ravshan bo'ldi. Bu yo'l bilan qaraganda, tiriklik tizimining ishchi mashinalarini izohlash orqali bizning hissiyotimiz hayratlanish va hayot siri uchun hammasini o'z o'rniqa qo'yishi mumkin.

Tirik organizmning hayotiy jarayonlari: moddalar almashinuvi va organizmni tashqi muhit bilan bog'lab turish hujayraning asosiy xususiyatidir.

2. Fanning mazmuni va asosiy vazifalari. Hujayra biologiyasi - hujayralarning taraqqiyoti, tuzilishi va faoliyatini o'rganadi. Bu fanning predmeti tirik organizmlardagi hujayralardir. Hujayra - barcha tirik organizmlarning takomillashishi, rivojlanishi, tuzilishi va yashash jarayonining asosi bo'lib hisoblanadi.

Hujayra biologiyasi fanining asosiy vazifasi - hujayraning tuzilishi, organoidlar, kiritmalarning vazifasi, moddalar almashinuvi jarayonini, rivojlanishi, ko'payishi va kelib chiqishini tashqi muhit munosabatiga bog'langan holda o'rganishdan iborat.

Hujayra biologiyasi usullari asosida olingan natijalar tibbiyotda, qishloq xo'jaligida, farmokologiya va veterinariya sohalarida keng ko'lamda qo'llaniladi.

Odam organizmi ham hujayralardan tuzilgan ekan, barcha fiziologik, patologik jarayonlarni o'rganish sitologik asosda olib boriladi. Masalan, kasalliklarni aniqlashda, har bir hujayraning faoliyatini hisobga olish zarur. Qishloq xo'jalik ekinlari va hayvonlarni o'rganishda yoki ulardan samarali foydalanishda, yangi nav va zotlarni yaratishda bevosita hujayralardagi jarayonlar asos bo'lib hisoblanadi. Shu bois, Hujayra biologiyasi fani xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda ahamiyati kattadir. Bu fan asosida molekulyar biologiya, biotexnologiya, gen injeneriyasi, genomika kabi yangi zamонавиев fanlar taraqqiy etmoqda.

Hujayra biologiyasi fani o'z oldiga quyidagi asosiy vazifalarni qo'yadi:

1 – hujayralarning ultrastrukturaviy tuzlishi, vazifasi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish;

2 – o'simlik, hayvon va odam organizmning sitologik tuzilishi-dagi ekologik sharoitga va yoshga bog'liq o'zgarishlarni o'rganish;

3 – hujayralardagi morfogenetik jarayonlarini boshqarishda nerv, endokrin va immun tizimlarining ahamiyatini aniqlash;

4 – turli xil biologik, fizik, kimyoviy va boshqa omillar ta'sirida tifrik organizm hujayralarining moslanishuvini, o'zgarishlarni taxlil qilish;

5 – hujayralarning differentsiyalanish va regeneratsiya qo'nuniyatlarini o'rganadi.

3. Fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar. Hujayra biologiyasi fanining rivojlanishi hujayraning o'rganilishi, mikroskopning kashf etilishi bilan bog'liqdir. Kattalashtiruvchi oynalar XVII asr oxiriga kelib ilmiy tadqiqot ishlari uchun qo'llanila boshlangan. Keyinchalik eng sodda tuzilishga ega bo'lgan mikroskoplar yaratilgan. Birinchi mikroskop 1590 - yilda gollandiyalik ko'zoynak ustalari aka-uka Gans va Zaxarius Yanssenlar tomonidan yig'ilgan. Takomillashtirilgan mikroskop 1609 -1610 yillarda italiyalik olim Galileo Galiley tomonidan loyixalashtirildi. Galileyning birinchi mikroskopi uzun naydan iborat bo'lib, uni ishlatish ancha noqulay edi. Bir qancha vaqtlardan keyin esa fizik Cornelius va astrolog Drebble yana bir mikroskopni loyihalashtiradilar. Biroq, bu mikroskoplar ham ilmiy ishlarga xizmat qilmadi.

1624 - yilda **Galiley** o'zining mikroskopini qayta loyihalashtirdi va endi undan amaliy ishlarda foydalanish mumkin edi.


Mikroskopga bo'lgan qiziqish Angliyadan ko'ra Italiyada ko'proq, e'tibor berildi. 1624 - yilda **Galiley** o'z mikroskopini Rim-dagi "Bilimdonlar Akademiyasi"ga hadya etadi. 1625 - yilda Stelluti mikroskop yordamida asalari ko'zining fasetkali (mozaika) tuzilishini ifodalab berdi. F.Chezi 1628 - yili **Galileyning** mikroskopidan foydalaniib o'simliklarning sporangiyasini o'rgandi. "Mikroskop" iborasini birinchi bo'lib 1625 - yilda logan Faber tavsiya qilgan.

Germaniyada esa mikroskoplar o'yinchoq tayyorlanadigan ustaxonalarda yasalar edi.

Angliyada XX-asr boshlarida sifatliroq mikroskoplar ishlab chiqarila boshlandi, uning tuzilishiga o'zgartirishlar kiritildi. Bunday mikroskoplar buyumlarni 150 martagacha katgalashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan.

1.1. Hujayraning kashf etilishi¹.

Hujayralar o'lchami kichik bo'lgani sababli, ularni faqat mikroskop yordamidagina kuzatish mumkin. Yassi shisha yuzasi yorug'likni sindirib, shaklniyuzagakeltirishiin soniyatga qanchavaqtadan beriayonligibiz ganom alum. Ko'zoynaklar birinchi marotaba XIII asrda Evropa-da tayyorlangan, yorug'lik mikroskopining birinchi komponenti (ikki tomonlamali linza) esa XVI asrning oxirlarida o'yabtopildi. 1600 yillarning o'rtalarida bir necha olimlar o'zлari yasagan mikroskoplari yordamida ko'zilg'amas dunyo sirlarini ochishga urinib ko'rdilar. Hujayrani birinchi bo'lib ingliz mikroskopchisi Robert Guk 27 yoshida kashf qildi va Angliyaning birinchi ilmiy akademiyasi hisoblangan Londonning Qirollik Jamiatiga kuratorlik lavozimi bilan taqdirlandi. Uning mikroskopi 3 elementdan: yig'uvchi linza (kollektor), okulyar linza va ob'yektiv linzalardan tuzilgan(1-rasm). Uni juda qiziqtirgan savol daraxt po'stlog'idan yasalgan po'kak shisha butilka ichidagi havoni tashqariga² chiqarmasdan qanday qilib ushlab turishi edi. U 1665-yilda shunday yozgandi: "yaxshi, toza daraxt po'kagini oldim va undan kichik bo'lagini pichoq yordamida kesib oldim, so'ngra mikroskopda kuzatdim, ko'rib turgan obyektim kichik hujralardek tuyuldi... ko'proq asalari iniga o'xshash". R.Guk ularni monastirda rohiblar yashaydigan hujralarga o'xshatganligi sababli shunday atadi. Umuman olganda, R.Guk o'lik o'simlik to'qimasining hujayralar devorini kuzatgan edi.



1 - rasm. R.Guk yaratgan mikroskop va u tayyorlagan po'kak kesimining mikroskopdagи ko'rinishi

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 60-62 p.

² Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 63 p.

Ayni vaqtda, gollandiyalik, tug‘ma va turli matolar savdosi bilan shug‘ullanuvchi Anton van Levenguk o‘zining bo‘shtini linzalar ni silliqlab, oddiy ammo aytarli darajada sifatli mikroskoplar yasash bilan o‘tkazardi. 50 yil davomida Levenguk o‘zining mikroskopda olib borgan tadqiqotlari natijalarini Londonning Qirollik Jamiatiga xat tariqasida jo‘natib turdi. U ko‘lmak suvini kuzatib, unda harakatlanayotgan “animolekulalar”ni birinchi bo‘lib kuzatdi. Shuningdek, bakteriyalarni gturli formalarini ham birinchilardan bo‘lib tasvirlab bergen.

Bundan avval kuzatilmagan dunyo haqidagi Qirollik Jamiatiga yuborganlik xatlari ko‘pchilikda shubxa uyg‘otdi va jamiyat Leven-guk kuzatuvlarini tasdiqlash uchun Robert Gukni yubordi. R.Guk tasdig‘idan so‘ng Levenguk dunyoga mashxur bo‘ldi. Angliya qiroli-chasi va Buyuk Piter bilan ko‘rishihsiga muyassar bo‘ldi.

Kashfiyotning muximligi 1830 yilga-cha sezilmadi. 1838 yil Nemis botanigi (av-val advokat bo‘lgan) Mattias Shleydin turli to‘qimalarning

Strukturasi bir-biriga o‘xshamasa ham o‘simliklar hujayradan tashkil topgan va o‘simlik embrioni yagona

Hujayradan shakllanadi, degan xulosaga keladi. Shleydinning hamkasbi Germaniyalik zoolog Teodor Shvann 1839 –yilda hayvon xayotining hujayraviy asosi to‘g‘risida mufassal maqola chop etadi. Uning xulosasiga ko‘ra hayvon va o‘simlik hujayra strukturalari o‘xshash bo‘lib, ikki nazariyani taklif qiladi:

– barcha organizmlar bir yoki undan ko‘p hujayradan tashkil top-gan

– hujayra – xayotning strukturaviy birligi.

Shleyden va Shvanning hujayraning kelib chiqishi borasidagi g‘oyasi ya‘ni, hujayralarning nohujayraviy materiallardan kelib chiqadi, degan g‘oya ko‘pchilikni ishontira olmadi.

Ushbu ish boshqa olimlar tomonidan kuzatilgunga qadar ko‘p yillar kerak bo‘ldi. Va nihoyat bu g‘oya quyidagicha qabul qilindi, ya‘ni hujayralaro organizmlarning o‘z-o‘zidan ko‘payishi kabi yo‘l deb hisoblandi.





Birinchi mikroskopik tajribalarni ko‘pgina sohalar bo‘yicha (fizika, geologiya, biologiya) izlanishlar olib borgan olim London Qirollar ilmiy jamiyatining kotibi Robert Guk (1635-1703) olib bordi. R.Gukning mutaxasisligi fizik edi. U mikroskopni texnik jihatdan takomillashtirdi.

R.Guk mikroskop yordamida o‘simlik hujayralarini o‘rgangan. Po‘kakning ko‘ndalang kesimini mikroskop ostida tekshirib, uni yopiq pufakchaldan yoki katakchaldan iboratligini ko‘radi va uni (lot.-*sellula*) hujayra so‘zi bilan atab o‘zining 1665 yildagi «Mikrografiya» nomli kitobida ta’riflaydi.

R.Guk o‘simlik to‘qimalarini hujayralardan tuzilganligini aniqlaydi. Aynan shu xulosa bu sohadagi keyingi yo‘nalishlarni aniqlab berdi.

1671 yilda London qиollar jamiyatiga o‘simliklarning mikroskopik tuzilishi haqida 2 ta ma’ruza topshiriladi. Bu tadqiqotlar italiyalik Marchello Malpigi va angliyalik Neemiya Gryularga ta’luqli edi. Bittasi ingliz, ikkinchisi lotin tilida yozilgan bu ma’ruzalarning nomi bir xil, ya’ni “O‘simliklar anatomiyasi” edi. Ikkala tadqiqotchi ham bir xil xulosaga keladilar, ya’ni o‘simlik to‘qimasi hujayralardan tashkil topgan. To‘qima so‘zini ham birinchi bo‘lib Gryu ishlatadi. Mikroskop bilan qiziqib qolgan M. Malpigi birinchi bo‘lib hayvonlar terisi, talog‘i, buyragi va boshqa organlarining mikroskopik tuzilishini o‘rganadi. Natijada u tasvirlab bergen organlarning ayrim strukturalari uning nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Masalan, Malpigi naychalari, buyrak koptokchalar, Malpigi qavati va boshqalar shular jumlasidandir.

Fan sifatida sitologiya XIX asrda yuzaga kelgan. Aynan shu vaqt-da muhim kashfiyotlar amalga oshirilgan.

O‘simlik hujayrasiga nisbatan hayvon hujayrasini o‘rganish ancha murakkabdир. Atoqli chek olimi Yan Purkine (1787-1869) o‘zining shogirdlari bilan hayvon hujayralarini o‘rgana boshladi. U birinchi bo‘lib bo‘yoqlarni va preparatni yorituvchi vositalarni, jumladan kanada balzamini (preparatlarni qotirib qo‘yish uchun) foydalanishga kiritdi.

1830 yilda Yan Purkine hujayra ichidagi qovishqoq shaffof mod-dani tu'riflab unga protoplazma deb nom beradi (yunoncha protos-birinchi, plazma – hosila) Purkine hujayra nazariyasini yaratishga yuqin edi, lekin u hujayra tuzilishiga genetik nuqta'i nazardan qaramadi.

1831- yilda shotland sayyohi va fizigi Robert Broun (1773-1858) o'simlik hujayrasida yadroni topdi va unga "nukleus" yoki "areola" deb nom berdi. Birinchi atama ko'pchilik tomonidan keng qabul qilindi va hozirgacha saqlanib kelinmoqda.

1836 yilda Gabriel Valentin yadroda yadrocha borligini aniqlaydi.



YAN PURKINE
(1787-1869)



ROBERT BROUN
(1773-1858)

Matias Shleyden (1804-1881) o'simliklarning turli qismlarini o'sish davrida hujayralar paydo bo'lishini kuzatgan. Shleydenning asosiy xizmati shundaki, 1838 yilda uning "Fitogenezis haqidagi ma'lumotlar" nomli asari chop etilgan bo'lib, muallif botanikada o'sha paytdagi ma'lum bo'lgan hujayra haqidagi tasavvurlarga tayangan holda rivojlanish nuqta'i nazardan o'simlik hujayralarining bir xilligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Shleydenning hujayra paydo bo'lishi nazariyasini keyinchalik sitogenezis deb atala boshlandi. 1839 yilda nemis zoologi Teodor Shvann (1810-1882) hayvon hujayralarini o'rganib hayvon va o'simliklarning hayot faoliyatida va rivojlanishida hujayra tuzilma birligidir degan xulosaga keladi.

1838 – 1839 yillarda nemis olimlari Matias Shleyden va Teodor Shvannlar hujayra nazariyasini shakllantirdilar.

Ular yaratgan nazariya ikkita postulatdan iborat edi:

1. Hayot asosan hujayra shaklida mavjud bo‘lib, barcha organizmlar hujayralardan tashkil topgan.

2. Hamma tirik organizmlar hujayralari tuzilishiga va moddalar almashinuvi jarayonlarining borishiga ko‘ra o‘xshash ya’ni gomologikdir.

Hayot asosan hujayra shaklida mavjud bo‘lib, barcha organizmlar hujayralardan tashkil topgan. Bu tezis barcha tirik mavjudotlarning kelib chiqishi bir ekanligini ifodalaydi. Har qanday hujayra 3 ta asosiy subtizimdan tuzilgan: tashqi apparat, sitoplazma, yadro. Energetik almashinuv jarayoni hamma hujayralarda glikolizga asoslangan bo‘ladi. Hamma hujayralarning hayot faoliyati uchta asosiy va universal jarayonlarga: DNK sintezi, RNK sintezi va oqsil sinteziga bog‘liq.

Hujayralar orasidagi farqlar esa ular bajaradigan vazifalarning xususiyligi bilan bog‘liq. Masalan: tuzilishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladigan nerv va mushak hujayralari; nerv hujayrasida boshqa hujayralarda uchramaydigan va nerv impulslarini qabul qiluvchi o‘sintalari, mushak hujayrasida esa mikrofilamentlar bo‘lishi xarakterlidir.

XIX asrning oxirlarida sitologiya mustaqil fan sifatida rivojlanma boshladi. Hujayra nazariyasining rivojlanishida nemis patologgi Rudolf Virxovning 1858 - yilda chop etilgan “Sellyulyar patologiya” asari katta o‘rin egallaydi.

Uning “hujayra faqat hujayradan” – (omnis cellula a cellula) degan iborasi sitologiyaning rivojlanishiga turki bo‘ldi. Bu esa hozirgi vaqtida hujayra - mavjud hujayraning bo‘linishi natijasi degan ma’noni anglatadi. Hujayralardan tashqarida hayot yo‘q degan ibora hozirgacha o‘z qadrini hanuzgacha saqlab kelmoqda. R. Virxovgacha M.Shleyden o‘z tadqiqotlarida hujayralarning hosil bo‘lishida shu hujayraning o‘zida mavjud bo‘lgan donador massa ishtirok etadi, deb noto‘g‘ri fikr yuritadi.

Shu tariqa hujayra nazariyasi yangi postulatlar bilan boyitildi:

3. Hamma hujayralar mavjud hujayraning bo‘linishi orqali hosil bo‘ladi. Bu tezis hujayralarning o‘z-o‘zidan hosil bo‘lish usullarini inkor etadi.

Matias Shleyden

(1804-1881)



Teodor Shvann

(1810-1882)



Rudolf Virchov

(1821-1902)



4. Ko‘p hujayrali organizmning faolligi uning hujayralari faoliyi va o‘zaro bir-biri bilan munosabatda bo‘lishi orqali ta’minlanadi. Bunga asosan, organizm - hujayralar to‘dasi emas balki o‘zaro mu-loqotda bo‘lgan hujayralar yig‘indisi ya’ni tizimidir. Unda har bir hujayraning faolligi qo‘shti hujayralar faoliyatiga bog‘liqidir. Massalan, eritrotsitlar organizmdagi barcha hujayralarni kislorod bilan ta’minlaydi. Neyronlar nerv zanjirini hosil qiladi, sekret bezlari hujayralari gormon ishlab chiqaradi.

Hujayralarda yuzaga keladigan bunday differensiatsiyalar negizida genlardagi faollik katta ahamiyatga ega. Zigtotadagi hosil bo‘layotgan hujayralar barchasi bir xil tabiatlidir. Lekin organogenez bosqichida ularning differensiatsiyasi boshlanadi. DNK da joylashgan genlar o‘zlarida turli ma'lumotlarani tutadilar: nafas olish, ovqat hazm qilish, ayirish, eshitish. Embrionda hujayralar hosil bo‘layotganda qaysi gen qismi faol bo‘lsa shu vazifani bajarishga moslashgan hujayra yuzaga keladi.

5. Hujayraviy tuzilish irsiy axborotning saqlanishi, ko‘payishi, uzatilishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi.

XX - asrning boshlari sitologiya fanining rivojlanishida uyg‘onish davri bo‘ldi. 1876 - yilda Eduard Van Beneden bo‘linayotgan jinsiy hujayralarda hujayra markazini aniqlaydi.

1890 - yilda Rixard Altman mitokondriyalarni ta’riflab, ularni bioblastlar deb ataydi.

1898 yilda Kamillo Golji hujayralarda to'rsimon tuzilma - dik-tiosomalarni aniqlaydi bu tuzilma keyinchalik uning nomi bilan Golji kompleksi deb atalgan.

1898 - yilda Karl Benda xromosomalarni ta'riflaydi.

XX asming 1932 yilida Maks Knoll va Ernst Ruskalar tomonidan elektron mikroskop yaratalishi sitologik tadqiqotlarning keng ko'lamma olib borilishiga imkon berdi.

1950 - yillarga kelib xromosomaning mikroskopik tuzilishi, mitoz va meyoz bo'linishlarning xususiyatlari o'rganildi. Ana shu asosda hujayra molekulyar jihatdan o'rganila boshlandi.

1953 - yilda Jeyms Uotson va Frencis Kriklar tomonidan jahon fanida mashhur bo'lgan kashfiyat - DNK ning tuzilish modeli yaratildi.

1956 - 1960 yillarda odam hujayrasidagi xromosomalarning o'rganilishi va bir qator sitologik usullarining takomillashi bu fanning taraqqiyoti uchun katta manba bo'ldi.

O'zbekistonlik olimlar ham sitologiya fanining rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Akademik J.X. Xamidov rahbarligida endokrin bezlar va neyronlarga radiatsiya ta'sirida bo'ladigan morfofiziologik o'zgarishlarini zamonaviy ilmiy usullar yordamida o'rganilgan. Akademik B.O. Toshmuxamedov hujayra membranasining tuzilishi va funksiyalariga doir tadqiqot ishlarini olib borib, bir qator yangi ma'lumotlarni qo'ga kiritdi.

G'o'za genetikasi va sitologiyasi sohasining rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shgan O'zbekiston olimlaridan akademiklar A.A. Abdullayev, D.A. Musayev, professor S.M. Rizayeva va biologiya fanlari nomzodi V.P. Klyatlar 2011 yilda I - daragali Davlat mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Keyingi yillarda hayvon genlarinini boshqa urug'langan tuxum hujayraga mikroin'eksiya usuli bilan o'tkazish, irsiyat omilaridan foydalananib irsiy kasalliklarni yo'qotish va hayvon zotlarini tanlash hamda hujayra injeneriyasiga oid ilmiy tadqiqotlar sohasini o'rganishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda.

XXI asrda sitologiya molekulyar biologiya usullari asosda rivojlanib, biologiya fanlarining yangi tarmoqlari: genomika, proteomika, bioinformatika kabilarni taraqqiyoti uchun xizmat qilmoqda.

Fanda to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda hozirgi kundagi **hujayra nazariyasini quyidagi postulatlardan iborat**:

1. Hujayra - tiriklikning elementar strukturaviy va funksional birligi.
2. O'simlik, hayvon va zamburug' hujayralari tuzilishi, kimyoviy tarkibi va moddalar almashinuvi jarayonlari jihatidan o'xshashdir.
3. Hujayra – tiriklikning strukturaviy va funksional birligi. Tuzilishi va bajaradigan vazifasi jihatidan o'xshash hujayralar to'qimalarga, to'qimalar – a'zo va a'zolar tizimiga birlashib, organizmni tashkil etadi. Bu esa organizmlarning bir butunligini ta'minlaydi.
4. Hujayra – barcha tiriklikning rivojlanish birligi. Har qanday organizm o'z individual rivojlanishini yagona hujayra – zigotadan boshlaydi.
5. Yangi hujayralar ona hujayraning bo'linishidan hosil bo'ladi.
6. Hujayra membranali tuzilish tartibiga ega.
7. Yadro eukariot hujayralarning genetik axborotni saqllovchi va boshqaruvchi mexanizm sifatida faoliyat yurituvchi asosiy komponentidir.
8. O'simlik va hayvon hujayralari o'rtasidagi o'xshashlik ular kelib chiqishining umumiyligidan darak beradi.
9. Tirik organizmlar tuzilishining murakkablashuvi asosida hujayralar differensiatsiyasi jarayoni yotadi.


1.2. Hujayraning asosiy xususiyatlari¹.

O'simlik vahayvonlar tirik ekan demak ularning hujayralari ham xayot. Umuman olganda tiriklik hujayraning asosiy hususiyati bo'lib, ular bu xususiyatni namoyish etuvchi eng kichik birlik hisoblanadi. Agar aloxida ajratib olinsa tezda faoliyati to'xtaydigan hujayraning tarkibiy qismidan farqli, hujayra butun to'qimadan ajratib olinib, laboratoriya sharoitida maxsus muxitda o'stirib ko'paytirilsa bo'ladi. Lekin sharoit bo'lmasa nobud bo'ladi. O'lim xayotning asosiy xususiyatidir, chunki faqatgina tirik mavjudotgina o'ladi. Tanadagi hujayralar "o'z qo'llari bilan o'zlarin io'ldiradilar", asosan keraksiz xujayralar yoki saratonga aylanishi mumkin bo'lgan xujayralar ichki dasturning qurbanini bo'ladi.

Dastlabki odam hujayrasini madaniylashtirish Jons Xopkins

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 66-67 p.

Universiteti olimlari Jorj va Martin Geylar tomonidan 1951 yilda boshlangan edi. Hujayralar yomon saraton va Xenritta-Lak (HeLa) donorlaridan olingan. HeLa hujayralar dastlabki hujayra namunalaridan hujayrالarni taqsimlash orqali olingan. Ushbu hujayralar haligacha dunyodagi ko‘plab laboratoriyalarda o’sтирiladi (1.2-rasm).



1.2-rasm. HeLa hujayralar - uzoq vaqt kulturada saqlangan va hali ham foydalanish mumkin bo‘lgan birinchi odam hujayrularidir. Undan farqli ravishda normal hujayralarning kulturada yashash vaqt cheklangan. Ushbu saraton HeLa hujayralari noaniq ravishda sharoit qulay bo‘lganda o’sish va bo‘lina olish xususiyatiga ega.

Chunki ular tanadagi boshqa hujayralarga qaraganda, o’rganish uchun juda qulay hisoblanadi. Buhujayralartanadantashqaridao‘stiriladi. Shuningdek, hujayravamolekulyarbiologiyaning muhim quroligaaylangan. Aslini olganda, ushbu kitobdagagi muhokama qilinayotgan ma'lumotlar hujayrani laboratoriya sharoitida o’sirish usullari- dan foydalangan holda olindi.

Biz hujayra borasidagi tadqiqotlarimizni bir nechta hujayralarning asosiy xususiyatlarini o’rgangan holda boshlaymiz.

Hujayralar juda murakkab tuzilma va bir butun tizimdir¹

Mujassamlik bu biz ko‘p duch keladigan, ammo izohlash qiyin bo‘lgan xususiyat. Ayni paytda mujassamlik atamasini mustahkamlik va tartib deb o‘ylashimiz lozim. Murakkabroq tuzilmalar, ko‘p sonli qismlar ularning to‘g‘ri joylarida bo‘lishlari shart. Tabiatan xato-

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA. 2013, «Wiley». 68-72p.

liklargači damsizroq va qismlar bilan o'zaro aloqador. Shuningdek, boshqariluvchan yoki tizimni saqlab qolish uchun nazorat qilinishi shart bo'lgan.

Hujayralar faolligi sezilarli darajada aniq bo'la oladi. DNKnинг ko'payishi, bunda xatoliklar har o'n million nukleotidga bitta to'g'ri keladi va ko'p hollarda tezlik bilan DNKniga ta'mirlovchi mexanizmlar yordamida nuqson bartaraf etiladi. Kitobning ushbu qismida hayotning kompleksligiga uning turli darajalarida e'tibor qaratamiz. Kichik o'lchamlik molekulalarda giatom tuzilishi xususida bahslashamiz. Ushbu molekulalar ulkan polemerlarni tashkil etadi va har xil polimer molekulalar komplekslarni tashkil etadi. Bu o'z navbatida sub hujayra viyorganellarni va nihoyat hujayralarni tashkil etadi. Shunisi aniqki, har bir darajada katta bir bararorlik bor. Yuqori energiyali elektron mikrosko postida qaralganda, har bir hujayra izchil tuzilishga ega. Uning organellalari muayyan shakl va joyga ega. Shunga o'xshash, har bir organella turlarida tartibga solingan avvaldan bashorat qilina oladigan namuna makro molekulalarning izchil tarkibi mavjud. Ovqat hazm qilish kanalidan ozuqani tashish uchun mas'ul ichagingizning ichki hujayralarini ko'rib chiqaylik (1.3-rasm). Ichakda giepitelial hujayralar xuddi devor g'ishtlari kabi bir-birlari bilan mahkam bog'langan. Ushbu hujayralarning o'tkazuvchi kanallar bilan duch keluvchi apikaluchlarida ozuqa moddalari so'rilib qolishini osonlashtiradigan uzoq jarayonlar ro'y beradi. Mikro villiapikal hujayra yuzasidan tashqariga chiqsa olish qobiliyatiga ega. Chunki ular filamentdan iborat ichki skeletni o'z ichiga oladi. Ularning bazal (asosiy) uchlari, "ichak" hujayralarida membrananing turli transport jarayonlarini energiyasi uchun zarur bo'lgan yoqilg'i bilan ta'mirlovchi ko'p miqdorda gimitoxondriyalar mavjud. Har bir mitoxondriya oqsilarning domiy to'plamidan iborat bo'lgan ichki membranalar namunalaridan tashkil topgan. Jumladan, ichki membranadan xuddi tayoq ustidagi shar kabi projektlangan elektr energiyali ATF sintezlovchi mashina. Ushbu turli darajadagi tuzilmalarning har biri 1.3 - rasmida tasvirlangan. Hujayra va molekulyar biologlarning baxtiga evolyustiya biologik tuzilmalarning har bir darajasida ularga qayg'urgan holda sekinlik bilan amalga oshgan. Holbuki inon va mushuk, ularning anotomik tuzilishlari tubdan farqlanadi, ammo to'qimalarini tashkil etuvchi hujay-

ralari, hujayralarini tashkil etuvchi organellari juda o‘xshash. Fibrillalarning harakati 1.3 – rasmida tasvirlangan. 3- va ATF sintezlovchi ferment tasvirlangan 6- tasvirdagi deyarli bir xil o‘xshash tuzilmalar turli organizmlarda xususan, odam, salmoneliyoq, achitqi (zamburug‘) va Redvud daraxtlarida topilgan. Hujayrani o‘rganish orqali bir tur organizmlaridan olingan ma’lumotlar hayotning boshqa formalarida ham to‘g‘ridan to‘g‘ri uchraydi. Eng asosiy jarayonlarning ko‘pchiligi, xususan oqsil sintezi, kimyoviy energiyaning to‘planishi yoki hujayra devorining qurilishi barcha tirik organizmlarda hayratlanarli darajada o‘xshashdir.



1.3-rasm. Hujayraviy va molekulyar tuzilmalar darajalari.

Yorqin rangda bo‘yalgan tasvir kichik ichak devori vorsinkasining mikroskopik tuzilishini yorug‘lik mikroskopida ko‘rinishi.

1-epitelial qavat ichki ichak devorining elektron mikrografi. Har bir hujayraning ichki yuzasi, ya’ni ichak kanali yuzalari ovqat so‘rilishida ishtirok etuvchi ko‘p miqdordagi kichik vorsinkalardan tashkil topgan. Har bir hujayraning bazal xududi hujayrani energiya bilan ta’minlay oladigan ko‘p miqdordagi mitoxondriyalardan tashkil topgan.

2-apikal mikrovorsinkalar. Har bir mikrovorsinkalar mikrofibrilla tug‘unlaridan iborat.

3- har bir mikrofibrillani tashkil etuvchi aktin oqsili subbirliklari.

4- Apikal hujayralarning asosiy xududida topilgan o‘xshash individual mitoxondrialar.

5- mitoxondriya ichki membranasining qum zarralarini o‘z ichiga oluvchi, ATF sintezlanadigan saytga mos qismi.

6-7- ATF sintezlovchi mashinaning molekulyar modeli ko‘rsatilgan.

1.3. Hujayralardan foydalanish uchun genetik dastur va vositalarga ega¹

Organizmlar ma’lumotlarni kodlovchi, DNK konstrukstiyasini tashkil etuvchi genlar to‘plamidan tuzilgan. Odam genetik dasturlari yetarlicha ma’lumotlarga ega. Agar ularni so‘z shakliga aylantiradi-gan bo‘lsak, millionlab varaqlarni to‘ldirish mumkin bo‘ladi. Ajablanarlisi shundaki, ushbu katta hajmdagi ma’lumot bir hujayra yadro-siga teng maydonni egallovchi xromosomalarga “qadoqlangan” va bu bir nuqtadan yuz marta kichik hajmdir.

Genlar ma’lumotlar uchun saqlash sandig‘idan ko‘proqdir: ular hujayraviy tuzilmalarni barpo etish uchun loyihami tashkil etish, hujayralar faolligini yuritish uchun yo‘nalishlar va o‘zlarini ko‘plab yaratishlari uchun dasturlar. Genlarning molekulyar tuzilishi individlar o‘rtasida o‘zgarishlar keltirib chiqaruvchi genetik ma’lumotlar o‘zgarishiga (mutastiya) imkon beradi. Hujayralarning genetik ma’lumotlardan foydalanish, ularni avlodlarga uzatish mexanizmlarning kashf etilishi yaqin o‘n yillikning eng katta yutuqlaridan biri bo‘ldi.

Nazorat savollari:

1. Hujayra nazariyasi va uning yaratilish tarixi haqida gapirib bering.
2. Hujayralarning gomologikligi deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbekistonda sitologiya fanining rivojlanishi.

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley».73-75 p.

TEST SAVOLLARI

1. Mikroskopning ko‘rish kuchi qanday aniqlanadi?

- A) ikki nuqtani bir-biridan farq qilish uchun zarur bo‘lgan minimum masofa bilan
- B) yorug‘likni qaytarish va sindirishi bilan
- C) optik shishaga tushayotgan yorug‘lik tarkibiga qarab
- D) ikki nuqtani bir-biridan farq qilish uchun zarur bo‘lgan minimum masofa bilan

2. Qaysi usul yordamida uch o‘lchamli fazoviy tasvirlarni olishga erishildi?

- A) yorug‘lik mikroskopi
- B) elektron mikroskop
- C) sitokimyoviy
- D) sen- trafugalash

3. Mikroskop ko‘rish kuchining chegarasi nimaga teng?

- A) yorug‘lik to‘lqin uzunligining yarmiga teng
- B) yorug‘lik to‘lqin uzunligiga teng
- C) yorug‘likni qaytarish va sindirish kuchiga
- D) linzaning fizik tarkibi va qavariqligiga

4. Qaysi usul yordamida hujayra organoidlarini alohida-alohida ajratib olish mumkin?

- A) yorug‘lik mikroskopi
- B) sentrafugalash
- C) sitokimyoviy
- D) avtoradio- grafiya.

MAVZU: HUJAYRA TIRIKLIKNING ELEMENTAR BIRLIGI

Reja:

1. Hujayra - tirik organizmning tuzilish asosi
2. Hujayralarni ikkita asosiyguruhi
3. Tiriklikning hujayrasiz va hujayraviy shakllari.
4. Hozirgizamonhujayra biologiyasifaniningytuqlari
5. Hujayra biologiyasi fani xal qiladigan asosiy muammolar

Tayanch iboralar. Prokariotlar, bakteriyalar, ko'k yashil suv o'tlari, yadroisiz hujayralar, fotoavtotrof jarayonlar, jinssiz ko'payishi. eukariotlar.

Mashg'ulotning ta'limi maqsadi: talabalarni hujayra tirik organizmlarning eng kichik elementar birligi, tiriklikning hujayraviy va hujayrasiz shakllari, sitologiya fani hal qiladigan muammolar bilan tanishtirish.

Mashg'ulot jihozlari: bakteriya hujayrasi, o'simlik va hayvon hujayrasi tasvirlangan slaydlar va jadvallar.

1. Hujayra - tirik organizmning tuzilish asosi

Hujayra - tirik organizmning tuzilish asoslari, yashash jarayonlarini ta'minlovchi hamda irlsiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan tuzilmadir. Binobarin, o'simlik yoki hayvonlar bir butun organizm holida hujayralar va hujayralararo tuzilmalar yig'indisidan tarkib topgan. Fiziologik holatiga ko'ra, hujayralar shakli va tarkibi har xilligi bilan bir - biridan farq qiladi, ya'ni hujayralarning vazifasi ularning shaklini belgilaydi. Tarixiy biologik rivojlanish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, hayot yer yuzasidagi jonsiz materiyaning jonli materiyaga aylanishdan, aniqrog'i, hujayralar paydo bo'lishidan kelib chiqqan. Masalan, dastlab yumaloq shakldagi oqsilli eng sodda tanachalar paydo bo'lgan. So'ng ular tanasida moddalar almashinuvি jarayoni paydo bo'lgan. Yillar o'tishi bilan tarixiy biologik rivojlanish davom etib, atrof -muhit o'zgarishi va yashash sharoitining yana ham murakkablashishi oqibatida asta- sekin murakkab tuzilgan yangi organizmlar paydo bo'la boshlagan. Bu esa, albatta, ular tanasidagi


oqsillar tuzilishiga ham tarkibiy o'zgarishlar kiritgan, natijada ular turli vazifalarni bajarishga ham moslashib borgan. Ma'lumki, hozirgi fan nuqtai nazaridan qaraganda, tirik organizmlarning rivojlanishida nuklein kislotalar- DNK va RNKlar asosiy vazifani bajaradi. Ular o'zida genetik ma'lumotlarni saqlab keladi va organizm uchun zarur bo'lgan oqsil moddalarni sintezlaydi.

Yashash jarayonlarini ta'minlovchi hamda irsiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan tuzilmadir. Binobarin, o'simlik yoki hayvonlar bir butun organizm holida hujayralar va hujayralararo tuzilmalar yig'indisidan tarkib topgan. Fiziologik holatiga ko'ra, hujayralar shakli va tarkibi har xilligi bilan bir - biridan farq qiladi, ya'ni hujayralarning vazifasi ularning shaklini belgilaydi. Tarixiy biologik rivojlanish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, hayot yer yuzasidagi jonsiz materiyaning jonli materiyaga aylanishdan, aniqrog'i, hujayralar paydo bo'lishidan kelib chiqqan. Masalan, dastlab yumaloq shakldagi oqsilli eng sodda tanachalar paydo bo'lgan. So'ng ular tanasida moddalar almashinuvi jarayoni paydo bo'lgan. Yillar o'tishi bilan tarixiy biologik rivojlanish davom etib, atrof -muhit o'zgarishi va yashash sharoitining yana ham murakkablashishi oqibatida asta- sekin murakkab tuzilgan yangi organizmlar paydo bo'la boshlagan. Bu esa, albatta, ular tanasidagi oqsillar tuzilishiga ham tarkibiy o'zgarishlar kiritgan, natijada ular turli vazifalarni bajarishga ham moslashib borgan. Ma'lumki, hozirgi fan nuqtai nazaridan qaraganda, tirik organizmlarning rivojlanishida nuklein kislotalar- DNK va RNKlar asosiy vazifani bajaradi. Ular o'zida genetik ma'lumotlarni saqlab keladi va organizm uchun zarur bo'lgan oqsil moddalarni sintezlaydi .

2. Hujayralarni ikkita asosiy guruhi

Elektron mikroskop yaratilgandan keyin biologlar har xil hujayralarni ichki¹ strukturasini o'rgana olishdi. Bu tadqiqotlarning asosida aniqlandiki hujayralar ikkita katta guruhga bo'linar ekan bular Prokariotlar va Eukariotlardir(1.8 rasm).

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 78-80 p.



¹Sianabakteriyalar taxminan 2,4 milliard yil ilgari paydo bo'lishgan va biologiyada bu eng qadimgi urug'lardan bo'lsa kerak. Prokariot hujayralar bu bakteriyalar, eukariot hujayralar bu eng soda, zamburug'lar, o'simliklar. Hozir anniq aytib bo'lmaydi qachon prokariot hujayralar birinchi marotaba yer yuzasida paydo bo'lishgan. Lekin birinchi marta 2,7 milliard yil oldin tog' jinslarida prokariotlar uchray boshlagan va atmosferada O₂ paydo bo'la boshlagan. Eukariotlarni paydo bo'lishi ham noaniq. Murakkab ko'p hujayrali hayvonlar birdaniga 600 million yil oldin paydo bo'lgan, lekin ayrim ma'lumotlar bo'yicha sodda eukariot organizmlar Yer yuzasida 1 milliard yil ilgari ham uchragan. 1.9 rasmda organizmlarnigasosiyguruuhlarikeltirilgan. Bundan bizga ma'lumki hayotni "tez-tez" paydo bo'lishi. Prokariot va eukariot hujayralarni solishdirib o'rGANishi bizga shuni ko'rsatadiki ularni orasida farqlar ko'p lekin albatta umumiy tomonlari ham bor (1.8-rasm).

Фигурки 1.9 Earth Био геологическая clock. А портрет последних пяти миллиардов лет истории Земли, показывающий предлагаемое время появления основных групп организмов. Сложные животные (беспозвоночные) Шелли и сосудистые растения являются относительно недавно прибывшие. Время, указанное для происхождение жизни является спекулятивным. Кроме того,

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 81-84 p.

фотосинтезирующе бактерии может возникнуть гораздо раньше, следовательно, знак вопроса. Геологическое эр указаны в центре иллюстрации.

Eukariot hujayralar deyarli aniq aytса bo‘ладики prokariot ajdoddардан kelib chiqishi ularни umumiyligi chiqishi asosida ularda bir genetictil, metabolitik yo‘llarini umumiyligi yig‘indisi va strukturaviy timinlari ham ko‘p hollarda umumiyligi. Masalan bu hujayralarning ikki tipi bir xil konstruksiyadagi plazmatik membranalar bilan o‘ralgan bu membrana tanlab o‘tkazuvchanlik bilan mos keladi. Hujayralarning ikki guruhi qattiq notirik hujayra devoir bilan o‘ralishi mumkin. Prokariot va eukariotlarni hujayraviy devorchalari umumiyligi fuksiyaga ega lekin ularni kimyoviy tarkibi keskin farqlanadi.

Prokariot va eukariot hujayralarni solishtirma jadvali.

Umumiy tomonlari:

1. Plazmatik membrananing o‘xshash qismlari.
2. DNK da ko‘dlangan axborotda yagona genetik koddan foydalanadi.
3. Genetik axborotning transkriptsiyasi va transliyatsiyasi uchun o‘xshash mehanizmlar, shu hisobda o‘xshash ribosomalar.
4. Metabolik yo‘llarning bir xilligi (masalan glikoliz va UKK davri)
5. ATF sifatida kimyoviy energiyalarni saqlash strukturalarining o‘xshashligi.(Eukariotlarning mitoxandriyal membrabasi va prokariotlarning plazmatik membranasasi)
6. Fotosintez mexanizimining o‘xshashligi (Sianobakteriyalar va yashil o‘simliklar)
7. Membrana oqsillarini sintezini o‘xshashligi
8. Proteasom o‘xshashligi (Arxeobakteriyalar orasida va eukariotlar orasida)

Farqli tomonlari:

1. Yadroni sitoplazmadan ajralib turishi va shu membranada pora strukturasining mavjudligi
2. DNK va oqsillardan metatik strukturaga siqilgan xromosoma kompleksi
3. Endoplazmatik membrabaviy kompleks (endoplazmatik tor, golji kompleksi lizasomalar, endosomalar, periksisomalar)

4. Sitoplazmada ayrop nafas olishga iqtisoslashgan organellalar (mitoxondriya va fotosintez(xloroplastlar))
5. Sitosklet sistemasining majmuasi (Jumladan mikrofelomentlar, oraliq filomentlar va mikronaychalar) va birlashgan oqsil-motorlar
6. Xifchinlar va kiprikchalr majmuasi
7. Membrana orqali yutish hususiyatiga ega bo‘lgan qobiliyat (fagotsitoz)
8. Hujayra devorchalarida sellyuloza mavjudligi (o‘simliklarda)
9. Mikronaychaldan iborat bo‘lgan mitotik duk
10. Hujayrada genlarni ikkita toplamining bo‘lishi (diploid)
11. Ribonukleyin kislotani uch xil sintezlash fermentlari (RNK polimerazalar)

Meyoz jarayoni va urug‘lanishni talab qiluvchi jinsiy ko‘payish [1]

3. Tiriklikning hujayrasiz va hujayraviy shakllari

Qaysi hujayra va organizmda metabolizm (moddaclar almash-inuvi), ko‘payish, harakatlanish kabi jarayonlar sodir bo‘lib tursa u tirik hisoblanadi. Rang - barang organik olamda tiriklikning ikki xil: hujayrasiz va hujayraviy shakllari tafovut etiladi.


Hujayrasiz shaklga viruslar kiradi. Hujayraviy shaklga prokariotlar, eukariotlar mansubdir. Virusning mavjudligi 1892 yilda ilk bor botanik olim D.I. Ivanovskiy tomonidan, tamaki bargining kasalini o‘rganish natijasida topilgan. Bu mavjudotlar mayda bo‘lib, bakterial filtrdan ham o‘tib ketadi. Viruslar o‘z tuzilishiga ko‘ra o‘ta sodda bo‘ladi. Ularda oqsil g‘ilof (kapsid) ga o‘ralgan bir molekula nuklein kislotasi mavjud. Ko‘pgina viruslar ustidan oqsil va lipiddan iborat yana bir parda - adperkapsid bilan o‘ralgan. Viruslarning tuzilishi faqatgina elektron mikroskop orqali o‘rganiladi.

Hujayralardan tashkil topgan tirik tabiat olamining barcha organizmlari ikki yirik guruhgaga bo‘linadi.

1. Prokariotlar (*pro-* avvalgi, *karion* - yadro) bakteriyalar, ko‘k yashil suv o‘tlari, yadrosiz hujayralar. Ularning oziqlanishi geterotrof, ba’zilarida avtotrof yoki fotoavtotrof jarayonlari bilan boradi, ko‘payishi - jinssiz.

2. Eukariotlar - bir hujayralilar, zamburug'lar, o'simlik va hayvon hujayralari.

Bakteriyalar juda xilma - xil bo'lib, ular murein moddasidan iborat zinch qobiq bilan o'ralgan bo'ladi. Ko'pgina bakteriya hujayralari shilliq kapsula- qo'shimcha himoyaviy pardaga ega. Bakteriyalarda ribosomadan boshqa hujayra ichki organoidlari bo'lmaydi. Uning genetik materiali halqa hosil qilgan DNKdan – genofor yoki nukleoiddan iborat. Bu DNK eukariot hujayralardan farq qilib, nukleogistonlardan holidir. DNK tarkibidagi genlar soni odamning DNKsidagi genlardan 500 marta kam. Hujayrada genetik apparatni sitoplazmadan ajratib turuvchi membranalı tuzilma - shakllangan yadro bo'lmaydi. Sitoplazmasida plazmidalar (DNK ning xalqadan tashqari fragmentlari) bo'lib ular bakteriya hujayrasining bir qator irsiy belgilarni nazorat qiluvchi genlardan tuzilgan. Plazmidalar mustaqil replikatsiyalanadi va nasldan –naslga irsiylanadi. Gen muxandisligida keng qo'llaniladi. Ba'zi bakteriyalarning plazmatik membranasi hujayra ichiga botib kirib mezosomalarini hosil qiladi. Mezosomalar hujayra burmalari bo'lib yuzasida nafas olish jarayonida ishtirok etuvchi ya'ni organoidlar vazifasini bajaradigan fermentlar joylashadi(4rasm). Fotosintezlovchi bakteriyalarda mezosoma burmalari orasida fotosintez pigmenti joylashadi. Bakteriyalar oddiy - har 20 minutda bo'linib turadi. Bu holat kasallik chaqiruvchi bakteriyadan ozginasи organizmga kirib qolsa, tezda ko'payib kasallik alomatlarini yuzaga keltirishini ko'rsatadi. Ba'zi hollarda bakteriyalar bir biriga o'ta yaqin kelib, o'zaro genetik materialini almashtiradi (kon'yugatsiya). Bunday genetik rekombinatsiya natijasida yangi irsiy materialga ega bo'lgan bakteriya hosil bo'ladi.



4-rasm. Bakteriya hujayrasining tuzilishi

Bakteriyalarning organik olamdagи ahamiyati o‘ta muhim: ular tabiat sanitari, ya’ni organik moddani emiruvchi, o‘simlik va hayvon organizmi uchun zarur bo‘lgan moddalarni hosil qiluvchi va ayrim xillari esa, turli kasalliliklar tarqatuvchidir. Odam organizmida muntazam ravishda kasallik keltirib chiqarmaydigan, ko‘pgina bakteriyalar ham mavjud. Ular inson organizmi uchun keraklidir. Masa-lan, yo‘g‘on ichakda yashovchi ayrim bakteriyalar ishtirokida odam organizmi uchun o‘ta zarur vitaminlar hosil bo‘ladi.

Eukariot hujayralar prokariot hujayralarga qaraganda murakkab va xilma-xil tuzilgan. Ularda haqiqiy yadro va organoidlar mavjud. Bir hujayrali suv o‘tlari, zamburug‘lar, sodda hayvonlar, yuksak tuzilishga ega bo‘lgan o‘simliklar, hayvonlar va odamlar eukariot organizmlarni tashkil etadi.

Jadval 2. Prokariot va eukariot hujayralarning o‘zaro farqlari

	Prokariot hujayra	Eukariot hujayra
Hujayraning irlsiy apparati	Yadro mavjud emas	Shakllangan yadro mavjud
	Hujayraning irlsiy tuzilmasi – genofor	Hujayra yadrosining irlsiy tuzilmasi – xromosomalar
	Genofor sitoplazmada joylashgan	Xromosomalar yadro karioplaemas ida joylashib sitoplazmadan yadro qobiqi bilan chegaralangan
	Genofor DNKdan iborat	Xromosomalar – DNPdan iborat; DNP =DNK+ oqsillar
	Genofor xalqa ko‘rinishiga ega	Xromosomalar – tayoqcha va ipsimon ko‘rinishiga ega (xromatin)
Sitoplazma	Organoidlardan faqat ribosomalr mavjud	Hujayraning turli organoidlari mavjud
	Sitoskelet yo‘q	Sitoskelet mavjud
	Sikloz kuzatilmaydi Sitoplazmatik irlsiyat plazmidalar ko‘rinishida mavjud	Sikloz sodir bo‘ladi Sitoplazmatik irlsiyat mitokondriya va plastidalardagi DNK ko‘rinishida mavjud

Plazmalemma	Sitoplazmatik membrana – mezosomalarni hosil qiladi	Mezosomalar mavjud emas
-------------	---	-------------------------

O'simlik va hayvonlar hujayra tuzilishiga ko'ra umumiy o'xshashlikka ega bo'lib, o'z navbatida ma'lum qismlari bilan farq qiladi. O'simlik hujayralari uchun qo'shimcha sellyuloza va pektindan iborat hujayra qobiqi, plastidalar, hujayra shirasi to'playdigan vakuo-laning bo'lishi bilan, hujayra markazida sentriolaning bo'lmasisligi, zahira oziqa moddasi – kraxmal (hayvon hujayrasida- glikogen) ekanligi bilan hayvon hujayrasidan farq qiladi. Lekin o'simlik va hayvon hujayralari uchun plazmatik membrana-plazmalemma, sitoplazma va yadroning bo'lishi umumiy belgi hisoblanadi(5rasm).


Hujayra tashqi muhitdan sitoplazmatik parda bilan ajralib turadi. Yadrodan tashqari hujayraning ichidagi barcha tuzilmalarning hammasi protoplazma deb nomlanadi.

Eukariot hujayralar sitoplazmasining tuzilishi asosida gialoplazma, hujayra organellalari va kiritmalar yotadi. Yadro: yadrocha, xromatin , karioplazma (yadro shirasi) va kariolemma (yadro qobig'i) dan iborat.

3. Hozirgi zamон sitologiya fanining yutuqlari. Yangi usullar, ayniqsa 1940 yillardan keyin rivojlangan elektron mikroskop, radioaktiv izotoplarning qo'llanilishi, hujayrani o'rganish borasida katta yutuqlarga erishishga yordam berdi. Sitologiya borgan sari biologiyaning boshqa sohalari bilan yaqinlashmoqda.

Sitologik usullardan o'simliklar va hayvonlar selektsiyasida ular hujayrasining xromosoma tarkibini bilish, chatishtirish ishlari samarasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Odam hujayralari uchun ham bu usullar qo'llaniladi : xromosomalar shakli va soni o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan irlsiy kassaliklarni aniqlashda.

Sitologik usullar qo'llaniladigan eng muhim soha tibbiyotda – saraton (rak) kasalligini aniqlashdir. Chunki bu kasallik hujayra miqyosida vujudga kelib yadroda ro'y beradigan o'zgarishlar bilan bog'liqidir.



5-rasm. Hayvon va o'simlik hujayrasining tuzilishi

Sitologiya fani xal qiladigan asosiy muammolar

Hozirgi zamon biologiyasi hujayrani hayotning elementar formasi sifatida qabul qilgan. Demak, biologiyaning fundamental muammolariga sitologik nuqtai nazar bilan qarashni talab etadi. Bular quyidagilar:

1. Oqsil sintezi.

Halgacha odamzod uchun sir bo'lib kelayotgan bu jarayon hujayrada ro'y beradi. Faqatgina hujayraning maxsus strukturaviy va kimyoviy tuzilishi bu jarayonning borishini ta'minlaydi. Ana shu maxsus tuzilmalarning tabiatini o'rganish sitologiyaning asosiy vazifasi. O'zining falsafiy va tarixiy ahamiyatiga ko'ra bu muammo tabiatshunoslik bilimlari ichida birinchi o'rinda turadi.

2. Bioenergetika muammosi – hujayra noyob kuch stantsiyasiga ega bo'lgan biologik strukturadir.

3. Saraton(rak) hujayralarining yuzaga kelishi – sitogenetik muammo.

4. Irsiy xossalarning nasldan naslga uzatilish muammosi.

Bu muammoning hal bo'lishi bilan yuqorida sanab o'tilgan muammolar ham o'z yechimini topadi.

5. Organizmning tashqi muhitning noqulay sharoitlariga ko'nikish mexanizmlarini o'rganish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri (nurlanish, yuqori harorat, kimyoviy moddalar ta'siri)

Nazorat savollari:

1. Hujayra shakli va o'lchamlari.
2. Prokariot hujayra qanday tuzilgan?
3. Prokariot va eukariot hujayralarni solishtiring.
4. Hujayra biologiyasi fani oldida turgan qanday muammolar bor?

TEST SAVOLLARI

1. Prokariot nima?

- a) Shakllangan yadroga ega bo'lgan organizm
- b) Shakllanmagan yadroga ega bo'lgan organizm
- c) Shakllangan va shakllanmagan yadroga ega bo'lgan organizm

2. Eukariot organizm qanday organizm?

- a) Yadrosi bor va tirik organizmlarda uchraydigan organizm
- b) Bakteriyalarda uchraydi
- c) Viruslar eukariot organizm hsoblanadi

3. Plazmidalar nima?

- a) DNK ning xalqadan tashqari fragmentlari
- b) RNK ning xalqadan tashqari fragmentlari
- c) RNK va DNKnинг xalqadan tashqari fragmentlari

4. Bakteriyalarning plazmatik membranasi nimani hosil qiladi?

- a) Mitoxondriyani
- b) Xloroplastni
- c) Vakuolani

5. Haqiqiy yadro va organoidlar mavjud bo'lgan organizm qaysi?

- a) Eukariot
- b) Prokariot
- c) Virus

6. Hujayraning irsiy apparati nima?

- a) DNK
- b) RNK
- c) Oqsil

7. Mezosomalar mavjud emas bo'lgan organizmlar?

- a) Eukariot
- b) Prokariot
- c) Bakteriya

8. Sitoplazmatik membrana – nimalarni hosil qiladi?

- a) Mezasomani
- b) Mitoxondriyani
- c) Yadroni

9. sitoskelet mavjud

- a) Prokariot
- b) Eukariot
- c) Virus

10. Plasdilar necha xil bo'ladi?

- a) 3 xil
- b) 4 xil
- c) 2 xil


MA’RUZA 2. PLAZMATIK MEMBRANANING TUZILISHI VA VAZIFALARI

1. Membranalarning vazifalari
2. Plazmatik membrana strukturasini o‘rganilishini qisqacha ta’rifi.
3. Membrananing kimyoviy tarkibi
4. Membranoqsillarining tuzilishi va vazifalari
5. Membrana lipidlari

1. Membranalarning vazifalari¹

Uy yoki aftomobilning tashqi devorlari qattiq va egilmas materiallardan yasalgan. Tirik hujayrani tashqi chegarasi huddi shunday mustahkam materiallardan tuzilgan deb kutish mumkin edi. Lekin, hujayralar tashqi muxitdan yupqa va mo‘rt struktura bilan chegaralangan – bu 5-10 nm li plazmatik membranadir. Kitobning bir varog‘ining qalinligi 5 000 hujayra membranasiga teng keladi. 1950 yillargacha you’lik mikroskopda plazmatik membranani tuzilishini organib bo‘limas edi. Uni tuzilishi faqat elektron mikroskopda aniqlandi.

Ilk mikrosuratlar bo‘yicha Dj Robertson Dyuk Universitetidan plazmatik membrane 3 qatlamlı strukturada ya’ni tashqi va ichqi qorong‘i, o‘rta qatlami och ranga bo‘yalishini aniqlagan (4.1 rasm).




4.1 (a) rasm 3 qatlamlı membrana. Eritratsit membranasi o’smiy metal bilan bo‘ylagan strel-

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 85-88 p.

kalar membrananing ichki va tashqi tomonlarini ko'rsatadi.

4.1(b) rasm definisatsiyaga uchragan muskul hujayrasini tashqi tomoni. PM-plazmatik membrana va SR-sarkoplazmatik retikulum.

Membranalar – yadronikimi yoki sitoplazmidanmi, o'simlik va hayvon yoxud¹ mikroorganizmlardan olinganmi hammasi bir xil ultrastrukturaga ega. Bu elektron mikrosuratlar ko'p baxs munozaralariga sabab bo'lgan. Hujayra membranası bu – lipidli qatlama va oqsillardan iborat (4.2 rasm).



4.2 rasm O'simlik hujayrasidagi membranalrning vazifalari. (1) Gidrolaza kislotasi vokual membranası atrofida (2) CO₂ fermentni katalizatsiyalaydi. (3) Suv malekulası plazmatik membranadan tez o'tadi va hujayrani ichida bosim ko'tariladi. (4) Vadarod ioni hujayrani ichidan hujayralar aro bo'shliqqa o'tishi. (5) Membrana informatsiyani o'tkazishga misol (Transduksiya). (6) Plzmadesmalar misolida hujayralararo kanalchalar. (7) Energetik misol ADFni ATF ga o'tishi mitokondriyani cihki membranası bilan zich aloqada bo'lishligi.

Membranalarni vazifalari

1. Kompartimentalizatsiya. Membranalar uzilmas va hujayralarni bo'limlarga ajratadi. Plazmatik membrana butun hujayrani ajrata di, shuni o'zida yadroviy va sitoplazmatik membranalar hufayrani

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 89-92 p.

hajmini qismlarga ajratadi. **Kompartmentalizatsiya** hujayrani ichidagi iqtisoslashgan jarayonlarni kechishiga yo'l beradi.

2. Biokimyoviy faoliyatlar uchun kanal. Membranalarni o'zi bu hujayralarning alohida qismlari, membranalar hujayralardagi jarayonlarni amalga oshirishda asos hisoblanadi.

3. Tanlab o'tkazuvchanlikni ta'minlaydi. Membranalar hujayra ni ichida malekulalarni cheklanmas faoliyatiga yo'l bermaydi lekin shuni o'zida membranalar hujayrani har xil bo'limlari bilan aloqalarni ta'minlaydi. Hujayrani o'rab turadigan plazmalemma bino atri fidagi o'radya lekin uni ustida ko'prikchalar bor.

4. Transportni ta'minlash. Hujayrani membranasida moddalar bir tomonda ikkinchi tomonga o'tish hususiyatiga ega. Ko'p paytda malekulalar konsentratsiyasi kamroq bo'lgan joydan konsentratsiyasi ko'proq bo'lgan joyga o'tishi mumkin. Shuning uchun hujayrada shakarlar, aminokislatalrga o'xshagan kerakli moddalar to'planib turadi. Plozmolemmadan maxsus ionlar ham o'tishi mumkin. Bu nerv va muskul hujayralari uchun juda muxim hususiyat.


5. Tashqi ta'sirlarga javob. Plazmalemma ta'shqi ta'sirlarga javob berishda juda muxim ro'l o'ynaydi va bu signalni transduksiyasi deb ataladi.

6. Hujayralararo a'loqalarni ta'minlaydi. Har bir tirik hujayra ni tashqi chegarasini o'rab turadi va Ko'p xujayrali organizmlardagi plazmatik membrana hujayralararo a'loqani ta'minlaydi. Plazmatik membrana bir birini tanisji va signal uzatishini ta'minlaydi, materiallarni va axborotlarni o'z o'mida ushlab turadi shuningdek almashinishini ta'minlaydi. Shuningdek plazmatik membranadagi oqsillar hujayradan tashqari materiallar va hujayraichi sitoskleti orasidagi o'zarotas'sirga imkon berishi mumkin.

7. Energetik transduksiya. Membranalar energiyani bir turini ikkinchi turga o'kazishda katta rol o'ynaydi. Eng asosiy o'tadigan energiya fotosintez jarayonida kuzatiladi. Bunda quyosh energiyasi membrana a'loqali pigmentlar bilan yutiladi va kimyoviy energiyaga aylanadi. Kimyoviy energiya uglevodlarda saqlanadi. Membranalar kimyoviy energiyani uglevod va yog'lardan ATP ga o'tkazishda ham ishtirot etadi. Eukariotlarda bu o'tkazishlar xloroplast va mitokondriyalar membranasida joylashadi. Biz bu plazmalemmani tuzilishi haqida muxokama qilamiz lekin xuddi shu prinsplar hamma membranalar uchun hos.*[II page (120-122)]*

2. Plazmatik membrana strukturasining o‘rganilish tarixi¹.

Hujayrani tashqi chegara qavatining kimyoviy tabiatini to‘g‘risidagi birinchi g‘oyani 1890 yillarda Styurix Universitetidan Ernst Overton aniqladi. Overton to‘liqsiz eriydigan moddalar to‘liq eritadigan eritmalarga qaraganda to‘liqsiz eritadigan eritmalarda katta tayorgarlik bilan erishini va to‘liq eriydigan modda teskari² eruvchanlikka ega bo‘lishini bilardi. Overton modda hujayraga tashqi muhitdan kelar ekan avval hujayrani tashqi chegara qavati erishi kerakligini o‘ylab ko‘rdi. Overton tashqi chegara qavatini o‘tkazuvchanlik xususiyatini tekshirish uchun o‘simlikning ildiz tolachalariga erigan moddalarning keng spektrini saqlovchi yuzlab har xil eritmalarni qo‘llab ko‘radi. U yog‘da eriydigan eruvchi moddalarni ildiz tolasining hujayrasiga tezroq kirishuni aniqladi. U shunday hulosaga keldiki, hujayraning ichki chegara qavatini erish hususiyati yog‘ni o‘tishini tasdiqlaydi.



4.3 rasm. Bilipit qavatli Plazmatik membrana

Hujayra membranasida bilipitliy qatlam mavjudligi to‘g‘risidagi taklifni birinchi³ bo‘lib 1925 yilda ikki gollandiyalik olimlar E. Gorter va F. Grendel g‘oyani o‘rtaga qo‘yan. Bu tadqiqotchilar odamni qizil qon hujayralardan lipidni ajratishgan va qaysi maydonno egallashini aniqlashgan (4.3 a rasm). Sutemizuvchilarda qizil qon hujayralarda


¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 93-98 p.

² Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 99-102 p.

³ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 103-106 p.

yadrova organellalari bo‘lmaydi. Shuning uchun faqat plazmatik membranada lipid tuzilmalar bor. Shuning uchun ekstraktsiyaga uchragan lipidlar hammasi plazmallemalarda joylashgan. Olingan lipid maydoni kutilgandan ikki baravar ko‘proq bo‘lgan. Ya’ni 1.8 - 2.21 Gorter va Grendel shunga asoslanib hulosaga kelishganki ya’ni plazmallema bimolekulyar lipid qatlidan iborat (4.3 b rasm). Ular yana shunday fikrga kelishganki har bir molekulyar qatlarni qutib tomonlari bilan tashqariga qaragan. Bu termodinamik nuqtai nazardan bunday joylashish foydali (4.3 c rasm). Ularda hato fikr bo‘lsa ham asosiy fikr to‘g‘ri bo‘lgan – membrana bu bilipid qatlarni.

1935 yilda Xyu Davson va Djeym Daniyele bir fikrga kelishganki ya’ni bilipid qatlarni globulyar oqsillar qoplab turadi. 50 yillarda shu olimlar qayta madelni ko‘zdan kechirishgan va bilipid qatlarni orasida oqsil molekulalari joylashgan aytishgan. 1972 yilda Kaliforniya Universitetidan S. Djonatan Singer va Gart Nikolson membranani suyuq - mozayik modelini taklif qilishdi va bu membranbiologiyani “Markaziy dogmasi” sifatida 30 yildan ko‘proq vaqtidan beri xizmat qiladi. Bu madelda alohida lipid molekulalar membranani yassi qatlama joydan joyga o‘tishi mumkin(4.4 b rasm). Bu madelning eng asosiy jixati shuki¹ hujayra membranalari bu – dinamik strukturalar. Uning komponentlari faol va birga yig‘ilishi mumkin (4.4 c,d rasm).



4.4 rasm. Plazmatik membranning strukturasi

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 107-110 p.

3. Membrananing kimyoviy tarkibi¹

Membranalar bu lipid oqsilliy agregatlar va shu komponentlar nokavental bog'lamlar bilan bir biriga birikkan. Membranani asosida bimolekulyar lipidli qatlami membrane strukturasining asosi. Membrana oqsillari ko'p funksiyalarni o'ziga olgan strukturaning tarkibiy qismi. Lipid va oqsillarning nisbati har xil hujayralarda har xil bo'lishi mumkin. Masalan plazmalemma va golji aparati da membranasi, shunngdek bakteriya va o'simlik va hayvonlarda turlicha bo'ladi. Qoning qizil hujayralari bilan solishtirsa mitoxondriyaning ichki membranasida oqsillar ko'p. Mitoxondriyaning ichki membranasida oqsilli electron o'tkazuvchanlik zanjiri bor va bu joyda lipidlarni soni kamayadi. Nerv hujayralarini miyelen qobig'ida lipid qatlam qalin bo'ladi va oqsillar kamroq bo'ladi. Membranlalarda albatta uglevodlar ham bor ular yoki lipidga yoki oqsilga² birkkan bo'ladi (4.4 c rasm). Lipid bi qatlamni tabiatи va ahamiyati. Har bir hujayra membranalarini tipi faqat o'ziga hos bo'lgan lipidlardan iborat. Lipidlар membranadagi oqsillarga ham ta'sir ko'rsatadi. Membranalar bu doimo uzulmas va sinmas strukturalar. Lipidlarni bi qatlam bo'lgани учун membranalar kurtaklanib ko'payadi. Biqatlamni muxum xususiyatlaridan yana biri u o'z o'zini tiklashi mumkin. Bu jarayonni probirkalarda ham ko'rsatsa bo'ladi. *[1] page (125-127)*

Hujayra membranasi orqali moddalar harakati³


Ma'lum darajada plazmatik membrana ikki vazifaga hos bir tomondan u hujayrada erib turgan moddalarni saqlashi kerak boshqa tomondan plazmalemma modda almashinuvi jarayonini ta'minlashi kerak. Bunda membrana orqali harakatlanishning ikkita yo'li bor pasiv – diffuziya yoki aktiv bu jarayonga energiya kerak. Moddalar hujayradan chiqishi mumkin yoki hujayraga kirib borishi ham mumkin lekin ular ikkalsining biri ko'proq kuzatiladi. Qaysi modda hujayradan o'tgan bo'lsa o'shangasosalnib har xil jarayonlar kuzatiladi : Birin-

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 113 p.

² Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 114 p.

³ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 117 p.

chisi oddoy diffuziya lipid bi qatlamdan; Oddiy diffuziya suvli yoki oqsilli kanaldan; Oqsil yordamida obson o'tadigan diffuziya; va aktiv transport. Bunda oqsilli "nasos" bo'lishi shar va bu jarayon konsentratsiya gradiyentiga qarshi bo'radigan jaaryon (4.33).**rasm**.



MA'RUZA 3. SITOPLAZMA. HUJAYRANING VAKUOLYAR TIZIMI.

Reja:

1. Hujayraning tashqi apparati.
2. Hujayralararo aloqa.
3. Sitoplazma. Hujayraning vakulyar tizizmi.

Tayanch iboralar. Plazmatik membrana, gialoplazma, retseptor oqsillar, strukturaviy, transport oqsillar, lipidlar, uglevodlar.

Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: talabalarни hujayraning ichki borligi- sitoplazmaning tarkibi, vazifasi bilan tanishtirish.

Mashg‘ulot jihozlari: eukariot hujayraning tuzilishi tasviri, sitoplazma harakatini namoyish etuvchi videolavhani kompyuter orqali namoyish qilish.

1. Hujayraning tashqi apparati. Har qanday pro - va eukariot hujayraning asosi 3 qismdan tashkil topgan: tashqi apparat, sitoplazma, yadro apparati.Tashqi apparat hujayrani tashqi muhit va qo’shi hujayralar bilan aloqasini ta’minlaydi va 3 ta asosiy vazifani bajaradi: to’siq, transport (tashuvchi), reseptor (sezgirlik).

Hujayraning tashqi apparati 3 subtizimdan: plazmatik membrana, membranausti kompleksi va gialoplazmaning submembranali tayanch - harakat tizimidan iborat.

Plazmatik membrana – hamma hujayralar uchun universal bo‘lgan tuzilma. Plazmatik membrananing asosiy tashkil etuvchilari: oqsil (~60%) , lipid (~40%) va uglevodlar (~1%).

Membranalarning o’tkazuvchanlik xususiyatini o’rganishga bag‘ishlangan ilk ishlarda organik erituvchilar: spirt, efir, xloroform membrana orqali suvdan tezroq o’tishi kuzatilgan. Bu esa membrana qutbsizlikka ega yoki boshqacha qilib aytganda tarkibida lipidlar borligi taxmin qilingan. Keyinchalik bu taxmin kimyoviy tahlil natijasida isbotlandi. Ma’lum bo’ldiki, membrana tarkibi deyarli faqat oqsil va lipidlardan iborat ekan.

1925 yilda daniyalik biologlar E. Gorter va F. Grendellarning ishlari chop etilgan bo‘lib, ular plazmatik membranani bilipid qavatdan iboratligini va ular bir-biriga gidrofob uchlari bilan qaraganligini aytadilar.

1935 yilda Dauson va Danielilar membrana tuzilishining “sendvich” modelini taklif qiladilar. Unga asosan plazmalemma ikki qavat lipid molekulalaridan tashkil topgan bo‘lib ular bir-biriga gidrofob uchastkalari bilan qaragan bo‘lib, ularning tashqi gidrofill boshchalari yuzasi 2 tomondan oqsil molekulalari bilan o‘ralgan.


1959 yilda D.Robertson yig‘ilgan ma’lumotlarni to‘plab “elementar membrananing tuzilishi” farazini yaratadi va unda barcha biologik membranalar uchun umumiyligi bo‘lgan tuzilishni ta’riflaydi:

1. Hamma membranalar 7,5nm ga yaqin qalinlikka ega.
2. Elektron mikroskopda 3 qavatli tuzilishga ega.
3. Membrananing 3 qavatliligi lipid qatlami ikki tomondan oqsil qavati bilan o‘ralganligidan kelib chiqadi.

1972 yilda olimlar S.Singer va G.Nikolsonlar tomonidan membrana tuzilishining universal “suyuq mozaika modeli” taklif qilinadi. Bunda ham membrana ikki qavat suyuq lipidlardan tashkil topgan bo‘lib, lekin Dauson va Danielilarning “sendvich” modelidan farq qilib oqsil molekulalari lipid qavatining yuzasida emas ularning orasida joylashadi(6rasm).

Membrana tarkibiga kiruvchi oqsillar 3 guruhni: integral, yarim-integral va periferik oqsillarni tashkil etadi. Periferik oqsillar bilipid qatlaming yuzasida joylashib lipid molekulalarining uchlari bilan aloqada bo‘ladilar.Ular umuman membranani hosil qilishda ishtirok etmay, balki membranani membranausti va osti tuzilmalari bilan bog‘lab turadi.

Membranani hosil qilishda asosiy rolni globulyar tuzilishga ega bo‘lgan integral va yarim integral oqsillar o‘ynaydi. Integral oqsillar lipid qavatining ichida joylashib, ularning gidrofob uchlari lipidlarning gidrofob uchlari bilan bog‘lanadi. Yarim integral oqsillar lipid qavatiga qisman botib kiradi.



6-rasm. Plazmatik membran amozaikamodeliningko 'rinishi

Biologikahamiyatigako 'ramembrana oqsillarini 3 guruhga ajratish mumkin: fermentlar, retseptorlar, strukturaviyoqsillar.

Membrana tarkibiga kiruvchi fermentlarning turi hujayraning bajaradigan vazifasiga qarab o'zgarib turadi.

Retseptor oqsillari biror modda bilan birikib tanib olish vazifasini bajaradi. Masalan, gormonlarni, qo'shni hujayralarni tanib oladigan reseptorlar.

Strukturaviy oqsillar tabiatini oxirgacha o'rganilmagan bo'lib, taxmin qilinishicha ular membranani stabillashtirib turish vazifasini bajaradi.

Hujayra membranasida uchraydigan lipidlar asosan 3 guruhdan: fosfolipidlar, sfingomielinlar, steroidlar uchraydi.

Steroidlar guruhini tashkil qiluvchi lipidlar orasida membrana tarkibida xolesterin ko'p uchraydi. U juda muxim bo'lib membranining suyuqlik darajasini boshqarib turadi. O'simlik hujayralarida xolesterin o'rnnini fitosterin egallaydi. Hujayraning turli membranalari bir-biridan lipidlarining miqdori bilan ajralib turadi. Plazmatik membrana tarkibida ular 35-40% ni tashkil etsa, mitokondriyalar membranasida 27-29% ni, nerv hujayralarining miyelin qobiqida 80% ni tashkil etadi.

Membrananing uglevodlariga oqsil molekulalari bilan birikkan va glikoproteinlarni tashkil etgan guruh kiradi.

Plazmalemmaning vazifalari : 1) To'siq. 2) Transport (tashuvchi). 3) Retseptorlik (sezgirlik).

Qo'shimcha vazifalariga:

1) hujayra tashqarisidagi biopolimerlarni parchalashi;

- 2) hujayralararo aloqani ta'minlashda ishtirok etishi;
- 3) hayvon hujayralarida o'simtalarni: mikrotukcha, kiprikcha, xivchinlarni hosil qilishi;
- 4) hujayra bo'linishida ishtirok etishi kiradi.

Transport (tashuvchi) vazifasi. Plazmalemma yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning yuzasidan turli kattalikdagi molekulalar turli tezlikda harakat qiladi. Maksimal o'tuvchanlik xossasiga suv va unda erigan gazlar ega, ionlar esa nisbatan sekinlik bilan o'tadi. Masalan, agar hujayra tuzlar kontsentrasiyasi hujayradagi kontsentrasiyasiga nisbatan past eritmaga solinsa (gipotonik) suv hujayra ichiga kirib hujayra hajmi oshadi va u shishib yoriladi (gipotonik shok). Agar hujayra tuzlar konsentratsiyasi yuqori eritmaga solinsa hujayradagi suv tashqariga chiqib, hujayra burishib qoladi. Bu xodisa membrananing osmotik xususiyatiga asoslanadi.

Yarim o'tkazuvchi membranalar orqali suvning harakati osmos deyiladi.

Moddalarning bunday transporti passiv transport bo'lib, modda konsentrasiyasi gradienti bo'ylab, ya'ni kam tomonidan ko'p tomonga harakat qiladi. Lekin membranada modda konsentrasiyasiga qarshi transport ham mavjud bo'lib u aktiv transport deyiladi, chunki energiya sarfi - adenozintrifosfat (ATF) ishtiroki bilan boradi. Bu yo'l bilan membranadan organik molekulalar o'tadi.

Yirik molekulalar ko'pincha hujayraga kirishdan oldin monomerlargacha parchalarib, keyin aktiv transport orqali kiradilar. Lekin ba'zan membrana orqali yirik molekulalar ham endositoz yo'li orqali o'tib turadi. Endositozning ikki ko'rinishi mavjud: fagositoz, pinositoz.

Fagositoz hujayrani yirik molekulalarni qamrab olib yutishi. Bu hodisani birinchi bo'lib rossiyalik olim I.I.Mechnikov ta'riflagan. Pinositoz yaqingacha suv molekulalarining kirishi deb qaralgan, lekin aniqlanishicha uncha katta bo'limgan molekulalarning o'tishi ekan. ATF sarfi bilan boradi. Avval modda membrana yuzasida sorbsiyalnadi (qisman so'riladi), bunda ularni membrana yuzasida ushlab qolishda glikokaliks rol o'ynaydi, so'ng membrananing shu joyi botib kira boshlab oxirida membrana uchlari birikib modda ichkariga kiradi. Hujayra ichida pufakchalar bir-biri bilan qo'shilib yirik molekulalarni hosil qiladi, ularning atrofida gidrolaza fermentlari (lizoso-

mada) hosil bo‘lib hazm jarayonlari boshlanadi.

Pinositoz so‘rish jarayonlari boradigan hujayralarda ko‘p uchraydi. Masalan: ichak epiteliysi hujayralari pinositoz pufakchalariga boy bo‘ladi. O‘simlik hujayrasida fagositoz kuzatilmaydi, chunki o‘simlik hujayrasi yuzasidagi sellyuloza va pektindan iborat qattiq qobiq bunga to‘sinqilik qiladi. Pellikula qobiqi bilan o‘ralgan bir hujayrali organizmlarda fagositoz og‘zi atrofida bo‘ladi.

Plazmatik membrana hujayradan moddani chiqarishda ishtirok etadi – bu jarayon ekzositoz deb ataladi. Hujayra ichida moddalar vakuolalar bilan o‘ralib membranaga yaqinlashib tashqariga chiqariladi.

Plazmatik membrananing retseptorlik vazifasi uning ustida tanib olish xususiyatiga ega bo‘lgan tuzilmalar bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu larga membrana yuzasidagi periferik oqsillar va glikokaliks bo‘laklari kiradi. Hujayra retseptorlarining vazifasi signallarni tashqaridan ichkariga o‘tkazishdan iborat. Masalan: jigar hujayralari yuzasida gliko-proteiddan iborat 10 000ga yaqin insulin reseptori joylashadi. Gormon ana shu retseptorlarga ta’sir etib retseptorlar o‘z navbatida signalni hujayra ichiga o‘tkazadi va hujayrada bunga javoban fermentlar sintezlanadi.

Hujayralararo aloqalar. Plazmatik membrana hujayralararo aloqada faol ishtirok etadi. Bu aloqalar ko‘p hujayrali organizm hujayralari orasida sodir etadi. Embrional rivojlanish davrida hujayralar yuzasi bir-biri bilan yopishib birikadi. Bu birikish oddiy aloqa –adgeziya deyilib, bunda ikkita hujayra orasida 20 nm li bo‘shliq hosil bo‘lib u glikokaliks bilan to‘lib turadi. Voyaga yetgan organizmlarda epiteliy to‘qimasida uchraydi.

Qulfschali yoki ilmoqli aloqa bitta hujayraning plazmalemmasi ikkinchi hujayra plazmalemmasi ichiga botib kiradi. Fibroblastlar uchun xosdir.

Zich aloqa ikkita hujayraning membranalari bir-biriga maksimal yaqinlashgan bo‘lib ikkala hujayraning tashqi qavatlari o‘zaro qo‘shilib ketganday bo‘ladi. Aloqaning sitoplazma tomonida ko‘pgina fibrillalar joylashadi. Bunday aloqa faqatgina hujayralarning zich aloqasini ta’minlab qolmay balki shu joylarda hujayraga moddalar kirmaydi, ya’ni hujayra tashqi muhitdan izolyatsiyalanadi (ajratiladi). Bunday aloqa bir qavatli epiteliy hujayralari uchun xos(7rasm).

Bo'shliqli aloqa. Membranalar orasidagi bo'shliq 25-30nm ni tashkil etadi. Bo'shliqli aloqaning bir ko'rinishi desmosomalar.


Desmosomalar- zinch plastinkalar bo'lib, ulardan sitoplazmaga qarab fibrill tolalari o'tgan bo'ladi. Ikkita hujayraning plazmatik membranalarini orasi desmoglein moddasi bilan to'lgan bo'lib, u hujayralarni bir-biri bilan birikishini ta'minlaydi. Yurak mushaklari, qon tomirlari devori hujayralarida uchraydi.

Tirqishli aloqa. Membranalar orasidagi bo'shliq 2-3nm ni tashkil etadi. Membrana bo'ylab har 1-3 mkm da uchraydi. Ikkita membranaling bir-biriga yaqinlashgan joyida maxsus tuzilmalar yuzaga kelib ularning o'rtasida kanalchalari bo'ladi. Bu tuzilmalar konnektin oqsilidan iborat bo'lgani uchun konneksonlar deb, aloqaning o'zi esa neksus deb nom olgan. Ulardagi kanallar orqali bir hujayradan ikkinchisiga ionlar va quy'i molekulali moddalar harakat qiladi. Bunday aloqa yurak miokardi mushak hujayralarida ko'p uchraydi.


Sinaptik aloqa. Neyronlar orasida hosil bo'ladi, nerv impulslarini o'tkazish vazifasini bajaradi, nerv hujayralarining o'simtalari orasida yuzaga keladi. Membranalar orasidagi bo'shliq sinaptik bo'shliq deyiladi va 20-30 nm tashkil etadi. Hujayralarning biri presinaptik, impulsni qabul qiluvchisi postsinaptik deyiladi.

Plazmodesma. O'simlik hujayralarida uchraydi. Ingichka kanalchalar bo'lib 2ta hujayrani biriktirib turadi. Kanalchalar diametri 40-50 nm. Plazmodesmalar orqali bir hujayradan ikkinchisiga moddalar harakat qiladi.


Zich aloqa




Desmosoma



Neksus



Sinaps



7-rasm. Hujayralararo aloqa turlarining ko'rinishi.

Plazmatik membrananing o'sishi

Hujayra lar bo'linishidan so'ng yangi hujayralar o'sadi, hajmi ortadi va demak ularning membranasini ham kengayadi. Plazmalemmanning yuzasida doimiy ravishda lipid va oqsil molekulalarining yangilanib turishi kuzatiladi. Plazmatik membrana yangilanib turishi Golji apparati xisobiga amalga oshadi. Golji apparati hosil bo'lgan pufakchalar plazmatik membranaga kelib, bu yyerda bir-biri bilan qo'shilib yangi membranani hosil qiladi. Bu jarayon asosan plazmatik membrananing shikastlanishida ro'y beradi.

Lekin plazmatik membrana yangilanib turishi hujayraning hayot faoliyati davomida ham sodir bo'ladi. Hujayrada endoplazmatik to'rda sintezlangan maxsulotlar Golji apparatiga o'tib, bu yyerda konentratsiyalanadi va membranaga o'raladi. Bu moddalar hujayradan ekzositoz yo'l bilan chiqaraladi. Bunda vakuolalar plazmatik membranaga yaqinlashib ularning membranasini plazmatik membrana bilan qo'shiladi, vakuol ichidagi mahsulot esa tashqariga chiqariladi. Shu hisobiga plazmatik membrana sathi kattalashadi.

Ichkariga fagositoz yo'l bilan kirayotgan molekulalar hujayra yuzasiga kelib bu yyerda plazmatik membrana bilan o'ralib ichkariga kiradilar va natijada plazmatik membrana usti kattalashadi. Demak, plazmatik membrana yangilanib turishida asosiy vazifani Golji apparati bajaradi.

Yuqorida aytilib o'tilganlarni umumlashtirib, biologik membranarning quyidagi umumiy xususiyatlarini keltirish mumkin:

1. Hamma membranalarning umumiy qalinligi 5-10 nm ni tashkil etadi.
2. Membrana lipoproteinli tuzilma bo'lib, ba'zi oqsil va lipid molekulalariga tashqi tomondan uglevod komponentlari birikadi. Membrana tarkibidagi uglevodlar 2%-10%ni tashkil etadi.
3. Lipidlар ulardagi qutbli boshchalar va qutbsiz dumchalari yordamida biqatlamni hosil qilib joylashadi.
4. Membrana tarkibidagi oqsillar turli tabiatga ega bo'lib turli vazifani bajaradi.
5. Membrana yuzasidagi glikokaliks guruhi tanib olish xususiyatiga ega.
6. Membrananing tashqi va ichki tomonlari tarkibi va xususiyati

jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Gialoplazmaning submembranali tizimi. Hujayra tashqi apparatining submembrana tizimi faqat eukariotlarda bo'lib, unda 2 ta asosiy qism ajratiladi: hujayraning tayanch qisqarish tizimi va periferik (chekka) gialoplazma.

Tayanch-qisqarish tizimi - mikrofibrillalar, mikronaychalar va skeletli fibrillyar tuzilmalardan iborat. Fibrillyar tuzilmalar deyarli barcha eukariot hujayralarda uchrab, tayanch vazifasini bajaradi.

Mikrofibrillyar tuzilmalar tarkibiga aktin, miozin, aktinin, tropomiozin oqsillari kiradi. Bu oqsillar membrana ostida mikrofilamentlardan iborat to'rnii hosil qiladi.

Tayanch-qisqarish tizimining yana bir komponenti mikronaychalar. Ularni tarkibi 80% tubulin oqsilidan iborat. Mikrofibrillalar singari mikronaychalar o'zi yig'ilib va tarqalib turadigan tizim.

Mikrofibrillalar va mikronaychalar plazmatik membrana o'simtalarini mikrotukchalar, kiprikcha, xivchinlarni hosil qilishda ishtirok etadilar.

Hayvon hujayralari yuzasida ko'p uchraydigan o'simtalar mikrotukchalardir. Ular sitoplazmaning hosilalari bo'lib plazmatik membrana bilan o'ralgan bo'ladi. Qalinligi 100 nm. Ichak epiteliysining 1-ta hujayrasiga 3000 ta mikrotukcha to'g'ri keladi. Mikrotukchalar orasidagi plazmatik membrana qismlari zikh glikokaliks bilan to'lgan bo'lib shu joyda moddalar ichkariga so'rildi. Vazifikasi oxirgacha o'rganilmagan, asosan so'rish maydoni hajmini kattalashtiradi.

Plazmatik membrana o'simtalarining yana bir ko'rinishi kiprikcha va xivchin. Plazmatik membrana bilan o'ralgan bo'lib, asosida bazal tanachasi bo'lgan mikronaychalardan tuzilgan. Diametri 200 nm., uzunligi 200 mkm. Kiprikcha 1 ta bo'lsa xivchin deyiladi. Hayvon hujayralarida uchraydi, o'simliklarda erkak gametalarda hosil bo'ladi. Vazifikasi harakat.

Har bir kiprikchaning asosida bazal tanacha joylashib u hosil qilgan mikronaychalar kiprikchani ichini to'ldirib turadi. Har bir kiprikchani hosil qilishda 9 ta duplet periferik va 2 ta markaziy mikronaychalar ishtirok etadi (9×2) + 2. Dupletlarni markaziy mikronaychalar bilan dinein oqsilidan iborat tuzilma bog'lab turadi.

Bazal tanachani hosil qilishda 9 ta mikronaychalarining tripletlari ishtirok etadi (9×3) + 0.

Tashqi apparatning membranausti tuzilmalari

Bunga plazmatik membrana ustida joylashgan tuzilmalar kiradi. Bularidan biri glikokaliks bo'lib, hayvon hujayralarida yaxshi taraqqiy etgan, o'simlik hujayrasida kamroq uchraydi. Uning tarkibiga membrananing periferik oqsillari, glikolipidlar va glikoproteinlar kiradi. Glikokaliks tashqi muhit bilan aloqada bo'lgani uchun hujayra tashqi apparatning muhim resteptorlik vazifasini bajaradi. Glikokaliksning tuzilishi xar bir hujayra uchun muayyan bo'lib, takrorlanmaydi, shunga qarab hujayralar bir-birini tanib oladi. Ichak epiteliysi yuzasidagi mikrotukchalar orasida joylashgan glikokaliks hujayra usti hazm qilish jarayonida ishtirok etadi.

Hujayra tashqi apparatining membranausti tuzilmalariga shuningdek prokariot va o'simlik hujayralaridagi hujayra devori kiradi. Bu tuzilmalarning mahsuloti hujayraning o'zida sintezlanib plazmatik membrana yuzasiga chiqariladi. Bularning tuzilish prinsipi temirbetonga o'xshaydi-elastik asosga karkas tolalar kirib turadi. Tarkibi polisaxaridlardan iborat. Hujayra devori faqat himoya vazifasini bajarib qolmay, turgor holatni saqlaydi.

Hayvon hujayrasi organizmdan ajratib olinib suvga solib qo'yilsa biroz vaqt dan so'ng hujayra shishib yoriladi, chunki plazmatik membrana orqali ichiga suv kiradi. Organizm ichida bu xodisa ro'y bermaydi, chunki u yyerda hujayralararo suyuqlikdagi tuzlar kontsentratsiyasi hujayra ichidagi kontsentratsiyasiga yaqin.

Chuchuk suv havzalarida erkin yashovchi bir hujayrali organizmlar ham lizislansmaydi (parchalanmaydi). Chunki doimiy ravishda hujayra nasosi - qisqaruvchi vakuol ishlaydi. Izotonik muhitda yashovchi dengiz sodda hayvonlarida qisqaruvchi vakuol yo'q .

Agarda suvga bakteriya yoki o'simlik hujayrasi joylashtirilsa, uning hujayra devori butun bo'lsa u lizislansmaydi. Agar maxsus fermentlar ta'sir ettirib hujayra devori eritilsa shu vaqtning o'zida hujayra shishib yoriladi. Demak, hujayra devori hujayra ichiga ortiqcha suv kirishidan saqlar ekan. Hujayra ichiga suv kirgan mahalda hujayra devori taranglashib turgor holat yuzaga keladi va ortiqcha suv kirishiga to'sqinlik qiladi.

O'simliklarning hujayra devori ikki komponentdan tuzilgan:

1. Amorf gelsimon matriksi- polisaxaridlar bo'lmish gemiselly-

uloza va pektindan;

2. Tolasimon komponent -sellyuloza tolalaridan iborat.

Matriksi 60% ni sellyuloza tolalari esa 30%ni tashkil etadi. Paxta tolasida sellyuloza 90% gacha bo‘ladi. Undan tashqari hujayra devori tarkibida boshqa moddalar ham uchraydi: lignin- yog‘ochlanishga olib keladi;, suberin – po‘kak hosil qiladi; mum va kutin moddasi -himoya vazifasini bajaradi va suv bug‘latishdan saqlaydi.

O‘simlik hujayra devorining hosil bo‘lishi

Matriksning amorf moddasi-pektin va gemisellyuloza Golji apparatida sintezlanib plazmatik membrana orqali ekzositozlanadi. Sellyuloza tolalari plazmatik membranada joylashgan maxsus fermentlar yordamida sintezlanadi. Birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi hujayra devori farqlanadi.

Hujayra bo‘linishida xromosomalar ekvator tekisligida joylashgandan keyin mayda membranali pufakchalar hosil bo‘lib hujayra markazida to‘planadi. Ular bir-biri bilan hujayra markazidan boshlab chekkalariga tomon qo‘sila borib plazmatik membranagacha yetadilar. Shu tariqa hujayra plastinkasi hosil bo‘ladi. Hujayra plastinkasing markazi pufakchalar tarkibidagi amorf modda bilan to‘ladi. Pufakchalarning kelib chiqishi Golji apparati bilan bog‘liq. Plastinkaning chekkalarida sellyuloza tolalari to‘planadi. Shunday qilib, o‘sayotgan hujayra plastinkasi uch qavatdan: markazi o‘rtalik plastinkadan (amorf modda), va ikkita periferik birlamchi qobiq (gemisellyuloza va sellyuloza). Plastinkani hosil qilishda bo‘linayotgan hujayra ishtirok etsa, birlamchi devor yangi qiz hujayralar faoliyatidan hosil bo‘ladi.

Hujayradan tashqarida plazmatik membrana ustida fermentlar ishtirokida sellyuloza fibrillari sintezlanadi, shu tariqa ikkilamchi qobiq shakllanadi. Keyinchalik gemisellyuloza moddasining o‘rnini lignin egallab yog‘ochlanish boshlanadi. Uchlamchi qobiq sitoplazma periferik qismlarining qurib degeneratsiyaga uchrashi natijasida hosil bo‘ladi.

Zamburug‘ hujayrasining tashqi yuzasi tolasimon tuzilishga ega bo‘lgan xitin moddasi bilan qoplangan. Undan tashqari zamburug‘ hujayra devori tarkibiga sitoplazmada sintezlangan va hujayradan tashqariga chiqarilgan glikoproteidlар va turli oqsillar kiradi.

Bakteriya hujayralarining tashqi yuzasi polimer modda murein-dan iborat. Bularni hosil qiluvchilar ham hujayra ichida sintezlanib hujayra tashqarisida shakllanadi.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, eukariot va prokariot hujayralar tashqi yuzasida hosil bo‘ladigan tuzilmalar kimyoviy tuzilishi va vazifasi jihatidan bir-biriga yaqindir: ularning tarkibi asosan polisaxaridlar, ular hujayraning faoliyati natijasida hosil bo‘lib, ularning tashqariga chiqarilishida membrananing tuzilmalari ishtirot etadi. Bu belgilar glikokaliks, o‘simlik va bakteriya hujayralaridagi hujayra devori kabi tuzilmalarini yaqinlashtiradi, bularning vazifasi ham bir xil: hujayra atrofida maxsus muhitni hosil qilish, yuzasida turli fermentlar joylashadi, retseptorlik vazifasini bajaradi. Lekin, hayvon hujayrasidan farq qilib, o‘simlik va bakteriya hujayra devori qo‘sishma ravishda osmoregulyatorlik vazifasini bajaradi.

Hujayra ichidagi plazmatik membrana bilan o‘ralgan borliq protoplazmadir. Hujayrani o‘rganish tarixida ko‘proq e’tibor hujayra qobiqiga qaratilgan. Lekin 1835 yilda F. Dyujarden bir hujayrali organizmlar ichidagi suyuqlikni o‘rganib unga sarkoda ya’ni go‘shtga o‘xhash deb nom beradi. Uning fikricha bu suyuqlik tiriklikning hamma xossasini namoyon qiladi. M.Shleyden ham 1838 yilda o‘simlik hujayrasidagi suyuqlikni o‘simlik shilimshig‘i deb ataydi. Sakkiz yildan so‘ng G.fon Mol protoplazma terminini ishlatadi. Undan oldin bu atama 1840 yilda Ya.Purkinye tomonidan ishlatilgan bo‘lib, u hayvon embrioni rivojlanadigan substansiyaga shunday nom beradi.

Lekin protoplazma kimyoviy tarkibi, funksional holati jihatidan bir xil emasligi ma’lum bo‘lgandan keyin oxirgi yillarda shu atama ishlatilmaydi. Hozirda hujayraning asosiy tashkil etuvchilari: yadro, sitoplazma va organoidlardir.

Hujayra ichi butun borlig‘i yadrodan tashqari sitoplazmadir. Ya’ni hujayra ikki komponentdan sitoplazma va yadrodan tarkib topgan. Sitoplazma atamasini fanga Z.Strastburger 1882 yilda kiritgan. Sitoplazma: gialoplazmadan, membranalni (vakuolyar tizim organoidlari, mitoxondriya, plastida) va membranasiz komponentlardan (sentriola, ribosoma, mikronaycha, mikrofilamentlar) va kiritmalardan iborat.

Gialoplazma – (*hyaline - shaffof*) sitoplazmaning asosiy matriksi bo‘lib, hujayraning ichki muhitini belgilaydi. Elektron mikroskopda

gomogen tuzilishga ega bo‘lgan kolloid sistema. Tarkibi turli polimerlardan: oqsil, nuklein kislotalar va polisaxaridlardan iborat. Suyuq holatdan gel holatiga o‘tib turish xossasiga ega. Bunday o‘tib yurishlar aktin oqsili ishtirokida boradi. O‘zgarish hujayraning turli joyida amalga oshgani uchun sitoplazmaning harakati kuzatiladi. Turli hujayraning hayot tarzi o‘zgarib turishi bilan gialoplazmada oqsil molekulalarining turli fibrillyar ipsimon tuzilmalari hosil bo‘lib turadi. Gialoplazmada shuningdek, turli globulyar oqsillar va fermentlar uchraydi. Ular hujayradagi barcha oqsillarning 25% tashkil etadi. Oqsillarning katta qismi globulyar oqsillar, qolgani fibrillyar. Fibrillyar oqsillarga aylanuvchi globulyar oqsillar - strukturaviy oqsillar deyiladi.

Anorganik moddalardan gialoplazmada ko‘p miqdorda suv uchraydi (~80%), shuningdek, qolgan anorganik moddalar tuzlar ko‘rinishida yoki aminokislotalar, uglevod, oqsillar bilan bog‘langan holda uchraydi.

Eukariot hujayralar tarkibidagi filamentlar va mikronaychalar yig‘indisi hujayraning tayanch-harakat tizimini ya’ni sitoskeletini tashkil etadi. Sitoskelet hujayra shaklining o‘zgarishi va hujayra ichidagi tuzilmalarning harakatini ta’minlaydi. Sitoplazmada hujayra metabolizmining hamma jarayonlari amalga oshadi, nuklein kislotalar sintezidan tashqari. Bu jarayon yadroda amalga oshadi.

Plazmatik membrana orqali sitoplazma tashqi muhit bilan modda almashinadi, yadro membranasi orqali yadro va sitoplazma o‘rtasida moddalar almashinushi jarayoni sodir bo‘ladi. Yadro nazorati ostida sitoplazma o‘sish, qayta tiklanish xususiyatiga egadir.

Sitoplazma uzoq avtonom hayot kechirish xossasiga ega emas – yadrosiz hujayralarda u degeneratsiyaga (nobud bo‘ladi) uchraydi.

Hayvon hujayralarida sitoplazmaning ikki qavati farqlanadi: tashqi — **ektoplazma** (granulalar va organoidlardan holis bo‘lgan qism, plazmatik membrana ostida joylashib tutam mikrofilamentlarga ega) va ichki — **endoplazma** (turli organoidlarga va granulalarga ega bo‘lgan qism). O’simlik hujayrasi sitoplazmasida maxsus organoidlar – plastidalar bo‘lib, Golji apparati esa yoyilib ketgan alohida diktiosomalardan tashkil topgan. Sitoplazmaning hajmi hamma hujayralarda turlicha: limfositlarda yadro hajmiga teng, jigar hujayralarida hujayra hajmining ~94% ni tashkil etadi.

Sitozol-sitoplazmaning bir qismi bo‘lib, membranali organoidlar orasidagi bo‘shliqda joylashadi. Uning hajmi hujayra umumiy hajmining 50%ni tashkil etadi. Sitozol tarkibida oraliq almashinuv fermentlari va ribosomalar uchraydi. Ribosomalarda sintezlangan oqsillarning deyarli yarmisi sitozolda uning doimiy komponenti sisfatida qoladi. Sitozol biomolekulalar to‘planadigan joy bo‘lib, shuningdek bu yyerda turli metabolik jarayonlar, jumladan glikoliz, yog‘ kislotalari, aminokislotalar, nukleotidlardan sintezi sodir bo‘ladi.

Sitoplazmaning va aynan gialoplazmaning asosiy vazifasi: hujayra ichidagi tuzilmalarni o‘zaro birlashtirib, ular orasidagi kimyoviy munosabatlarni belgilab berishdir. Gialoplazma orqali ko‘pgina hujayra ichi transport jarayonlari amalga oshadi: aminokislotalar, nukleotidlardan, yog‘ kislotalari tashiladi. Gialoplazmada doimiy ravishda plazmatik membrana va undan hujayra organoidlariga yo‘nalgan ionlar oqimi amalga oshadi. Gialoplazma ATP molekulalari to‘planadigan va harakat qiladigan joy. Gialoplazmada turli mahsulotlarning, masalan glikogen, yog‘ tomchilarining to‘planishi kuzatiladi. Gialoplazma turli fermentlarga ega bo‘lib ular glikoliz, aminokislotalarning oqsili sintezidagi faollashishi, reaksiyalarini katalizlashda ishtirop etadi.

Sitoplazma harakati

Hamma tirik hujayralar uchun ichki borliqining harakatlanib turishi xosdir. Masalan: sodda organizmlar yolg‘on oyoqchalar - psevdopodiyalarni va plazmatik xivchinlar hosil qilib harakatlanadi. Bu harakat sitoplazmaning harakati natijasida yuzaga keladi.

Qattiq qobiqli harakatsiz hujayralarda katta molekulalar sintezlanayotgan joyga qurilish materialini tashish va hosil bo‘lgan mahsulotni hujayraning boshqa yerlariga olib o‘tish bilan bog‘liq. Ya’ni bunday hujayralarda sitoplazmaning harakati hujayra ichi transporti bilan bog‘liq.

Hujayralarda sitoplazmaning harakati birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi.

Biramchi harakat shikastlanmagan sog‘lom hujayralarda: chang naychalari, ildiz tukchalarida kuzatiladi.

Ikkilamchi harakat xarorat yoki yorug‘lik o‘zgarishida, hujayralar shikastlanganda kuzatiladi.

Harakat butun hujayrada bir xil tezlikda amalga oshmaydi. Plazmatik membranaga yaqin joylari quyuq bo‘lgani uchun sekin harakatlanadi.

O‘simlik hujayralari uchun sitoplazma harakatining quyidagi turлари xos:

1. To‘lqinsimon harakat. Sitoplazmaning ichki qatlamlari (endoplazma) bir yo‘nalishda sekin harakatlnib uning harakati ektoplazmani harakatlantiradi.

2. Sirkulyar yoki oqimli harakat. Vakuolasi yirik bo‘lgan hujayralarda sitoplazma hujayra devori bo‘ylab joylashib ingichka, o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib turuvchi oqimlarni hosil qiladi.

3. Rotasion harakat faqat hujayraning periferik qismida joylashgan sitoplazma aylanma harakat qiladi.

Sitoplazmaning membranali tuzilmalari aloxida yoki bir-biri bilan bog‘langan bo‘laklardan iborat bo‘lib ichidagi borlig‘i asosiy gialoplazmadan tarkibi jihatidan tubdan farq qilib membrana bilan chegaralangan bo‘ladi. Hujayraning membranali tizimi yopiq hajmli zonalardan (kompartment-kupe) iborat bo‘lib ikki guruhni tashkil etadi:

1. Vakuolyar tizim organoidlari – endoplazmatik to‘r, Golji apparati, lizosoma, peroksisoma, o‘simlik vakuolalari–bular bir membranali organoidlar.

2.Ikki membranali organoidlar: bular yopiq va bir-biri bilan qo‘silmaydigan tashqi va ichki membranalarga ega – plastidalar, mitoxondriya va yadro. Vakuolyar tizimga kiruvchi organoidlar turli vazifani bajarishiga qaramay ularning faoliyati bir-birini to‘ldirib bir butun tizim hosil qilishga qaratilgan.

Endoplazmatik to‘r. Bu organoidni kashf etilishi elektron mikroskopiya davrining rivojlanishiga to‘g‘ri keldi. 1945 yilda K.Porter (AQSh) o‘z shogirdlari bilan fibroblast hujayralarini maxsus bo‘yoqlar bilan bo‘yab elektron mikroskop ostida qaraganda sitoplazmaning ektoplazma qismi och bo‘yalib endoplazma qismi to‘q bo‘yalganligiga e’tibor beradi. To‘q bo‘yalgan qismida mikroskop ostida ko‘p sonli mayda vakuolalar, kanalchalar yig‘indisi to‘rga o‘xshash (retikulum) tuzilmani hosil qilganligini ko‘rinadi. Bu vakuola va kanallarning devori yupqa membranadan iboratligi ko‘rinadi. Shu tarzda endoplazmatik retikulum yoki to‘r kashf qilinadi. Uning bunday nomlan-

ishiga birinchi marta endoplazmada topilganligi sabab bo‘lgan. Keyinchalik sitoplazmaning turli uchastkalarida topishgan, lekin nomi qolgan. Uning topilishigacha sitoplazmaga tirik dinamik tuzilmasiz tizim sifatida qaralgan.

Elektron mikroskopiya usuli bilan edoplazmatik to‘rning 2turi aniqlandi: donador (granulyar), va silliq (agranulyar).

Donador endoplazmatik to‘r ingichka kanallar, sisternalar, xaltachalardan iborat bo‘lib uzulmas (yopiq) membrana bilan chegaralangan. Sisternalar kengligi 20nmni tashkil etadi. Membranalar yuzasi mayda 20nm tuzilmalar bilan qoplangan bo‘lib, bu tuzilmalarni birinchi marta J. Palade (Palade granulalari) ta’riflagan va ular ribonukleoproteidlardan tuzilganligini aytadi. Endoplazmatik to‘rning tuzilmasi va vazifalarini o‘rgangani uchun u 1974 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi. Hozirda bu tuzilmalar endoplazmatik to‘r membranalari bilan bog‘langan ribosomalar ekanligi ma’lum. Bu yerdagi ribosomalar polisomalar ko‘rinishida joylashadi(8 rasm).

Hujayralarda endoplazmatik to‘rning ikki xil ko‘rinishi - siyrak joylashgan membranalar yoki bir tutam membranalar yig‘indisi – ergastoplazma uchraydi. Birinchi ko‘rinishi metabolik jarayonlari sust boradigan hujayralar uchun xos bo‘lsa, ergastoplazma faol sintezlovchi hujayralar uchun xosdir. Masalan: jigar yoki nerv hujayralarida siyrak joylashgan membranalardan iborat bo‘lsa, oshqozonosti bezi hujayralarida endoplazmatik to‘r zinch joylashgan(8rasm).

Membranalari yuzasida polisomalarning joylashganligi uning oqsil sintezida ishtirok etishidan dalolat beradi. Endoplazmatik to‘r elementlarida hujayraning bir qism oqsillari sintezlanadi.

Olimlar shu narsaga e’tibor berishganki, aktiv o‘suvchi, ko‘payuvchi, faol oqsil sintezlovchi hujayralar bazofil sitoplazmaga ega (asosiy bo‘yoqlarni qabul qiluvchi) sitoplazmaning bunday bazofiliyasi RNK ko‘p bo‘lishi bilan boqliq. Shuni aytib o‘tish kerakki, hujayra RNKsining asosiy miqdori ribosomal RNKdir. Demak sitoplazmaning bazofil qismi ribosomalarga boy bo‘lib ularda faol oqsil sintezi boradi. Ribosomalarning joylashish tartibi hamma hujayralarda turlicha. Masalan: embrional, regeniratsiyalanuvchi, shish ya’ni bo‘linuvchi hujayralarda ribosomalar endoplazmatik to‘r bilan kam miqdorda bog‘lanadi. Ularning asosiy soni gialoplazmada polisomalar ko‘rinishida joylashadi.

Bo‘linish qobiliyatini yo‘qotgan, yuksak darajada takomillashgan, faol oqsil sintezlaydigan hujayralar (oshqozonosti bezi) gialoplazmasida erkin ribosomalar kam uchraydi , ularning asosiy qismi endoplazmatik to‘r membranalariga birikkan bo‘ladi.

Bu kuzatuvlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, gialoplazmadagi polisomalar ko‘rinishidagi ribosomalarda hujayraning o‘z hayot faoliyati uchun kerak bo‘lgan oqsillarni sintezlanadi. Endoplazmatik to‘r bilan bog‘langan ribosomalarda hujayradan tashqariga chiqariladigan “eksport” oqillari sintezlanadi. Masalan: oshqozonosti bezi hujayralari ovqat hazm qilishda ishtirok etadigan oqsil-fermentlarni lipaza, nukleaza kabilarni sintezlab chiqaradi, jigar hujayralarida qon albumini, so‘lak bezida amilaza sintezlanadi.

O‘simlik hujayralarida ham bu narsa kuzatiladi. Oqsilli mahsulotni ishlab chiqaruvchi bezli hujayralar ergastoplazmaga boy.

Boshqacha qilib aytganda, ko‘p hujayrali organizmlarda ergastoplazmaga boy hujayralarda hujayradan chiqariladigan va boshqa hujayralar faoliyati yoki umuman organizm uchun kerak bo‘lgan oqsillar sintezlanadi.

Bir hujayraliklarda ham eksport oqsillari ishlab chiqaruvchi donador endoplazmatik to‘rni ko‘rish mumkin.Ular orasida hujayradan tashqarida ro‘y beradigan hazm jarayonlarida ishtirok etadigan oqsili va glikokaliks oqsillari mavjud.

Undan tashqari donador endoplazmatik to‘r hujayra ichi hazm jarayonlarida ishtirok etuvchi oqsil-fermentlar sintezida ishtirok etib, bu fermentlar fagositar yoki pinositar vakuolga tushib makromolekulalarni parchalaydi.

Donador endoplazmatik to‘r membranalarida sintezlangan oqsillar hujayraning o‘zi uchun kerakmas bo‘lib, xatto zararlidir. Ovqat hazm qilish bezlarida ko‘p miqdorda gidrolitik fermentlar sintezlanadi. Bu fermentlar gialoplazmaga chiqsa hujayra avtolizga (o‘z-o‘zini eritishga) uchraydi. Lekin bu xol ro‘y bermaydi, chunki sintezlangan mahsulot granulyar endoplazmatik to‘r membranalardan oraliq endoplazmatik to‘r vakuola bo‘shliqlariga o‘tadi va gialoplazmadan izolyatsiyalanadi (ajratiladi). Bunday oqsillarning to‘planishi yopiq membranalar ichida ro‘y beradi. Oraliq endoplazmatik to‘r, granulyar va silliq endoplazmatik to‘rlar orasida joylashib uning yuzasida ribosomalari bo‘lmaydi.

Demak, oraliq endoplazmatik to'r sintezlangan oqsillarni hujayraning boshqa tuzilmalaridan izolyatsiyalashda (alohidalashda) ishtirok etadi. Oraliq endoplazmatik to'rdan bu oqsillar Golji apparati membranalariga o'tib hujayradan chiqariladi. Oraliq endoplazmatik to'r bu oqsillarni kanallar va vakuolalar bo'ylab tashiydi, bu jarayon ATP sarfi bilan boradi.


Undan tashqari donador endoplazmatik to'r kanalchalari va vakuolalari ichida sintezlanagan oqsilning konsentrasiyalanishi, ya'ni yirik sekret granulalariga aylanishi kuzatiladi.

Umumlashtirib aytganda, donador endoplazmatik to'r vazifasi membralalari yuzasida joylashgan polisomalari ishtirokida eksport oqsillarini sintezlash, ularni hujayraning boshqa tuzilmalaridan membrana bo'shlqlari ichida izolyatsiyalash-ajratish, bu oqsillarni hujayraning boshqa kompartmentlariga tashish va ularning kimyoviy modifikatsiyasida (o'zgarishida) ishtirok etish.

Prokariotlarda endoplazmatik to'r tizimi yo'q, lekin ko'pgina bakteriya hujayralari tashqi muhitga plazmatik membrana yuzasidagi makromolekulalarni parchalashda ishtirok etadigan ekzofermentlar ishlab chiqaradilar. Bakteriya hujayrasidagi ribosomalarning bir qismi plazmatik membrana bilan bog'langan. Taxmin qilinishicha bu ribosomalarda eksport oqsillari sintezlanadi. Sitoplazmadagi erkin ribosomalarda esa hujayra ichidagi metabolik jarayonlar uchun kerakli oqsillar sintezlanadi.

Silliq (agranulyar) endoplazmatik to'r - retikulyar membranalar tizimidan iborat bo'lib alohida tuzilma deb qaralmaydi. U ham vakuolalar kanalchalar va naychalar hosil qiladigan membranalar to'plamidan iborat va bir-biri bilan qo'shilishi mumkin. Yuzasida ribosomalari yo'q. Kanalchalar kengligi 50-100 nm, odatda zonalar hosil qilib joylashadi. Masalan, ichak epiteliysi hujayralarida hujayraning apikal (yuqorigi) qismida, so'rish yuzasiga yaqin, jigar hujayralarida glikogen to'planadigan joyda bo'ladi.

Donador endoplazmatik to'r sisternalari yuzasidagi ribosomalarni yo'qtib silliq endoplazmatik to'rga aylanadi. Golji apparati donador endoplazmatik to'rga nisbatan ikki lamchi hisoblanadi.



8- rasm. Endoplazmatik to‘rning(EPT) ko‘rinishi.

Ikkala endoplazmatik to‘r morfologik jihatdan o‘xshash bo‘lsada funksional jihatdan farq qiladi. Silliq endoplazmatik to‘rning faoliyi lipidlar va polisaxaridlar metabolizmi bilan bog‘liq. Masalan, jigar hujayralarda Golji apparati atrofida silliq endoplazmatik to‘r bo‘shliqlarida yog‘ tomchilarini ko‘rish mumkin. Agar kalamushlarga yog‘ tomchilarini to‘planishiga olib keladigan moddalar berilsa birinchi yog‘ tomchilari silliq endoplazmatik to‘r bo‘shliqlarida ko‘rinadi.

Silliq endoplazmatik to‘rda ayniqsa steroidlar sintezlanadigan hujayralarda, jigar hujayralarda va mushak tolalarida glikogen tuzplanadi. Jigarda silliq endoplazmitik to‘r zonasi kattalashib ketishi patologik jarayon bilan bog‘liq. Turli kimyoviy moddalar, kanserogenlar, zaxarli moddalar, gormonal preparatlar ta’sirida hujayralar o‘zining bazofil sitoplazmasini yo‘qotib ularda RNK miqdori kamayadi va silliq endoplazmitik to‘r miqdori ko‘payadi. Jigar hujayralari silliq endoplazmatik to‘r yordamida bu moddalarning salbiy ta’siriga qarshi kurashadi.

Ko‘ndalang targ‘il muskullarda silliq endoplazmitik to‘r vakuo-lari va kanallari (sarkoplazmatik retikulum) har bir miofibrillni o‘rab turadi. Bu yyerda silliq endoplazmitik to‘r kalsiy ionlarini to‘plashi natijasida mushak tolasi bo‘shashadi.

O'simliklarda silliq endoplazmitik to'r steroid, lipidlar sintezida ishtirok etuvchi hujayralarda uchraydi.

Hujayra membranalarining sintezi. Endoplazmitik to'rning muhim xususiyati hujayra membranalarining hosil qilishda ishtirok etishidir. Endoplazmatik to'r elementlari hamma hujayra oqsillarini, membrana lipid qavati moddalarini sintezlaydi va membrananing lipoproteid tuzilmasini teradi. Endoplazmatik to'rda Golji apparati, sekretor vakuolalar, integral oqsillarni sintezlanadi.

Golji apparati

Yuqorida aytib o'tilganidek hujayrada hosil bo'lgan ko'pgina moddalarning tashqariga chiqarilishida hujayraning yana bir tuzilmasi Golji apparati bajaradi.

1898 yilda italiyalik olim Kamilio Golji (1844-1926) mushukni nerv hujayralarda to'rsimon tuzilmalarni ko'rib ularga ichki to'rsimon apparat deb nom beradi. Keyinchalik sitologik usullarning rivojlanishi bilan bu tuzilma barcha hayvon hujayralarda topilgan va olimning nomi bilan atala boshlangan. O'simlik hujayralarda Golji apparati 1957 yilda Byuva va Porterlar tomonidan topilgan. O'simlik hujayrasida alohida joylashgan diktiosomalardan iborat.

Golji apparatining ikki xil strukturaviy holati mavjud: to'rsimon va o'simlik hujayralari uchun xos bo'lgan alohida tuzilmalardan iborat - diffuz shakli. Elektron mikroskop yordamida Golji apparati uch xil bo'limlardan tuzilganligi aniqlandi:

1. Sis bo'lim - silliq membrana bilan o'ralgan va yadro yaqinida joylashgan sisternalardan iborat. Ularda tranzit oqsillar fosforlanib medial bo'limga o'tadi. Bu yerda doimiy ravishda sisternachalar yangilanib turadi. Ular silliq endoplazmatik to'rdan hosil bo'ladi.

2. Medial bo'lim sisternachalari uchlarida joylashgan mayda pufakchalardan iborat bo'lib tranzit oqsillari o'zgarishlarga uchrab trans bo'limga o'tadi.


3. Trans bo'lim - kengaygan sisternalar va ularning markaziy qismida joylashgan vakuolalardan iborat bo'lib plazmatik membranga yaqin joylashgan(9rasm).

Golji apparatida ikki zona ajratiladi: proksimal va distal.

Proksimal qism turli sekret jarayonlari borayotgan hujayralarda

sitoplazma va yadroga, distal qism hujayra tashqarisiga qaragan bo‘ladi.

Proksimal qimsda mayda pufakchalar va kalta sisternalar joylashib bu joy endoplazmatik to‘rdan Golji apparatiga o‘tish joyi hisoblanadi. Distal qism yirik vakuolalarga ega bo‘lib ularning ichi sekretsiya mahsulotiga to‘lgan.



9-rasm. Golji apparati. 1. Shoxlanib ketgan kanalchalar; 2. Sisternalar; 3. Medial bo‘limning kanallari; 4. Trans bo‘limning kengaygan sisternalari.

Golji apparati vazifalari. Golji apparatining membranalni pufakchalar endoplazmatik to‘rda sintezlangan mahsulotni to‘plash, kimyoviy o‘zgarishi va yetilishida ishtirok etadi. Golji apparati tsisternalarida polisaxaridlar va mukoproteidlar sintezi kechadi va eng muhim Golji apparati ishtirokida sekret mahsulotlari hujayradan tashqariga chiqariladi.

Endoplazmatik to‘rdagi ribosomalarda sintezlangan eksport oqsili endoplazmatik to‘r sisternalarida to‘planadi va Golji apparati membranalari zonasiga tashiladi. Bu yyerda endoplazmatik to‘rdan oqsilga to‘lgan mayda vakuolalar ajralib, Golji apparatining proksimal qismidagi vakuolalar zonasiga kiradi. Bu yyerda vakuolalar bir-biri bilan va sisternalar bilan qo‘shiladi va shu tarzda to‘planadi. Shundan so‘ng to‘plangan oqsil sekretor granulalarga aylanishi yoki suyuq holda qolishi mumkin. Keyin Golji apparati sisternalaridan oqsilli vakuolalar ajralib bir-biri bilan qo‘shib yiriklashadi. Bu vakuolalar plazmatik membrana tomon harakatlanib ularning membranasi

plazmatik membrana bilan qo'shiladi va vakuolar ichi mahsulotini hujayradan chiqariladi. Bu jarayon pinositozga teskari bo'lgan ekzozitozdir. Donador endoplazmatik to'rda sintezlangan eksport oqsillari, masalan hazm qilish fermentlari Golji apparatidan hujayraning tashqarisiga passiv holatda (proferment) chiqariladi. Funksional joyiga yetib borib bu proferment faollashadi. Masalan, tripsin fermenti o'n ikki barmoqli ichakda faollashadi. Bu jarayon mexanizmlari oxirgacha o'rganilmagan, lekin ularning borishi uchun ATP zarur. Golji apparatida shuningdek, metabolik jarayonlar boradi, oqsillar modifikatsiyaga uchraydi.

O'simlikning yangi hosil bo'lgan hujayralarida yadro atrofida Golji apparatining aktivligi oshib unda hujayra devori matriksi polisaxaridlarining sintezi boradi (gemisellyuloza, pektin). Golji apparati pufakchalari hujayra plastinkasining kerakli joyiga mikronaychalar orqali birikib bu yerda plazmatik membranaga qo'shiladilar va yangi hujayra devori mahsulotlarini sintezlaydilar.

Golji apparatida mutsin glikoproteini sintezlanib u shilimshiq moddani hosil qiladi. Bu modda ichak shilimshiq pardasi va nafas yo'llari yuzasidagi hujayralarda hosil bo'ladi. Ildiz qini hujayralaridagi Golji apparatida mukopolisaxaridlarga boy shilimshiq modda ishlab chiqarilib u ichkariga qarab o'sayotgan ildizni tuproq zarrachalariga ishqalanishidan saqlaydi. Hasharotxo'r o'simliklar bargi hujayralaridagi Golji apparati shilimshiq modda va ferment ishlab chiqarib, ularning yordamida bu o'simliklar o'ljasini tutib hazm qiladi. Ko'p hujayralarda Golji apparati mum - o'simlik yelimini sintezlaydi.

Ba'zan Golji apparati lipidlar transportida ishtirok etadi. hazm qilish jarayonida lipidlar parchalanib ingichka ichakda yog' kislotalari va gliserol ko'rinishida so'riladi. So'ng endoplazmatik to'rda lipidlar resintezlanadi (qayta sintezlanadi), ular oqsil qobig'i bilan qoplanib Golji apparati orqali plazmatik membranaga tashiladi. Plazmatik membranaga o'tib bu yog'lar limfa tizimiga tushadi.

Qisqaruv vakuolasi bor tuban o'simliklar hujayralarida vakuollar Golji apparati sisternasining kengayganidan hosil bo'ladi. Qisqarish vaqtida u plazmatik membrana bilan qo'shib ichidagi mahsulotini ekzozitoz yo'li bilan tashqariga chiqadi.

Hujayradan moddalarning chiqarilishi Golji apparatining plazmatik membrana bilan uzlusiz bog'langanligidan sodir bo'ladi. Golji

apparatidan plazmatik membranaga yo'nalgan membranalar oqimi mavjud bo'lib, ikkinchi tomondan doimiy ravishda endopalazmatik to'rda Golji apparatiga yo'nalgan vakuolalar oqimi mavjud. Uning proksimal qismi membranalari plazmatik membranaga qo'shiladi. Ba'zi olimlarning fikricha plazmatik membrananing yangilanib turiishi Golji apparati hisobiga amalga oshadi: lipidlar sintezi, lipoproteinlarning hosil bo'lishi, ularning lipoproteidlar bilan bog'lanishi shu yerde sodir bo'ladi.

Hujayra bo'linishida Golji apparati diktiosomalarga ajralib qiz hujayralarga tasodifiy taqsimlanadi. Hujayra o'sgan sari diktiosomalar soni ortib boraveradi. Bu mexanizm oxirgacha o'rganilmagan. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha Golji apparatining o'sishi yadro membranasidan ajralib chiqadigan membranalar evaziga amalga oshadi.

Golji apparati hamma eukariot hujayralarda uchraydi (sutemizuvchilarning eritrositlaridan tashqari). Lekin hamma hujayralarda ham oqsil, lipid va polisaxaridlar sintezlanavermaydi. Masalan, mushak, leykositlar, qoplovchi epiteliy, hujayralari. Lekin shunga qaramay bularda Golji apparati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Chunki bu hujayralarda lizosomalar hosil bo'lib Golji apparati bunda ishtirok etadi.

Lizosomalar

Lizosomalar membranali hujayra ichi tuzilmalari sifatida 1955 yilda belgiyalik bioximik De Dyuv tomonidan topilgan bo'lib, ularni o'rgangani uchun olim Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Kallamush jigaridan olingen fraksiyalarni o'rganish mobaynida olim ularning ba'zilari turli moddalarni parchalash xususiyatiga ega bo'lgan gidrolitik fermentlarga ega ekanligini payqaydi. Bu fermentlar maxsus sitoplazmatik tanachalar lizosomalar ekanligi va ularning fermentlari faqatgina lizosoma membranasi shikastlanganda, shok holatlari yuzaga kelganda, yoki lizosomalarning o'zi boshqa bir vakuola bilan qo'shilganda faollashadi.

Lizosomalarning membranasi polisaxaridlardan tuzilgan. Lizosomalarda 40 ga yaqin gidrolitik fermentlar bo'lib, turli moddalarni parchalash xususiyatiga ega. Yangi hosil bo'lgan lizosomalar birlamchi lizosomalar deyiladi, ularning fermentlari passiv bo'ladi.

Lizosomalar turli organ hujayralarida jumladan buyrak hujayralarda topilgan. Bu yyerda lizosomalar organizmga kirgan begona oqsillarni konsentratsiyalash vazifasini bajaradi. Ya'ni, ular hujayraga pinositoz va fagositoz yo'l bilan kirgan begona moddalarni detoksi-katsiyalash va parchalash xususiyatiga ega.

Morfologik jihatdan lizosomalarning 4 tipi farqlanadi: birlamchi lizosomalar, ikkilamchi lizosomalar, autofagosomalar, telolizosomalar (qoldiq tanachalar) (10rasm).

Birlamchi lizosomalar - mayda 100nm kattalikdagi vakuolalar bo'lib, ichi fosfataza fermentiga to'lgan bo'ladi. Bu ferment donador endopalazmatik to'rda sintezlanib, diktiosomalarning proksimal qismiga o'tadi va u yyerdagи mayda vakuolalar tarkibiga kiradi va birlamchi lizosomalarlarni hosil qiladi.

Keyinchalik birlamchi lizosomalarlar fagositoz yoki pinositoz vakuolasi bilan qo'shilib ikkilamchi lizosomalarni yoki hujayra ichi hazm qilish vakuolasini hosil qiladi. Bunda birlamchi lizosomalar ichidagi fermentlar faollahshib vakuola ichidagi mahsulotni parchalay boshlaydi. Vakuolalarning kattaligiga qarab ikkilamchi lizosomalar turli hajmda bo'ladi.

Lizosomalar bir-biri bilan qo'shilish xususiyatiga ega va ularga tushgan biogen moddalar monomerlargacha parchalanib gialoplazma chiqariladi va u yyerdan hujayraning turli joylariga tashiladi.

Lizosomalar faoliyatini amalga oshiruvchi mexanizm mavjudligi haqida fanda quyidagi faraz mavjud: lizosomalarning hujayra ichida faol harakatini ta'minlovchi retseptorlar vazifasini membranasining tashqi yuzasidagi izofermentlar bajaradi. Lizosomalarning hujayra ichidagi harakatida mikronaychalar ishtirok etadi deb taxmin qilinadi, chunki maxsus ingibitorlar ta'sirida mikronaychalar parchalansa, lizosomalarning harakati to'xtaydi.


Autofagolizosoma ichidagi mahsulotlar parchalangandan keyin u yana ikkilamchi lizosomaga aylanadi va yana bir necha marta boshqa fagosomalar bilan qo'shiladi. Lekin parchalanish jarayonlari ba'zi lizosomalarlarda oxirigacha bormaydi, bunda hazm bo'lmanan qoldiqlar lizosomalarning ichida qolib qoldiq tanachalari- telolizosomalarga (qoldiq tanacha) aylanadi. Qoldiq tanachalarda fermentlar kam bo'lib ularda moddalar qayta tuziladi, zichlashadi. Ko'pincha qoldiq tanachalarda turli lipidlar yig'ilib ko'p qavatlilikni hosil qiladi.

Lizosomalar deyarli barcha eukariot hujayralarda uchraydi , lekin uning uchrash chastotasi hamma hujayralar uchun turlichadir. Hayvon hujayralarida lizosomalarlar ko‘proq readsorbsiya (qayta so‘rilish) va oqsil mahsulotlarini parchalash jarayonlari boradigan hujayralarda: makrofaglar, leykositlar, jigar va buyrakda uchraydi.

Leykositlarda (immun hujayralar) passiv holatda hujayra sitoplazmasida birlamchi lizosomalar suzib yuradi. Leykosit hujayrasi bior bakteriyani fagositoz yo‘l bilan yutishi zaxotiyoy birlamchi lizosomalarlar tezda ichidagi fermentlarini fagositar vakuolaga to‘kadilar va ikkilamchi lizosomalarni hosil qiladilar. Demak, lizosomalar adaptiv immunitet hosil qilishda ishtirok etadi.

Undan tashqari, lizosomalar hujayra ichi mahsulotlarini o‘zgartirishda ishtirok etadi. Qalqonsimon bez hujayralaridagi endopalazmatik to‘rda tiroglobulin oqsili sintezlanadi. Tiroglobulin Golji apparati yordamida qalqonsimon bez follikulalariga chiqariladi. Bu yyerda gormonal qo‘zg‘atishga uchrab qaytib pinositoz yo‘l bilan bez hujayrasiga tushadi. Pinositoz vakuolasi birlamchi lizosomalar bilan qo‘silib uning fermentlari tiroglobulinni qisman gidrolizlaydi va tiroksinga aylantiradi. Shundan so‘ng gormon qonga chiqadi.

Autolizosomalar (autofagosoma) morfologik jihatdan ikkilamchi lizosomalardir. Tarkibida sitoplazmaning ayrim fragmentlari, ba‘zan esa hujayraning ayrim tuzilmalari: mitoxondriya, plastida, endopalazmatik to‘r, ribosomalar uchraydi. Autolizosomalarning hosil bo‘lish mexanizmi oxirgacha o‘rganilmagan, lekin taxmin qilinishicha birlamchi lizosomalar hujayra tuzilmalari oldiga kelib, ularni o‘rab bir-biri bilan qo‘shiladilar va tuzilmani pinositoz yo‘l bilan qamrab oладilar. Bu jarayon avtofagiya deyiladi. Uning funktional axamiyati shundan iboratki, hujayra o‘ziga kerak bo‘lmagan: ishdan chiqqan tuzilmalarni parchalab ularning o‘rniga yangilarni hosil qiladi. Bu holda lizosomalar hujayra ichi sanitarlari vazifasini bajaradi. Ularning soni hujayra shikastlanganda oshadi.



10-rasm. Lizosomalarning hujayra ichidagi faoliyati. 1-fagositar pufakcha; 2- fagosoma; 3-hazm qilish vakuoli; 4- birlamchi lizosoma; 5- qoldiq tanachalar; 6- lipofustsin granulasi; 7- autofagosoma; 8- ekzositoz; 9- yadro.

Ba'zan lizosomalar tarkibidagi fermentlar hujayradan chiqariladi. Masalan, rivojlanish davomida tog'ay to'qimasining suyakka aylanishida yoki suyak to'qimasi shikastlanganda osteoblast hujayralari lizosomalarida maxsus fermentlar sintezlanadi.

Hujayralardagi patologik jarayonlarda lizosomalarlarning soni ortadi. Lizosomalarlar hujayraning avtolizida – o‘z-o‘zini yemirishiда ishtirok etadi. Avtolizga faoliyatini tugatgan kasal hujayralar uchraydi. Avtolizga faqat bitta hujayra emas butun to'qimalar ham uchraydilar (misol: itbaliqning dumi).

Lizosomalarning hayvon va o'simlik hujayralarida keng tarqalgan rekonstruksiyalash (qayta qurish) xususiyati ham katta ahamiyatga ega. Organizmlar och qolganda hujayralar o‘z hayot faoliyatini ushlab turish maqsadida endogen yo'l bilan oziqlana boshlaydilar, bunda lizosomalar sitoplazmadagi turli tuzilmalarni parchalab quyi molekulali moddalarni hosil qiladi. O'simlik hujayralaridagi autofagiyanı urug‘ unib chiqayotganda ko'rish mumkin: lizosomalar ishtirokida hujayradagi zahira moddalar parchalanadi.


Ko'pincha lizosomalar tarkibidagi biror fermentning yetishmasligi mutatsion jarayon bo'lib, odamlarda genetik kasallikkarni keltirib chiqaradi: lizosomalar ichida ko'p miqdorda hazm bo'limgan moddalar to'pla borib oxirida bu oraganizmnning o'limiga olib keladi.

Lizosomalarlarni o'rganish borasida katta yutuqlarga erishilganligiga qaramay eukariot hujayra uchun muhim ahmiyatga ega bo'lgan bu tuzilmaning tahlili xali boshlang'ich bosqichlarda turibdi.

Peroksisoma

Peroksisoma - eukariot hujayraning universal organoididir. Lizosomalar kabi K.De Dyuv tomonidan topilgan. Bir qavat membrana bilan o'rالgan bo'lib, membranalari suyuq mozaika tuzilishga ega. Ichida kristallsimon strukturalar - nukleoidi bo'ladi (yadroga aloqasi yo'q). U fibrill va mikronaychalardan iborat bo'lib uratoksidaza fermentiga ega(11rasm). Lizosomalardan farq qilib faqat mavjud peroksisomaning bo'lmishi orqali ko'payadi. Shuning uchun o'z peroksisomalarini yo'qtgan hujayra ularni qayta tiklay olmaydi.

Odam va hayvon jigar va buyrak hujayralarida uchraydi. Soni 70-100 tagacha. Endoplazmatik to'r membranalari bilan aloqada bo'lib taxmin qilinishicha endoplazmatik to'rning kengaygan sisternalaridan kelib chiqadi. O'simliklarda peroksisomalar mitoxondriya va plastidalar bilan bog'liqdir.



**11- rasm. Peroksisomaning elektron mikroskop ostidagi ko'rinishi.
1-membranasi; 2-kristallsimon strukturalar; 3- matriks.**

Peroksisomalarning biokimyoviy vazifasi ulardagi oksidlanish reaksiyalarining fermentlari (katalaza) bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib moddalarning parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan vodorod peroksidini (H_2O_2) suv va kislorodgacha parchalaydi. Vodorod peroksidi hujayrada boradigan reaksiyalar natijasida hosil bo‘lib, juda toksik zararlidir va hujayradan chiqarilishi kerak. Bu vazifani peroksisomal lar tarkibidagi katalaza fermenti bajarib uni suv va kislorodga parchalaydi.

Umumhujayraviy vazifasi hujayraga oziq moddalar tarkibi bilan kiradigan uzun zanjirli yog‘ kislotalarini parchalashdan iborat. Jigar hujayralari peroksisomalarga boy bo‘lib organizmga tushayotgan etil spirtining 50% bu yyerda asetildegid va sirka kislotasigacha parchalaydi. Alkogolni (arabcha- al-kuhl-ingichka kukun) uzoq muddat va katta dozalarda iste’mol qilish, jigar hujayralari tarkibida sirka kislotsasi miqdorining ko‘payishiga va undan yog‘ kislotalari sintezlanishiga olib keladi. Natijada, lipidlar miqdori ko‘payib sirroz (yunonchasaariq) kasali rivojlanadi.

O‘simliklarda uchraydigan peroksisomalar 3 guruhni tashkil qildi:

1.Glioksisomalar-yog‘larga boy urug‘larda lipidlarning saxaro-zaga parchalanishida ishtirok etadi.

2.Barglarda uchraydigan peroksisomalar mitoxondriya va plasti dalar bilan bog‘liq bo‘lib nafas olishda ishtirok etadi.

3.Boshqa turdagи to‘qimalarda uchraydigan differensiatsiyalan magan peroksisomalar.

Sferosoma

O‘simlik hujayralarida uchraydigan membranali pufakchalar. EPT sisternalari ustida osmiofil material to‘planib, mayda pufakcha yuzaga kelib endopalazmatik to‘rdan ajrala boshlaydi. Bu 100-150 nm kattalikdagi bir qavat membrana bilan o‘ralgan prosferosoma. Sferosomaning o‘sishi ularda yog‘larning to‘planishi bilan bog‘liq bo‘lib, sekinlik bilan u katta yog‘ tomchisiga aylanadi. Yog‘lardan tashqari sferosomalar tarkibida turli oqsillar, jumladan lipaza fermenti topilgan.

Vakuolalar

Vakuolalar ichi suyuqlik bilan to‘lgan membranalı xaltacha. Hayvon hujayralarida kichik: fagositoz, hazm qilish, qisqarish vakuolalari uchraydi. O’simlik hujayrasi sitoplazmasida muhim fiziologik ahamiyatga ega bo‘lgan vakuolalar mavjud. Yosh hujayralarda mayda vakuolalar soni ko‘p bo‘lib hujayra o‘sgan sari vakuolalar bir-biri bilan qo‘silib hujayraning 80% hajmini egallaydigan vakuolaga aylanadi. Vakuolani o‘rab turuvchi memebrana tonoplast deyiladi, u plazmatik membranaga o‘xshash tuzilgan. Vakuolalar endoplazmatik to‘rdan ajraladigan pufakchalardan rivojlanadi. Kattalashib ular yadro va organoidlarni hujayraning chekka qismlariga surib yuboradi.

Vakuolaning ichi hujayra suyuqligi bilan to‘lgan bo‘lib tarkibi suvda erigan anorganik tuzlar, organik kislotalar, oqsillardan iborat.

O’simlik vakuolasi quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. Suv konsentrangan hujayra shirasi ichiga osmos yo‘li bilan tonoplast orqali o‘tadi. Natijada sitoplazma hujayra devoriga yaqinlashib turgor holat yuzaga keladi. Suvning osmotik ravishda kirishi hujayralarning o‘sishi vaqtida cho‘zilishiga yordam beradi va mustahkamlik bag‘ishlaydi.

2. Ba’zan vakuolalar tarkibida antosian pigmentlari uchraydi. Ularning ichida antosianlar bo‘lib gullar mevalar rangini belgilaydi.

3. Ba’zan vakuolalar tarkibida gidrolitik fermentlar bo‘lib, bu holda vakuolalar lizosomalardek faoliyat ko‘rsatadi: hujayra nobud bo‘lgandan keyin tonoplast tarangligini yo‘qotib fermentlar sitoplazmaga chiqib hujayrani avtolizlaydi (o‘z -o‘zini eritadi).

4. Vakuolalarda hujayra metabolizmining chiqindi moddalari saqlanishi mumkin: oksalat kalsiy kristallari, alkoloидлар va tanin muddasi. Tanin muddasi o’simlikni o’simlikxo‘r hayvonlardan himoya qiladi.

5. Vakuolalar zahira oziqa moddalari to‘planadigan joy ham hisoblanadi. Qand muddasi suvda erigan holda to‘planadi, polisaxaridlar dan inulin bor. Urug‘ hujayralarida oqsil to‘planadi. Oqsillar vakuolaning ichiga endoplazmatik to‘r va Golji apparati orqali ularning membranasi vakuolaning membranasi bilan qo‘silganda kiradi. Oqsil - aleyron vakuolalarda albumin va globulin ko‘rinishida to‘planib vakuolalar suvsizlanishi natijasida qattiq aleyron donachalariga aylashtiriladi.


nadi. Urug'lar unib chiqqanda bu donachalar yana suvlanib vakuolalarga aylanadi. Bunday vakuolalarda fermentlar ta'sirida oqsillar parchalanadi, ya'ni vakuola lizosoma faolligini boshqaradi.

Vakuolyar tizim membranalarining bir-biriga aylanishi¹

Ko'rib chiqilgan sitoplazmaning vakuolyar tuzilmalari bir butunlikni tashkil etib uning elementlari bir-biriga o'tish xususiyatiga ega. Yadroning tashqi membranasi granulyar endopalazmatik to'r membranalariga o'tadi. Endopalazmatik to'r membranalari elementlaridan tonoplast, sferosoma, silliq endopalazmatik to'r, peroksisoma membranalari hosil bo'ladi. Endopalazmatik to'r ikkala turining membranalari mayda vakuolalar ko'rinishida Golji apparatiga o'tadi va u yyerda qalinlashadi.

Golji apparati membranalaridan sekretor vakuolalar va lizosoma membranalari hosil bo'ladi. Bularning ikkalasi ham plazmatik membranaga qo'shiladi. Demak, hujayra ichi membranalari bir butun tizimni tashkil etadi.

Lekin bu tizimda ikkita yarimtizimchani ajratish mumkin: birinchisi endopalazmatik to'r tizimi bo'lib uning elementlari to'g'ridan-to'g'ri plazmatik membrana bilan qo'shilmaydi. Bu qo'shilish ikkinchi tizim Golji apparati yordamida bo'lib vakuolalar oqimi yoki lizosomalar amalga oshiradi(12rasm).



12-rasm. Hujayraichi membranalarining bir-biriga o'tishi.

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 120 p.

1-yadro membranasi; 2-yadro porasi; 3- donador endoplazmatik to‘r; 4- silliq endoplazmatik to‘r; 5- ribosomalar; 6- silliq endoplazmatik to‘rda sintezlangan sekret mahsulotning chiqishi; 7- membranaga o‘ralgan mahsulotning Golji apparati sisternalariga qo‘silishi; 8, 9, 10,11 - mahsulotli pufakchani Golji apparatining sis, medial va trans bo‘limlariga o‘tib plazmalemma tashqarisiga chiqarilishi.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Fagositoz va pinositoz.
2. O‘simlik hujayra devorining hosil bo‘lishi.
3. Sitoplazmaning vakulayr tizizmidagi organellalarinig o‘zaro aloqasi.
4. Vakuolyar tizim membranalarining bir-biriga aylanishi

Nazorat savollari:

1. Silliq endoplazmatik to‘r tuzilishi va vazifasini ta’riflang.
2. Donador endoplazmatik to‘r tuzilishi va vazifasi. Ergastoplazma nima?
3. Golji apparatida qanday sintetik jarayonlar boradi?
4. Lizosomalar tuzilishi va vazifalariga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
5. Hujayraning ichki ovqat hazm qilishda lizosomalarning o‘rni qanday?

TEST savollari

- 1. Bir membranalni organoidni ko‘rsating?**
 - a. Endoplazmatik to‘r
 - b. Yadro
 - c. Mitochondriya
- 2. Endoplazmatik to‘rning nechta turi bor?**
 - a. 3 ta
 - b. 4 ta
 - c. 2 ta
- 3. Ingichka kanallar, sisternalar, xaltachalardan iborat bo‘lib uzulmas (yopiq) membrana bilan chegaralangan Endoplazmatik to‘rni aniqlang?**

- a. Donador endoplazmatik to‘r
- b. Silliq endoplazmatik to‘r
- c. Donador va silliq endoplazmatik to‘r

4. Ergastoplazma nima?

- a. Bir tutam membranalar yig‘indisi
- b. Endoplazmatik to‘rning ikki xil ko‘rinishi
- c. Faol sintezlovchi hujayralar

5. Ovqat hazm qilish bezlarida ko‘p miqdorda ajraladigan ferment

- a. Laktaza
- b. Polimeraza
- c. Gidrolitik fermentlar

6. Endoplazmatik to‘r tizimi yo‘q bo‘lgan organizmlar

- a. Prokariotlar
- b. Eukariotlar
- c. O’simliklar

7. Ilk Golji majmui qanday toqima hujayralarida aniqlangan?

- a. Epiteliy to‘qima
- b. Muskul to‘qima
- c. Nerv to‘qima

8. Golji apparatida nechta zona ajratiladi?

- a. 3 ta
- b. 2ta
- c. 5ta

9. Lizosomalar membranali hujayra ichi tuzilmalari sifatida qachon va kim tomonidan topilgan?

- a. 1955 yilda De Dyuv
- b. 1964 yilda Gryu
- c. 1831 yilda Braun

10. Morfologik jihatdan lizosomalarning nechta tipi farqlanadi?

- a. 5 ta
- b. 4 ta
- c. 2 ta

MA’RUZA 4. SITOPLAZMANING IKKI MEMBRANALI ORGANOIDLARI

Reja:

1. Eukariot hujayralarning ikki membranali organoidlari.
2. Mitoxondriyalarning ultrastrukturaviy tuzilishi.
3. Plastidalar.

Tayanch iboralar. *Ikki qavat membrana, mitoxondriya, plastidalar.*

1. Eukariot hujayralarning ikki membranali organoidlari. Mitoxondriyalar hamma hayvon va o’simlik hujayralari uchun xos, plastidalar faqat fotosintez jarayoni amalga oshuvchi o’simlik hujayralarda uchraydi.

Ushbu organoidlar tuzilishidagi umumiylik belgilardan biri sitoplazmadan ikkita – tashqi va ichki membrana bilan chegaralanganligidir. Shuning uchun mitoxondriya va plastidalarda ikkita bo’shliqqa: birinchisi tashqi va ichki membranalar orasidagi, ya’ni membranalararo bo’shliq, ikkinchisi ichki membrana bilan chegaralangan asosiy matriksiga ega. Umimiylikni tashkil etuvchi ikkinchi belgi ichki membranalari burmalar, xaltachalar ichki matriksga yo’nalgan bo’rtmalarni hosil qilishi. Funksional jihatdan ikkalasi ham energetik jarayonlarni amalga oshiruvchi organoidlardir.

Mitoxondriyalarni o’rganish tarixi 1850 yilda boshlanib shu yili Kelliker hasharotlarda ularni ko’rib sarkosomalar deb nom beradi (hozirgi kunda bu atama muskul to‘qimasining mitoxondriyalar uchun ishlataladi), 1890 yilda R.Altman bu tanachalarning fuksin bilan maxsus bo‘yalish usulini ishlab chiqib, ularga bioblastlar deb nom beradi va ularning o’zidan ko‘payish xususiyatga ega ekanligi g‘oyasini ilgari suradi. 1898 yilda K. Benda ularni mitoxondriyalar deb nomlaydi, Mixaelis esa mitoxondriyalarning hujayradagi oksidlanish jarayonlari bilan bog‘liqligini aytadi. O’simlik hujayralarda mitoxondriyalarni 1904 yilda Meves aniqlaydi.

Hujayradagi mitoxondriyalar yig‘indisi–xondriomdeyiladi. Mitoxondriyalar shakli jihatidan granulyar va ipsimon tuzilishga ega. Shakli va o’lchami doimiy hisoblanmaydi. O’rtacha olganda kengligi

0.5mkm uzunligi esa ipsimon shakllarida 7-10 mkmni tashkil etadi. Bitta hujayradagi soni bir nechtadan bir necha yuz va mingtani tashkil etadi. Hayvon hujayralariga nisbatan o'simlik hujayralarida mitoxondriyalar soni kamroq bo'ladi, chunki ular bajaradigan vazifaning bir qismini o'simliklarda plastidalar bajaradi.

Anaerob muhitda yashovchi ichak entoamyobalarida va ba'zi parazit sodda hayvonlarda mitoxondriyalari bo'lmaydi.

Ba'zi hujayralarda mitoxondriyalar bir-biri bilan qo'shilib, gigant mitoxondriyalarni-xondriosferalarni hosil qiladi. Masalan, spermiyalar hujayrasida gigant mitoxondriyalar xivchini atrofida joylashadi.

Asosiy vazifasi oziq moddalar tarkibidagi kimyoviy bog'larni makroergik fosforli ATP bog'larga aylantirish bo'lgani uchun hujayrada ATF sarfi bilan bog'liq joylarda uchraydi. Masalan, skelet mushaklarida miofibrillarda, xivchini va kiprikchalari bo'lgan hujayralarda xivchinlarning birikishi asosida to'dalanib, ularning harakati uchun zarur bo'lgan energiyani hosil qiladilar. Nerv hujayralarida nerv impulsinig uzatilish joyida-sinapslarda joylashadilar.


2. Mitoxondriyalarning ultrastrukturasi. Mitoxondriyalar ikki qavat membrana bilan chegaralangan bo'lib, tashqi membrana unigialoplazmadan ajratib turib o'z-o'zida birikish hosil qiladi, ichki membranasini mitoxondriya ichki matriksi yoki mitoplazmasini ajratadi, membranalararo bo'shliq 10-20 nm tashkil qiladi. Ichki membrana mitoxondriya matriksi tomonga ichki burmalarni kristalarni (*crista-lot* "taroqcha") hosil qiladi(13rasm). Kristalar mitoxondriya uzunligiga ko'ndalang yoki perpendikulyar ravishda joylashishi mumkin. Kristalarning shoxlanish va egilish hosil qilish turiga qarab: plastinksimon, perforatsiyali, naysimon va to'lqinsimon turlari farqlanadi. Kristalar ichki membrana maydonini kattalashtiradi(13rasm). Tashqi va ichki membranalarida mayda donachalar bo'lib, tashqi membranda silindr shaklida, ichki membranada-qo'ziqorin shaklidagi – oksiosomalar yoki ATP-somalardir.

Mitoxondriyalar matriksi gomogen tuzilishga ega bo'lib unda 2-3nm kattalikdagagi ipsimon DNK molekulasi va 15-20nm kattalikdagagi ribosomalar va turli kiritmalar uchraydi.

Kristalarning soni va rivojlanish darajasi hujayraning funksional holatiga bog'liq. O'simliklar mitoxondriyalarida kristalar soni kam bo'ladi, lekin o'simliklarning sekretor hujayralarida ularning soni

hayvonlarnikidek ko‘p bo‘ladi. Mitoxondriyalar adaptatsiya hosil qilish xususiyatiga ega. Masalan, kalamushlarni gipodinamiya (kam harakatlanish) sharoitiga joylashtirganda, mitoxondriyalardagi kristalar va ko‘ndalang targ‘il muskul tolasidagi mitoxondriyalar soni keskin kamaya borganligi kuzatiladi. Lekin, hayvonlar aktiv harakatga keltirilganda (suzdirilganda), mitoxondriyalar o‘z sonini va holatini tezda tiklaganlar.

Mitoxondriyalarning tashqi va ichki membranari tarkibi va fizik xususiyatlari bilan farq qiladi. Osmotik bosimning ortishi yoki kamayishidan ichki membrana burishib yig‘ilib qoladi, lekin keyinchalik to‘g‘irlanishi mumkin. Tashqi membrana cho‘zila olmasligi tufayli uziladi. Tashqi membranada lipidlar bilipid qatlamni hosil qilsa, ichki membranada faqat bir qism lipidlar bilipid hosil qilishda ishtirok etadi. Tashqi membrana endoplazmatik to‘r membranalari bilan o‘xshash bo‘ladi. Ichki membrana va mitoxondriya matriksi oksidlanish va fosforlanish fermentlariga boy bo‘ladi.



13-rasm. Mitoxondriyaning tuzilishi

Mitoxondriya vazifalari

Mitoxondriyalarни asosiy vazifasi organik substratlarning oksidlanishi va ADF ning fosforlanishi orqali ATP sintezlash. Bu jarayonlar uchun boshlang‘ich substrat bo‘lib uglevodlar, yog‘ kislotalar va ami-

nokislotalar xizmat qiladi. Uglevodlar oksidlanishining boshlang‘ich etaplari gialoplazmada kislorod ishtirokisiz o‘tganligi uchun anaerob oksidlanish yoki glikoliz deyiladi. Glikolizning asosiy substrati glyukozadir. Tirik hujayrada glyukozaning oksidlanishi bosqichma- bosqich borib, bu jarayonni bir qancha oksidlanish fermentlari amalga oshiradi va uning natijasida ATP molekulasidagi makroergik bog‘lar hosil bo‘ladi. Birinchi bosqichda glyukoza trizagacha parchalanadi, bunda 2 molekula ATP sarflanib 4 molekula ATP sintezlanadi. An-aerobi parchalanish past energiya chiqimiga qaramay ko‘pgina tirik organizmlarning asosiy energiya manbai hisoblanadi. Masalan, mikroorganizmlar, ichak parazitlari, shish hujayralari va mitoxondriyalari bo‘lmaydigan sute nimzuvchilarining eritrositlarida asosiy energiya manbai bo‘lib glikoliz xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda hosil bo‘lgan triozalar asosan pirouzum kislota mitoxondriyalarning o‘zida sodir bo‘ladigan oksidlanishda ishtirok etadilar. Bunda hamma kimyoviy bog‘lar uzilib CO₂ ajralib O₂ sarflanadi, ajralgan energiya mitoxondriyalarda ATP ko‘rinishida to‘planadi.

Trikarbon kislotalar yoki Krebs siklida glikoliz mahsulotlarining to‘liq oksidlanishi va undan keyin fosforli oksidlanish siklida oksidlanish natijasida ajralgan energiya maksimal ravishda ATP sintezi uchun sarflanadi.

Mitoxondriyalarning hosil bo‘lishi

Fanda mitoxondriyalar hosil bo‘lishining 3 xil farazi mavjud :

1. Mitoxondriyalar hujayrada gialoplazmadagi ultramikroskopik tuzilmalardan hosil bo‘ladi.

2. Hujayraning boshqa membranali tuzilmalaridan hosil bo‘ladi.

3. Mavjud mitoxondriyalarning bo‘linish yo‘li orqali hosil bo‘ladi.

Birinchi faraz o‘z rivojini topmagani sababi shuki, mitoxondriya tarkibiga kiruvchi ko‘pgina fermentlar sitoplazmada uchramaydi. Ikkinchi faraz hujayrada hamma membranali strukturalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligiga asoslangan bo‘lib, uning negizida universal elementar membrana gipotezasi yotadi. Lekin bu taxminlar ham bi-kimyoviy va morfologik dalillarga ega emas .

Uchinchi - mitoxondriyalar mavjud mitoxondriyaning bo‘linishi orqali ko‘payadi, degan g‘oyani birinchi marta 1893 yilda Altman o‘rtaga tashlagan. Uzun mitoxondriyalarning bir hujayrali suvo‘tlarda

fragmentatsiyasini (maydalanishini) kuzatgan.

Jigar hujayralarida mitoxondriyalarning o'rtasidan uzayib, ingichkalashib bo'linishi kuzatilgan.

Achitqi zamburug'larda anaerob sharoitda sitoplazmasida promitoxondrial tuzilmalar bo'lib, aerob muhitda ularning morfologiyasi o'zgarib mitoxondriya sifatida rivojlanadi. Promitoxondriyaning kelib chiqishi sitoplazmadagi mavjud mitoxondriya bilan bog'liq.

Mitoxondriyalar oqsili sintezi tizimiga DNK, unda sintezlanadigan mitoxondrial RNK va ribosomalarga ega. Mitoxondriyalarning DNKsi siklik shaklga ega bo'lib, bakteriyalarning DNK siga o'xshaydi va yadro DNK sidan nukleotidlarning ketma-ketligi bilan keskin farq qiladi. RNK ning hamma turi uchraydi.

Mitoxondriyaning bunday avtonom sistemaga ega bo'lishi uning kelib chiqishining endosimbiotik nazariyasining yaratilishiga olib kelgan. Unga asosan mitoxondriyalar bakteriyalar tipidagi organizm bo'lib, eukariotlar bilan simbioz hosil qilgandirlar. Bu g'oyani Altman o'zining bioblastlar nazariyasida ilgari suradi. Taxmin qilinishicha, evolyutsiya jarayoni mobaynida anaerob oksidlanish jarayonlari evaziga yashovchi ho'jayin hujayra ichiga oksidlanish fosforlanish fermentlariga ega prokariot simbiont kiritilgan. Uning natijasida mitoxondriyalar genetik materialining bir qismini yo'qotib, avtonomlik xususiyatiga ega bo'lib qolganlar (L.Margulis).

Lekin mitoxondriyaning avtonomligi nisbiy hisoblanadi, chunki undagi ko'pgina oqsillarinig sintezi yadro tomonidan genetic nazorat (control) qilinadi.

Mitoxondriyalarni tuzilishi va vazifalari. Mitoxondriyalarning ultrastrukturasi. Peroxisomalar.¹


Yerda hayot paydo bo'lganidan keyin atmosferada tiklnган malerkulalar ko'p bo'lgan masalan: vadarod – H_2 , ammiak – NH_3 va suv parlaridan H_2O bu paytda yyerda anaerob organizmlar yashagan va energiyani glikoliz va bijg'ish jarayon bilanishlatishgan. 2,4 va 1,7 milliard yil ilgari sianobakteriyalar hosil bo'lgan. Ularda birinchi fotosintetik jarayon kuzatilgan va shuni o'zida malekulyar kislorod hosil bo'la boshlagan. Kislorodni atmosferada borligi va tabiy tablabishga yirik omillardan biri bo'lgan. Turlarning evolyutsi-

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 285 p.

yasi shunday bo‘lganki ularda kislorod malekulasi katta foyda bilan ishlataligani.


Mitoxondriyalarni tuzilishi va vazifalari¹

Mitoxondriyalar bu kattagina strukturalar ularni bemalol yorug‘lik mikroskopda ko‘rsa bo‘ladi (5.1 a rasm). Har xil hujayralarda mitoxondriyalar har xil shakilda bo‘lishi mumkin (5.1 b rasm).



5.1 – rasm. Mitoxondriya. (a) Tirik fibroblastni faskantrast mikroskopda ko‘rinishi. (b) mitoxondriyalar uzun va qoronj‘i tanachalar. (c) mitoxondriiani ichki membranasini kristallari ko‘r shapalakni spermasi.

Bir hujayralarda mitoxondriyalar bo‘lishi mumkin. Dukkaksiy mon organellalarda shu to‘qimaning o‘zida lekin boshqa hujayralarda naysimon turdagи mitoxondriyalar bo‘lishi mumkin. Eng qizig‘i mitoxondriyalar bir biri bilan qo‘shilishi mumkin yoki bir mitoxondriya ikkiga bo‘linib ketishi mumkin (5.2 (a) -rasm).



5.2 – rasm. (a) sichqonni fibroblastini mitoxondriyalar fluorescent oqsil bilan bo‘yalgan.(b) achitqi hujayasidagi mitoxondriyalar. (c) mitoxondriyalarni naychalar bilan a’loqsi madeli.

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

5.1- rasm (b) dako'rsatilganki naychalar mitoxondrialarni ilonday o'rab olgan¹ bo'lishi mumkin. Mitoxondriyano qo'shilish va bo'linish balansi bu mitoxondriyalarni miqdorini omilidir. Sutemizuvchilarni jigaridagi mitoxondriyalarda 15-20 % gacha hujayra hajmini egal-laydi.

Mitoxonfriyalar o'simlik hujayralarida ham juda katta rol o'ynaydi va ular ATF yyetkazib beradi.

Mitoxondriyalar sperma harakatida katta rol o'yniydi (5.1 (c) rasm).

Ularning muxim roli kalsiy ionini yutishida va chiqarishida. Hujayrlarni nobud bo'lishida mitoxondriyalarning ahamiyati katta.



Mitoxondriya membranalari.

5.1 (b) rasmda yaxshi ko'rsatilganki mitoxondriyalar ikkita membranalardan iborat bular tashqi va ichki. Tashqi membrana mitoxondriyani to'liq o'rab turadi, ichki membrana esa ikkita domenlardan iborat ularnin har biri o'ziga hos oqsillardan iborat va har xil vazifalarni **5.1(c)** – rasm. *Mitoxondriya* bajaradi. Ichki membrana oqsillarga juda boy va mitoxondrial oqsillarni importiga javobgar. Ichki membranani boshqa domeni invaginations qismlarga o'xshash tuzilgan bo'lib KRISTA lar deb ataladi. Kristalarda aerob nafas olish va ATF ni hosil bo'lishi kuza-tildi. Mitoxondriyaning ichki hajmi MATRITSA deb ataladi. Tashqi va ichki membranasini orasi esa membranalar aro bo'shliq deb ataladi. Matritsa gelsimon holatga ega. Bizga ma'lumki mitoxondrianing membranalari aro oqsillari hujayrani o'z o'zini o'ldirish xususiyati ega. Mitoxondriyani tashqi va ichki membranalari har xil xususiyat-



¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 289-292 p.

larga ega. Tashqi membrana taxmiman 50 % lipidlardan iborat. Ichki membrana taxminan yuzdan ortiq polipeptidlardan iborat va oqisil-lipid nisbati taxminan 3:1 nisbatda.

Mitoxondrial matriks.¹

Mitoxondrialarda ko‘pgina fermeblarga qo‘sishimcha ribosomalar ham uchraydi. Lekin ular sitoplazmani **5.1 (b) – rasm. Mitoxondriya** ribosomalariga qaraganda maydaroq. Sho‘tni o‘zida bir necha DNK xalqa malekulalari ham uchraydi. O‘simga va hayvonlarda u yumaloq (xalqasimon) bo‘ladi. Demak mitoxondriyalarda o‘zini genetok materiali bor va RNK ni hosil qiluvchi mexanizmi hisoblanadi. Xromosomadan tashqari DNK irsiy axborotni saqlashda katta rol o‘yniydi masalan odam organizimida 13 ta polipeptidni sinteziga javob beradi. Odam mitoxondriyasini DNK si 2 ta ribosom RNK ga va 22 ta t-RNK ga javob beradi. Mitoxondrial DNK (mt-DNK) bu qadimigi tarixiy noyob malekula hisoblanadi. Olimlarning fikri bo‘yicha bu bir aerob bakteriyani merosi deb qabul qilingan va kelajakda bulardan eukariotik hujayralar kelib chiqqan. Shu qadimiy ko‘pchilik genlari yoki yo‘qolib ketgan, yoki evolyutsiya jarayonida ho‘jayin hujayra yadrosiga ko‘chib ketgan va o‘zida qolgan bir necha genlar – gidrofob oqsillarni ko‘dliydigan genlar. mt- DNK odam migratsiyasini va evolyutsiyasini o‘rganish uchun juda qulay narsa. Bir qancha kompaniyalar mt-DNK ni nukleotid ketma-ketligini o‘rganadi o‘zlarini o‘rganish uchun.

Mitoxondriya vazifalar²

Mitoxondriyalarni asosiy vazifasi organik substratlarning oksidlanishi va ADF ning fosforlanishi orqali ATP sintezlash. Bu jarayonlar uchun boshlang‘ich substrat bo‘lib uglevodlar, yog‘ kislotalar va aminokislotalar xizmat qiladi. Uglevodlar oksidlanishining boshlang‘ich etaplari gialoplamzada kislorod ishtirokisiz o‘tganligi uchun anaerob oksidlanish yoki glikoliz deyiladi. Glikolizning asosiy substrati glu-

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 295 p.

² Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 297-299 p.

kozadir. Tirik hujayrada glyukozaning oksidlanishi bosqichma- bosqich borib, bu jarayonni bir qancha oksidlanish fermentlari amalga oshiradi va uning natijasida ATF molekulasidagi makroergik bog'lar hosil bo'ladi. Birinchi bosqichda glyukoza triozagacha parchalanadi, bunda 2 molekula ATF sarflanib 4 molekula ATF sintezlanadi. An-aerobli parchalanish past energiya chiqimiga qaramay ko'pgina tirik organizmlarning asosiy energiya manbai hisoblanadi. Masalan, mikroorganizmlar, ichak parazitlari, shish hujayralari va mitoxondriyalari bo'lmaydigan sutevizuvchilarning eritrositlarida asosiy energiya manbai bo'lib glikoliz xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda hosil bo'lgan triozalar asosan pirouzum kislota mitoxondriyalarning o'zida sodir bo'ladigan oksidlanishda ishtirok etadilar. Bunda hamma kimyoviy bog'lar uzilib CO₂ ajralib O₂ sarflanadi, ajralgan energiya¹ mitoxondriyalarda ATF ko'rinishida to'planadi.

Trikarbon kislotalar yoki Krebs siklida glikoliz mahsulotlarining to'liq oksidlanishi va undan keyin fosforli oksidlanish siklida oksidlanish natijasida ajralgan energiya maksimal ravishda ATF sintezi uchun sarflanadi.

3. Plastidalar. Plastidalarni 1676 yilda A. Levenguk birinchi o'rGANADI, 1882 yilda A. Shimper davom ettiradi, ultrastrukturasini A. Frey-Visling 1982 yilda aniqlaydi. Fotosintez jarayoni amalga oshuvchi eukariot organizmlar hujayrasida uchraydi. Yuksak o'simliklarda plastidalarning 3 turi: xloroplast, xromoplast va leykoplastlar uchrab bir - biriga aylanib turish xossasiga egadir.

Shakli mitoxondriyalarga o'xshash bo'lib kengligi 2-3 mkm ni uzunligi 5-10 mkm ni tashkil etadi. Yashil suvo'tlarda uzunligi 50 mkmgacha bo'lgan gigant xloroplast (xromatofor) uchraydi. Hujayradagi o'rtacha soni 10-30 tagacha.


Xloroplastlar ikki qavat membrana bilan chegaralangan bo'lib, membranalar qalinligi 7nm. Ichki membrana plastida matriksiga ya'ni stromasiga botib kiradi. Ular uzun stroma - lamellalarini va disksimon vakuolalar- tilakoidlarni hosil qiladi(14rasm). Lamellalar bir tekislikda joylashadilar. Tilakoidlar xuddi tangalarni taxlab qo'yganga o'xshash ustunchalarni hosil qiladilar. Bu ustunchalar granalar deyilib, ulardagi

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 302 p.

tilakoidlarning soni bir nechtadan 50tagacha, granalarning soni 40-60 tagacha. Granadagi tilakoidlar bir-biriga zinch joylashganligi uchun tashqi membranalarining qavatlari qo'shilib ketadi. Tilakoidlar lipid va oqsil qavatidan iborat bo'lib, ular orasida xlorofill pigmenti, lipid qavati orasida esa karotinoid pigmentlari joylashadi. Shuningdek, granalar tarkibiga lammelalar ham kiradi. Bularning ham tilakoidlar bilan birikkan joylarida zinch qatlam yuzaga keladi. Shu tariqa lammelalar granalarni biriktirish vazifasini bajaradi.

Xloroplast stromasida DNK molekulasi, ribosomalar va kraxmal donachalari uchraydi. Xloroplastlarda xlorofill pigmenti bo'lib, u yordamida o'simliklar yorug'lik nurini yutib uni kimyoviy energiyaga aylantiradi.

Yashil suvo'tlarning xloroplastlari ichki membranasi burmalarni hosil qiladi, lekin granalari yo'q. Xromatofor tarkibida pirenodlar uchraydi. Ularda sintezlangan kraxmal to'planadi. Fotosintezlovchi bakteriyalarda membranasi ichki burmalarni hosil qilib bular xam xromatofor deyiladi va o'zida bakterioxlorofill pigmentini tutadi.



14-rasm. Xloroplastning tuzilishi.

1-tashki membrana; 2-membranalararo bo'shlik; 3-ichki membrana; 4-tilakoidlar; 5-granalar; 6-kraxmal; 7-DNK; 8-ribosomalar; 9-stroma.

Plastidalarning hosil bo'lishi va kelib chiqishi haqida fanda ancha ma'lumotlar yig'ilgan. Yashil suvo'tlari spirogira va xlamidomonad-alarda xromatofori uzayib ikkiga bo'linish orqali ko'payadi.


Yuksak o'simliklarda ham xloroplastlarning o'zidan ko'payishi kuzatiladi, lekin kam hollarda. Xloroplastlar sonining ortishi va boshqa xildagi plastidalarning hosil bo'lishi asosida proplastidalar yotishi aniqlangan.

Proplastida → leykoplast → xloroplast → xromoplast

Proplastidalar mayda ikki membranali pufakchalar. Ichki membranasi mayda burmalarni yoki mayda pufakchalarni hosil qilishi mumkin. Proplastidalar hujayralari bo'linayotgan to'qimalarda (meristemta hujayralari, o'sish konusi, poya, barglarda) uchraydi.

Yorug'lik yyetarli bo'lgan sharoitda proplastidalardan xloroplastlar rivojlanadi. Bunda ularning ichki membranasining bir qismida avval uzun xaltachalar-lamellalar hosil bo'ladi. Boshqalari esa tilakoid kameralarini hosil qilib tilakoidlar ustuncha bo'lib taxlanishi natijasida granalar hosil bo'ladi (15rasm).

Qorong'ida proplastidalarning rivojlanishi o'zgacha. Avval plas-tidaning hajmi ortib ichki membranasi lamellalarni emas, mayda bir joyga to'planadigan pufakchalarni hosil qiladi. Hujayralarga yorug'lik tushganda pufakchalardan tezda lamellalar va tilakoidlar rivojlanadi.



15-rasm. Xloroplast ontogenezi

Leykoplastlar (*leukos*-“rangsiz”, *plastos*-“shakl”) xloroplastlar-dan lamilyar tizimining sust rivojlanganligi bilan farq qiladi va bu

jihatdan proplastidalarga o‘xshaydi. Lekin yorug‘likda bular ham tilakoidlar sistemasi rivojlanib yashil rangga kiradi. Xloroplastlarda assimilyatsiya jarayonida hosil bo‘lgan tranzit (vaqtinchalik) kraxmal to‘plansa, leykoplastlarda zahira kraxmali hosil buladi. Masalan, urug‘ endospermi, tugunaklarda kraxmalning to‘planishi amiloplastlarning rivojlanishiga olib keladi.

Plastidaning yana bir turi karotinoid (*carota*-“sabzi”, *eidos*-“shakllanish”) pigmentlariga ega bo‘lgan xromoplastlar- xloroplastlardan va kam hollarda leykoplastlardan (sabzi ildizi) hosil bo‘ladi.

Xloroplastlarning o‘zgarish jarayonini gultojibarglar rivojlanishi yoki mevalarning yetilishi jarayonida ko‘rish mumkin. Xloroplast membranasi yemirilib xlorofill va kraxmal yo‘qoladi. Lamellalarning yemirilishi natijasida yog‘ tomchilari ajraladi, ularda karotinoidlar yaxshi eriydi. Shunday qilib, xromoplastlar - degeneratsiyaga uchragan xloroplastlardir.

Mitoxondriyalarda bo‘lgani singari xloroplastlar ham o‘z oqsil sintezlovchi tizimiga ega bo‘lib, u hujayra oqsil sintezlovchi tizimdan farq qiladi. Bu esa xloroplastlarning avtonom tuzilmalar ekanligidan dalolat beradi va xloroplastlarning kelib chiqishi simbiotik xarakterga ega ekanligi haqidagi g‘oyani paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu g‘oya XIX asr oxiri XX asr boshida paydo bo‘lgan bo‘lib, unga asosan xloroplastlar geterotroflar va prokariot bo‘lgan yashil suvo‘ti hujayralarinining qo‘silishi natijasida hosil bo‘lgan. Uning isboti bo‘lib ko‘k yashil suvo‘tlari va xloroplastlar tuzilishidagi o‘xhashliklar va fotosintez qilish qobiliyatni xizmat qiladi.

Qiziqarlisi shundaki, sichqon embrioni hujayralariga xloroplastlar kiritilganda ular 100 soat davomida faol qolganlar va 24 soat davomida bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lganlar lekin, keyin ularning faolligi pasayib nobud bo‘lganlar.

Xloroplastlardagi bir qator oqsillar, fermentlar xlorofill, karotinoidlar lipid va kraxmalning sintezi yadroning genetik nazorati ostida bo‘ladi. Bu esa xloroplastlarning avtonomligi nisbiyligini isbotlaydi.

Simbioz nazariyasiga asosan eukariot hujayralar evolyutsion jarayonda boshqa hujayralar bilan simbiozlashgan. Birinchi bosqichda anaerob geterotrof bakteriyalar bilan aerob bakteriya qo‘silib mitoxondriya hosil bo‘lgan. Unda parallel ravishda genofor membrana bilan ajratilib (o‘ralib) yadro hosil bo‘lgan va eukariot hujayra rivojlangan.

Birlamchi eukariot hujayra bilan yashil suvo‘tining qo‘shilishidan plastidali organizm rivojlangan.

MA’RUZA 5. FOTOSINTEZ VA XLOROPLAST

1. Xloroplastning tarkibi va tuzilishi
2. Fotosintetik metabolizm
3. Nursingdirish
4. Fotosintetikbirliklarvareaksiyamarkazlari

1. Xloroplastning tarkibi va tuzilishi¹

Yerdagi dastlabki xayot shakllari ishlov berilmagan materiallar va energiyani oddiy organik molekulalarning suvli muxitida erigan bo‘lishi shart. Bu organik molekulalar abiotik omillardan shaklandi ya’ni ibtidoyi dengizlarda sodir buladigon nobiologik kimyoviy reaksiyalar natijasidir. Shunday qilib xuddi biz kabi atrof muxitdan kelayotgan ozuq moddalar bilan tirik qolishadi. Tashqi organik moddalar bilan almashinuvi strategiyasi qo‘llovchi organizmlarni paydo bo‘lishi kuchliturtki ²sifatida xizmat qildi. Bu organizmlarni avvalgilaridan farki shundaki bular o‘zlarini organik moddalarini oddiy turdagি noorganik moddalardan ishlab chiqara olishi mumkin, bularga SO₂vaN₂S misol bo‘la oladi. Avtotrof organizmlar deb SO₂ni asosiy karbon manba sifatida qabul qilib xayot kechiruvchilarga aytildi.

Mitoz vaqtida onasentriola faollashib uni o‘rab turgan sentrosferadamikronaychalar hosil bo‘ladi, sentriolaningmikronaychalar bu jarayonda ishtirok etmaydi.

Sentriolaning boshqa vazifasi bazal tanachalar ko‘rinishida kiprikcha va xivchinlarni hosil qilishida ishtirok etishi.


3. Bazaltanacha, kiprikcha, xivchin. Turli organizmlarning hujayralari harakat a’zolariga –xivchin va kiprikchalarga ega. Sitoplazma da kiprikcha va xivchinlar asosida mayda granula-bazal tanachalarni ko‘rish mumkin.

Kiprikcha sitoplazmaning uzun silindrsimon o‘sintasi bo‘lib, tashqi tomondan plazmatik membrana bilan o‘ralgan. O‘sinta ichida aksonema joylashib mikronaychalardan tuzilgan bo‘ladi.

Bazal tanacha tuzilishi jihatidan sentriolga o‘xshash bo‘lib, mikronaychalarning 9 ta tripletidan, dastachalar, vtulka(silindrcha) va naylardan tuzilgan. Ko‘pincha kiprikchalar asosida ikkita bazal tanacha yotadi.

Kiprikcha tashqi tomondan plazmatik membranadan va ichi aksonemadan tashkil topgan. Aksonema tashqi devorini hosil qilishda mikronaychalarning 9 ta dupleti ishtirok etadi. Periferik dupletlar dan tashqari aksonemaning markazida yana ikkita mikronaychalar joylashadi(18rasm). Kiprikcha mikronaychalari tizimini $(9 \times 2) + 2$ (sentriolaniki $(9 \times 3) + 0$ edi) deb ifodalanadi. Dupletlarda 13 subbirlikdan tuzilgan A va 11 subbirlikdan tuzilgan B mikronaychalar farqlanadi. A mikronaychadan B mikronaychaga dastachasi chiqqan bo‘ladi. A mikronaychadan markazga qarab bog‘lamcha chiqqan bo‘lib, u markazdagi mikronaychalarни o‘rab turgan tuzilmaga yo‘nalgan.

Bazal tanacha va aksonema bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, bazal tanacha tripletining A va B mikronaychalari o‘z davomini aksonema dupletidagi A va B mikronaychalarda topadi.



Xivchin aksонемаси тузилишининг схемаси.

Kiprikcha va xivchinlar asosida ko‘pincha ildizchalar yoki kinetodesmalar uchrab, ingichka fibrill tolalari tutamidan iborat bo‘ladi. Kinetodesmalar bazal tanachadan o‘tib sitoplazmaning quyi qatlamigacha yadroqacha o‘sib kiradi, uning vazifasi hali aniqlanmagan.

Sentriolalar va bazal tanachalar o‘rtasidagi bunday o‘xshashliklar ular kelib chiqishining gomologikligi to‘g‘risidagi fikrni keltirib chiqaradi.

Bu taxminlarga asosan, sentriolalar ham bo‘linish mikronaychalarini, ham kiprikcha va xivchinlarni hosil qilishda ishtirok etadi. Bular o‘rtasidagi o‘xshashliklar faqat morfologik jihatdan emas, balki ko‘payish xususiyatlari jihatidan ham bir xil. Bazal tanachalar oldida prosentriolaga o‘xshash tuzilma yuzaga kelib kattalashishi kuzatilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kiprikchalar sentriolaning faolashib aksонемани o‘stirishi va natijada o‘zi shu kiprikchaning bazal tanachasiga aylanishi natijasida hosil bo‘ladi.

Kiprikcha va bazal tanachalar kimyosi. Aksонемадаги A mikronaychalar tarkibida dinein oqsili topilgan. Mikronaychalar tarkibidan bu oqsil olib tashlansa, aksонемалар harakatdan to‘xtaydi. Undan tashqari tubulin oqsili uchraydi.

Kiprikcha va xivchinlar harakat a’zolari. Xivchinlarga ega bir hujayrali organizmlar tanasining xivchin joylashgan tomoni bilan oldinga qarab harakatlanadi. Ko‘p kiprikchali organizm- infuzoriya kiprikchalari to‘lqinsimon harakat qiladi. Ichak epiteliysi yuzasidagi kiprikchalar suyuqliklarning harakatini ta’minlaydi.

Kiprikcha va xivchinlarning harakati A mikronaychasi tarkibidagi

ATFaza faolligiga ega bo‘lgan dinein oqsili bilan bog‘liq. Ma’lumki, mushak hujayralarining harakati ikkita fibrill oqsillari-miozin va aktinning bir-biriga nisbatan sirpanishi natijasida kelib chiqadi. Shunga asoslanib taxmin qilinadiki, kiprikchalarining harakati ham dupletdag‘i ikkita mikronaychalarining bir-biriga ishqalanishi natijasida kelib chiqadi. Dinein oqsili mikronaychalarining sirpanib ishqalanishini ta’minlaydi deb hisoblanadi.

Ba’zi bakteriya hujayralari ham harakat a’zosi xivchinlarga ega. U **flagella** deyiladi va tuzilishi hamda kimyoviy xususiyatlari bilan eukariotlar xivchinidan farq qiladi. Bakteriya xivchinlari plazmatik membrana bilan o’ralmagan bo‘lib, flagellin oqsilidan iborat. Flagillin Ichi bo‘sh naychalarini xosil qilib, ular 8-10 subbirlikdan tuzilgan.

Bo‘linish duki mikronaychalarini hayvon hujayralari bo‘linish apparatida ikkita zonadan iborat: ikkita sentrosfera zonasini va ular orasida joylashgan bo‘linish duki (axromatin duki) tolalari zonasini. Bu zonalarda ko‘p sonli mikronaychalar mavjud. Mikronaychalar bu apparatning markaziy qismida sentriolalar atrofidagi sentrosfera va xromosomalarning sentromerasiga yaqin kinetoxor uchastkalarida hosil bo‘ladi.

Bo‘linish dukida ikki xil tolalar farqlanadi: qutbdan qutbga tortilgan uzlusiz tolalar va xromosoma tolalari – xromosomalarni qutblarning biri bilan tutashtiruvchi. Ular orasida oraliq tolalar - tarqaluvchi xromosomalarda uchraydigan va uzuluvchi ya’ni bir qutbdan chiqib ikkinchisiga yetib bormagan tolalar uchraydi.

Shunday qilib, hayvon hujayralarida mikronaychalarining hosil bo‘lish markazi sentriolalar va xromosomalarning kinetoxor uchastkalarini hisoblanadi.

Yuksak va tuban o’simlik hujayralari va ba’zi sodda organizmlar mikronaychalaridan iborat bo‘linish apparatini sentriolalar ishtiropkisiz hosil qiladilar. Bu holda mikronaychalar hosil qilish markazi kinetoxor uchastkalaridan tashqari hujayraning qutblaridagi membranalar tutami va yadro membranasi bilan bog‘langan zich plastinkalar hisoblanadi.

Kiprikchali infuzoriyalarning kipriklari asosida ko‘plab bazal tanachalar joylashgan bo‘lishiga qaramay, bularda ham bo‘linish apparati sentriolalar ishtiropkisiz boradi.

Kimyoviy jihatdan bo‘linish duki 90% oqsil, 6% RNK, lipid va polisaxaridlardan tuzilgan.

Sentriolyar sikl. Hujayra sikli davomida sentriolalarning faolligi o'zgarib turadi. Mitoz vaqtida hujayra markazlarida ikkitadan diplosomalar joylashib, ularning biri ona ikkinchisi qiz sentriol. Qiz sentriol uchi ona sentriolga qaragan bo'ladi. Ona sentriol mitozning hamma fazasida maxsus ingichka fibrillalar zonasi bilan –fibriollyar galo bilan o'ralgan bo'ladi. Bu galodan mikronaychalar chiqadi. Qiz sentriolda galo ham mikronaychalar ham bo'lmaydi. Bo'linish dukini hosil qilishda asosan ona sentrioladan chiqqan mikronaychalar ishtirok etadi. Yangi mikronaychalar sentriolalarning o'zidan emas, ularning galo qismidan o'sib chiqadi. Sentriolalar bu mikronaychalarni polimerizatsiyasida ishtirok etadi.

Telofazani oxirida bo'linish dukining buzilishi kuzatiladi. Ikkita sentriol o'zaro perpendikulyarligini yo'qotib bir-biridan biroz uzoqlashadi. Ona sentriola atrofida mikronaychalar kuzatilmaydi. Interfaza davrida ona sentriol atrofida satellit deb ataluvchi o'simtalar hosil bo'lib, ulardan mikronaychalar o'sa boshlaydi. Bular sitoplazma mikronaychalaridir. Mikronaychalar o'sgan sari sentrioladan uzoqlashib u bilan aloqasi uziladi, uning o'rniда yana yangilari hosil bo'ladi, eskilari parchalanadi. Shunday qilib hujayrada mikronaychalarning hosil bo'lish konveyri yuzaga keladi.

Hujayraning keyingi bo'linishiga tayyorgarchilik ko'rganda ikkala endi ona sentriolalar atrofida satellitlar yo'qolib fibrillyar galolar paydo bo'ladi va ikkala sentriolalar atrofida mikronaychalar o'sa boshlaydi.

Bo'linmayotgan hujayralarda sentriolalar sitoplazma mikronaychalarini va kiprikchalar mikronaychalarini hosil qiladi.

Hujayradagi tuzilmalarning joylashgan joyi shunchaki tasodifdan kelib chiqmaydi. Hujayra arxitektori va dizayneri - sentriolalar. Ular hosil qilgan mikronaychalar bo'ylab poyezd relsda yurgandek ko'pgina modda va tuzilmalar, xromosomalar harakat qiladi. Harakat qiluvchi bir hujayralilarda ham bu xususiyatni sentriolalar hosil qilgan mikronaychalar bajaradi.

Diplosomadagi qiz sentriolada birinchi bo'linishda hali mikronaychalari bo'lmaydi, uning mikronaychalari faqat hujayraning ikkinchi bo'linishida hosil bo'ladi. Ona sentriol uni qo'lidan ushlab kerakli joyga olib borishi kerak. Chunki shunday qilmasa ona sentriol bilan qiz sentriol orasida aloqa uzilib, hujayradagi buzilishlarga olib

keladi. Sababi, qiz sentriol mustaqil ravishda kerakli joyini topa olmaydi.

Ma'lumki, sentriolalar yadro bilan bog'liq bo'lmasa xromosomalarini qayerga olib borishni bilmash edi. Organoidlarning hujayradagi joyini sutevizuvchilarda yadro belgilaydi. Xlamidomonada suv o'tida aksincha, sentriolalar yadroga qaysi organoidni qayerga joylashtirish haqida "buyruq" beradi.

4. Hujayraning tayanch-harakat tizimi. Sitoskelet

Hujayrada turli harakatlar amalga oshadi. Xromosomalarning qutblarga harakati, hujayra organoidlarining sitoplazmadagi harakati, hujayra tashqi qobig'ining harakati, sitoplazma harakati, bir hujayrali organizmlarning psevdopodiyalari (soxta oyoqchalar), kiprikcha va xivchinlar yordamidagi harakat. Bu harakatga olib keluvchi tuzilmalar doim biror tayanch, karkas tuzilmalari bilan birgalikda keladi, shuning uchun hujayraning tayanch harakat tizimi deb ataladi. Hujayraning sitoskeletini mikrofibrillalar, mikronaycha va oraliq filamentlar hosil qiladi.

Mikrofibrillalar ko'p hujayrali organizmlarning qisqaruvchi tuzilmalari-miofibrillalarni hosil qiladi. Skelet mushaklarida uchraydi. Yurak miofibrillari yo'l-yo'l bo'lib ko'ringani uchun (yo'llari ko'ndalang ko'rinishga ega bo'lgani uchun) ko'ndalang-targ'il deyiladi. Funksional birligi-sarkomer. Miofibrill mayda protofibrillardan iborat. Protofibrillarning ingichka iplari - aktin oqsilidan, yo'g'onlari miozin oqsilidan iborat. Tolalarning qisqarishi hisobiga muskul ish bajaradi. Silliq muskullarda ham aktin-miozin kompleksi bor, lekin sarkomerlar hosil qilmaydi.

Mikrofilamentlar - ingichka oqsil iplari. Sitoplazmaning kortikal qismida va harakat qiluvchi hujayralarning psevdopodiyalarida, mikrotukchalar tarkibida ko'p. Suv o'tlarning xloroplastlari harakatini mikrofilamentlar amalga oshiradi. O'simlik hujayrasidagi sikloz xam mikrofilamentlar amalga oshiradi.

Oraliq filamentlar iplarining diametri mikronaychalardan kichikroq, mikrofilamentlardan kattaroq bo'lgani uchun shunday nomlanadi. Epiteliyda keratin, mushakda-desmin, biriktiruvchi to'qima, tog'ay, suyak to'qimasida- vimentin oqsilidan iborat.

Odam oyoq va qo'1 kafti epitelisida oraliq filamentlarning keratin oqsili tuzilishi epiteliy keratinidan farq qiladi. Bu esa oyoq tagi va qo'1 kaftiga tushadigan og'irligining kattaligi bilan tushuntiriladi. Bu yyerdag'i keratin katta og'irlikka chidamli filamentlarni ajratadi. Bu oqsil gen mutatsiyasiga uchrasa, terining shu joydagi mustahkamligi yo'qalib - kasallik rivojlanadi. Oraliq filamentlar to'qima va hujayralarga mustahkamlik beradi. Oraliq filamentlar birlashib tonofibrillarni hosil qiladi, ular esa plazmatik membrana yuzasida desmosomalar bilan bog'lanib mustahkam karkasni("skeletini") hosil qiladi.

Mikronaychalar

Mikronaychalar - membranasiz, tubulin oqsilidan iborat tuzilma bo'lib eukariotlar uchun xosdir. Sitoplazmada erkin holda joylashib, bo'linish duki takribida, sentriolalar, bazal tanachalar atrofida uchraydi. Kiprikcha va xivchinlarning asosiy hosil qiluvchi elementlari. Ichi bo'shilq to'g'ri silindrler, uni hosil qilishda 13 subbirlikdan iborat bo'lgan protofilamentlar ishtirok etadi.

Mikronaychalar o'zi yig'ilib hosil bo'ladi. Buning uchun tubulin oqsili, magniy ionlari bo'lishi va kalsiy ioni bo'lmashligi kerak. Ana shu sharoitda mikronaychalar o'zidan - o'zi hosil bo'ladi. Avval tubulindan iborat qavatlar hosil bo'lib, keyin ular naycha ko'rinishida yiqiladi va uzunasiga o'sa boshlaydi. Sitoplazmada doim mikronaychalar yig'ilib parchalanib turadi. Sun'iy ravishda mikronaychalarni kolxit-sin (yoki kalsiy ioni) moddasi ta'sirida parchalash mumkin. Lekin uning ta'sirida faqat kiprikcha va xivchinlarning mikronaychalari parchalanmaydi, ular turg'un bo'ladi. Mikronaychalari buzilgan hujayra-da ular faqat mikronaychalarni hosil qiluvchi markazda sintezlanadi. Bunday markazlar sentriolalar, bazal tanachalar va o'simliklarda xromosomalarning kinetoxor uchastkalarida joylashadi.

Sitoplazma mikronaychalar

Gialoplazmadagi mikronaychalar asosan sitoplazma hosilalari: nerv hujayralari, shaklini o'zgartiruvchi hujayralarda bo'ladi. Ularning vazifasi elastik turg'un sitoskeletni hosil qilish.

Mikronaychalar mitoxondriya, pigment granulalari, plazmatik membrana, sekretor pufakchalar bilan bog'liq bo'lib, ularning harakatini amalga oshiradi. Tajribada mitoxondriyalarning harakati hu-

jayraga kolxitsin ta'sir ettirganda to'xtagan.Umuman mikronaychalarining vazifasi ikki xil skelet va harakat. Skelet vazifasi: sitoplazmada joylashib hujayra shaklini muvozanatlab turadi. Murakkab shaklga ega hujayralar mikronaychalari yo'qolganda shar shakliga kiradi. Harakat vazifasi: pinotsitoz, fagotsitoz, leykotsitlar, fibroblastlar. Ularning ishi temir yo'llariga (rechlarga) o'xshatishadi – ular poezdni yurg'izmaydi, lekin ularsiz-relsiz-poezd yurmaydi.

Actinni-biriktiradigan oqsillar

Tozalangan aktin ichkarida polimerlashib aktin to'ldiruvchilarni shakillantirishi mumkin, ammo bu to'ldiruvchilar bir biri bilan aloqaga kirishmaydi va foydali faoliyatni amalgalashmaydi. Mikroskop ostida ular somon bilan qoplangan saroy polini eslatadi. Aksincha tirik hujayralardagi aktin to'ldiruvchilari turli to'plamlarni tashkil qiladi, shu jumladan bog'larning har xil turlari ingichka (ikki o'lchamli) tarmoqlar va murakkab uch o'lchamli gellar (9.64rasm). Hujayra ichidagi aktin to'ldiruvchilarning tuzilishi va o'zini tutishi aktinni biriktiradigan oqsillarning xilma-xilligini o'zaro tasiri bilan belgilanadi.




Figure 9.64 rasm. Hujayra ichidagi aktin to‘ldiruvchilarini ikki turdag'i tuzilmasi. Keyinchalik bo‘limda tasvirlangani kabi hujayralar substrat bo‘ylab harakatlanib har xil jarayonlarni amalg'a os-hiradi. Bu harakatlanuvchi fibroblastning asosiy uchining electron mikrografiysi aktin filamentlarini (to‘ldiruvchilarini) yuqori zichligini ko‘rsatmoqda. Bu to‘ldiruvchilar ikkita aniq o‘qlar ichiga yig‘ilganligi nazarda tutilgan: bir biriga parallel joylashgan toldiruvchilarining to‘plamlari va qarama – qarshi birikkan, to‘ldiruvchilar turli yo‘nalishlarda joylashgan o‘qlar.

Bu oqsillar aktin to‘ldiruvchilarini joyidagi yig‘ilishiga yoki tar-qalishiga ularning tirik xususiyatlariغا, ularni bir biri bilan va hujayra organlari bilan munosabatiga tasir qiladi. 100dan ortiq turli ko‘p sonli oilalarga tegishli bo‘lgan aktinni biriktiradigan oqsillar turli hujayra turlaridan ajratib olindi. Aktinni biriktiradigan oqsillarni hujayradagi taxminiy vazifalari asosida bir necha toifaga ajratish mumkin:(9.65 rasm)

1 Nukleotin oqsillar. Birinchi bosqichda aktin to‘ldiruvchisini shakllantiradigan eng sokin qadam – nukleotinlash bo‘lib u polimer shakllanishi uchun kamida ikki yoki uchta aktin monomerlarini te-gishli hududda birlashishini talab qiladi. Bu aktin molekulalari uchun mustaqil amalga oshadigan eng noqulay jarayon. Avval takidlangan-dek aktin to‘ldiruvchisini shakllanishi monomerlar qo‘shilishi mum-kin bo‘lgan urug‘ yoki yadroning mavjudligi bilan tezlashtiriladi. (9.47a rasm) Aktin to‘ldiruvchilarini nukleotinlanishini taminlaydigan bir necha oqsillar aniqlangan.

Eng yaxshi o‘rganishlar Arp 2/3 majmuasi bo‘lib u ikkita “aktinga aloqador oqsil” yani aktinlar bilan ahamiyatli ketma-ketlik gomologiyasi bir xil ammo “haqiqiy” aktin deb tan olinmagan oqsillardan iborat. Majmua faollashtirilgan zahoti ikkita Arp aktin monomerlari qo‘shilishi mumkin bo‘lgan shablon shaklini oladi xuddi shu tarzda ytubulin mikrotubulin nukleotidlanish uchun shablon vazifasini o‘taydi. (9.20c rasm). 378 sahifada keltirilganidek Arp 2/3 majmuasi qisqa tarmoqlangan aktin to‘ldiruvchilarining naychalarini ishlab chiqaradi. Nukleotidlanadigan oqsillarning boshqa bir oilasi *forminlar* bo‘lib ular tarmoqlanmagan shu jumladan muhim yopishqoqlik qobiliyatiga ega bo‘lgan (248bet) va bo‘linadigan hujayralarni parchalanadigan halqlarida uchraydigan to‘ldiruvchilarini ishlab chiqaradi (14.2 bo‘lim).

Arp 2/3 yangi shakllangan to'ldiruvchini o'tkir uchida tursa, forminlar yangi birliklar o'sha tomonda bo'lsa ham tikanli uchi bilan tiqiladi. Shunday qilib forminlar nafaqat aktin to'ldiruvchilarni yaratadi, balki ular yaratishga yordam bergen to'ldiruvchilarni keskin uzayishini ham taminlaydi.

2 Monomer o'zlashtiruvchi oqsillar. Timosinlar (masalan timosin (3₄).aktin ATP monomerlariga birikadigan(ko'pincha G aktin deb ham ataladi)va ularni polimerlanishdan saqlaydi.

Bunday faoliyatlari oqsillar aktin monomerini o'zlashtiruvchi oqsillar deb ataladi. Bu oqsillar G-aktinni mushaksiz hujayralarda nisbatan yuqori zichlikda bo'lishiga ma'sul deb hisoblanadi(50-200nM). Monomer o'zlashtiruvchi oqsillar bo'lmasa sitoplazma bo'ylab eruvchan aktin monomerlari polimerlanish natijasida to'ldiruvchilarga deyarli to'liq aylanishiga moyillik bo'ladi. Ularning G aktinni biriktirib monomer holatini barqarorlashtirish qobiliyati tufayli , monomer o'zlashtiruvchi oqsillarning zichligi yani faoliyati hujayrani ma'lum bir hududidagi monomer-polimer muvozanatini siljishini va o'sha vaqtdagi polimerlash yoki depolimerlash jarayonini aniqlaydi.

Ta'kidlash joizki bu oqsillarning ba'zilari aytilgan faoliyat turlarining bittadan ko'pini bajarishlari mumkin va bu aktinni biriktridigan oqsillarning zichligiga va mavjud sharoitlarga bog'liq. (m-n Ca²⁺ va H⁺ zichligiga)Bu tadqiqotlarning ko'pchiligi hujayra ichida o'tkaziladi, shu sababdan hujayra ichida natijalarni aniq ko'rish ancha qiyinchilik tug'diradi.


3. Oxirini bloklaydigan (berkitadigan) oqsillar. Bu turdag'i oqsillar aktin to'ldiruvchilarni uzunligini ularning biror uchiga birikib ularni uchini berkitadi va kichik birliklarni qo'shilishi yoki yo'qolishini oldini olish orqali boshqaradi. Agar to'ldiruvchining tez o'sayotgan tikanli uchi berkitilsa, depolimerlash jarayoni nargi uchida davom etib to'ldiruvchini tarqalishiga olib keladi. Nargi uchi ham berkitilsa depolimerlash jarayonini oldini oladi. Mushakning ingichka to'ldiruvchilari 2 chizig'ida tikanli uchini berkituvchi 2 deb nomlangan oqsil berkitsa , nargi uchi tropomodulin deb nomlangan oqsil bilan berkitiladi. Agar tropomodulin berkituvchisi mushak hujayra ichiga kiritilgan begona jismilar mikroineksiysi tomonidan bezovta qilinsa, ingichka to'ldiruvchilar ularning yangi shakllangan uchiga ko'proq aktin birliklarini qo'shadi va sanromer o'rtasida keskin uzay-

ishga duchor bo‘ladi.

4 Monomerni – polimerlashtiradigan oqsillar. Profilin kichik oqsil bo‘lib timosin birikkan aktin monomerining uchiga birikadi. Bi-roq polimerlanishga to‘sinqilik qilish o‘rniga profilin aktin to‘ldiruv chilarningo‘sishiga yordam beradi. Profiling bunga aktin monomeriga birikib unda birikkan ADPni dissotsiyasini katolizlash va u ATP-a aylanishi natijasida erishadi. Keyin profilin-ATP aktin monomer o’sayotgan aktin to‘ldiruvchisini bos tikanli uchiga aylanadi va u profilinni ozod qiladi. Tikanli uchida to‘ldiruvchining uzayishi keyinchalik Ena/VASP oqsil oilasi vakillari tomonidan targ‘ib qilinadi.

5 Aktin to‘ldiruvchisini depolimerlashtiradigan oqsillar. Oqsillarning kofilin oilasi azolari (shu jumladan kofilin ADF depaktin) aktin ADP birliklariga va aktin to‘ldiruvchilarining muayyan uchlariga birikadi. (18.33 rasmga qarang)

Kofilin ikkita aniq faoliyatini bajaradi, u aktin to‘ldiruvchilarini parchalaydi va ularning muayyan tomonida depolimerlash jarayonini ta’minlaydi. Bu oqsillar sitoskalet tizmining o‘zgarishlar tomonidagi keskin aylanishlarda muhim rol o‘ynaydi. Ular hujayra siljishi, tagositoz va sitokinezda muhim ahamiyatga ega.




6 Qarama qarshi birikadigan oqsillar. Bu guruh oqsillari uch o‘lchovli aktin to‘ldiruvchilar tuzilmasini o‘zgartirishga qodir . bu oqsillarning har birida iikita yoki ko‘proq aktin biriktiradigan tomonlar bor. Shu sababdan ikki yoki ko‘proq alohida aktin to‘ldiruvchilar qarama qarshi birikadi. Bu oqsillarning ayrimlari (filamin) uzun egiluvchan xipchin shakliga ega bo‘lib, ular to‘g‘ri burchak ostida bir biri bilan

o'zaro bog'langan to'ldiruvchilar tarmog'ini shakllanishiga xizmat qiladi. (9.64 rasmdagiga o'xshab) Bu kabi tarmoqlarga ega sitoplazma hududlari mahalliy mexanik bosimga qarshilik ko'rsatadigan uch o'lchamli elastic gel xususiyatlariga ega.

Boshqa kesishib birikadigan oqsillar (masalan vili va fimbrin) ko'proq shar shakliga ega bo'lib, aktin to'ldiruvchilarni tor, mahkam, parallel o'qlarga birikishini taminlaydi.(9.66 rasm) Bunday o'qlar muayyan epiteliy hujayralaridan yoki ichki quloqning retsoptor hujayrasining sochsimon sterosilasidan olingan mikrovilida topilgan. (9.54 rasm)

To'ldiruvchilarning biriga birikishi ularning qattiqligini oshirib, bu sitoplazmatik loyihalar uchun ichki sklet vazifasini o'tashga imkon beradi.



7. To'ldiruvchini kuchaytiradigan oqsillar. Bu sinf oqsillari mavjud bo'lgan to'ldiruvchining uchiga birikib uni ikkiga bo'lish xususiyatiga ega. Kuchaytiruvchi oqsillar (M.n. Gelsolin) aktik monomerlarning qo'shimcha, bo'sh tikonli uchlarni shakllantirish orqali birlashishini ta'minlaydi, ya'ni ularko'rsatilgandek, kofelin ham to'ldiruvchilarni kuchaytirishga qodir.

8. Membranani biriktiradigan oqsillar.

Mushaksiz hujayralarning aksariyat qisqaruvchi mexanizmlari bevosita plazma membranasini ostida joylashgan. Ko'p sonly faoliyat paytida qisqaruvchi oqsillar ishlab chiqaradigan kuchlar plazma membranasiga ta'sir ko'rsatib, uni tashqariga chiqaradi (m.n hujayra siljish paytida sodir bo'ladi) yoki ichkariga kiritadi (fagotsitoz yoki sitokinesis davrida sodir bo'ladi). Bunday faoliyat antik to'ldiruvchilarni

plazma membranasiga bilvosita peripheral membranani biriktiradigan vositalar orqali birikishi orqali amalga oshiriladi. Avvalgi bo‘limlarda ikkita misol tasvirlangan edi: eritrotsitning membrane skleti ichiga qisqa aktik polimerlarning qo‘shilishi (4.53 d rasmga qarang) va aktik to‘ldiruvchilarining membrane bilan yopishish va tutashish joyidagi to‘qnashuvlar (7.17 va 7.26 rasmlarga qarang) membranani aktikka biriktiradigan oqsillar shu jumladan vinkulin ham ERM (esrin, radiksin va moesin) oilasi va spektrin oilasi (distorfin – mushak distrofibiysi uchun ma’sul) a’zolari hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Ribosoma nima?
2. Sitoplazmaning mikrotubullyar va fibrillyar tuzilmalari qanday faoliyat yuritadi?
3. Bazal tanacha, kiprikcha, xivchin nima funksiyani bajaradi?
4. Hujayraning tayanch-harakat tizimiga nimalar kiradi?

TEST SAVOLLARI

1. O‘z-o‘zidan ko‘paya oladigan organoidni aniqlang.

- A) sentriola
- B) hujayra markazi
- C) ribosoma
- D) mikrofibrillalar

2. Sitoskeletni hosil qiluvchi organoidlarni belgilang.

- A) sitoplazma, mikronaychalar
- B) mikrofibridlar, endoplazmatik to‘r
- C) mikrofibrilla, mikronaychalar
- D) kiprikchalar, xivchinlar

3. aktin va miozin oqsillaridan iborat.

- A) mikrofibrillalar
- B) mikronaychalar
- C) hujayra markazi
- D) sen- trosfera

4. Hujayra markazi qanday jarayonlarda ishtirok etadi?

- A) hujayraning bo‘linishida
- B) fagotsitozda
- C) pinotsitozda
- D) hujayra devorining tuzilishida

**5. Mitoxondriya va plastidalardagi ribosomalar sitoplazmada-
gi ribo- somalardan qanday farq qiladi?**

- A) kichikroq bo‘ladi
- B) kattaroq bo‘ladi
- C) piptid bog‘lar hosil qilmaydi
- D) farqi yo‘q

MA'RUZA 7. XROMATIN VA UNING FAOLIYATI

Reja:

1. Yadro.
2. Yadroning asosiy komponentlari.
3. Xromosomalar morfologiyasi.
4. Kariotip.
5. Hujayra sikli.

Tayanch iboralar. Yadro, xromosoma, xromatin, DNK, meyoz, mitoz.

Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: talabalarga xromatining funksional holatlari, xromatin oqsillari, DNK kompaktizatsiyasi (taxlanishi) haqida tushuncha berish.

Mashg‘ulot jihozlari: DNKnинг taxlanish darajalari, xromatining interfaza va mitotik xolati aks etgan rasmlar. Odam xromosomalari, xromosomalar morfologiyasi tasvirlangan jadval.

1. Yadro. Yadro apparati hujayraning universal subtizimi bo‘lib, ba’zi hujayralarda uchramaydi. Prokariotlarda yadro rolini nukleoid bajaradi. U halqasimon DNKdan iborat bo‘lib, gialoplazmadan chegaralanmasdan mezosomaga birikib turadi.

Eukariot hujayralarda yadro nukleus (lotincha) yoki karion (yuno-nicha) bo‘lib, Robert Broun tomonidan 1831yilda o’simlik hujayralarida va Teodor Shvann tomonidan 1838 yilda hayvon hujayralarida topilgan.

Yadro sitoplazma bilan doimiy o‘zaro munosabatda bo‘lib, u bilan birga hayotiy jarayonlarda ishtirok etadi. Yadrosiz hujayralarning asosiy hayotiy faoliyati to‘xtaydi. Yadrodan mahrum bo‘lgan amyoba oziqlanishi mumkin, ammo uni hazm qilolmay tezda nobud bo‘ladi.

Yadrosiz hujayralarning bo‘linishi to‘xtaydi. Masalan, bir hujayrali suv o‘ti atsetabulyariya (*Acetabularia penicillus*) ko‘ndalang kesilganda, yadrosiz soyabon qismi halok bo‘ladi.

Yadro juda murakkab faoliyatlarni bajaradi; yadro hujayraning eng zarur qismi bo‘lib, barcha hayotiy jarayonlarni boshqaradi; yadro irlsiy belgilarning nasldan- naslga berilishida va hujayrada oqsilni moddalar sintezlanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Yadro va uning tarkibiy qismlari hujayraning interfaza holatida o'rGANiladi. Yadro umumiy tuzilishga ega bo'lsa ham - ular kattaligi, shakli hamda ichki tuzilmalarining rivojlanishi, ko'rinishiga ko'ra farqlanadi. Ko'pincha hujayralarning yadrosi yumaloq, tuxumsimon shakllarda bo'ladi. Yadroning shakli hujayraning shakliga mos bo'ladi, faqat ba'zi hujayralarda noto'g'ri shaklda ham bo'lishi mumkin. Sharsimon, kubsimon, ko'p qirrali hujayralarda yadro yumaloq shaklga ega. Prizmatik, silindrsimon hujayralarda yadro uzun ellipssimon, yassi hujayrada esa duksimon bo'ladi. Noto'g'ri shakldagi yadrolarga ba'zi bir leykositlarning yadrosi misol bo'ladi.


Yadro hujayrada asosan bitta (bir yadroli hujayrada) yoki ikkita (ikki yadroli hujayrada) bo'ladi. Masalan, infuzoriya tufelkasida ikkita yadro, ya'ni katta yadro (makronukleus) va kichik yadro (mikronukleus) bo'ladi. Ko'p yadroli hujayralar yoki simplastlar ham mavjuddir. Masalan, karnaychi degan infuzoriyaning yadrosi tasbehsimon, qizil ko'mikdag'i hujayralarda uzuksimon, leykositlarda kolbasimon segmentlangan bo'ladi.

Yadroning o'lchami, kattaligi turlicha bo'lib, 4 mkm dan (spermatozoid) 40 mkm gacha (tuxum hujayra) bo'ladi. Yadro o'lchami sitoplazma o'lchamiga ko'pincha to'g'ri proporsional. Yadro va sitoplazmaning hajm nisbati yadro-plazma nisbati deb ataladi.

Yadroning hujayrada joylashishi har xil bo'lib, hujayraning faoliyati va shakliga bog'liq bo'ladi(19rasm).

Differsiatsiyalashmagan (maxsus vazifani bajarishga o'tmagan) hujayralarda yadro geometrik markazda joylashadi.

Hayvon va odamlarning bez hujayralarida yadro hujayralarning bazal qismida joylashib, apikal qismi secret mahsuloti bilan band bo'ladi.



19-rasm. Yadroning tuzilishi. 1-tashqivaichkimembranasi;
 2-yadroporasi; 3-kondensatsiyalashganxromatiniplari;
 4-diffuzxromatin; 5.-yadrocha; 6- interxromatingranulalar;
 7-perixromatingranulalar; 8-perixromatinfibrillalar;
 9-karioplazma.

O'simlik hujayralarda yadro yosh hujayralarning markazi da joylashib, differensiatsiyalashgan va qari hujayralarda chekka qismlarga ko'chadi, chunki hujayraning markazini hujayrashirasi bilan to'lgan vakuola egallaydi.

Yadroning tuzilishi hujayra hayotining turli davrlarida kechadigan metabolic jarayonlar bilan bog'liqidir. Hujayra ontogenezi davomida yadro tuzilishi o'zgarib turadi, ayniqsa bu narsa hujayra bo'linishga tayyorganlik ko'rayotganda vaturli tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladi.

O'simlik hujayrasi yadrosi sitoplazmaga nisbatan ancha quyuq bo'ladi. Umuman yadroichikon sistensiyasi (tarkibi) balzam, glitseringa yaqin bo'ladi. Lekin ba'zi o'simlik yadrolari shunday zinch kon-sistensiyaga egaki, ularni bo'laklarga kesish mumkin, ba'zilarida esa yarimsuyuq holda bo'ladi.

Yadro shaklini o'zgartirish xususiyatiga ega. Ba'zan yadrolar shaklini o'zgartirib ipsimon shaklga o'tadi. Aynan shu shaklda achitqi zamburug'i hujayrasidagi yadroktaklanish yo'li bilan hosil bo'lgan yangi hujayraga ko'chadi.

Yadroning asosiy komponentlari. Yadroning asosiy komponentlari oqsil, nukleinkislotalar, lipidlar, fermentlar va mineral tuzlardir.

Yadro tarkibiga oddiy va murakkab oqsillar kiradi. Oddiy oqsillardan giston va globulinlar uchraydi. Murakkab oqsillar tarkibi aminoguruhdan tashqari qo'shimcha yana nuklein kislotalar, uglevod guruhi uchraydi (nukleoproteidlar, glikoproteidlar). Lipidlar tomchilar ko'rnishida yoki proteidlar bilan qo'shilib lipoproteidlar ko'rnishida uchraydi. Oqsillar miqdori o'zgarib turadi. Ular yadro quruq og'irligining 10-20% ni tashkil qiladi. Oqsil sintezining faol davri interfazadir.

Nuklein kislotalarning ikki xili: DNK va RNK uchraydi.

Yadroning asosiy kimyoviy komponenti DNK bo'lib, u xromosomalar tarkibiga kiradi. DNK avloddan-avlodga genetik axborotni uzatadi; oqsil sintezini kodlaydi. Hujayra yadrosidan DNKn birinchi marta 1869 yilda F. Misher ajratib olgan. Bu modda tarkibida azot va fosfor borligini aniqlagan va unga nuklein deb nom bergan. 1914 yilda Fyolgen DNKa rangli reaksiyani ko'rsatib bergen. O'n yildan so'ng Fyolgen o'z reaksiyasiga asoslanib, DNKnning xromosomalarda joylashganligini ko'rsatgan.

DNK dan tashqari hujayra yadrosida uch xil: informatsion, ribosomal va transport RNKlar bor. Yadroda har xil fermentlar ATF-aza, glikolitik fermentlar bor, lekin oksidlanish fermentlari uchramaydi.

Yadroda kalsiy, magniy, natriy, fosfor, temir, rux, mis, kobalt va boshqa elementlar ham topilgan.

Yadro ikki guruh umumiy vazifalarni bajaradi: 1.genetik material - DNKn -o'zgarmasligini saqlash. 2. Genetik materialni keyingi avlodlarga uzatilishini amalga oshirish va oqsil sintezini boshqarish. Yadroda DNK replikatsiyasi amalga oshib yangi hosil bo'lgan hujayralarga genetik material teng taqsimlanadi. Meyoz natijasida DNKnning yangi rekombinatsiyalari vujudga keladi.


Yadro: yadro tashqi apparati, yadro shirasi, matriksi, genetik materialdan tarkib topgan.

Yadroning tashqi apparati yoki karioteka (*teka-futlyar,korobka*): yadro qobig'i, poralar kompleksi va laminadan yoki plastinkadan tashkil topgan(19rasm).

Yadro membranasi yoki **kariolemma** (*lemma-qobiq*) ikkita suyuq mozaikali tashqi va ichki membranalardan iborat bo'lib, ular orasi-

da perinuklear bo'shliq joylashadi. Tashqi membrananing ba'zi joylari donador endoplazmatik to'rga o'tib uning yuzasida ribosomalar joylashadi. Yadro membranasi o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lib u orqali ionlar, kichik molekulalar: aminokislota va nukleotidlар o'tadi. DNKaza kabi oqsillar yadroga erkin o'tadi. Shu tarzda yadrodan tashqariga ham moddalar chiqariladi. Shuningdek yadro qobig'i orqali moddalar o'tishining yana bir yo'li membrana yuzasida o'simta paydo bo'lib, u yadro membranasi bilan o'ralib vakuol ko'rinishida sitoplazmaga chiqadi. Tashqi va ichki membranalar ba'zi joylarida birikib bu yerlarda yadro poralari joylashadi.

Yadro poralari birgalikda poralar kompleksini tashkil etadi. Yadro poralari geterogen oqsil tuzilmasisiga ega. Tashqi va ichki membranalarda poralar joyida 8 tadan oqsil globulalari joylashadi. Pora kompleksining markazida markaziy globula joylashib u chekka globulalar bilan fibrill tolalari orqali birikadi. Markaziy globulada kanal bo'lib, u orqali gialoplazmaga sintezlangan iRNK chiqadi. Poralar kompleksi tarkibida RNKaza fermenti topilgan bo'lib, bu yyerda iRNKnинг yetilishi kuzatiladi. Shuningdek yadro porasi faqat iRNKnинг emas boshqa molekulalarning ham yadrodan gialoplazmaga chiqarilishida va teskari jarayonda ishtirok etadi.



20- rasm. Yadro porasi. A - Yadro yuzasidagi ko'rinishi. B - Ko'ndalang kesmasi.
1-markaziy globula; 2-periferik globula; 3- bog'lovchi fibril tolalari; 4- sitoplazmadagi tolalar; 5- zikh plastinka; 6- perinuklear bo'shliq .

Lamina (lot. *lamina*-“plastinka”) yoki pereferik zikh plastinka kariolemmaning ichki membranasi ostida joylashib skelet oqsillardan

tuzilgan. U yadro shaklini belgilab berib poralar kompleksi bilan aloqada bo‘ladi.

Maxsus moddalar ta’sirida yadro membranasi eritib yuborilsa, yadro o‘z shaklini saqlab qoladi, bunda asosiy vazifani skelet sifatida zinch plastinka bajaradi. Yadro poralari ham o‘zgarmay o‘z vazifasini bajaradi.

Hujayraning hayot faoliyati davomida uning funksional holati o‘zgarishi bilan poralar kompleksi holati ham o‘zgarishi kuzatiladi. Yadro apparati qanchalik faol bo‘lsa uning yuzasidagi poralar soni shuncha ko‘p bo‘ladi. Faollikning pasayishi bilan yadro poralari soni kamayadi. Ular sonining ortishi mitozdan keyingi rekonstruktsiya (qayta qurilish) davrida va DNK sintezi davrida kuzatiladi. O‘rtacha ularning yadrodagisi soni 12 mingtaga boradi(20rasm).

Yadro qobig‘i mitoz boshlanganda erib ketib bo‘linish oxirida tiklanadi. Profaza oxirida yadro qobig‘i kalta sisternalarga aylanib kichiklashib mayda pufakchalar ko‘rinishida avvalgi yadroning joyi atrofida suzib yuradi. Anafazaning oxirida xromosomalarining harakati to‘xtagandan keyin pufakchalar xromosoma uchlari bilan aloqada bo‘lib, ular atrofida to‘planib avval uzun sisternalarni hosil qiladilar, so‘ng bu sisternalar birlashib membranani hosil qiladi.

Yadroning tashqi apparati sitoplazmadan karioplazmani yoki yadro shirasini –yadroning suyuq qismini ajratib turadi. Unda yadro apparatining ishi uchun kerakli ionlar va organik birikmalar erigan holda joylashadi. Karioplazmada yadro matriksi va genetik material joylashadi.

Yadro matriksi laminaga birikkan fibrillyar oqsillarning to‘ri. Unda maxsus oqsillar joylashgan zonasi bo‘lib, ulardan yadrocha matriksi rivojlanadi. Yadro matriksining vazifikasi DNK va RNK sintezi da genetik material faolligini boshqarish. Matriks hujayrada yadrochani hosil qilishda ishtirok etadi.

Yadrocha - nukleoid yadroda bir yoki bir nechta bo‘ladi. RNK ga boy bo‘lganligi uchun hamma bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi va shuning uchun hamma fiksatsiyalangan preparatlarda ko‘rinadi.

Yadrocha mustaqil tuzilma yoki organoid emas. U xromosoming mahsuli bo‘lib, interfazada faoliyat ko‘rsatadi.

Hujayra oqsillarining sintezi davrida yadrocha ribosomalar va rRNKnii hosil qiluvchi markaz bo‘lib xizmat qiladi. Yadrochalar

oqsilga 80-85%, RNKga 5-10% va DNKga 1-5% boy bo'lib, bu moddalar sintezlanadigan joy hisoblanadi. Yadrochalar hujayradagi RNK sintezlanadigan markaz bo'lib, shuningdek, nukleoproteidlarni ham hosil qiladi.

Yadrochalarni hosil qilishda xromosomalarning ikkilamchi belbog'lari ishtirok etadi. Amerikalik olima **Mak Klintok** (1902-1992) xromosomalarning bu uchastkalarini yadrocha hosil qiluvchi markaz deb atagan. Hujayradagi yadrochalarning soni yadrocha hosil qiluvchi markaz bilan bog'liq.

Yadrocha tuzilishida ipsimon va to'rsimon qismlari farqlanadi. Ipsimon qismi- nukleolonema va to'rsimon diffuz qismi -amorf modda deb ataladi.

Yadrochani sinchiklab o'rghanish mobaynida uning tarkibi zich granulalar va ingichka fibrill tolalardan iboratligi aniqlandi.

Fibrillyar komponenti markazda yig'ilib, granulalar ular atrofida joylashadi. Atrofdagi granulalar-nukleolonemani-markazdagi fibrillalar- amorf qismni tashkil etadi. Lekin ko'p hollarda tolasimon tuzilma amorf moddasiga qo'shilib yadrocha butunlay bir xil tuzilmaga ega bo'ladi.

Yadrochaning ultrastrukturasi RNK sintezi bilan bog'liq holda o'zgarib¹ turadi: rRNK ning yuqori darajadagi sintezi davrida yadrocha da ko'p miqdorda granulalarni ko'rish mumkin, sintez to'xtaganda granulalar soni kamayib yadrochalar zich fibrillyar tanachalarga aylanadi.

Yadrocha profazada "yo'qolib" (erib) o'rta telofazada paydo bo'ladi. Kechki profazada yadrocha hajmi kichrayib, granulalar soni kamayib, fibrillyar komponenti mayda bo'laklarga ajralib xromosomal artofidagi zonani to'ldirib turadi va mitotik xromosomalarning matriksi asosini tashkil etadi. Bu fibrillyar-granulyar tuzilma hosil bo'lgan qiz hujayralarga o'tadi. Erta telofazada fibrillyar tuzilmalar asta-sekin to'plana boshlaydi. RNK sintezi tiklanishi bilan granulalar hosil bo'lib yadrocha tiklanadi.


Yadroning bu tuzilmasi o'z nomini asosiy bo'yoqlarda yaxshi bo'yalgani uchun olgan (Flemming, 1880). Xromatin eukariot hujayralari genetik materiali saqlanadigan joylashgan bo'lib, DNKnинг giston oqsillari bilan birikmasidir.

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

Bu tuzilmaning hujayrada 2 xil funksional holati mavjud:

1. Interfaza xromatini - iplari yoyilgan (dekondensatsiyalashgan) faoliyatlari. Unda DNK replikatsiyasi va traskripsiya jarayonlari boradi.

2. Mitotik xromosomalar - iplari zinch (kondensatsiyalashgan) tinch holati, unda hech qanday sintez jarayonlari bormaydi. Bularning vazifasi faqatgina o'zidagi genetik informatsiyani yangi hosil bo'lgan hujayralarga taqsimlashdan iborat.



21- rasm. A. Mitotik xromosoma. .B. Interfaza xromatini.

1.Xromatidlar; 2.Sentromera; 3. Xromomera;4. Telomerlar

Xromatin tarkibida DNK bilan giston oqsillari (DNP) dan tashqari RNK ham uchraydi. DNK: oqsil: RNKning nisbati 1:1,3:0,2.

Xromosomalar tarkibidagi DNK qo'sh spiral zanjirdan iborat.

DNK zanjirining uzunligi hamma hujayralarda turlicha: ichak tayoqchasi bakteriya xromosomasidagi DNKning uzunligi 1,2 mm, drozofila pashasida 2 sm. Ba'zi amfibiyalarda DNKning miqdori odamning genetik konstitutsiyasi ancha murakkab bo'lishiga qaramay odamnikidan bir necha marta ko'p bo'ladi. Bu holni bir xil genlar bir necha bor takrorlanib kelishi bilan tushuntirish mumkin. Odamning genetik materiali DNKning 24 ta har xil molekulalaridan iborat bo'lib, ularning umumiy uzunligi 1 metrga yaqin (3 mlrd. yaqin juft nukleotidlar).

Eukariot hujayralarning biokimyoiyi tahlili natijasida ularning DNK sida nukleotidlar juftligi ketma-ketligining takrorlanib kelish chastotasiga qarab uchta fraksiyaga ajratilgan:

1. Noyob takrorlanuvchi nukleotidlar ketma-ketligi (bir yoki bir necha marta.)

2. O'rta takrorlanuvchi (100-500marotaba)

3. Ko'p marta takrorlanuvchi (1000-10 000marotaba)

DNKning noyob takrorlanishga ega uchastkalarida turli oqsillarni sintezi haqidagi informatsiya saqlanadi.

O'rta takrorlanuvchi uchastkalarda RNKning turlari sintezi haqidagi informatsiya kodlangan bo'ladi.

Ko'p marta takrorlanuvchi uchastkalar A-T, G-S bog'larga boy bo'lib, zichligi jihatidan ham farq qiladi.U satellit DNK uchastkasi deyiladi. Satellit DNK ning vazifasi DNK ni taxlanishida, gomologik xromosomalar konyugatsiyasida ishtirok etadi. Bular RNK traskripsiyasida ishtirok etmaydi.

Xromatin oqsillari

Xromatin oqsillari quruq massaning 60-70% tashkil etadi. Bular giston va giston bo'lmagan oqsillarga ajratiladi.

Giston oqsillarini xromatindan ajratib birinchi bo'lib, A.Kossel 1890 yilda o'rgangan. Gistonlar-uncha katta bo'lmagan oqsillar bo'lib, zaryadlangan lizin va arginin aminokislotalarini tutadi. Uning bu xususiyati DNK molekulasiga qattiq yopishishiga yordam beradi.

Giston oqsillar 5 fraksiyadan iborat:

1. H1 (inglizcha- *histone*)- lizinga boy giston
2. H2b o'rtacha lizinga boy giston.
3. H2a o'rtacha lizinga boy giston.
4. H3 argininga boy giston
5. H4 argininga boy giston.

Bu fraksiyalar bir-biridan molekulyar og'irligi bilan farq qiladi. H1 gistoni boshqa fraksiyalarga nisbatan 2 marta kam uchraydi. Gistonlar (H1 dan tashqari) strukturasi jihatidan o'xshashdir. H1gistoni ancha yirik - 220ta aminokislotali, qolganlari o'rtacha -102 aminokislordan iborat.

Gistonlar sitoplazmadagi polisomalarda DNK replikatsiyasidan oldin sintezlanadi. Sintezlangan gistonlar sitoplazmadan yadroga o'tib u yerda DNK molekulasi bilan bog'lanadilar va kamida to'rtta hujayra bo'linishi davomida bog'lanishni saqlaydilar. Giston oqsillari DNKning maxsus taxlanishida (kompaktizatsiya) va traskripsiya jarayonini boshqarishda ishtirok etadilar.

Giston bo‘limgan oqsillar fraksiyasiga xromatin bilan bog‘langan fermentlar va spesifik reguliyatorlik ya’ni DNKdagi nukleotidlar ketma-ketligini tanib oluvchi oqsillar kiradi.

DNK molekulasi tuzilishi

Hujayra bo‘linishidan oldin eng muhim jarayon DNK replikatsiyasi sodir bo‘ladi. DNK- biologik polimer bulib, uning monomeri dezoksiribonukleotidlar. Nukleotidlar uchta komponentdan tashkil topgan: azot asoslari (purin yoki pirimidin), pentoza va fosfat guruhi. Azot asoslari 4ta A va G (purin), T va S (pirimidin). J.Uotson va F.Kriklar 1953 yilda D NK molekulasining qo’sh spiral modelini yaratganlar, unga asosan D NK 2 ta zanjirdan iborat bo‘lib, bu zanjirlardagi azot asolari bir-biri bilan vodorod bog‘lari orqali birikadilar. Bunda A-T, G-S ga mosdir. D NK replikatsiyasi vaqtida vodorod bog‘lari uzilib har bir spiral bo‘lagi o‘zining yetishmaydigan qismini komplementar (qo’shimcha) sintezlaydi.

DNK kompaktizatsiyasi

D NKning oqsillar bilan xromatin tarkibidagi o‘zaro munosabati dan uning kompaktizatsiyasi (taxlanishi) amalga oshadi. DNP (dezoksiribonukleoprotein) molekulasi xromatin tuzilishidagi eng kichik birlik. Uning yuksak darajadagi taxlanishini mitozda ya’ni xromosoma maksimal darajada kondensatsiya lanib kompakt yig‘ilganida ko‘rish mumkin.

Xromosomalar tarkibidagi DNP fibrillarni birinchi marta 1957 yilda X.Ris topgan bo‘lib, ularga elementar xromosoma fibrillari deb nom beradi.

Odamning bitta xromosomasidagi D NK ning uzunligi o‘rtacha 4 sm. Metafaza xromosomasining uzunligi 4 mkmni tashkil etadi. Demak, odamning metafaza xromosomasidagi D NK molekulasi 10 000marta qisqarib, taxlanib joylashadi.

D NK tarkibidagi gistonlar guruhlar hosil qilib joylashadi. Har bir guruh 8 ta gistondan iborat bo‘lib, bu tuzilma nukleosoma nomini olgan. Nukleosomaning kattaligi 10 nm bo‘lib, uning ustida D NK molekulasi o‘raladi. Har bir nukleosoma atrofida 140 nukleotidlar

juftligidan iborat DNK molekulasi o'ralib joylashadi. Natijada nukleosomani hosil bo'lishida DNK uzunligi 7 marta qisqaradi. Nukleosomalar orasidagi DNK bo'lagida H1 oqsili joylashadi. DNKnинг bu qismi linker DNK deyiladi. Linker DNKnинг uzunligi 10-60 tagacha nukleotidlardan iborat. Shunday qilib, fibrill tuzilmasi ipga tizilgan munchoqlarni (marjonnini) eslatadi.

H1 gistoni nukleosomalarni keyingi bosqichda kondensatsiyalanshida muhim ahamiyatga ega. Bu bosqich xromatin DNK sining keyingi tuzilish darajasidir. Bunda nukleosomalar 6 tagacha bo'lib birlashib 25 nm diametrga ega bo'lgan nukleomerlarni hosil qiladi. A.Klug modeliga asosan nukleomeraning bitta qadamiga (10nm) 6 ta nukleosoma to'g'ri kelsa, DNKnинг uzunligini 40 marta qisqarishiga olib keladi.

Mitoz bo'linishda DNK replikatsiyasi (2 hissa oshishi) natijasida har bir xromomsoma ikkita xromatindan iborat bo'ladi. Har bir xromatida ikkita nukleoproteid iplaridan-xromonemalardan- tuzilgan, demak xromosoma tanasida bu iplar to'rtta. Xromosomalar tarkibidagi bu tuzilmani birinchi marta 1880 yilda Baranetskiy (Polsha) topgan bo'lib, 1992 yilda Veydovskiy ularni xromonema deb nomlaydi. Xromonemalarning zichlashib spirallari tugunchalar hosil qilib joylashishi natijasida xromomerlalar hosil bo'ladi.

DNK ning tuzilish darajalari quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Nukleosoma - DNK spiralining giston oqsillari ustida o'ralishi.
2. Nukleomera - 6-8 ta nukleosomaning globula shaklida birlashishi. Bir nechta nukleomer larning o'zaro yaqinlashishidan DNP (dezoksiribonukleoprotein) lar hosil bo'ladi.
3. Xromonema. DNP fibrillalarining nogiston oqsillari yordamida rozetkasimon tuzilmalarni hosil qilishi.
4. Xromomera. Xromonemalarning spiralsimon yig'ilishidan hosil bo'lgan xromosoma iplari.

Xromosomalar bo'linayotgan hayvon hujayralarida 1882 yilda Flemming va o'simlik hujayralarida Strasburger tomonidan aniqlangan. Xromosoma nomini 1888 yilda ularning bo'yاليsh xususiyatiga qarab Valdeyer bergen.

Xromosomalar morfolgiyasi. Xromosomalar morfolgiyasini o'rganishning eng qulay vaqtি bo'linishning metafaza davri, chunki bu davrda xromosoma maksimal spirallahsgan bo'lib, yaxshi ko'rindi.

Lekin aniqlanishicha, xromosomalarning kondensatsiyasi telofazaga-cha amalga oshadi. Bu ularni uzun DNK molekulasi hujayralar ora-sida to'siq hosil bo'layotganda shikastlanishdan saqlar ekan.

Xromosoma tanasini ikkiga birlamchi belbog'i-sentromera-ajratadi. Uning joylashishiga qarab: 1. Metasentrik-teng yelkali 2. Submetasentrik – noteng yelkali va 3. akrosentrik - bitta yelkasi juda kalta bo'lgan xromosomalarni ajratiladi(22rasm).

Sentromera yoki kinetoxor- xromosomaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, 1937 yilda K.Darlington tomonidan shunday nomlangan. Bu yyerda tubulin polimerizatsiyalanib bo'linish duki mikronaychalar hosil bo'ladi va xromosomalarni hujayrani qutblariga tortadi. Sentromerada DNK zanjirining o'rami cho'ziqroq bo'lganligi uchun bu joy xromosomaning boshqa joylarga qaraganda och bo'yaladi. Sentromerada uchta zona farqlanadi: o'rta kinetoxor uchastkasiga xromosomalar birikadi, ikkita chekka qismi xromatidlarni biriktiradi. Odatta xromosomalar-da bitta sentromera bo'ladi-monosentrik , lekin disentrik(di-ikki) va polisentrik(poli-ko'p) xromosomalar ham uchraydi.

Ikkilamchi belbog'. Ular odatta xromosomalarning uchki (telomer) qismlarga yaqin joyda joylashadi va yadrochalarning hosil bo'lishida ishtirok etadi. Shuning uchun ular yadrocha hosil qiluvchi markaz yoki nukleolyar zona deyiladi(22rasm).


Ikkilamchi belbog'da yadrochadagi r-RNK sintezini va uning etilishini boshqaruvchi genlar joylashgan bo'ladi.

Ayrim xromosomalarda ikkilamchi belbog'i xromosoma telomerasiga yaqin joylashgan bo'ladi. Bu yyerda DNK zanjirining o'rami ancha uzun bo'lganligi uchun telomera xromosomadan ancha uzo-qda joylashib, yo'ldosh hosil qiladi. Yo'ldoshli xromosomalar **SAT xromosomalar** deyiladi. Sine Acido Thymonucleico- ya'ni nuklein kislotasiz degani, lekin tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lganki, bu haqiqatdan yiroq chunki yo'ldoshni xromosoma tanasiga biriktirib turuvchi ip tarkibida DNK topilgan. Buni 1912 yilda Rossiyalik olim S.G.Navashin aniqlagan. Lekin shunga qaramay SAT xromosoma de-gan nomi haligacha ishlataladi.

Telomera - xromosomaning oxirgi qismi bo'lib, xromosomalarning mustaqilligini va butunligini ta'minlaydi.

Xromosomaning uzilgan qismlari bir-biri bilan osonlikcha bir-lashishi mumkin. Lekin telomera qismlari bir-biri bilan hech qachon

birlashmaydi. Telomera DNKnинг kichik takrorlanib keluvchi ketma-ketliklari bo‘lib, taxmin qilinishicha o‘zida gen saqlamaydi. Telomerlar “o‘lim markerlari”-ular xromosomaning uchida bo‘lganligi uchun asta-sekin emirilib xromosomani mutasiyalardan saqlaydi. Har bir bo‘linishdan keyin telomer uzunligi qisqarib boradi, himoyasiz qolgan xromosomalar o‘zaro yopishib, genetik informatsiya aralashib ketadi va hujayra nobud bo‘ladi. Rak hujayralari o‘zlarini o‘limdan himoya qilishni o‘rganganlar. Ularda maxsus mexanizm mavjud bo‘lib, telomeralari yemirilmaydi.



22-rasm. Xromosomalarning tuzilishi. A - Xromosoma turlari: a-akrosentrik, b-submetasentrik, c-metasentrik; B. Xromosomaning ichki tuzilishi; 1-sentromera; 2-DNKnинг spiralsimon o‘ralgan ipi; 3-xromatidalar; 4-yo ‘ldoshcha; 5-ikkilamchi belbog’

Metafaza xromosomalari matriksi. Matriks xromosoma tanasi o‘rab oladi, tarkibi RNK dan iborat. Mitoz davomida matriks metafazadan boshlab shakllanadi. Telofaza oxirida matriks xromosomalar atrofida granulalar ko‘rinishida to‘planadi. Demak, matriks mitotik xromosomalarning granulyar va fibrillyar tuzilmasi. Matriks mahsulotlari interfazada sintezlanadi.

Xromosomaning uzunligi bo‘yicha uning irsiy jihatdan faolligi bir xil emas, xromosomalarni maxsus buyoqlar bilan bo‘yalganda, uning ayrim qismlari to‘q bo‘yalib, boshqa qismlari esa och bo‘yaladi, ya’ni geteroxromatin va euxromatin hosil qiladi.

Geteroxromatin qismida xromosomalar qattiq spirallashgani uchun to‘q bo‘yaladi, bu yyerda asosan nofaol genlar joylashgan.

Euxromatin qismida esa faol genlar joylashadi va bu yyerda xromosomalar spirallashishi bo‘sroq bo‘ladi. Shuning uchun och bo‘yaladi.

Geteroxromatin uchastkalari telomerlar, sentromeralar, yadrocha markazi atrofida uchraydi.

Fakultativ va strukturaviy geteroxromatin ajratiladi. Fakultativ geteroxromatin vaqtinchalik kondensatsiya holatiga o‘tadi, bunda uning yuzasida sintez jarayonlari to‘xtaydi. Lekin bu holat vaqtinchalik bo‘lib, funksional faolligi tiklanganda yana euxromtinga aylanadi.

Strukturaviy geteroxromatin bunday holatga o‘tmaydi. Unda hech qanday sintez jarayonlari bormaydi.

Geteroxromatining ba’zi bo‘laklari yadro ichki membranasida joylashadi. Uning bu aloqasi shunchalik mustahkamki sentrifugalash natijasida ham uzilmaydi. Bog‘lanishlar yadro poralari joyida yo‘q.

Xromosomalarning uzunligi 0,2-5,0mkm, eni 0,2-3,0mkm bo‘lishi mumkin. Ayrim hasharot va amfibiyalarning xromosomalari yirik, zamburug‘ va suvo‘tlarining xromosomalari esa mayda bo‘ladi. Odam xromosomalarining kattaligi 1-10 mkm ga teng.

Bir hujayradagi barcha xromosomalar yig‘indisi xromosoma to‘plami deyiladi. Ikki xil to‘plam farqlanadi – gaploid- “ n ” va diploid- “ 2n ”.

Kariotip. Turning bir somatik hujayrasidagi xromosomalar soni, ularning katta-kichikligi, tuzilishi, har bir xromosomada sentromerani joylashishi hammasi birgalikda tur kariotipini hosil qiladi. O‘zaro yaqin turlar ham kariotipi bo‘yicha farq qiladi.

Kariotip har bir tur uchun doimiy bo‘lib, shu turning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Kariotipda autosomalar va jinsiy xromosomalar alohida ko‘rsatiladi. Masalan, odamning somatik hujayralarida kariotip 46 (2n) xromosomalar to‘plamida bo‘lib, autosomalari 44, jinsiy xromosomalar ayolda-XX va erkakda-XY ko‘rinishda bo‘ladi.

Juda yaqin turlar ham xromosomalar to‘plami bilan farq qiladi. Bu farq bir xromosoma soni yoki o‘lchami, shakli ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kariotip taksonomik(sistematiskada ishlataladigan) belgi hisoblanadi.

Xromosomalar taxlil amaliyotida yana bir usul qo'llaniladi. Bu xromosomalarning differential bo'yalish usuli. Xromosomalar fluoroxrom bo'yog'i bilan bo'ylganda mikroskop ostida ular yuzasida yo'l-yo'l chiziqlar paydo bo'ladi. Bu chiziqlar har bir xromosoma uchun muayyan bo'lib takrorlanmasdir, xuddi odamning barmoq izlari singari. Tashqi tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib ko'ringan xromosomal differensial bo'ylgandan keyin bir-biridan butunlay farq qiladi. Bu usul odam xromosomalarni sinchiklab o'rganishga yordam berdi. Sitologik tahvilning bu usuli odam xromosomalari xaritalarini tuza boshlashga, ya'ni genlarning joylashgan joyini aniqlashga asos soldi. Odam xromosomalari ularning katta kichikligiga karab 7 ta guruhga ajraladi. Tashqi tuzilishi jihatidan 1-2chi juft xromosomalari yirik, 13chi juft xromosoma- akrosentrik, 19-20-lari- mayda ekanligini ko'rish mumkin. Lekin, differensial bo'yash usuli yordamida xatto bitta guruhga kiruvchi xromosomalor orasida ham farq borligi ma'lum bo'ldi.

Ayollarda XX va erkaklarda XY bo'lib genlar nisbati 1098ta ayollarda : 78ta erkaklarda; nukleotidlar soni -160 mln ayollarda; 23 mln erkaklarda. Erkaklarning turli kasallikkalarga beriluvchanligi, ayol-larga nisbatan ular xromosomalari orasidagi farq hisoblanadi. Chunki ayollardagi bitta X xromomsomasidagi buzilishlar ikkinchi xuddi shunday xromosoma hisobiga tiklanadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Interfazada yadroning tarkibiy qismlari.
2. Yadroning hujayra hayotidagi roli.
3. Yadroning bo'linayotgan hujayradagi holati.
4. Yadroning tashqi apparati, uning tuzilishi.
5. Hujayra bo'linayotganda yadrochaning taqdiri.

Glossari

Xromatin - eukariot hujayralari genetik materiali saqlanadigan joylashgan bo'lib, DNKning giston oqsillari bilan birikmasidir.

DNK- biologik polimer bulib, uning monomeri dezoksiribonuk-leotidlar.

- Nukleosoma - DNK spiralining giston oqsillari ustida o'ralishi.
Nukleomera - 6-8 ta nukleosomaning globula shaklida birlashishi.

Bir nechta nukleomer larning o‘zaro yaqinlashishidan DNP (dezok-siribonukleoprotein) lar hosil bo‘ladi.

Xromomera. Xromonemalarning spiralsimon yig‘ilishidan hosil bo‘lgan xromosoma iplari.

Nazorat savollari:

1. Mitotik xromosomalar morfologiyasi haqida gapiring.
2. Xromosoma matriksi qanday shakllanadi?
3. Euxromatin va geteroxromatin tuzilishi.
4. Kariotip haqida tushuncha bering.
5. Xromatinning kimyoviy tavsifini bering.
6. Diffuz va kondensatsiyalangan xromatin holati, euxromatin va geteroxromatin haqida nima bilasiz?
7. Xromatin oqsillarining DNK strukturasining shakllanishidagi roli qanday?

TEST SAVOLLARI

1. DNK: oqsil: RNKning nisbatini aniqlang:

- a)1:1,3:0,2
- b)2:3:1
- c)3:0,2:1

2. Odamning genetik materiali DNKningta har xil molekulalaridan iborat

- a)12
- b)24
- c)36

3. Xromatin oqsillari quruq massaning nechi foyizini tashkil etadi?

- a) 35-55%
- b) 50-60%
- c) 60-70%

4. Giston oqsillarini xromatindan ajratib birinchi bo‘lib kim o‘rgangan?

- a) A.Kossel 1890 yilda
- b) Mechnikov 1850 yilda
- C) Purkine 1655 yilda

5. Hujayra bo'linishidan oldin qaysi eng muhim jarayon sodir bo'ladi?

- a) DNK replikatsiyasi
- b) DNK kompaktizatsiyasi
- c) RNK replikatsiyasi

6. Metafaza xromosomasining uzunligi qanchani tashkil etadi?

- a) 4 mkmni
- b) 6 mkmni
- c) 7,5 mkmni

7. DNK spiralining giston oqsillari ustida o'ralishi bu

- a) Nukleomera
- b) Xromonema.
- c) Nukleosoma

8. Xromonemalarning spiralsimon yig'ilishidan hosil bo'lgan xromosoma iplari.

- a) Xromomera.
- b) Xromonema.
- c) Nukleosoma

9. Xromosomalar tarkibidagi DNP fibrillarni birinchi marta yilda X.Ris topgan

- a) 1957
- b) 1967
- c) 1951

10. Linker DNKnинг uzunligi..... tagacha nukleotidlardan iborat.

- a) 10-60
- b) 5-10
- c) 15-35

MA'RUZA 8. HUJAYRANING QAYTA TIKLANISHI

Reja:

1. Hujayralarning bo'linishi
2. Mitoz
3. Profaza va Metafaza
4. Anafaza va Teleofaza

M.Shleyden va T.Shvannlar yaratgan hujayra nazariyasini R.Virxov to'ldirib "har bir hujayra faqat hujayradan" deb aytadi.

1879 yilda T.Boveri va V.Flemminglar hujayrada yangi hujayralarning hosil bo'lishiga olib keladigan jarayonlarni ta'riflaydilar. 1887yilda A.Veysman gametalar hosil bo'lishida hujayra bo'linishning boshqa turi (meyoz) kechishini aniqlaydi.

Hujayra bo'linishining har qanday shaklida DNK replikatsiyasi kuzatiladi.

Hujayraning bir bo'linishidan ikkinchi bo'linishigacha bo'lgan vaqt oralig'i **hujayra** sikli deyiladi. Turli hujayralar uchun uning davomiyligi har xil. Bakteriya hujayrasi har 20 minutda bir marta bo'linadi.

Ko'p hujayrali organizmlar hujayralari har xil bo'linish xususiyatiga ega. Erta embriogenezda hujayralar tez-tez bo'linsa, yetuk organizmda bu xususiyatini yo'qotadilar. Ko'p hollarda xattoki bo'linish xususiyatini yo'qotadilar: mahsuslashgan, differensiatsiyaga uchragan hujayralar (nerv).

Organizmda doimiy yangilanib turuvchi to'qimalar (epiteliy, qon, biriktiruvchi) bo'lib, ularning hujayralari doim bo'linib turadi. O'simlik organizmda bunday to'qima kambiydir.

Hujayra sikli uchta bosqichdan iborat: 1. interfaza. 2. mitoz 3. sitokinez.¹

Hujayra siklining turli davrlari bir-biridan DNK, RNK, oqsil miqdori bilan ajraladi.

Interfaza uchta davrdan iborat: sintezdan avvalgi G1, sintez S, sintezdan keyingi G2 davri.

Sintezdan avvalgi davr hujayra hajmining ortishi va DNK sinteziga

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

tayyorgarlik davri. Bu davrdagi hujayra hajmining ortishi sintez davridagi DNK sintezi uchun sharoit hisoblanadi. G1 davrda DNK va RNK metabolizmi fermentlari sintezlanadi.

Sintetik davr hujayra siklining asosiy davri. Uning blokadasi (qurshovi) siklni to'xtatib qo'yadi. DNK sintezisiz hujayralar mitotik bo'linmaydi. Bundan ikkita bo'linish orasida replikatsiyaning bo'imasligi mustasnodir. S davrning davomiyligi DNK replikatsiyasining o'tish tezligiga bog'liq, har xil hujayralarda turlicha 30 minutdan 7 soatgacha.

S davrning o'tishi uchun zarur RNK va oqsillar sintezi G1 davrda boshlangan bo'lib, bu yyerda davom etadi. DNK sinteziga parallel ravishda sitoplazmada gistonlarning sintezi va ularning yadroga migratsiyasi (o'tishi), ularning DNK bilan bog'lanishi amalga oshadi. Bu darvda rRNK sintezlanib, u G2 davrda mitozning borishi uchun ishlataladi.

Postsintetik yoki premitotik davr G2. Interfazaning boshqa davrlariga nisbatan qisqa. Ba'zi hollarda bo'imasligi mumkin. Ayrim hujayralar esa bu darvda uzoq qolib ketadi.

Bu davrda hujayra RNK lari va oqsilari sintezi davom etadi. Mitozning borishi uchun kerak bo'lgan iRNK sintezi boradi. Undan avval hujayra bo'linishini belgilab beruvchi oqsillar sintezida ishtirok etadigan ribosomalarning rRNK si sintezlanadi. Mitotik bo'linish dukining oqsili tubulin ham shu davrda sintezlanadi. Bu davrda keyingi G1 davrning kechishi uchun kerak bo'lgan RNK sintezlanadi.

Ko'rinish turibdiki darvlar bir-birini to'ldirib boradi.

O'simlik va hayvonlarning o'suvchi hujayralari orasida sikidan tashqari hujayralar mavjud. Bular G1 ga kirmaydi va S va G2 davrlarini o'tmaydi. Bunday hujayralar G0 davri hujayralari deb ataladi. Bular tinim holatdagi yoki ko'payish xususiyatini yo'qotgan hujayralar. Bu hujayralarning bo'linish xususiyatining yo'qolishi ularning maxsus vazifani bajarishga moslashishi bilan bog'liq. Lekin, ko'pincha bu holat vaqtinchalik bo'ladi. Masalan, jigar hujayralarinig ko'pchiligi G0 davrda bo'lib, DNK sintezida qatnashmaydilar va bo'linmaydilar. Lekin, jigarning bir bo'lagi olib tashlansa, hujayralar G1 davrga o'tib ko'paya boshlaydilar.

Boshqa a'zolarda hujayralar hujayra sikidan chiqib differensiatsiyalashib (shakllanib) bo'linish qobiliyatini butunlay

yo'qotadi. Masalan, nerv hujayralari embrionda bir necha marta bo'linish siklini o'tgandan keyin bo'linishdan to'xtab differensiatsiyalashib bo'linish qobiliyatini yo'qotadi va shu holatda organizm umrining oxirigacha saqlanadi. Teri epiteliysi hujayralari ko'payishdan keyin bir oz vaqt faoliyat ko'rsatib so'ng o'ladi. Bunday holat yangilanib turuvchi to'qimalarda uchraydi: ichak epiteliysi, suyak iligi, taloq, limfa tugunlari. O'simliklarda bu holatni o'sish konusida ko'rish mumkin. Kuzatuvlar shunday xulosaga olib keladiki : hujayra oldida ikkita yo'l turadi ko'payish yoki maxsus vazifani bajarish – differensiatsiyalanish va hujayra bu ikki yo'lning birini tanlashi kerak.

Keyingi vaqtida G0 bosqichining qaytuvchanligi aniqlandi. Qurbaqaning bosh miyasida G0 davrida turgan nerv hujayrasi olinib, qurbaqa ootsitiga joylashtirilsa, qandaydir faktorlar ta'sirida yadroda DNK sintezi boshlanadi. Demak G0 davridagi yadro majburiy ravishda hujayra sikliga o'tadi.

Hujayralarning bo'linishi¹. Tiriklikning eng asosiy xususiyati – ko'payib o'zidan nasl qoldirishdir. Bir hujayrali organizmlar o'z populyatsiyasini ko'paytirish maqsadida, ko'p hujayrali organizmlar hujayralari o'sish hujayralarni yangilash uchun ko'payadilar.

Prokariot hujayralar hech qanday bo'linish apparatini hosil qilmay to'g'ridan- to'g'ri ikkiga bo'linish –binar yo'l bilan ko'payadilar. Lekin, bunda ikkita yangi D NK molekulasi qiz hujayralarda aniq taqsimlanadi. Bu jarayon quyidagicha amalga oshadi. Replikatsiyadan so'ng D NK molekulalari plazmatik membrana bilan bog'lanib qolaveradilar. Plazmatik membrana ikkita yangi DN Klar orasidan o'sib ularni hujayraning ikki tomoniga tortadi. Hujayra to'sig'i rivojlangandan keyin har bir molekula yangi hujayrada joylashadi. Bakteriya bo'linishi jarayoni eukariotlarga o'xshab fazalarga ajratilmaydi. D NKning replikatsiyasi ularda hujayra sikli davomida uzluksiz ravishda davom etadi. Ya'ni bakteriya hujayrasi doim S davrda bo'lib, doimiy ravishda ko'payib turadi. Bu holat atrof muhitda ozuqa yetarli bo'lguncha davom etadi. Shundan so'ng hujayralar soni kamayib, ko'pchiligi nobud bo'lib, qolganlari spora ko'rinishiga o'tadi. Spora holatida bakteriyalar ming yilgacha saqlanadi.

Eukariot hujayralar 2 xil usulda : universal , keng tarqal-

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

gan mitoz yoki kariokinez va kam uchraydigan amitoz usulida bo'linadilar.

Mitz. Birinchi marta hujayralardagi yadroning bo'linishini 1874 yilda rus olimi I.D.Chistyakov aniqlagan. Mitoz atamasini birinchi marta 1882 yilda V.Flemming qo'llagan.

Bo'linish sikliga kirgan hujayralarda mitoz davri ko'p vaqt ni egallamaydi. Masalan: ildiz meristemasi hujayralarida interfaza 16-30soat, mitozni o'zi - 2-3 soat davom etadi. Ichak epiteliysi hujayralarda interfaza 20soat, mitoz - 1 soat kechadi. Tuxum hujayraning maydalanish bosqichida butun hujayra sikli 1 soatga bormaydi.

Mitoz quyidagi fazalardan iborat: profaza, metafaza, anafaza, telofaza. Fazalar orasida aniq chegara yo'q. Chunki mitozning o'zi silliq kechadi. Faqat anafazaning boshini aniqlash mumkin.

Profaza. Unga interfazadagi G2 davrni o'tgan hujayralar kiradi. Ular replikatsiyadan keyin 4sDNK miqdoriga ega.

Profaza boshida yadroda ingichka iplar-profaza xromosomalari ko'rina boshlaydi. Ular kondensatsiyalana boshlab transkription faolligi susayadi. Profaza mobaynida xromosomalar qisqarib yo'g'onlashadi.

Profaza xromosomalari ikkilangan lekin ikkita xromatidlar bir-biriga shunday zinch birikadiki, bitta bo'lib ko'rindi. Demak, xromatidalar soni DNK miqdoriga teng -4n-4s.

Xromosomalar kondensatsiyalanishiga parallel ravishda yadrochaning yo'qolishi va yadro qobig'inining erishi kuzatiladi: yadro poralari yo'qolib, yadro qobig'i avval fragmentlarga (bo'lakchalarga) keyin mayda membrana pufakchalariga aylanadi.

Mitodagi yadrochaning roli haqida turli olimlarning fikri mavjud. Ba'zilar yadrocha erib ketib uning moddasi xromosomalar bilan birga qiz hujayralarga taqsimlanadi deb hisoblaydi, ba'zilar esa yadrocha bo'linish dukini hosil qilishda ishtirok etadi, deydi yoki yadrocha komponentlari yadro va sitoplazma o'rtasidagi moddalar almashinuvida ishtirok etadi.

Endoplazmatik to'r hajmining kichrayishi kuzatiladi. U kalta sisterna va vakuolalarga parchalanib yuzasidagi ribosomalar soni kamayadi.

Mitozning yana bir muhim hodisasi- bo'linish dukining hosil bo'lishi ham profazada kuzatiladi. Bo'linish duki sentriolalar yoki

ular ishtirokisiz hosil bo‘ladi (o‘simliklarda).

Profazada S davrda duplikatsiyaga uchragan sentriolalar hujayraning ikki qutbi harakatlanadi. Har bir qutbga bittadan diplosoma boradi. Ular orasida mikronaychalar shakllanadi.

Erta profazada kondensatsiyalanayotgan xromosomalarning sentromera uchastkalarida kinetoxor qismlari ko‘rina boshlaydi. Bu joy bilan bo‘linish duki mikronaychalarini birikadi.

Profaza yadro qobig‘ining erib karioplazma bilan sitoplazma aralashib ketishi bilan tugaydi(23rasm).



23-rasm. Piyoz ildizchasi hujayralarida mitoz (x1500)

a – interfaza; б – profaza; в, г – metaphaza; д – anafaza; е, ж – telofaza; з – ikkita qiz hujayra.

Metafaza. Bo‘linish dukining shakllanishi tugaydi va xromosomalar ekvatorial chiziqda to‘planadilar.

Erta prometafazada xromosomalar hujayra markazida oldingi yadro o‘rnida notejis yotadilar. Ularning xaotik (byetartib) harakati kuzatiladi.

Metafaza davomida xromosomalar hujayra ekvatorida bir chiziqda tizilib metaphaza plastinkasini hosil qiladilar. Plastinkada yirik xromosomalar hujayraning chekkalarida maydalari hujayra markazida joylashadi. Bu fazada xromosomalar maksimal qisqarib, qalinlashgani uchun ularni sonini va morfologiyasini xuddi shu davrda o‘rganishadi. Metafaza mitozning tinim davri hisoblanadi, chunki bu vaqtga kelib xromosomalar harakati to‘xtaydi. Kechki metafazada xromosomalar harakatdan to‘xtab bir tekis yotadilar: ularning sentromera uchastkalarini dukning markaziga, yelkalari hujayra chekka qismiga qaragan

bo'ladi. Xromosomalar tarkibidagi xromatidlar bir-biridan ajraladi. Ular orasida faqat sentromera uchastkasida bog'lanish saqlanadi, shuning uchun X ko'rinishiga ega bo'ladi.

Anafaza. To'satdan boshlanib, xromatidlar orasidagi sentromera bog'lari uzilib, bir-biridan hujayraning ikki qutbi tomon tez harakat qila boshlaydilar. Anafaza- mitozning eng qisqa fazasi. Xromosomalar V ko'rinishiga ega bo'lib, uchi bo'linish qutblariga yelkalari bo'linish markaziga qarangan bo'ladi. Sentromeradagi kinetoxor uchastkalari xromosomalar harakatini boshqaradi. Bu harakat tortuvchi iplarning qisqarishi natijasida yuzaga keladi. Anafaza oxirida bo'linish duki zichlashib ekvator chizig'ida to'planadi va fragmoplastni hosil qiladi.

Telofaza. Xromosomalarning qutblarga tortilib bo'lgandan keyin boshlanadi. Erta telofazada xromosomalar dekondensatsiyalanadilar (iplari yoyiladi) va hajmlari ortadi. Ularning sitoplazmadagi pufak-chalarga tegib turgan joyida yadro membranasi hosil bo'la boshlaydi. Yadro qobig'i tiklangandan keyin xromosomalarning SAT zonalari dan yadrocha shakllanadi.

Bo'linish duki buzilib uning moddalari hujayra ekvatorida fragmoplastni hosil qilib, undan o'z navbatida yangi plazmatik membrana elementlari hosil bo'lib, ikkita hujayra orasida to'siq hosil qiladi.

Endoplazmatik to'r elementlari anafazada hujayra ekvatoriga joylashib, bu yyerda zich o'ramni hosil qiladi va qiz hujayralarning orasida to'siq hosil qilishda ishtirot etadi.

Telofazaning muhim hodisasi- sitokinez. O'simliklarda hujayra ichida to'siq hosil bo'lishi bilan boradi. Hujayra markazida endoplazmatik to'r elementlaridan tuzilgan fragmoplast hosil bo'ladi. Endoplazmatik to'r elementlari pektin moddasini sintezlay boshlaydilar, ular pufakchalar ko'rinishida hujayra markazida to'planib chekkalarga qarab tortiladi. Vakuolalar qo'shilib plastinkani hosil qiladi. Plazmatik membrana plastinka bilan qo'shilib yangi membranani hosil qiladi.

Hayvonlarda plazmatik membrananing ichkariga botib kirishi haqida "qisqaruvchi xalqa" farazi mavjud. Unga asosan hujayraning kortikal qatlamida plazmatik membrananing ostida mushak hujayralaridagi fibrill tolalariga o'xshash tuzilmalar joylashgan bo'lib, ularning qisqarishi plazmatik membrananing ichkariga botib kirishini ta'minlaydi.

Mitoz har doim ham sitokinez bilan tugamaydi. Ba'zi hujayralarda(endosperm) bir necha marta bo'linish sikli takrorlanib, sitokinez ro'y bermaganligi uchun yirik ko'p yadroli hujayralar hosil bo'ladi.

Hujayra va yadro bo'linishini stimullovchi faktorlarga DNK, RNK va oqsillarning faol sintezi, tashqi muhitning ijobiyligi ta'siri, moddalar almashinuviga jarayonining yuqori darajada bo'lishi kiradi. Mitozni tormozlovchi faktorlarga keskin harorat(shok), zaharli moddalar, narkotiklar kiradi.

Mitoz butun hujayraning bo'linishi bo'lgani uchun hujayraning hamma komponentlari bunda ishtirok etadi. Endoplazmatik to'r membranalari mayda elementlarga, Golji apparati alohida diktiosomalarga ajraladi. Hujayra markazi mikronaychalar bilan to'lgani uchun hujayra komponentlari va organoidlari chekka qismlarga suriladi. Hujayra bo'lingandan keyin organoidlar passiv ravishda ikkita hujayraga taqsimlanadilar.

Mitozning ahamiyati

Mitoz natijasida ikkita yangi yadrodagagi xromosomalar soni bo'linishga kirgan yadrodagagi songa teng. Bu xromosomalar ota-onalarning replikatsiyasi natijasida hosil bo'lganligi uchun undagi genlar ota-onalarning o'zidir, ya'ni o'zgarmasligicha qoladi. Mitoz genetik ma'lumotga hech qanday o'zgarishlar kiritma olmaydi, ya'ni genetik stabillikni ta'minlaydi. Mitoz natijasida organizmdagi hujayralar soni ko'payib boradi. Shuningdek, buzilgan, yo'qolgan organizm qismlarini tiklanishini ta'minlaydi, ya'ni hujayralar o'rnnini to'ldiradi.

Orto va plevromitoz. Turli organizmlarda mitozning borishi turlicha bo'ladi. Yuqorida ta'riflangan mitoz ochiq ortomitoz(yadro qobig'i eriydi, bo'linish duki hujayraning 2 qutbida joylashadi.) Ko'p hujayrali hayvon, o'simlik va ba'zi sodda organizmlarda uchraydi.

Ba'zi sodda organizmlarda hujayra markazini hosil qiluvchi mikronaychalar yadroning bir tomonida V-simon shaklni hosil qilib joylashadi. Bu usul plevromitozdir. Ba'zida mitoz yadro qobig'i buzilmasdan sodir bo'ladi (yopiq mitoz). Bunda bo'linish duki yadro ichida yoki uning membranalarida hosil bo'ladi.

Ba'zan mitoz vaqtida yadro qobig'iда yirik tirqish paydo bo'ladi, ular orqali yadroga bo'linish duki iplari kiradi (yarim yopiq mitoz)

Hujayra sikli sentriolalarga ega yoki ega bo'lmasligi mumkin. Shunga qarab sentriolyar va asentriolyar mitozlar farqlanadi.

Amitoz. Hujayraning to'g'ri bo'linishi yoki amitoz mitozdan oldin ta'riflangan. Bu bo'linish mitozga nisbatan kam uchraydi. Amitoz yadrosi interfaza holatida bo'lgan hujayraning bo'linishi. Amitoz ikkita hujayraning hosil bo'lishiga olib kelishi kerak, lekin ko'p holarda u bir nechta yadroli hujayralar hosil bo'lishiga olib keladi.

Deyarli barcha eukariotlarda uchraydi. Odatda amitotik bo'linish yadrocha shakli va soni o'zgarishidan boshlanadi. Ular fragmentatsiya uchraydi yoki uzayib ko'payadi-shunda gantellalar shakliga kirdi.

Yadrochalar bo'linishidan keyin yadro bo'linadi. Yadro to'g'ri bo'linishining bir qancha usullari bor.

1. Tortmaning hosil bo'lishi. Bunda yadro ham gantel shaklida cho'zilib tortmaning uzilishi natijasida ikkita yadro hosil bo'ladi.

2. Yadro yuzasida chiziq paydo bo'lib, u kattalashib yadroni ikkiga bo'ladi.

3. Fragmentatsiya (bo'laklanish). Yadro yuzasida ichkariga qaragan bo'rtma hosil bo'lib u yadro ichiga botib kirib uni turli kattalikdagi fragmentlarga ajratadi.

Amitoz bo'linish hayotini tugatayotgan, o'layotgan, degeneratsiya uchragan hujayralarga xos. O'simliklarda yuqori takkomillashgan, vaqtinchalik to'qimalarda: tugunaklar, endosperm, perisperm-larga xos.

Amitoz bo'linish turli patologik jarayonlarda uchraydi (shamolash, shish).

Amitoz natijasida hosil bo'lgan yadrolda genetik material notekis taqsimlangan bo'ladi. Shuning uchun bunday hujayralar amitozdan keyin mitoz yo'li bilan ko'paymaydi.

Meyoz

Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: talabalarga meyozi bo‘linishi turlari, meyozi I va meyozi II fazalari haqida bilim berish.

Mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi: talabalarga meyozining biologik ahamiyati, ya’ni bo‘linish natijasida xromosomalar sonining ikki hissa kamayishi keyingi avlodlarga xromosomalar soni o‘zgarmay saqlanishi haqida tushuncha berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini mustahkamlash va kengaytirish.

Mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarni darslik bilan mustaqil ishlash, mantiqiy fikr yuritishga o‘rgatish.

Mashg‘ulot jihozlari: meyozi bo‘linish bosqichlari aks ettirilgan jadval va rasmlar, “Meyoz bo‘linish fazalari” video lavhasi namoyish etiladi.

Otalanih natijasida ota-onan hujayra yadrolarining qo‘shilishi zigotadagi DNK va xromosomalar sonining ortishiga olib keladi. Demak, xromosomalar sonini kamayishiga olib keladigan mexanizm mavjud bo‘lishi kerak. Bu mexanizm jinsiy hujayralarning yetilish jarayonida sodir bo‘ladigan reduksion (reduksiya- kamayish) bo‘linish – meyozdir.

Bu bo‘linish natijasida jinsiy jarayonda qatnashuvchi gametalar hosil bo‘ladi. Ikkita gaploid gametalarning qo‘shilishi natijasida urug‘lanishdan keyin diploid zigota hosil bo‘ladi. Bu bo‘linishda mitozdan farqli ravishda hujayralarning ikki marta ketma —ket bo‘linishi kuzatiladi, xromosomalarning miqdori esa faqat bir marta oshadi. Bundan tashqari, meyoza gomologik xromosomalarning o‘zaro qismlari bilan almashishi (krossingover), irlsiy axborotning rekombinatsiyasi, birinchi bo‘linish profazasida transkripsiyaning faollashishi va ikkita bo‘linish orasida interfaza bo‘lmasligi kuzatiladi.

Har qanday organizmning rivojlanishida ikki turdag'i hujayralarni uchratish mumkin. Ulardan biri gaploid to‘plam xromosomali bo‘lib otalanish jarayonida ishtirok etadi, ikkinchisi diploid to‘plamli bo‘lib, ikkita ota-onan xromosomalarini tutadi.

Organizmlar hayot siklini ikkita gametaning qo‘shilishidan boshlab to shu organizmning o‘zida yana yangi hujayralar paydo bo‘lish vaqtiga oralig‘ini ko‘radigan bo‘lsak gaplofaza va diplofazaning galanib kelishini ko‘rish mumkin. Bu fazalarning organizmlar hayot

siklida egallagan o‘rniga qarab uch turdag‘i meyoz¹ farqlanadi: zigotali, gametali, oraliq.

1. Zigotali meyoz urug‘lanishdan so‘ng zigotada kechadi. Zamburug‘ va ba‘zi suvo‘tlari uchun xos. Bularning hayot siklida gaplofaza ustunlik qiladi. Masalan: xlamidomonada suvo‘ti hayot sikli deyarli faqat gametofit fazasidan iborat bo‘lib, sporofit fazasi qisqa vaqt ni egallaydi.

2. Gametali meyoz gametalar yetilishida sodir bo‘ladi. Ko‘p hujayrali hayvonlar va sodda organizmlarda uchraydi. Bularning hayot siklida diplofaza ustunlik qiladi. Gametalar qo‘shilgandan keyin diploid zigota hosil bo‘ladi. U bo‘linib organizmdagi hamma diploid hujayralarni hosil qiladi. Birlamchi jinsiy hujayralar reduksion bo‘linishga uchrab gaploid hujayralar hosil bo‘ladi. Bularning qo‘shilishidan diploid zigota hosil bo‘ladi.

3. Oraliq yoki sporali meyoz yuksak o‘simliklarda uchraydi. Sporalar hosil bo‘lish vaqtida, ya’ni sporofit va gametofit fazalari orasida sodir bo‘ladi.

Predmeyotik (meyozdan oldingi) interfaza mitozning interfazasidan farq qilib, DNK replikatsiyasi jarayoni oxirgacha o‘tmaydi. DNKnинг 0,3-0,4 foizi meyoz profazasida replikatsiyalanadi.

Meyozda birinchi bo‘linish profazasi davomida xromosomalar maxsus o‘zgarishlarga uchraydi. Shuning uchun bu fazani 5 ta bosqichga bo‘lib o‘rganiлади.


1. **Leptonema** – ingichka iplar bosqichi. Morfologik jihatdan mitozning erta profazasini eslatadi. Lekin undan yadroning yirikroq va xromosomalarning ingichka bo‘lishi bilan farqlanadi. Leptonemada xromosomalar ikkilangan bo‘ladi. Xromosomalar bir biriga yaqin joylashib telomeralari bilan yadro qobig‘iga birikib turadilar va guldastani eslatadilar. Ba‘zi o‘simliklarda xromosomalar tutamni –sinezezisni hosil qiladi. Leptonemada xromosomalar yuzasida xromomeralarni ko‘rish mumkin. Ular ipga tizilgan munchoqlarga (marjonlarga) o‘xshaydilar. Xromomeralarinig soni va joylashgan joyi har bir xromosoma uchun doimiy. Bu esa xromosomalar morfologik xaritasini tuzishga yordam beradi.

Leptonemada meyozning muhim jarayoni-xromosomalar

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

konyugatsiyasi boshlanadi. Bu bosqichda har bir xromosoma yuzasida oqsil tabiatli tuzilma hosil bo'lib u keyinchalik sinaptonemal kompleksni (SK) hosil qiladi(24rasm).

2. Zigonema – qo'shiluvchi iplar bosqichi. Gomologik xromosomalarining qo'shilishi (**sinapsis**) bosqichi. Gomologik xromosomalar qo'shib **bivalentlarni** hosil qiladilar. Har bir bivalent 4ta xromatid-dan iborat. Mitozdan farq qilib meyozda zigonemada ba'zi organizmlarda (loladoshlarda) maxsus DNK sintezlanishi ma'lum bo'lgan. Bu DNK- zDNK nomini olgan bo'lib, u G-S bog'lariga boy. Zigonema davrida maxsus moddalar bilan bu DNKnинг sintezi to'xtatilsa xromosomalar konyugatsiyasi to'xtaydi. Zigonemadagi gomologik xromosomalarining qo'shilishi maxsus SK yordamida amalga oshadi. SK deyarli barcha eukariotlarda uchraydi. Morfologiyasi jihatdan 3 qavatli tasmani eslatadi (kurtkani molniyasi). 2ta yon tortmalar va markaziy element(24rasm). Xromosomalar yon tortmalar yuzasida joylashib markaziy elementlar bir-biriga zikh birikadi. Shu ko'rinishda SK keyingi paxinema bosqichigacha saqlanadi.




24-rasm. Sinaptonemal kompleksning ko'rinishi

3. Paxinema- yo'g'on iplar bosqichi. Bunday atalishiga sabab gomologlarning to'liq konyugatsiyasi natijasida xromosomalar yo'g'on bo'lib ko'rindi. Bularda DNK 4s ga xromatidlar 4n ga teng. Bu bosqichda meyozning eng muhim jarayoni **krossingover** amalga oshadi. Gomologik xromosomalarning o'xshash uchastkalari bilan almashinuvি. Krossingover natijasida genlarni yangi kombinatsiyalari yuzaga keladi.

Paxinemada ham oz miqdorda DNK sintezlanishi ma'lum bo'lgan. Bu bosqichda ba'zi xromomeralarning aktivligi kuzatilib xromosomalar tuzilishi o'zgaradi. Ular "lampa chotkali" ko'rinishiga ega bo'lgan xromosomalarni hosil qiladi (25-rasm). Bu o'zgarishlar diplonema bosqichida - ayniqsa triton hayvonchalarida - yaqqol ko'rindi.

4. Diplonema- ikkilamchi iplar bosqichi. Gomologik xromosomalar bir-biridan ajralishi kuzatiladi. Ajralish sentromer joylaridan boshlanadi. Shu paytda xromosomalarda **xiazmalar**-krossingover ro'y beragan(gomologik xromosomalarni chalkashkan) joylar ko'rindi. SK faqat shu uchastkalarda saqlanadi. Xromosomalar qancha uzun bo'lsa - xiazmalar soni shuncha ko'p bo'ladi.

Diplonemada xromosomalarning bir oz kaltalashib kondensatsiyalanishi kuzatiladi. Bu bosqichda xromosomalar (triton hujayralarda) "lampa chotkasi" ko'rinishini oladi. Xromosomalarning ayrim uchastkalarida iplari yoyilib uzun ilmoqchalarni hosil qiladi. Bu ilmoqchalar faol uchastkalar bo'lib, ularda ko'p miqdorda iRNK sintezlanadi.



25-rasm. Lampa chotkasi ko'rinishidagi xromosoma: a -Umumiyo'g'ish; b.iRNK sintezi boradigan faol qismi (sxema)

Diplonemada faol xromosomalarning bo‘lishi meyozni mitozdan farqi hisoblanadi. Mitozning profazasidan boshlab har qanday sintez jarayonlari to‘xtaydi. Bunday sintez mahsulotlari murtakning erta rivojlanishi uchun kerakli mahsulotlarni yaratadi.

5. Diakinez— Xiazimalar soni kamayishi, bivalentlarning qisqariishi va yadrochaning yo‘qolishi bilan xarakterlanadi. Bivalentlar kompakt shaklga kirib ularning xiazimalari uchlarida joylashadi. Xromosomalarning yadro qobig‘i bilan aloqasi uziladi. Bu bosqich hujayra bo‘linishiga o‘tish bosqichi hisoblanadi. Diakinezda yadroda erkin joylashgan bivalentlarning sonini aniqlash mumkin.

Prometafaza 1 –xromosomalar spiralizatsiyasi maksimumga yetadi. Yadro qobig‘i eriydi. Bivalentlar hujayra ekvatoriga qarab yig‘ila boshlaydilar.

Metafaza 1— axromatin dukni shakllanishi tugatiladi va bivalentlar hujayra ekvatorida bir chiziq bo‘ylab joylashadi. Gomologik xromosomalarning sentromeralari ikki tomonagi qutblarga qaragan bo‘ladi. Sentromeralar bir-biridan ajralib xromosomalar ajralishga tayyor turadilar.

Anafaza 1 –ikkita gomologik xromosomalardan tuzilgan bivalentlar bir biridan ajralib xromosomalar bittadan hujayraning qarama-qarshi qutblariga tortiladi. Har bir xromosoma ikkita xromatiddan tuzilgan bo‘lib, sentromera bilan birikkan bo‘ladi. Anafazadagi ajralgan xromosomalar tarkibi jihatidan ota-ona xromosomalaridan farq qiladi, chunki paxinemada krossingoverga uchragan bo‘ladi.

Telofaza 1—xromosomalarning ikkita qutblarga tortilishi tugagan dan keyin boshlanadi. Biroz vaqt xromosomalar kondensatsiyalangan holatda saqlanadi, shundan keyin qisqa vaqt davom etadigan interfaza keladi va xromosomalar despiralizatsiyaga (spirallari yoyilishga) uchramaydi. Agar birinchi bo‘linishdan keyin uzoq davom etadigan interfaza kelsa, xromosomalar despiralizatsiyaga uchrab hujayra devori bilan ajratilgan ikkita yadro hosil bo‘ladi - hujayralar diadasi.


Meyozning ikkinchi bo‘linishi. Diadalarning har birida kechadi. Qisqa profaza 2 dan keyin bo‘linish duki shakllanadi.

Metafaza 2 – xromosomalar ikkita xromatidadan iborat bo‘lib, sentromera bilan bog‘lanadi, axromatin bo‘linish duki hosil bo‘ladi, xromosomalarning soni somatik hujayralarga nisbatan 2 marotaba kam.

Anafaza 2ning boshida xromatidalarni ushlab turgan sentromera ochilib har bir xromatida alohida bo'lib, hujayra qutblariga tortiladi. Natijada 4 yadroning har birida xromosomalarning gaploid to'plami hosil bo'ladi.

Telofaza 2da xromosomalar despiralizatsiyalanib, hujayra devori shakllanadi.

2chi meyoz mexanizmi jihatidan mitozga o'xshaydi, lekin o'ziga xos belgilarga ega.



26 –rasm. Meyozbo'linishsxemasi: а — leptonema; б — zigonema; в — паксинема; г — диплотена; д — диакинез; е — метафаза I; ж — анафаза I; з — телофаза I; и — интеркинез; к — метафаза II; л — анафаза II; м — телофаза II.

Meyozning ahamiyati

Jinsiy usul bilan ko'payadigan organizmlarda bir hujayradan 4ta gametalar hosil bo'lib, ularning har biri ota-onaliga nisbatan ikki marta kam xromosomalarga ega. Urug'lanish natijasida ikki tagameta qo'shilib, shu tur uchun xos xromosomalar soni tiknadi. Meyoz bo'limgan dagametalar qo'shilishi xromosomalar sonining ikki hissa oshishiga olib kelar edi.

Meyozgamlarda genlarni yangi kombinasiyalarini hosil bo'lishiga olib keladi. Bu esa avlodlarning genotipi va fenotipida o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keladi. *Demak, meyozining biologik roli jinsiy ko'payish xususiyatiga ega organizmlarda avlod-dan –avlodga xromosomalarning o'zgarmas(doimi) soni saqlanadi.* Meyoz hayvonlarda gametalar hosil bo'lishda va o'simliklarda sporalar hosil bo'lishda ro'y beradi.

Mitoz va meyozining farqi. Shunday qilib, mitoz bo'linishida bir somatik diploid hujayradan ikkita diploid hujayra hosil bo'ladi. Meyozninig ikkita bo'linishi natijasida bitta diploid hujayradan 4 ta haploid hujayra hosil bo'ladi va ularning har biri har xil irsiy axborot to'plamiga ega. Bu xromosomalar-ning tasodifiy tarqalishi va krossingover xodisasi bilan tushuntiriladi. Organizmlarning ko'payishi alohida olingen individning umrining uzunligi turnikidan ancha kam bo'lgani uchun turning tarixi o'zaro almashinayotgan organizmlar avlodining tarixidan iborat. Navbatdagi avlod ota-onaliga avlodining ko'payishidan hosil bo'ladi. Ko'payish tirik organizmlarning assosiy xususiyatlardan biri bo'lib u biologik turlar va hayotning davomiyligini ta'minlaydi. Biologik ko'payish jarayonida individlar sonining ortishi va ularning ota-onaliga o'xshashligi kuzatiladi. Bu esa avloddan- avlodga irsiy axborot tashuvchisi DNKning o'tishi bilan bog'liq.

Ko'payish turlari klassifikatsiyasi.

Jinssiz ko'payish turlari quyidagilardan iborat: Ikkiga bo'linish bitta organizmdan ikkita organizmning paydo bo'lishiga olib keladi va u prokariot va ba'zi ko'p hujayrali organizmlarda uchraydi. Masalan, meduzalarda bo'ylama, ko'ndalang bo'linish halqali chuvchalchanglarda kuzatiladi.

Ko'p marta bo'linish (**shizogoniya**) ba'zi bir hujayrali parazit organizmlarda kuzatiladi (malyariya-bezgak-plazmodiysida).

Kurtaklanib ko'payishda ona organizmida avval bo'rtma paydo bo'ladi va keyin u o'sib kurtakka aylanadi.

Fragmentasiyada avval ona organizm ko'p bo'laklarga bo'linib ketadi va har qaysi bo'lakdan keyin mustaqil organizm shakllanadi. Bu hodisa ba'zi yassi chuvalchanglar va ignatanalilar uchun xosdir.

Spora orqali ko'payishda organizmlar sporadan rivojlanadi va sporalarga faqat bitta organizm (ota yoki ona)ning irsiy axboroti bo'ladi.

Jinssiz ko'payishda qiz organizm ona organizmning bitta hujayrasidan (2ga bo'linish, shizogoniya, spora orqali) yoki bir guruh hujayralaridan paydo bo'ladi (vegetativ ko'payish).

Vegetativ ko'payish o'simliklar orasida keng tarqalgan. Hayvonlarda jinssiz ko'payish asosan sodda tuzilishga ega bo'lgan parazitlar orasida keng tarqalgan. Bu usul orqali parazitlarning soni keskin ko'payadi va ular noqulay sharoitlarni o'tkazadi.

Evolyutsiya jarayonida dastlab jinssiz ko'payish paydo bo'lgan bo'lib u organizmlarning asosiy guruhlari uchun xosdir. Jinsiy ko'payish genetik o'zgaruvchanlikni va avlodlarning morfo-fiziologik xilma-xilligini ta'minlaydi. Bu esa evolyutsion va ekologik jihatdan juda muhim va samaralidir.

Jinsiy ko'payishning asosini jinsiy jarayon tashkil etadi. Bu jarayonda ota va ona organizmining gametalari (irsiy materiali) qo'shilishi va zigotani hosil bo'lishidan boshlanadi. Jinsiy jarayonni infuzoriyalardagi konyugatsiya jarayonida kuzatish mumkin. Bunda ikkita infuzoriya o'zaro vaqtinchalik ko'prik bilan bog'lanadi va u orqali irsiy axborot almashinadi. Bu jarayondan keyin irsiy jihatdan ota-onal organizmidan farq qiluvchi organizmlar paydo bo'ladi. Konyugatsiyadan keyin infuzoriyalarning soni o'zgarmaydi va shuning uchun bu yerde ko'payish kuzatilmaydi. Keyin infuzoriyalar jinssiz yo'l bilan ko'payadi. Bundan tashqari sodda hayvonlarda kopulyatsiya (qo'shilish) jarayoni ro'y beradi va ikkita organizm qo'shilib irsiy axborot almashinadi. Evolyutsiyaning keyingi bosqichlarida kupayish jinsiy ko'payish jarayon bilan bog'lanadi.

Jinsiy ko'payish jarayonida ota-onal organizmlar jinsiy organlari-da haploid gametalarni hosil qiladi va ularning qo'shilishidan diploid zigota hosil bo'lishi kuzatiladi. Zigotaning bo'linib rivojlanishidan yangi organizm - embrion, murtak - hosil bo'ladi.

Mustaqil ta'lif mavzulari

1. Hujayraning to'g'ri bo'linishi yoki amitoz
2. Yadrochalar bo'linishi.
3. Sodda organizmlarda hujayra markazi
4. Erta prometafazada

Nazorat savollari:

1. Hujayraning mitotik va hayotiy sikli nima?
2. Hujayraning interfaza davri va mitotik davri nima?
3. Hujayraning bo'linish va o'sishini boshqaruvchi mexanizmi haqida gapiring.
4. Mitozning biologik va genetik ahamiyati qanday?
5. Amitoz va uning xususiyatlari va mitozdan farqini ayting.
6. Meyoz davrlari va uning mohiyati haqida gapiring.
7. Xromosomalar konyugatsiyasi va krossingover jarayonlarining ahamiyati qanday?
8. Sinaptonemal kompleksining roli qanday?
9. Meyozning biologik ahamiyati qanday?

TEST

1. Bir membranalni organoidni ko'rsating?

- a. Endoplazmatik to'r
- b. Yadro
- c. Mitoxondriya

2. Endoplazmatik to'rning nechta turi bor?

- a. 3 ta
- b. 4 ta
- c. 2 ta

3. Ingichka kanallar, sisternalar, xaltachalardan iborat bo'lib uzulmas (yopiq) membrana bilan chegaralangan Endoplazmatik to'rni aniqlang?

- a. Donador endoplazmatik to'r
- b. Silliq endoplazmatik to'r
- c. Donador va silliq endoplazmatik to'r

4. Ergastoplazma nima?

- a. Bir tutam membranalar yig'indisi

- b. Endoplazmatik to‘ming ikki xil ko‘rinishi
- c. Faol sintezlovchi hujayralar

5. Ovqat hazm qilish bezlarida ko‘p miqdorda ajraladigan ferment

- a. Laktaza
- b. Polimeraza
- c. Gidrolitik fermentlar

6. Endoplazmatik to‘r tizimi yo‘q bo‘lgan organizmlar

- a. Prokariotlar
- b. Eukariotlar
- c. O’simliklar

7. Ilk Golji majmui qanday toqima hujayralarida aniqlangan?

- a. Epiteliy to‘qima
- b. Muskul to‘qima
- c. Nerv to‘qima

8. Golji apparatida nechta zona ajratiladi?

- a. 3 ta
- b. 2ta
- c. 5ta

9. Lizosomalar membranali hujayra ichi tuzilmalari sifatida qachon va kim tomonidan topilgan?

- a. 1955 yilda De Dyuv
- b. 1964 yilda Gryu
- c. 1831 yilda Braun

10. Morfologik jihatdan lizosomalarning nechta tipi farqlanadi?

- a. 5 ta
- b. 4 ta
- c. 2 ta

MA'RUZA 9. ENDOREPRODUKSIYA

Reja:

1. Endoreproduksiya turlari.
2. Poliploidiya.
3. Aneuploidiya.

Tayanch iboralar. Endoreproduksiya, politeniya, endomitoz

Mashg'ulotning maqsadi: talabalarga endoreproduksiya turlari: politen xromosomalar, endomitoz va o'simliklarda uchraydigan poliploidiya hodisasi haqida bilim berish.

Mashg'ulot jihozlari: endomitoz bo'linish bosqichlari tasvirlangan jadval, drozofila so'lak bezidagi politen xromosomalar aks etgan slaydlar.

Bo'linayotgan hujayralar ma'lum vaqt muzlatilsa yoki bo'linish duki mikronaychalarini buzuvchi modda (kolkitsin) ta'sir ettirilsa, bo'linish to'xtaydi. Bo'linish duki buzilib xromosomalar qutblarga tortilmasdan o'zining siklini davom ettiradi: yo'g'onlashib yadro qobig'i bilan o'raladi. Natijada xromosomalari hech qayerga tarqalmay o'zida qolgan yirik yadroli hujayralar vujudga keladi. Bunday hujayra tarkibida DNK 4s ni xromosomalar 4 n ni tashkil etganligi uchun u diploid emas tetraploid bo'ladi. Bunday hujayralar G1 bosqichdan chiqib S bosqichga kirishlari va kolkitsinning ta'siri olib tashlansa yana mitotik yo'l bilan bo'linishi va 4n ga ega bo'lgan avlod berishi mumkin. Bu usul seleksiyada poliploid organizmlarni olishda ishlatalidi.

Ma'lum bo'lishicha tabiatda ham normal diploid organizmlarda DNK miqdori bir necha karra ko'p bo'lgan yirik yadroli organizmlar uchraydi. Bu hujayralar somatik poliploidiya mahsulotidir. Bu hodisa **endoreproduksiya**- DNK miqdori ortiqcha bo'lgan hujayralarning yuzaga kelishidir.

Bunday hujayralarning yuzaga kelishi mitozning borishida qandaydir buzilishlar yuzaga kelishi natijasida paydo bo'ladi. Mitozning bir qancha nuqtasi bo'lib ularni blokada qilish natijasida bo'linish to'xtab poliploid hujayralar rivojlanadi. Bular G2 dan mitozga o'tish davri, profaza, metafaza davrida va sitotomiya jarayonining buzilishi

poliploidiyaga sabab bo'ladi.

Xromosomalarining kondensatsiyasi kuzatilmaydi. Ba'zi umurtqasiz hayvonlarda poliploidiya darajasi katta bo'ladi. Tut ipak qurtining so'lak ajratuvchi bezi hujayralari yadrosi ploidligi ko'pligidan shoxlanib ketgan bo'ladi. Askarida qizilo'ngachi hujayralari 100ming s DNKga ega.

Endoreproduksiyaning bir ko'rinishi politeniya hodisasisidir. Politeniyada S-sintez- davrdagi DNK replikatsiyasida xromosomalar despiralizatsiya holida qolib bir-biridan ajralmaydi va kondensatsiyalanmaydi. Shu holatda ular yana keyingi replikatsiya sikliga o'tadilar yana ikki hissa oshadilar va yana ajralmaydilar. Natijada, ko'p ipli politen xromosoma hosil bo'ladi. Bu xromosomalar hech qachon mitozda ishtirok etmaydi, ular interfaza xromosomalarini bo'lib, DNK va RNK sintezida ishtirok etadilar. Mitotik xromosomalaridan o'lchamlari, yo'g'onliklari bilan farq qiladilar, chunki bir qancha iplar tutamidan iborat bo'ladi. Drozofila pashshasining politen xromosomasi mitotik X xromosomasidan ming marta katta va 70-250 martagacha uzunroqdir. Ularning hujayradagi soni gaploid bo'ladi, chunki gomologik xromosomalar qo'shilib konyugatsiyalanadi. Drozofilaning somatik hujayrasida 8-ta xromosoma. So'lak bezida - 4 ta bo'ladi.

Politen xromosomalar tuzilishi jihatidan ham farq qiladilar. Ular uzunligi o'ylab bir xilda tuzilmagan: disklar, diskaro qismlar va puflardan (shishlardan) .



27-rasm. *Drozofila* so'lak bezidagi politen xromosomalar.

A. Umumiy ko'rinishi; B. Shish uchastkalari

Disklar-kondensatsiyalangan xromatid uchastkalari. Ular bir-biridan qalinligi bilan farq qiladi. Ularning umumiy soni 1,5-2,5 ming tagacha bo‘ladi.

Disklar diskaro qismlar bilan ajratilgan. Ular ham disklar singari xromatin fibrillaridan tuzilgan, lekin ancha bo‘sh taxlangan.

Politen xromosomalar yuzasida shishlar ko‘rinadi, ular disklarning dekondensatsiyalanishi natijasida hosil bo‘ladi. Shishlarda RNK sintezlanadi. Demak shishlar transkriptsiya joyi hisoblanadi. Shishlar xromosomalar yuzasidagi vaqtinchalik tuzilmalar hisoblanadi. Organizm rivojlanishi mobaynida ular muayyan joyda va vaqtida hosil bo‘ladi. Ularning hosil bo‘lishi gen faolligi natijasidir. Ularda hasharotlar rivojlanishining turli bosqichlarida turli oqsillarning sintezi uchun RNK hosil bo‘lib turadi.

Xromosomalardagi disk va shishlarning joylashishi turga xos belgi bo‘lgani uchun genetik usullar yordamida turli genlar joylashish joyi, morfologiyasi o‘rganilib ular asosida xromosoma xaritasi tuzilgan.

2. Poliploidiya. Endoreproduksiyaning boshqa ko‘rinishida **poliploidiya**¹ bo‘linish dukining buzilishi natijasida hosil bo‘ladi. Bunda xromosoma kondensatsiyalanadi. Bu jarayon endomitoz deyiladi, chunki xromosomalarning kondensatsiyasi va o‘zgarishi yadroning ichida yadro qobig‘i erimasdan sodir bo‘ladi. Endomitoz boshida xromosomalar kondensatsiyalanadi va yadro ichida yaxshi ko‘rinadigan bo‘lib qoladi. Bu bosqich oddiy mitozning profaza va metafazasi singari o‘tadi. Shundan so‘ng xromosomalar ko‘rinmaydigan holatga kelib yadro oddiy interfaza ko‘rinishiga ega bo‘ladi, lekin hajmi kattalashadi. Keyingi DNK replikatsiyasidan keyin endomitoz takrorlanadi. Natijada, poliploid ($32n$) va gigant yadrolar hosil bo‘ladi. Kartoshka tiganagi hujayralarida xromosomalar doim spirallashgan holatda bo‘lib interfaza davri qisqarib ketgan.

Poliploid hujayralar hosil bo‘lishining yana bir usuli metafazada bo‘linish dukining bo‘lmasligi natijasida hosil bo‘ladi. Bunda ham ikkita xromosomalar to‘plamining qo‘shilishi kuzatiladi.

Poliploid somatik hujayralar hosil bo‘lishining boshqacha usuli sute nimizuvchilarda kuzatiladi. S davridan keyin 4s DNK ga ega

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

bo'lgan hujayralar mitotik bo'linadilar va uning hamma fazalarini o'tadilar, lekin telofazadan keyin sitokinez ro'y bermaydi. Natijada 2 yadroli hujayra hosil bo'ladi ($2n+2n$). Bu hujayra yana bir marta S davrni o'tishi natijasida ikkala yadro 4s DNK va 4 n xromosalarga ega bo'lib qoladi. Bunday hujayra mitozga kirib metafazada ikkala yadrodagи hujayradagi xromosomalar qo'shiladi ($8n$) va keyingi normal bo'linishdan 2 ta tetraploid hujayra hosil bo'ladi. Shu usul bilan jigar, buyrak, ko'z setchatkasi, oshqozonosti bezida poliploid hujayralar hosil bo'ladi.

Bu jarayonning biologik ahamiyati nimadan iborat? Shuni aytish kerakki, bu holat yuqori takkomillashgan, maxsus vazifalarni bajaruvchi hujayralarda uchraydi. Bunday hujayralar bo'linishda ishtirok etmaydi. Hasharotlardagi politen xromosomalar hasharotning metamorfozi natijasida lizislanadi. Endomitoz natijasida hosil bo'lgan hujayralar mitoz yo'li bilan ko'paya olmaydi, ular faqat amitoz yo'li bilan ko'payadi.

Somatik poliploidiyaning asosiy mohiyati hujayralar o'lchamini kattalashtirish orqali ular unumdorligini oshirishdan iborat.

Butunlay differensiatsiyaga uchragan hujayra bir vaqtning o'zida ham o'zining ko'payishi uchun kerak va to'qimaning faoliyati uchun kerak mahsulotlarni sintezlay olmaydi. Ba'zan bunday o'tishlar organizm uchun zarar ham bo'lishi mumkin. Masalan, nerv hujayralari bo'linishi uchun ular bajarayotgan vazifasini o'chirib turib keyin bo'linishga kirishi mumkin. Endoreproduktsiya hujayralarga asosiy vazifasidan uzliksiz ravishda o'z hajmini kattalashtirib ish maydonini kengaytirishga yordam beradi. Poliploidiya natijasida vegetativ va generativ a'zolar o'sadi. Kartoshka tunganagining kattalashishi endomitozlangan hujayralar hajmining ortishi natijasida bo'ladi.

O'simliklarda poliploidiya bitta turga kiruvchi organizmlar xromosomalarinig qo'shilishidan- avtopoliploidiya yoki chatishrirish natijasida har xil turlarga kiruvchi organizmlar xromosomalarining qo'shilishidan - allopolypliodiya xos bo'lishi mumkin. Poliploidlar orasida bitta xromosomasi kam' yoki ko'p bo'lgan o'simliklarni uchratish mumkin. Bu holat aneuploidiya deyiladi.

3.Aneuploidiya. Aneuploidiya anafazada gomologik xromoso-

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 286-288 p.

inalar ajralmasdan hujayraning bitta qutbiga tortilishi natijasida hosil bo‘ladi.

Diploid to‘plamiga bitta ortiqcha xromosoma qo‘shilgan organizmlar **trisomiklar** ($2n+1$) deyiladi. Ba’zan juftlikda bitta xromosomasi tushib qolgan bo‘lib -bu holat **monosomiya** ($2n-1$) deyiladi.

Poliploid o‘simliklar o‘ziga xos geografik tarqalish xususiyatiga ega, ular tez tarqalib katta xilma-xilliklar hosil qiladi va yangi yashash joylariga tez moslashadi va noqulay sharoitlarga chidamli bo‘ladi.

Hozirgi paytda ko‘p yillik dekorativ o‘simliklarning ko‘pchiligi (georgina, giasint, gladiolus, orxideya, atirgul, lola, xrizantema) poliploid navlardan iborat.

Odamlarda hujayralarning ko‘p qismi diploid. Gaploid holatda faqat jinsiy hujayralar – gametalar bo‘ladi.

Aneuploidiya holatlari odamlarda ham kuzatiladi. Xromosomalarни soni diploid to‘plamdan bitta kam bo‘lgan zigota odatda rivojlanmaydi, lekin ortiqcha xromosomali zigota rivojlanish xususiyatiga ega bo‘ladi. Lekin bunday zigotadan anomaliyasi (kamchiligi) bor organizm rivojlanadi. Ko‘p uchraydigan xromosoma mutatsiyalaridan biri xromosomalarning ajralmasligi natijasida rivojlanadigan trisomiya 21 –Daun sindromi (21chi xromosoma 3ta), Klaynfelter sindromi – ortiqcha X xromosoma(XXY), Terner sindromi bitta jinsiy xromosoma bo‘yicha nulesomiya (X0). Poliploidiya kam uchraydi. Triploidli embrionlar va tug‘ilgan bolalar ham bo‘ladi, lekin ular faqat bir necha kun yashaydi.

Hayvonlarda allopliodiya uchramaydi, chunki ularda turlararo chatishishlar deyarli kuzatilmaydi.

Mustaqil ta'lif mavzulari

1. Endoreproduksiya turlari.
2. Hayvonlarda alloploidiya
3. Drozofila so'lak bezidagi politen xromosomalar
4. Xromosomalarning kondensatsiyasi

Glossariy

Endoreproduksiya- DNK miqdori ortiqcha bo'lgan hujayralarning yuzaga kelishidir.

Politeniyada S-sintez- davrdagi DNK replikatsiyasida xromosomalar despiralizatsiya holida qolib bir-biridan ajralmaydi va kondensatsiyalanmaydi.

Trisomiklar ($2n+1$) -diploid to'plamiga bitta ortiqcha xromosome qo'shilgan organizmlar

Monosomiya($2n-1$) juftlikda bitta xromosomasi tushib qolgan Endomitoz - xromosoma kondensatsiyalanadi

Nazorat savollari:

1. Endoreproduksiya: endomitoz va politeniya hodisasi haqida gapiring.
2. Politen xromosomaning strukturasi qanday?
3. Politen xromosomaning paydo bo'lish mexanizimi va funksional ahamiyati.
4. Endoreproduksiyaning biologik ahamiyati nimada?

TEST SAVOLLARI

1. DNK miqdori ortiqcha bo'lgan hujayralarning yuzaga kelishi

- a) Endoreproduksiya
- b) Enteroreproduksiya
- c) Reproduksiya

2. Drozofila pashshasining politen xromosomasi mitotik X xromosomasidan ming marta katta vamartagacha uzunroqdir.

- a) 10-25

b)50-75

c) 70-250

3. Diploid to‘plamiga bitta ortiqcha xromosoma qo‘shilgan organizmlar nima deyiladi. a)trisomiklar

b)monosomiya

c) poliploidiya

4.Ba’zan juftlikda bitta xromosomasi tushib qolgan bo‘lib -bu holatdeyiladi.

a) trisomiklar

b)monosomiya

c) poliploidiya

5. Klaynfelter sindromi –

a) ortiqcha X xromosoma(XXY)

b) nulesomiya (X0).

c) togri javob yoq

6. Hayvonlarda uchramaydi, chunki ularda turlararo chatishishlar deyarli kuzatilmaydi.

a)alloploidiya

b) poliploidiya

c) aneuploidiya

7.-sintez- davrdagi DNK replikatsiyasida xromosomalar despiralizatsiya holida qolib bir-biridan ajralmaydi va kondensatsiyalanmaydi.

a)Poliploidiya s

b) Politeniyada S

c) Endomitoz

8. Drozofilaning somatik hujayrasida..... xromosoma.

a)8

b)10

c)12

9. Aneuploidiyagomologik xromosomalar ajralmasdan hujayraning bitta qutbiga tortilishi natijasida hosil bo‘ladi.

a)anafazada

b) profazada

c)metafazada

MA'RUZA 10. HUJAYRA PATOLOGIYASI VA O'LIMI. NEKROZ VA APOTOZ.

Reja:

1. Hujayra patologiyasiga sabab bo'lувчи омиллар.
2. Nekroz
3. Apoptoz

Tayanch iboralar. Patologiya, kariolizis, monosom.

Mashg'ulotning maqsadi: talabalarni plazmatik membrananing buzilishiga sabab bo'ladigan omillar, mitoxondriya patologiyasining shakllari, yadroda ro'y beradigan patologik jarayonlar, shish hujayralarining hosil bo'lish mexanizmi bilan tanishtirish.

Mashg'ulot jihozlari: mitoxondriyalar, yadro, plazmatik membra patologiyasi aks ettirilgan slaydlar.

Alohida olingen hujayralar ham butun organizmlar turli ta'sirlarga uchrashi natijasida ularda strukturaviy funksional o'zgarishlar yuzaga kelib bu patologiya rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunday patologik jarayonlar organizm ayrim funksiyalarining buzilishiga, hujayra va organizm o'limiga olib kelishi mumkin. Ko'p hujayrali organizmda yuzaga keladigan patologik jarayonlar negizida alohida olingen bitta hujayrada yuzaga keladigan buzilishlar yotadi. Bu g'oyani R. Virxov ilgari surgan(1858).

Haqiqatdan ham keng tarqalgan kasallikkardan biri bo'lgan qand diabeti kasalligining patogenezini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning boshlang'ich etapi hujayrada va oxirgi etapi a'zolarda ekanligini ko'rish mumkin. Bu klassallik giperglukemiya bilan xarakterli bo'lib, uning rivojlanishi buyrak, jigarni shikastlantiradi. Oshqozonosti bezi Langerhans orolchalaridagi hujayralarda insulin gormoni ishlab chiqariladi. Bu hujayralarda betta granulalari sonining kamayib ketishi natijasida gormon ishlab chiqarilishi kamayadi va kasallik rivojlanadi. Bir guruhga tegishli hujayralarda yuz beradigan o'zgarishlar sekin- asta boshqa guruh hujayralarini ham qamrab oladi.

Shuni aytish kerakki, normal sog'lom organizmda muntazam ravishda hujayralar nobud bo'lib turadi. Bular qon hujayralari, qoplovchi va ichak epiteliysi hujayralari o'zini vazifasini o'tagandan

so'ng hozirgacha noma'lum sabablarga ko'ra ularda biror bir funk-siyaning o'chishi hujayra o'limiga olib keladi. Ko'pgina hujayralar embrional rivojlanish davrida nobud bo'ladi. Masalan, vaqtinchalik a'zolarni hosil qilishda ishtirok etadigan hujayralar. Nobud bo'lgan hujayralar to'qimadan fagositoz yo'l bilan chiqariladi. Ularning o'mi yangi hujayralar bilan to'ldiriladi. O'limdan oldin bu hujayralarda sintez jarayonlari to'xtab faolligi kamayadi, vakuolyar tizimi qismlarga ajraladi, mitoxondriyalar o'zgarishga uchraydi va lizosoma ichidagi fermentlar tashqariga chiqishi natijasida hujayra lizislanadi (erib ketadi).

Shikastlangan hujayralarda ATF sintezi to'xtab kislородга bo'lган ehtiyoj oshadi.

Yadroning strukturaviy o'zgarishida xromatin kondensatsiyalanib yadro ichida sintez jarayonlari kamayadi.

Hujayra nobud bo'lishida xromatin koagulyatsiyasi, ya'ni uning agregatlar ko'rinishida yadroda yig'ilishi kuzatiladi (**piknoz**) bu esa ko'pincha yadroning siqilishiga (**karioreksis**) yoki yadroning erib ketishiga (**kariolizis**)ga olib keladi. Yadrochalar ularda rRNK sintezi to'xtashi natijasida granulalarini yo'qotib fragmentlarga ajralib keta-dilar.

Yadro qobig'ida ro'y beradigan o'zgarishlardan biri perinuklear bo'shliqning kengayib ketishi, yadro membranalarining erib ketishi-dir.

O'zgarishlarning erta bosqichlarida hujayra shaklining yumaloqlashishi va uning yuzasidagi o'simtalar, mikrotukchalar sonining kamayishi kuzatiladi. Plazmatik membrana yuzasida turli pufakchalar yuzaga keladi.

Plazmatik membrananing buzilishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1. Erkin radikallarning (stabil bo'Imagan va tashqi orbitasida toq elektronlar soniga ega

bo'lgan zarrachalar) hosil bo'lishi. Ular faol kislородга ega bo'lib, membrananing lipidlari bilan reaksiyaga kirishishi natijasida ortiqcha energiya hosil bo'ladi, lipidlar oksidланади.

2. Komplement tizimining faollashishi. Bular plazmatik membra-na faol bo'Imagan oqsillari guruhi bo'lib ularning faollashishi natijasida membrana fermentativ yemiriladi.

Sog'lom hujayrada bu fermentlar tashqaridan kirgan yod mod-dalarni parchalash vazifasini bajaradi.

3. Fermentlar ta'sirida lizislanishi. O'tkir pankreotit (oshqoznosti bezi shamollahshi) kasalligida ortiqcha fermentlarning sintezi plazmatik membranani nekrozga (o'limiga) keltiradi.

4. Hujayraga kirayotgan viruslar ta'sirida lizislanadi.

5. Kimyoviy va fizikaviy omillar ta'sirida (yuqori yoki past harorat, kamyoviy moddalar)

Plazmatik membrana shikastlanishi oqibatlari:

1. Strukturaviy butunlikning yo'qolishi. Uncha katta bo'limgan o'zgarishlar tiklanishi mumkin, lekin bunda plazmatik membrana yuzasi kamayadi.

2. To'siq vazifasining buzilishiga sabab bo'ladi, bu esa hujayra ichiga ortiqcha suv kirishiga olib keladi.

Plazmatik membrana shikastlanishi turlari: membrana patologiyasi ularning o'tkazuvchanligining buzilishi, membrana orqali trasportning buzilishi, membrana harakati va hujayra shaklining o'zgarishi, sintez va almashinuvning buzilishi.

Membranalar shaklining o'zgarishi morfologik jihatdan deformatsiya (o'zgarish) va maxsus tuzilmalar atrofiyasi (ishlamay qolishi) bilan teshiklar va uzilishlar hosil bo'lishi bilan tafsiflanadi.

Mitoxondriyalar shikastlanish sabablari ATF sintezi buzilishi bilan bog'liq.

Glyukoza energiya hosil bo'lishida asosiy substrat va bosh miya neyronlari uchun asosiy energiya manbaidir. Shuning uchun qonda glyukoza miqdorining kamayishi (gipoglikemiya) ATF sintezining kamayishiga olib keladi, bu ayniqsa miya hujayralarida bilinadi.

Mitoxondriya shaklining o'zgarishi¹

Mitoxondriyalar shishishi. Bu holat mitoxondriyalarga suv kirishi natijasida ro'y beradi. Uni mitoxondriyalar hajmining kattalashishidan (megamitoxondriyalar) farq qilish kerak. Mitoxondriyalarning shishishi turli holatlarda paydo bo'ladi: och qolish, gipoksiya (kislorod yetishmasligi), intoksikatsiya (organizmning zaharlanishi).

¹ Gerald Karp. Cell and Molecular Biology. USA, 2013, «Wiley». 486-488 p.

Shishish holati kichik amplitudalarda borganda suv sekinlik bilan tashqi membranasidan o'tib kristalar saqlanib qoladi va mitoxondriya oldingi holatiga qaytishi mumkin. Katta amplitudalarda shishish kristalarning, mitoxondriya fragmentatsiyasiga tashqi va ichki membralarning yorilishiga olib keladi.

Mitoxondriya kristalari tuzilmasining o'zgarishi masalan, ular sonining kamayishi faolligining kamayishida ham kuzatiladi.

Megamitoxondriyalar yadro kattaligida bo'lib, gepatotsitlarda alkogolizm, sirrozda, kimiyoiy moddalar intoksikatsiyasida (zaharlanishda) kuzatiladi. Bular intoksikatsiya yo'qolgandan keyin o'zining shaklini tiklaydi.

Endoplazmatik to'r sistemasi ko'pincha vakuolizatsiyaga uchraydi - mayda pufakchalarga ajraladi. Membranalari yuzasida ribosomalar soni kamayadi, bu esa oqsil sintezini pasaytiradi. Sisternalar yuzasi kengayadi, bu tayyor mahsulotlarning Golji apparatiga chiqarilishining buzilishi natijasidir.

Golji apparati sisternalari ham alohida vakuolalarga ajraladi, ular tarkibida sekret maxsulotlari to'dalanib qoladi.

Lizosomalarda yuzaga keladigan patologik jarayonlarga tarkibagi fermentlarning yetishmasligi yoki membranasi uzilib fermentlari gialoplazmaga qo'shilishi kiradi. Oxirgisi hujayraning avtolizisiga (erib ketishiga) sabab bo'ladi.

Ribosomalar patologiya natijasida o'z shaklini o'zgartiradi, spiral shakliga kirishi mumkin.

Mikronaychalarydagi dupletlar orasidagi aloqaning uzilishi natijasida kiprikcha va xivchinlar harakatsiz bo'ladi. Chekuvchi odamlarda bronxlar shilliq qavatida joylashgan kiprikchalar harakatsiz bo'ladi.

Hujayra shikastlanishida ularning mitotik faolligi tushadi, ular mitozning turli bosqichlarida to'xtab qoladi. Bunga asosiy sabab mitotik apparatning buzilishi.

Hujayra komponentlarida ro'y beradigan bu o'zgarishlar salbiy omilning tabiatiga boqliq bo'lmasagan holda bir xil kechadi. Masalan, jigar hujayralarida ro'y beradigan kassaliklarda ham mitoxondriyalar shishib, vakuolyar tizim vakuolalarga ajraladi; yurak infarktida ham xuddi shu jarayon kuzatiladi.

Bu esa hujayralar sitoplazmasida turli salbiy reaksiyalarga qa-

ratilgan yagona molekulyar mexanizm borligidan dalolat beradi. Bu mexanizm-paranekroz deb atalga. Bunday paranekroz reaksiyasi asosida oqsillarda ro'y beradigan denaturatsiya jarayoni yotadi. Ularning ikkilamchi va uchlamchi tuzilmalari o'zgaradi, natijada oqsillarning kimyoviy va fizik xususiyatlari o'zgaradi.

Hujayradagi patologik jarayon salbiy omilni olib tashlanganda to'xtashi mumkin. Agar o'zgarishlar uzoqqa bormagan va yadro gacha yetib bormagan bo'lsa. Bu holda hujayra o'z holiga qaytib vazifalarini tiklaydi. Masalan, mitoxondriyalarning shishishi va endoplazmatik to'rning fragmentatsiyasi qaytar jarayon.

Hujayraning reparatsiyasi (tiklanishi) to'liq yoki qisman bo'ladi. Qisman reparatsiyada hujayra tiklanadi, bir oz vaqt faoliyat ko'rsatadi, lekin vaqt o'tishi bilan nobud bo'ladi. Bu holat yadroda qaytmas jarayonlar boshlanganligi tufayli sodir bo'ladi. Masalan, infuzoriyalar ni ultrabinafsha nurlari bilan nurlantirganda biroz vaqt dan so'ng ular o'ziga kelib harakati tiklangan, lekin yadro tuzilmasi shikastlanganligi tufayli ular baribir nobud bo'lgan.

Qaytmas jarayonlar natijasi hujayra o'limidir. Hujayra o'limi uzoq va murakab jarayon. Hujayra ichidagi gidrolitik fermentlar faollahib gialoplazmadagi oqsillarni, lipidlarni yemiradi, natijada, hujayra ichi membranalari yemiriladi, shu jumladan lizosomalar membranalari ham. Bu esa hujayra avtolizisiga (erishiga) olib keladi.

Hujayradagi patologik holatlarga boshqaruva jarayonlarining buzilishi ham kiradi. Bu esa almashinuv jarayonlarinig buzilishi va turli moddalarning to'dalanishiga sabab bo'ladi. Patologik anatomiyada bu holat distrofiya deyiladi. Yog' distrofiyasida yog' kiritmalari tomchilar ko'rinishida to'dalanadi. Hujayralar yog'larni yutib ularni utilizatsiya (ishlatib) qilolmaganidan yog'lar sitoplazmada to'planadi. Parchalovchi fermentlar yetishmasligi natijasida glikogen ko'p miqdorda to'planadi. Shuningdek, hayvon hujayralarida pigmentlar to'dalanadi.

Boshqaruva jarayonlari patologiyasining bir ko'rinishi differensiatsiya jarayonining buzilishi natijasida shish hujayralarining hosil bo'lishidir.

Shish hujayralarining asosiy xususiyati - doim to'xtamay bo'linishi, differensiatsiyalansmasligi, organizm boshqaruvidan chiqib ketishi. Sog' organizmda hujayralarning hayot faoliyati nerv gu-

moral yo‘l bilan boshqariladi va hujayralar “buyruqlarga bo‘ysinadi”. Shish hujayralari esa organizm tomonidan beradigan buyruqlarga bo‘ysinmasligi bilan tavsiflanadi. Sog‘ organizm bu hujayralarni tanib olib ularni o‘ldiradi, lekin immuniteti sust organizm ular bilan kura-sha olmaydi. XXI asrda odam o‘limiga olib keladigan asosiy kasalliklar qatoriga yurak tomir kasalliklari va saraton (rak) kiritilgandir.

Saraton kasalliklariga olib keladigan omillarga: tashqi muhitning ifloslanishi, radiatsiya, kanserogen (rak yaratuvchi) moddalari bo‘lgan oziq moddalarni iste’mol qilish, kam harakat qilish, asabiylashish kiradi. Normal hujayraning shish hujayrasiga aylanishini 2 bosqichi bor. Birinchi bosqichda hujayralar to’xtovsiz bo‘linadi. Lekin, shunchaki bo‘linayotgan hujayralar organizmga hech qanday zarar keltirmaydi asosiy rolni bunda onkogen o‘ynaydi. Ikkinci bosqichda hujayralar zararli shaklga kiradi. Bunda hujayralarning o‘sishiga organizmning o‘zi yordam beradi. U ko‘payatgan hujayralarni asrab har birini kapillyarlar bilan ta’minlab, shish hosil bo‘layotgan joyga yangi sog‘ hujayralarni jalb qilib, shishning kengayib o‘sishini ta’minlaydi, xuddi o‘zining joniga suyiqasd qilgandek sekin o‘zini o‘limga olib keladi.

Ma’lum bo‘lishicha, organizm shishlarni bitayotgan yara deb qabul qilib ularni hujayralarni o‘stirish orqali tuzatmoqchi bo‘ladi. Agar qo‘limizni pichoq bilan kesib olsak yara sekin bitib boradi. Birinchi bosqichda qon ivishi uchun qon hujayralari yara ustida to‘plana boshlaydi. Makrofaglar, trombotsitlar o‘zlaridan sitokinlarni-hujayra bo‘linishini boshqaruvchi oqsillarni ishlab chiqara boshlaydi. Sitokinlar hujayraning bo‘linishini chaqirib yaraning ochiq joyi yangi hujayralar bilan to‘la boshlaydi.

Qonning ivishida signal bo‘lib yara yuzasidagi shikastlangan yoki o‘lik hujayralar xizmat qiladi (probirkadagi qon shisha idish bilan aloqada bo‘lgani uchun iviydi). Biz pichoq bilan o‘ldirgan yara ustidagi hujayralar tinch turmaydi. Ular o‘zidan o‘sish omili bo‘lgan sitokinlarni ajratib yoniga hujayralar migratsiyasi uchun signal beradi. Buning natijasida hujayralararo bo‘sqliq limfa bilan to‘lib u yerga yarani bitishida ishtirok etuvchi limfotsitlar va boshqa hujayralar to‘planadi.

Demak, hujayralar bo‘linishi uchun signal bo‘lib, yara ustidagi o‘layotgan hujayralar xizmat qiladi. Bu hujayralar nekroz usuli bilan o‘ladi. Ma’lumki, DNK qo‘s zanjirdan tuzilgan. Organizmda vaqt-

vaqt bilan DΝK zanjirida uzilishlar hosil bo'lib turadi. Uzilishlar sababi turli stress holatlaridir. Uzilishlar bitta zanjirda bo'lib, uzilgan joy ikkinchi zanjirdagi shu joyga qarab tuzatiladi. Ya'ni uzilgan DΝK bo'lagi sog'ining oldiga kelib undan nusxa ko'chiradi. Bunday uzilishlar sog' hujayralarda yuqori samaradorlik bilan tuzatiladi. Lekin ba'zan uzilish joyida uning dupleksi – kopiyasi (nusxasi) uchramaydi. Natijada DΝKda bunday uzilishlari bo'lgan hujayralar kasal nasl beradi va hujayralarning nobud bo'lishiga olib keladi. Shish hujayralari DΝKsida ana shunday uzilishlar yuzaga kelib, ular tiklanmasligi natijasida hujayralarda mutant onkogenlar yuzaga keladi. Bunday hujayralar tashqi signallarni eshitmaydi, faqat ichidagi kasal genlar berayotgan noto'g'ri signallarni qabul qiladi. Bunday hujayralar 10% tashkil etsa, ularning nekrozi organizmda yara bitiruvchi mexanizmini ishga tushiradi va hujayralar to'xtovsiz bo'linna boshlaydi. Shu tariqa o'sma kattalashadi. Qon oqimiga shunday hujayralarning bittasi tushib qolsa u qon bilan boshqa a'zolarga etib borib u yyerda metastaza-shish rivojlanadi.

Demak, nekroz yo'li bilan nobud bo'layotgan rak hujayralarini apoptoz (tabiiy programmalashtirilgan o'lim) yo'li bilan nobud bo'lishga majbur eta olsak rakni yengamiz. Rak hujayralari o'zidagi mutantlik xususiyatini avloddan - avlodga beradi.

Har kuni biz to'g'ri ovqatlanmaymiz, chala xazm bo'lgan oqsil tabiatli ozuqa ichakdagi chirituvchi mikroflora uchun qulay oziqa muhiti hisoblanadi. Ularni o'ldirish uchun organizm immun sistemasining 50-60 % kuchi ketadi. Natijada, organizm holsizlanadi va hosil bo'layotgan rak hujayralariga qarshi kurashishga kuchi qolmaydi.

Hozirgi vaqtida tibbiyotda saraton bilan kurashishning 3 ta usuli mavjud: xirurgik aralashuv, kimyoviy terapiya, nurlanish. Bu usullar rak hujayralarini o'ldiradi lekin, birinchidan sog' hujayralar ham ko'plab nobud bo'ladi, ikkinchidan kasal organizmi holsizlanib imuniteti o'ladi. Nurlanish va kimyoviy usullar natijasida ko'plab nobud bo'lgan rak hujayralari chirib intoksikatsiyaga (zaharlanishga) sabab bo'ladi.

Hozirda talab qilinayotgan narsa bu hujayralar mexanizmini to'g'irlovchi dorilarni yaratishdir. Bunda bir qancha yo'naliшlar mavjud:

- genetik injeneriya yo'li bilan shish hujayrasi genomiga etish-

maydigan antionkogenlarni yuborish yoki onkogenlarni o'ldirish.

-onkooqsillarning patologik faoliyatini susaytirish; ularning noto'g'ri signallarni yuborish qobiliyatini o'ldirish.

Hozirda ko'pgina laboratoriyalarda bu borada ishlar olib borilyapti. Jumladan, Toshkent shahrida joylashgan Respublika onkologiya markazida ham bu borada juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilyapti.

Lekin shuni ta'kidlash zarurki, kasallikni tuzatishdan ko'ra uni oldini olish oson. Buning uchun esa tanamizdag'i normal hujayralarni DNKnii buzuvchi mutagen agentlar bilan aloqa qilishiga yo'il qo'ymaslik kerak: nurlanish, kimyoviy moddalar. Bunday agentlar orasida har yili ko'plab insonlar o'limiga sabab bo'ladigan chekish birinchi o'rinda turadi. Epidemiolog olimlar xulosasiga ko'ra, ko'p mamlakatlarda chekish saraton kasalliklarining yarmiga sabab bo'lar ekan. Yillar mobaynida chekuvchining o'pkasida ko'plab onkogen mutatsiyalari to'planib yotadi. Bunday mutatsiyalar soni ma'lum bir miqdorga etganda hujayrada shish yuzaga keladi. Agar chekishni shu mutatsiyalar soni yig'ilguncha tashlansa kasallikning oldini olish mumkin.

Hujayra larimizni sog'lom saqlab qolishga va o'zini to'g'ri tutishga erishaylik.

Ko'p hujayrali organizmlarda alohida olingen yoki bir guruh hujayralarning nobud bo'lib turishi (o'limi) bir hujayrali organizmlarning nobud bo'lishi kabi tabiiy holdir. Hujayralarning nobud bo'lishiga morfologik yoki biokimyoviy omillar sabab bo'lishi mumkin. Hujayra o'limining ikki ko'rinishi mavjud: nekroz (yunoncha nekrosis - "nobud bo'lish") va apoptoz (yunoncha "tushib qolish", "parchalanish"). Apoptozni hujayraning programmalashtirilgan o'limi deb ham atashadi.

Nekroz

Hujayra o'limining bu ko'rinishi hujayra membranasining o'tkazuvchanlik xossasining buzilishi natijasida ichki gomeostazning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, hujayra ichidagi ionlar kontsentratsiyasi buzilib, mitoxondriyalar tiklanmas o'zgarishlarga va hamma hayotiy jarayonlarning to'xtashiga olib keladi. Nekroz plazmatik membrananing shikastlanishiga, ko'pgina zaharli moddalar ta'sirida

membrananing shimish kuchining pasayishiga, energetik jarayonlarning buzilishiga olib keladi. Bunda plazmatik membrananing o'tkazuvchanlik xossasining ortishi natijasida hujayra ichiga suv kirib, u shishadi, sitoplasmada Na^+ va Ca^{2+} ionlari kontsentratsiyasi oshadi, vakuolyar tizim komponentlari membranalari uzilib sitozolda oqsil sintezi to'xtaydi, lizosoma gidrolazalari sitoplazmaga chiqib hujayra lizislanadi. Sitoplazmadagi bu o'zgarishlar bilan bir vaqtida yadroda ham o'zgarishlar kechadi. Nekrozning o'ziga xos tomoni shundaki unga katta guruh hujayralar uchraydi. Nekrozga uchragan hujayralar leykotsitlar hujumiga uchrashi natijasida to'qimaning shu qismida shamollash jarayonlari rivojlanadi.

Apoptoz

Organizmlarning rivojlanishi jarayonida bir qism hujayralar hech qanday fizikaviy yoki kimyoviy o'zgarishlarsiz nobud bo'lib turadi. Ya'ni ularning "sababsiz" o'limi sodir bo'ladi. hujayralar o'limini ontogenezning deyarli hamma bosqichlarida kuzatish mumkin. Masalan, neyroblast va gonadotsitlarning nobud bo'lishi, hasharotlar va amfibiyalar metamorfozidagi hujayralarning nobud bo'lishi (it-baliqning dumi va tritonning jabralari rezorbtsiyasi). Voyaga yetgan organizmda ham domiy ravishda hujayralarning to'satdan o'limi sodir bo'lib turadi. Qon hujayralari-neytrofillar, teri epidermisi hujayralari, ingichka ichak hujayralari – enterotsitlar millionlab nobud bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki hujayra o'limi hujayralararo aloqa mexanizmlari oraqlari boshqariladi. Ko'p hujayrali organizmlarning hujayralari tirik qolish uchun tashqaridan "signal" olishlari kerak. Bunday signallarning bo'lmasligi hujayrada o'z-o'zini nobud qilish mexanizmi ishga tushishiga olib keladi. Masalan neyron hujayralarini o'stiruvchi omil (NGF) bo'lmasa ular nobud bo'ladir.

Jigar hujayralidagi apoptozda quyidagi jarayonlar kuzatiladi. Jarayonning ¹boshida hujayralarning qo'shni hujayralar bilan aloqasi uziladi, ular bujmayib, yadrolarda xromatin kondensatsiyalanib, yadro va undan keyin hujayraning o'zi ham mayda bo'laklarga parchalanib, har bir bo'lak plazmatik membrana bilan o'raladi. Bu hosil bo'lgan

¹ Gerald Karp. *Cell and Molecular Biology*. USA, 2013, «Wiley». 452 p.

bo'laklar apoptoz tanachalar deb ataladi. Apoptoz hujayraning erib ketishi, lizisiga emas maydalanishi yoki parchalanishiga olib keluvchi jarayon. Plazmatik membrana bilan o'ralgan apoptoz tanachalar o'ziga makrofaglarni jalb qiladi. Makrofaglar tarkibidagi lizosomalar yordamida apoptoz tanachalarni hazm qiladi. Qizig'i shundaki, makrofaglar qo'shni sog' hujayralarga tegmasdan faqat apoptoz hujayralarini tanib oladi. Bunga sabab apoptoz natijasija plazmatik membrananing assimetrikligi buzilib, uning yuzasiga salbiy zaryadlangan fosfolipid - fosfatidilserin chiqib qoladi. Bu hol esa makrofaglar uchun signal bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, tanlab olinadigan fagotsitoz orqali to'qimalar nobud bo'lgan hujayralardan tozalanadilar.

Demak, apoptoz hujayraning genetik programmalashtirilgan o'limi bo'lib, bunda hech qanday patologik jarayonlar rivojlanmaydi.

Apoptozga turli tashqi omillar- nurlanish, toksinlar sabab bo'lishi mumkin. DNKda ro'y beradigan qaytmas salbiy o'zgarishlar, mitokondriyalarda energetik jarayonlarning buzilishi, endoplazmatik to'rda oqsil sintezining to'xtashi ham apoptozni keltirib chiqarishi mumkin.

Apoptoz yo'li bilan ayrim hujayralarning olib tashlanishi – **eliminatsiya** deyiladi. Apoptozning sodir bo'lish mexanizmlari o'simliklarda ham hayvonlarnikidek bo'lib, lekin apoptoz tanachalari shu tanachar tarkibidagi gidrolazalar ta'sirida parchalanadi, chunki o'simliklarda hayvonlardan farqli ravishda fagosomalari bo'lmaydi. O'simliklardagi apoptozni ildiz g'ilofi hujayralarining yemirilishida, ksilema va floemaning hosil bo'lishida kuzatish mumkin. Kuzgi barglarning to'kilishi barg bandining ayrim hujayralari apoptozga uchrashi natijasida sodir bo'ladi.

Apoptoz yoki hujayraning programmalashtirilgan o'limining biologik ahamiyati shundaki, organizm o'z faoliyatini tugatgan, patologik o'zgarishlarga uchragan, mutant va viruslar bilan zararlangan hujayralardan holi bo'ladi.

Nazorat savollari :

1. Nekroz va apoptoz nima?
2. Apoptoz tanachalari qanday hosil bo'ladi?
3. O'simlik va hayvonlarda boradigan apoptoz jarayonining farqi nimada?

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Nekroz.
2. Nekrozning kelib chiqish sabablari.
3. Apoptoz – hujayraning “sababsiz” o‘limi
4. Eliminatsiya hodisasi.

TEST

1. Nekroz nima?

- a. Ichki gomeostazning buzilishi.
- b. Hujayra membranasining o‘tkazuvchanlik xossasining buzili-shi.
- c. Ichidagi ionlar kontsentratsiyasini buzilishi.

2. Nekroz qanday ma’noni anglatadi?

- a. Yunoncha -“nobud bo‘lish”.
- b. Yunoncha “tushib qolish”.
- c. Yunoncha “parchalanish”.

3. Nekroz natijasida.....

- a. Sitoplazmada Na^+ va Ca^{2+} ionlari kontsentratsiyasi oshadi.
- b. Sitoplazmada Na^+ va Ca^{2+} ionlari kontsentratsiyasi kamaya-di.
- c. Sitoplazmada Na^+ va Ca^{2+} ionlari kontsentratsiyasi tengla-shadi.

4. Nekrozning o‘ziga xos tomoni qanday?

- a. Unda katta guruh hujayralar uchraydi.
- b. Unda kichik guruh hujayralar uchraydi.
- c. Unda har xil guruh hujayralar uchraydi.

5. Apoptoz nima?

- a. Bir qism hujayralar hech qanday fizikaviy yoki kimyoviy o‘zgarishlarsiz nobud bo‘lishi.
- b. Ontogenezning tugashi.
- c. Bir qism hujayralar fizikaviy yoki kimyoviy o‘zgarishlar bilan nobud bo‘lishi.

6. Apoptoz qanday ma’noni anglatadi?

- a. Yunoncha -“nobud bo‘lish”.
- b. Yunoncha “tushib qolish”.

- c. Yunoncha “parchalanish”.
- 7. **Apoptozni hujayraning programmalashtirilgan o‘limi deb ham atashadi.**
 - a. Hujayraning programmalashtirilgan o‘limi
 - b. Hujayraning o‘limi
 - c. Hujayraning programmalashtirilgan tirlishi
- 8. **“sababsiz” o‘lim bu nima?**
 - a. Apoptoz
 - b. Nekroz
 - c. Mitoz
- 9. **Eliminatsiya nima?**
 - a. Ayrim hujayralarning olib tashlanishi
 - b. Hamma hujayralarning olib tashlanishi
 - c. Hujayralarning o‘limi
- 10. **O‘simliklardagi apoptozni nimalarda kuzatish mumkin?**
 - a. Ildiz g‘ilofi hujayralarining yemirilishida, ksilema va folemaning hosil bo‘lishida
 - b. Ildiz g‘ilofi hujayralarining hosil bo‘lishida, ksilema va folemaning yemirilishida
 - c. Ildiz g‘ilofi hujayralarining yemirilishida, ksilema va folemaning yemirilishida.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

1-LABORATORIYA MASHG'ULOTI. HUJAYRA BIOLOGIYASIDA QO'LLANILADIGAN TADQIQOT USULLAR

Sitologiyada qo'llaniladigan tadqiqot usullari bir necha xil bo'lib, zamonaviy tadqiqot usullari tirik va fiksatsiyalangan (qotirilgan) tuzilmalarini o'rganishga imkon beradi.

Klassik tadqiqot usuli kesmalarni fiksatsiyalab bo'yagan holda tayyorlangan preparatlar hisoblanadi. Bu preparatlarni o'rganishning asosiy usuli mikroskop ostida ko'rishdir. Preparatlar juda yupqa va yorug'lik o'tkazadigan bo'lishi kerak.

Preparatlar ko'pincha yorug'lik mikroskopi ostida ko'riladi. Elektron mikroskop eng murakkab molekulyar qismlarni o'rganishga imkon beradi.

Biologik laboratoriyalarda aksari yorug'lik mikroskopidan foydalaniladi(2rasm). Bu mikroskopning o'ndan ortiq turlari bor. Ular elektr yoki tabiiy yorug'lik bilan ishlaydi. Hozirgi vaqtida gistolik va sitologik preparatlarni mikroskopda ko'rishning 15 dan ortiq usuli mavjud. Quyida ularning eng asosiyлари ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Qorong'i maydonli mikroskopda ko'rish. Bu mikroskopning tuzilishi va unda preparatlarni ko'rish tartibi yorug' maydonli mikroskopagi bilan deyarli bir xil bo'lib, u tirik hujayra va to'qima tuzilmalarini o'rganishga mo'ljallangan. Unda hujayrani qorong'i maydonda ko'rish kondensorga qo'yiladigan maxsus plastinka yordamida amalga oshiriladi, ya'ni yorug'lik nuri kondensor orqali ob'yeqtga qiyalatib tushiriladi. Bunda ob'ekt (masalan plastidalar) yorishib, maydon qorong'iligicha qoladi. Tirik hujayra tarkibidagi tuzilmalar yaxshi ko'rinishi uchun ob'yeqtga tushayotgan yorug'lik nuri har xil optik qalinlikda bo'lishi shart. Mazkur mikroskopda bo'yalgan yoki bo'yalmagan tirik hujayralarni, hujayra tuzilmalarini va bakteriyalarni o'rganish ancha qulay.

Fazali kontrast mikroskopda ko'rish. Bo'yalmagan tirik hujayralar, odatda yorug'lik nurini tutib qolmasdan, o'zidan o'tkazib yuboradi. Shuning uchun ular mikroskopda ko'rinnmaydi yoki anglab

bo‘lmas darajada ko‘rinadi. Ularni ko‘rish uchun tegishli bo‘yoqlar bilan bo‘yashga to‘g‘ri keladi. Fazali kontrast mikroskopiya usuli o‘rganilayotgan bo‘yalmagan tuzilmalarning bizga zarur bo‘lgan kontrastligini ta‘minlaydi. Kontrastlikni, odatda, ob‘yektivdagi fazali plastinka deb ataladigan kondensorga o‘rnatilgan maxsus xalqa - diafragma - hosil qiladi. Ob‘yektni qanchalik yaxshi ko‘rish nurning sinish darajasiga bog‘liq. Yorug‘lik nuri ob‘yektdan qancha tez o‘tsa, uning yoritilishi, demak, kontrastligi shuncha ortadi, binobarin, hujayra tuzilmalari ham shunga yarasha yaxshi ko‘rinadi.


Interferentsion mikroskopda ko‘rish. Mazkur mikroskopda ko‘rish usuli fazali kontrast mikroskopda ko‘rishga o‘xshasada, unga nisbatan ko‘proq imkoniyatga ega. Masalan, uning yordamida bo‘yalmagan tirik hujayralarning aniq tasvirini va ularning quruq vaznini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, bu usul yordamida hujayralarning qalinligi, tarkibidagi quruq moddalarning zichligini, shuningdek suv, nuklein kislotalar, oqsil va fermentlarning miqdorini bilish mumkin. Interferentsion usulda bo‘yalgan preparatlarda hujayraning yadrosi, odatda qizilga, sitoplazmasi esa zangori rangga bo‘yaladi.

Lyuminestsent (yoki flyuorestsent) mikroskopda ko‘rish. Lyuminestsentsiyada qator moddalarning atomlari (molekulalari) qisqa to‘lqinli nurlanish yutar ekan, u qo‘zg‘algan holatga keladi. Ularning qo‘zg‘algan holatdan normal holatga o‘tishi esa yorug‘likni katta to‘lqin uzunligida tarqatib yuborish hisobiga bo‘ladi. Binobarin, preparat unga nur ta‘sir qilish vaqtida hosil bo‘lgan energiya hisobiga nurlanadi, ya’ni flyuorestentsiyalaradi.

Ultrabinafsha nurli mikroskopda ko‘rish. Bu mikroskop linzalari kvarsdan yasalgan bo‘lib, u faqat ultrabinafsha nurlarini o‘tkazadi. Bu mikroskopda kvartsdan yasalgan buyum oynasi va qoplagich oynachalar ishlatiladi. Ultrabinafsha nurli mikroskopda ko‘rish hujayrani chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.


Polyarizatsion mikroskopda ko‘rish. Bu usul hujayra va to‘qimalarning anizatrop yoki ikki xil nur sindiruvchi tuzilmalarini o‘rganish uchun ishlatiladi. Bu mikroskop bilan tuzilmalardagi molekulalarning joylanishini o‘rganish mumkin va hujayralar tuzilmasi aniqlanadi. /

Bu mikroskop hujayra bo‘linishi, xromosomalar va organoid tuzilishini o‘rganishda xam qo‘l keladi.



2-rasm. Yorug'lik mikroskopining ko'rinishi

Elektron mikroskopda ko'rish. Sitologik preparatlarni elektron mikroskopda o'rganish hozirgi vaqtida keng tarqalgan usul bo'lib, uning yordamida hujayralarning nozik tuzilmalari, organoid va hujayra kiritmalarining tuzilishi hamda ularda sodir bo'ladigan nozik o'zgarishlar kuzatiladi. Elektron mikroskop buyumlarni 1000000 marta kattalashtirish imkoniga ega. Chunki elektron mikroskopda yorug'lik mikroskopidagi singari uzun to'lqinli nurdan emas, balki qisqa to'lqinli elektronlar nuridan foydalaniladi. Kuzatmoqchi bo'lgan ob'ekt tasviri elektron nuri yordamida ko'rsatilsa, bunday asbob elektron mikroskop deyiladi(3rasm). Oddiy mikroskopda hayvonlar to'qimasining mikroskopik tuzilishini o'rganish uchun kesmlarning (preparatlarning) qalinligi taxminan 3-5 mikron (mk) bo'lishi kerak. Bundan qalin bo'lsa hujayralar qavati ortib ketib, ob'yeqtning tasviri ko'rinxaydi. Elektron mikroskopning afzalligi shundaki, to'qimalardan olinadigan kesma ancha yupqa (0,02mk) bo'ladi. Oddiy mikroskopda ob'yeqtning qalinligi, ya'ni hujayra va uning tuzilmalari o'lchami, diametri "mikron"da o'lchansa, elektron mikroskopda "nanometr" bilan, aksari hollarda esa "angstrom" bilan o'lchanadi. Hozirgi vaqtida elektron mikroskopining yangi turlari yaratilmoqda. Masalan, hajmiy (rastalovchi) elektron mikroskop shular jumlasidadir. Uning yordamida preparatlarning hajmiy tuzilishi o'rganiladi.



3-rasm. Elektron mikroskopning umumiy ko'rinishi

Sitokimyoviy tadqiqot usullari. Yuqorida aytib o'tilganidek, hozirgi mikroskoplar yordamida tirik yoki fiksatsiya qilingan (qotirlig'an) ob'yektlarning nozik morfologik tuzilmalari har tomonlama o'rganilsa ham, ammo ularning sifat va miqdoriy tarkibi to'la ochilmay qolaveradi. Buni, odatda, alohida sitokimyoviy tadqiqot usullari yordamida o'rganiladi.

Sifatiy sitokimyoviy usullar. Bu usullar sitologik va kimyoviy tekshirish usullarini birga qo'llash natijasida kelib chiqqan. Binobarin, sifatiy sitokimyoviy tekshirish usullari yordamida organ, to'qima va hujayralarning kimyoviy tuzilishi, ularda boradigan kimyoviy jarayonlar o'rganiladi. Ular yordamida hujayralarda sodir bo'lib turadigan moddalar almashinuvি jarayonlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Hozirda sitokimyoviy usullar qo'llab, hujayralar tarkibidagi aminokislotalar, oqsillar, nukleinkislotalar, uglevodlar va lipidlar hamda fermentlar faolligini aniqlash mumkin. Masalan, gallosianin RNKn'i binafsharangga bo'yaydi va hokazo.

Miqdoriy sitokimyoviy usullar. Sitologik usullar uzluksiz takomillashib, murakkablashib bormoqda. Endilikda shunday sitokimyoviy tekshirish usullari yaratildiki, ular yordamida faqat hujayralar tarkibidagi moddalar, ya'ni elementlarning sifati emas, balki ularning miqdorini ham aniqlash mumkin. Bunday usullar sitologiyada miq-

doriy sitokimyoviy tadqiqot usullari deb nomoldi. Ular yordamida odatda, muayyan to‘qima va hujayralar tuzilmasi aniqlanadi.

Radioavtografiya usuli. Bu usul yangi zamonaviy usul bo‘lib uning yordamida hujayra va to‘qimalardagi moddalar almashinushi o‘rganiladi. Buning uchun hayvon organizmiga ovqat hazm qilish sistemasi orqali yoki in’yeysiya yo‘li bilan har xil radioaktiv elementlar yoki nishonlangan birikmalar yuboriladi. Radioaktiv fosfor-P, uglerod-C, oltingugurt-S, vodorod-H yoki har xil izotop, chunonchi, radioaktiv izotop kabilalar shular jumlasidandir. Mazkur moddalardan birortasi eksperemantal hayvon organizmiga u yoki bu yo‘l bilan kiritilgach, har xil muddatlarda ajratib olingan a’zolardan bo‘lakchalardan sitologik preparatlar tayyorlanadi. Preparat tayyorlash odatdagি sitologik usul bilan deyarli bir xil. Lekin farqi shundaki mikrotom yordamida olingan kesmalar alohida fotoemulsiyaga solib qo‘yiladi (bu ishlar albatta, qorong‘i joyda bajariladi). Bu vaqtda radioaktiv moddalar nuri hujayralarga fotoemulsiya orqali o‘tib, kumush bromid donachalarni sensibilizatsiyalab (sezib) qabul qiladi. Har xil muddatlardan so‘ng shu qorong‘i joyda ularni xuddi fotografiya qog‘ozlarini tayyorlagandek qilib yuzaga chiqaruvchi (proyavitel) va boshqa eritmalarga solib ishlov beriladi. Shunda to‘qimada radioaktiv to‘plangan joyida kumush donachalari ko‘plab yig‘ilib ko‘rinadi. Binobarin, ana shu kumush moddalarning yig‘ilgan miqdoriga qarab, a’zodagi moddalar almashinushi tez yoki sekin borayotgani haqida xulosa chiqarish mumkin.

Sentrifugalash usuli. Bu usul bilan hujayraning turli tarkibiy qismlari (yadro, mitoxondriya) ajratib olinadi. Sentrifuga minutiga 20000-40000 marta, ultrasentrafuga esa minutiga 100000 - 150000 marta aylantiradi.

Mikroxirurgiya usuli. Bu tirik hujayrada maxsus asbob - mikromanipulyator yordamida nozik operatsiyalar o‘tkazish usulidir. Bu usul bilan hujayralar yadrosini ajratish, yadro qobig‘ini uzish yoki bo‘linayotgan hujayra xromosomalarini ajratish mumkin. Mikroasboblar asosan shishadan yasaladi. Bu usul yordamida hujayra tuzilmalarining fizik xususiyatlarini, hujayra yadrosini va organoidlarning xossalalarini, holatini o‘rganish mumkin. Bundan tashqari bu usul yordamida hujayra yadrosini biridan ikkinchisiga o‘tkazib yadroning irsiy belgilarini avloddan - avlodga o‘tishi o‘rganiladi.

Tirik hujayralarni o'stirish usuli. Hujayralarni organizmdan tashqarida (in vitro) va organizmda (in vivo) o'stirib o'rganish mumkin. Hujayralar organizmdan tashqarida o'stirilganda maxsus muhit tayyorlanadi va bu oziq muhitda hujayra harakatlanish, bo'linish va differtsiyalanish qobiliyatini saqlab turadi. O'stiriladigan hujayralar oziq muhitga solingandan keyin termostatda 38-39° C haroratda saqlanadi. Bu hujayralar har 3-4 kundan keyin yangi oziqa muhitga o'tkazilib turiladi. Hujayra-larni hayvonlarning hayoti davrida ya'ni vital (VITA -hayot) bo'yab o'rganish mumkin. Buning uchun litiy, karmin, triptan kabi moddalarini hayvon qoniga, teri ostiga yoki biror tana bo'shlig'iga yuborib, ma'lum vaqtdan keyin hayvon to'qima va hujayralari mikroskop ostida o'rganiladi. Tirik hujayraning faoliyati, uning tuzilishi mikrosyomka ya'ni mikroskop ostida fotosur'atga va kinokameraga olinadi.

Hujayrani fiksatsiya qilish usullari. Hujayralarni qotirib saqlab qo'yish usulida fiksator moddalar qo'llaniladi. Bu moddalar hujayra tarkibiga kirib, uni qanday bo'lsa shundayligicha saqlashga imkon beradi. Bu jarayon uchun quyidagi fiksator moddalar qo'llaniladi:

1 Formalin 4-10%. 2 Etil spiriti 70%; 96%. 3 Sulemaning suvdagi eritmasi. 4. Pikrin kislotali eritma (pikrin kislotasi - 15 ml, formalin 5-ml sirka kislotasi -1ml). 5 Sirka kislotali eritmalar. 6 Osmiy eritmasi. 7 Muzlatish uchun tabiiy muzlar [1]

Nazorat savollari:

1. Hujayra nazariyasi va uning yaratilish tarixi haqida gapirib bering.
2. Hujayralarning gomologikligi deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekistonda sitologiya fanining rivojlanishi.
4. Hujayra biologiyasida qo'llaniladigan qanday uslublar bor?
5. Fiksatsiyalangan hujayralarni o'rganish uslubi.
6. Elektron mikroskopiya uslubi.

2-LABORATORIYA MASHG'ULOTI: MIKROSKOPNING TUZILISHI VA U BILAN ISHLASH QOIDALARI

Maqsad: Mikroskopning tuzilishi va ishlash tartibi bilan tanishish. Mikropreparatlarning rasmini chizish qoidalarini o'rganish.

Qo'llaniladigan jihoz va materiallar:

- Mikroskop MBI-3, "Biolam", Lupa (str. -9);
- doimiy preparatlardan ayrim namunalar;
- rasm chizish anjomlari (albom, oddiy va rangli qalamlar, chizg'ich, o'chirg'ich va h.k.);
- pintset, predmet va qoplagich oynalar, preporaval ignalar, ustara (lezviya), cho'tka, marjon daraxti o'zagi (bir yillik novda), filtr qog'oz;
- spirt (90-70%), metilein ko'ki va boshqa bo'yoqlar, glitserin.

Ishni borish tartibi: Mikroskop bilan ishlash qoidalari

1. Mikroskopning optik va mexanik qismlarini ishga tayyorligini tekshiriladi.
2. Mikroskopni ish stolining ustiga chekklsidan 6-7 sm ichkariroq joyga shtativi chap yelkaga to'g'rilab siljimaydigan holatda qo'yiladi.
3. Ish stolining o'ng tomoniga kerakli jixozlar (predmet va qoplag'ich oynachalar, preporaval ignalar, nozik mo'yqalam, pinset, skalpel, filtr qog'oz, yumshoq mato, suv va turli bo'yoqlar, reaktivlar, rasm albomi, qalamlar, ishlash uchun kerak bo'lgan ob'ektlar qo'yiladi).
4. Mikroskopning optik qisimlari (okulyar, ob'ektiv va kondensor) toza mato bilan artiladi.
5. Kondensor yuqoriga ko'tarilib, diafragma ochiladi.
6. Mikroskopning kichik obyektivi ($8\times$) buyum stolchasining teshiqi ro'parasiga keltirilib, stolchadan 1 sm balandlikda tutiladi.
7. Mikroskop bir tubusyli bo'lsa chap ko'z bilan qarab, oynani yorug'lik kelayotgan tomonga burib ko'rishmaydonchasiga to'liq te-

kis to‘planlanadi.

8. Tayyoryoki tayyorlangan preparat buyum stolchasiga qisqichlar yordamida joylashtiriladi.

9. Tubus obyektivi bilan makrovint yordamida bir oz ko‘tariladi. So‘ngra chap ko‘z bilan okulyarga qarab turib preparatlardagi tasvir aniq ko‘ringuncha makrovintlar sekin xarakatlantiriladi.

11. Agar ko‘rilayotgan jismni bir qismini katta obyektivda ($20\times, 40\times$) ko‘rish zarur bo‘lsa, tubusni ko‘tarmasdan turib, revolverni katta obyektiv tomon sekin -asta aylantiriladi. Obyektiv stolga to‘g‘ri vertikal turish kerak, obyektivning to‘g‘ri joylashganligini yana sekin chiq etib tovush chiqarib to‘xtaganidan xam bilish mumkin. Revolverni katta obyektivga o‘tkazilganda predmet oynasidagi jismni tasviri yo‘qoladi. Bu vaqtida mikrovintni tasvir aniq ko‘ringunga qadar sekin yarim aylanma xarakat qilish kerak bo‘ladi.

12. Tasvirni aniq ko‘rinishini yana diafragma yordamida uni kat taroq ochib yoki yopib ham to‘g‘rilash kerak bo‘ladi.

13. $20\times, 40\times$ obyektivda kuzatib bo‘lgach, revolver yordamida yana kichik ($8\times$) sekin-asta o‘tkaziladi.

14. Mikroskopning obyektiv qismi toza va mayin paxta tolali mato bilan artiladi.



15. Mikroskopning optik qisimlarini qo‘l bilan, qog‘oz bilan yoki sintetik matolar bilan artish mumkin emas, chunki ular dag‘al bo‘lib, linzalarни tirlab, ishdan chiqaradi.

16. Ish tomom bo‘lgandan keyin mikroskopning kichik obyektiviga o‘tkazgan xolida ichiga chang kirmasligi uchun maxsus qutiga yoki shisha qalpoq tagiga yig‘ishtirilib qo‘yiladi.

17. Mikroskop bir joydan ikkinni joyiga ko‘chirishda albatta ikki qo‘l bilan ushslash zarur. Bir qo‘l bilan mikroskopning to‘g‘ri yoki egilgan tubusni ushlab turuchi qismini, ikkinchi qo‘l bilan mikroskopning ostki qismidan ushslash kerak.

18. Agar mikroskopning biror qismini ishlatish qiyin bo‘lsa. kuch ishlatish yaramaydi. Bu vaqtida o‘qituvchi yoki uni biladigan usta yordamida sababini aniqlash kerak bo‘ladi.

19. Mikroskopning optik qismini turli urilishlardan, kimyoviy moddal (ishqor, kislotalar, eritmalar) tegishidan saqlash kerak.



"Biolam"-mikroskopining umumiy ko'rinishi Laboratoriya ishlarida qo'llaniladigan kerakli asbob va jihozlar.


3-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

3-MAVZU: HUJAYRA XILLARI VA ULARNING O'LCHAMHLARI. EUKARIOT HUJAYRALAR XILMA- XILLIGI.

1. Pichan bakteriyasini mikroskopda ko‘rish.
 2. Ishdan maqsad: prokariot hujayralar bilan tanishish.
 3. Jihozlar: Mikroskop, tomizgich, buyum va qoplag‘ich oynalar, preparoval nina, kolbalar, metilin ko‘ki bo‘yog‘i, filtr qog‘oz, somon bo‘lakchalari, tayyor bakteriya preparatlari, bakteriya hujayralarini ifodalangan tablitsalar.
 4. Ishning borishi: 1. Kolbaga suv bilan birga bir necha pichan bo‘laklaridan so- ling va kolbaning og‘zini paxta bilan berkitiladi. 2. Kolbadagi aralashmani 15 daqiqa qaynatiladi. 3. Qaynatilgan aralashmani filtrlab, 20–25 minut haroratda bir necha kun saqlanadi. 4. Hosil bo‘lgan aralashma yuzasidagi pardadan preparoval nina yordamida bir qism olinib, uni buyum oynasiga qo‘yiladi va qoplag‘ich oyna bilan yopiladi, so‘ng mikroskop ostida ko‘riladi. 5. Qoplaq‘ich oyna ostiga suytirilgan siyoh yoki metilin sinkasi (ko‘k bo‘yoq) tomiziladi. 6. Mikroskop ostida harakatchan bakteriyalar va yaltiroqtu- xumsimon sporalar ko‘rinadi. 7. Mikroskopda bakteriyalardan tayyorlangan doimiy mik- ropreparat ko‘riladi. 8. Mikroskop ostida ko‘rilgan bakteriya va ularning sporalari daftarga chizib olinadi. 9. Olingan natija va xulosalar daftarga yozib olinadi.

2. Yuvilmagan qo‘ldagi bakteriyalarni ko‘rish. Ishdan maqsad: o‘quvchilarda tozalikka rioya qilishni shakl- lantirish. Ishning borishi: 1. Qo‘llar suvda (sovinsiz) yuviladi va idishga qo‘lni yuvilgan suv yig‘iladi, shu suvdan bir tomchi buyum oynasiga tomiziladi. 2. Buyum oynasiga tomizilgan suvni igna yordamida 1–2 sm diametrda yoyiladi va havoda quritiladi – fiksatsiya qilinadi. 3. Fiksatsiya qilinagan mikropreparatni ag‘darib (qattiq tomoni pastda bo‘lishi lozim) uch marta olovdan o‘tkaziladi. 4. Binafsha rangga bo‘yagan tayyor filtr qog‘ozni mikropreparat ustiga qo‘yiladi va bir tomchi suv tomiziladi va ikki daqiqa ushlab turiladi. 5. So‘ngra mikropreparatni ustidan suv oqiziladi va toza filtr qog‘ozni bilan ortiqcha suv shimdirliladi. 6. Tayyor mikropreparatni katta obyektivda ko‘riladi. 7. Olingan natija va xulosalar daftarga yozib olinadi.

3. Ko‘k-yashil suvo‘tini mikroskopda ko‘rish. Ishdan maqsad: ko‘k-yashil suvo‘tlari bilan tanishish. Ishning borishi: 1. Akvarium devori yoki boshqa ko‘lmak suv tubidagi suvo‘tlari hosil qilgan yupqa pardani nina yordamida olinadi. 2. Undan preparat tayyorlab mikroskopning avval kichik, so‘ngra katta obyektivlarida kuzatiladi. 3. Yupqa parda ingichka ko‘p hujayrali iplardan tashkil top- ganiga e’tibor bering. 4. Ipcilar ko‘k-yashil rangda bo‘lib, ularning tebranayotgan- ligini kichik va katta obyektlarda kuzating. 5. Katta obyektivda har bir ipcha bir xildagi mayda yadrosiz va xloroplastsiz hujayralardan tuzilganligiga e’tibor bering. 6. Hujayraning o‘rta qismi rangsiz va chetlari esa pigmentlar- dan iborat biroz to‘qroq rangda ekanligini kuzating. 7. Mikroskopda ko‘rgan ko‘k-yashil suvo‘tlarini rasmini daf- taringizga chizib oling. 8. Olingan natija va xulosalar daftarga yozib olinadi.



Bakteriya hujayrasining tuzilishi

Bakteriyalarning organik olamdag'i ahamiyati o'ta muhim: ular tabiat sanitari, ya'ni organik moddani emiruvchi, o'simlik va hayvon organizmi uchun zarur bo'lgan moddalarni hosil qiluvchi va ayrim xillari esa, turli kasalliklar tarqatuvchidir. Odam organizmida muntazam ravishda kasallik keltirib chiqarmaydigan, ko'pgina bakteriyalar ham mavjud. Ular inson organizmi uchun keraklidir. Masa-lan, yo'g'on ichakda yashovchi ayrim bakteriyalar ishtirokida odam organizmi uchun o'ta zarur vitaminlar hosil bo'ladi.

Eukariot hujayralar prokariot hujayralarga qaraganda murakkab va xilma-xil tuzilgan. Ularda haqiqiy yadro va organoidlar mavjud. Bir hujayrali suv o'tlari, zamburug'lar, sodda hayvonlar, yuksak tuzilishga ega bo'lgan o'simliklar, hayvonlar va odamlar eukariot organizmlarni tashkil etadi.

4-LABORATORIYA MASHG'ULOTI. MAVZU: HUJAYRALARNING TASHQI APPARATI. TRIXOMALAR. KIPRIKCHALAR.

Ishning maqsadi: O'simliklarning tashqi tuzilishini kuzatish, qoplagich to'qima epidermaning paradermal kesmasida o'rGANISH. Suv o'tlari misolida.

Kerakli jihozlar: Mikroskop, pinset, lupa, nina, cho'tka, mitilen ko'ki, turli o'simliklarning barglari.

Ishning borish tartibi.

1. Yorongul o'simligi barglarining ustki va ostki epidermasini pinset yordamida biroz qismi ko'chirib olinadi, vaqtinchalik preparat tayyorlab mikroskopning 8\20 obyektivlarida kuzatiladi, epiderma to'qimasi hujayrlarining devorlarini tuzilishi, og'izcha apparatining tiplari aniqlanadi, rasmi chiziladi.

2. Qovoq bargini kuzating, epidermasini pinset yordamida bir oz qismini ko'chirib olib vaqtinchalik preparat tayyorlanadi, og'izchalar apparati aniqlanadi, tuklarini kuzatib rasmi chiziladi.




3. Gulsapsar bargini tashqi tuzilishi kuzatiladi, epidermasidan paradermal kesiklar tayyorlanadi, tuzilishi o'rGANILADI, og'izchalar apparati aniqlanadi rasmi chiziladi.

4. Turli tipdag'i og'izchalarni rasmi albomga chiziladi, nomlari yoziladi, bir birlarining farqlariga ahamiyat beriladi.

5. Volvokslarning tashqi kiprikcahalarining tuzilishi.

Savollar

1. Og'izchalarining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. Epiderma svjni kam bug'latishga qanday moslashgan?
3. Kutikula nima? U epidermaning qaysi tomonida joylashgan, qanday vazifani bajaradi?
4. Trixomalar qanday paydo bo'ladi, vazifani bajaradi?



5-LABORATORIYA MASHG'ULOTI.

MAVZU: O'SIMLIK HUJAYRASINI O'RGANISH (PIYOZ PO'STI EPIDERMASI MISOLIDA).

Ishdan maqsad: o'simlik hujayrasi bilan tanishish, undagi organellalarning uzilisini o'rganish.

Jihozlar: mikroskoplar, skalpel, tomizgichlar, stakanda toza suv, pinset, preparoval nina, buyum oynalari, qoplag'ich oynalar, piyoz, petri likopchasi. Ishning borishi: 1. Buyum oynasi olinib, uning o'rtafiga tomizgich yordamida bir tomchi suv tomiziladi, so'ngra piyozning ichki oq yupqa po'stidan pinset yordamida olinadi va buyum oynasidagi suv tomchisiga joylashtiriladi va yodning suyultirilgan eritmasidan tomizilib, qoplag'ich oyna bilan yopiladi. 2. Tayyorlangan mikropreparat mikroskopning oldin kichik, so'ngra katta obyektivida ko'riladi. Mikropreparatda hujayraning yupqa po'sti, sitoplazmasi, bir necha xloroplastlari va yadroси ko'rindi. 3. Mikroskopda ko'ringan piyoz hujayralarining rasmi daftargaga chizib olinadi. 4. Olingan natija va xulosalar daftarga yozib olinadi.

6-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

MAVZU: HAYVON HUJAYRASINI O'RGANISH (BAQA PO'STI EPITELIYSI MISOLIDA).

1. Ishning borishi: 1. Baqani suvli shisha bankaga solinib, og'zini doka bilan berkitiladi va baqa 1–2 kun saqlanadi. Bankadagi suv baqani ko'mar-ko'mmas bo'lishi kerak.

2. Suv yuzasida yupqa pardalari parchalari hosil bo'ladi. Yupqa pardalari bo'lakchalarini petri likopchasi ko'chirilib, hujayra yadrosini ko'rinishi uchun binafsha rang siyoh bilan bo'yiladi.

3. Och binafsha rangga bo'yalgan baqa terisining epiteliy to'qimasini preparoval nina uchi bilan buyum oynasidagi suv tomchisiga qo'yiladi.

4. So'ngra epiteliy to'qimasining buklangan joylari to'g'rilanib, qoplag'ich oyna bilan yopiladi. Mikroskopda ko'ringan epiteliy to'qimasi hujayralarning rasmi daftarga chizib olinadi. Tajriba o'tkazilgandan so'ng baqani tabiat ga qo'yib yuborish mumkin.

5. Olingan natija va xulosalar daftarga yozib olinadi.

7-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

1-topshiriq

1. O'simlik va hayvon hujayralarini taqqoslang. 2. Ularning tuzilishidagi o'xshashliklarni aniqlang. 3. Ularning tuzilishidagi farqlarni aniqlang. 4. Bu o'xshashlik va farqlarning sabablarini tushuntirib bering.

2-topshiriq

O'zlashtirgan bilimlaringizga asoslanib, hujayra tarkibiy qismlarining qaysi organizmlarda uchrashini aniqlang va daftaringizga 3-jadvalni chizib, uni to'ldiring.

3-topshiriq

O'zlashtirilgan bilimlaringizga asoslanib hujayra tarkibiy qismlarining vazifalarini jadval ko'rinishida ifodalang.

Hujayraning tarkibiy qismlari organizmlar

prokariotlarva eukariotlar



1. Hujayra qobig'i
2. Plazmatik membrana
3. Yadro
4. Endoplazmatik to'r
5. Ribosoma
6. Golji apparati
7. Xromosoma
8. Mitokondriya
9. Plastidalar
10. Lizosoma
11. Hujayra markazi
12. Yadrocha

j a d v a l

Hujayraning qismlari Funksiyalari

1. Hujayra qobig'i
2. Plazmatik membrana
3. Yadro
4. Xromosoma
5. Yadrocha
6. Endoplazmatik to'r
7. Ribosomalar

8. Golji apparati
9. Mitochondria
10. Lizosoma
11. Plastida
12. Hujayra markazi



Quyidagi o'simlik va hayvon hujayrasi tasviridagi organllarni belgilang.

8-LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZU: HUJAYRADA VAKUOLA TIZIMI. PLAZMOLIZ VA DEPLAZMOLIZ HODISASI.

Ishdan maqsad: fiziologik eritmalar bilan tanishish va izotonik, giperetonik, gipotonik eritmalarning o'simlik hujayralariga ta'sirini hamda osmos jarayonini kuzatishdan iborat.

Kerakli jihozlar: mikroskoplar, filtr qog'ozlari, skalpel, tomizgichlar, stakanda toza suv, pinset, preparoval nina, buyum oynalari, qoplag'ich oynalar, piyozi, petri likopchasi, biologiyadan tajriba o'tkazish uchun kimyoviy reaktivlar to'plami, polipropilenli o'lchov idishlar to'plami, NaCL 1–5%li eritmasi.

Ishning borishi:


1. Har bir o'quvchi stoliga laboratoriya ishi uchun kerakli bo'lgan barcha jihozlar tarqatiladi.
2. O'quvchi skalpel yordamida piyozning ichki oq po'stidan

yupqa kesik olib, buyum oynasiga qo‘yiladi va ustiga bir tomchi suv tomizib qoplag‘ich oyna bilan yopiladi.


3. Tayyorlangan vaqtinchalik mikropreparat mikroskopning kichik obyektivida ko‘riladi. Mikroskopda hujayralar bir tekis bo‘yalgan va tarang turgan holatida ko‘rinadi.

4. Vaqtinchalik mikropreparatning, qoplag‘ich oynasi bir chetiga NaCL ning 1% yoki 5%li eritmasidan bir tomchi tomizilda- di va si-toplazma hujayra po‘stidan asta-sekin ajralishi – plazmoliz hodisasi kuzatiladi. Bu hodisani mikroskopda ko‘riladi. 5. Biroz vaqt o‘tgach, qoplag‘ich oynasi bir chetiga bir tomchi suv tomizilib, ikkinchi tomonidan dastlab tomizilgan NaCL ning 1–5%li eritmasi filtr qog‘oz orqali shimdirib olinadi. 6. Suvning hujayraga qayta shamilishi natijasida uning sito-plazmasi sathi ortib, hujayra devoriga tarqaladi, ya’ni hujayra nor-mal holatga o‘tadi. Bunday jarayon deplazmoliz holati deyiladi

7. Mikroskopda ko‘rganlarni daftarga chizib olinadi. Olingan natija va xulosalar daftarga yozib olinadi.



Hujayraning plazmoliz holati



Hugayraning deplazmoliz holati

9-LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZU: PLASTIDALARNI O'RGANISH

Ish tartibi: Xloroplastlarni o'rganish uchun yo'sin bargidan foy-dalaniladi.

Yo'sin (mox) bargi yupqa po'stli hujayralarning bir qator joylashishidantuzilgan va hujayra po'sti uning ichki tuzilishini ko'rishiga xalaqit bermaydi.

Buning uchun yo'sin poyasidan kichikroq bargchasi pintsent bilan uzib olinadi. Uni suvda chayqab, buyum oynasidagi suv tomchisiga botirib qo'yiladi. Mikroskopning kichik ob'ektivida barg plastinkasi, shakli cho'ziq hujayradan iborat bargtomiri, hamda parenxima hujayralarining asosiy qismi aniqlanadi. Bargning asosiy qismi yumaloq yoki ko'p qirrali parenxima hujayralaridan tuzilganligi ko'rildi.

Bargda ichi xlorofill donachalari bilan to'lgan cho'ziq prozrenxima hujayralar zichjoylashadi. Yo'sin barg hujayralarini tekshirib ichida xloroplast bo'lgan bir nechahujayraning rasmi daftarga chizib olinadi.

Qizil qalampir mevasidagi xromoplastlarini o'rganish.

Ish tartibi: Preparat tayyorlash uchun yaxshi pishgan qizil qalampirmevasidan lantsent uchida meva etidan ozgina olib suvda yuviladi,


ya'ni hujayralarnio'zaro biriktirib turadigan hujayralararo modda yo'q qilinadi. Shundanso'ng, buyum oynasidagi suv tomchisiga qo'yiladi va usti qoplag'ich oyna bilanyopiladi. Mikroskopning kichik va katta qilib ko'rsatadigan ob'ektivi orqali tekshirib, undagi hujayra po'sti, tsitoplazmasi, yadrosi hamda har hil shakldagi ayrimxromoplastlarni ko'rish mumkin. Ularni rasm daftarga chizib olinadi.

10-LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZU: QORONG'I MAYDON YORDAMIDA O'SIMLIK MITOXONDRYALARINI O'RGANISH.

Yerda hayot paydo bo'lganidan keyin atmosferada tiklangan malerkulalar ko'p bo'lgan masalan: vadarod – H₂, ammiak – NH₃, va suv parlaridan H₂O bu paytda yyerda anaerob organizmlar yashagan va energiyani glikoliz va bijg'ish jarayon bilan ishlatishgan. 2,4 va 1,7 milliard yil ilgari sianobakteriyalar hosil bo'lgan. Ularda birinchi fotosintetik jarayon kuzatilgan va shuni o'zida malekulyar kislород hosil bo'la boshlagan. Kislородni atmosferada borligi va tabiy tablabishga yirik omillardan biri bo'lgan. Turlarning evolyutsiyasi shunday bo'lganki ularda kislород malekulasi katta foyda bilan ishlatilgan.

Mitoxondriyalarni tuzilishi va vazifalari

Mitoxondriyalar bu kattagina strukturalar ularni bemalol yorug'lik mikroskopda ko'rsa bo'ladi (5.1 a rasm). Har xil hujayralarda mitoxondriyalar har xil shakilda bo'lishi mumkin (5.1 b rasm).



5.1 – rasm. Mitoxondriya. (a) Tirik fibroblastni faskantrast mikroskopda ko‘rinishi. (b) mitoxondriyalar uzun va qorong‘i tanachalar (c)mitoxondriani ichki membranasini kristallari ko‘r shapalakni spermasi.

Bir hujayralilarda mitoxondriyalar bo‘lishi mumkin. Dukkaksimon organellalarda shu to‘qimaning o‘zida lekin boshqa hujayralarida naysimon turdagи mitoxondriyalar bo‘lishi mumkin. Eng qizig‘i mitoxondriyalar bir biri bilan qo‘shilishi mumkin yoki bir mitoxondriya ikkiga bo‘linib ketishi mumkin (5.2 (a) -rasm).

Mitoxondriya membranalari.



5.1 (b) rasmida yaxshi ko‘rsatilganki mitoxondriyalar ikkita membranalardan iborat bular tashqi va ichki. Tashqi membrana mitoxondriyani to‘liq o‘rab turadi, ichki membrana esa ikkita domenlaridan iborat ularnin har biri o‘ziga hos oqsillardan iborat va har xil vazifalarni **5.1(c) – rasm. Mitoxondriya** bajaradi. Ichki membrana oqsillarga juda boy va mitochondrial oqsillarni importiga javobgar. Ichki membranani boshqa domeni invaginatsion qismlarga o‘xshash tuzilgan bo‘lib KRISTA lar deb ataladi. Kristalarda aerob nafas olish va ATP ni hosil bo‘lishi kuzatiladi. Mitoxondriyaning ichki hajmi MATRITSA deb ataladi. Tashqi va ichki membranasini orasi esa membrana-

lar aro bo'shliq deb ataladi. Matritsa gelsimon holatga ega. Bizga ma'lumki mitoxondrianing membranalari aro oqsillari hujayrani o'z o'zini o'ldirish xususiyati ega. Mitoxondriyani tashqi va ichki membranalari har xil xususiyatlarga ega. Tashqi membrana taxmiman 50 % lipidlardan iborat. Ichki membrana taxminan yuzdan ortiq polipeptidlardan iborat va oqisil-lipid nisbati taxminan 3:1 nisbatda

5.1(b) – rasm. Mitoxondriya [1] (page 180-182).

Mitoxondrial matriks.

Mitoxondrialarda ko'pgina fermeblarga qo'shimcha ribosomalar ham uchraydi. Lekin ular sitoplazmani ribosomalariga qaraganda maydarоq. Sho'tni o'zida, bir necha DНK xalqa malekulalari ham uchraydi. O'simlk va hayvonlarda u yumaloq (xalqasimon) bo'ladi. Demek mitoxondriyalarda o'zini genetok materiali bor va RNK ni hosil qiluvchi mexanizmi hisoblanadi. Xiromosomadan tashqari DНK irsiy axborotni saqlashda katta rol o'yniydi masalan odam organizimida 13 ta po'lipeptidni sinteziga javob beradi. Odam mitoxondriyasini DНK si 2 ta ribosom RNK ga va 22 ta t-RNK ga javob beradi. Mitoxondrial DНK (mt-DНK) bu qadimigi tarixiy noyob malekula hisoblanadi. Olimlarning fikri bo'yicha bu bir aerob bakteriyani merosi deb qabul qilingan va kelajakda bulardan eukariotik hujayralar kelib chiqqan. Shu qadimiy ko'pchilik genlari yoki yo'qolib ketgan, yoki evolyutsiya jarayonida ho'jayin hujayra yadrosiga ko'chib ketgan va o'zida qolgan bir necha genlar – gidrofob oqsillarni ko'dliydigan genlar. mt- DНK odam migratsiyasini va evolyutsiyasini o'rganish uchun juda qulay narsa. Bir qancha kompaniyalar mt-DНK ni nukleotid ketma-ketligini o'rganadi o'zlarini o'rganish uchun *[1] (page 182).*



5.3 rasm. Mitoxondriyaning strukturasi. (a) Skaner elektron mikroskopda mitoxondriyalarni ko'rinishi. (b) Yog' to'qomasidagi uch o'lchamli mitoxondrianing modelii. (c) mitoxondriyani sxematik chizmasi (Ho 'kiz yuragi to'qimasida olingan yupqa kesima).

Mitoxondriyalarning ultrastrukturasi

Mitoxondriyalar ikki qavat membrana bilan chegaralangan bo'lib, tashqi membrana uni gialoplazmadan ajratib turib o'z-o'zida birikish hosil qiladi, ichki membranasi mitoxondriya ichki matriksi yoki mitoplazmasini ajratadi, membranalararo bo'shliq 10-20 nm tashkil qiladi. Ichki membrana mitoxondriya matriksi tomonga ichki burmalarni kristalarni (*crista-lot.*"taroqcha") hosil qiladi(13rasm).


Kristalar mitoxondriya uzunligiga ko'ndalang yoki perpendikulyar ravishda joylashishi mumkin. Kristalarning shoxlanish va egilish hosil qilish turiga qarab: plastinkasimon, perforatsiyali, naysimon va to'lqinsimon turlari farqlanadi. Kristalar ichki membrana maydonini kattalashtiradi(13rasm).

Tashqi va ichki membranalarida mayda donachalar bo'lib, tashqi membranada silindr shaklida, ichki membranada- qo'ziqorin shaklidagi – oksiosomalar yoki ATF- somalardir.

Mitoxondriyalar matriksi gomogen tuzilishga ega bo'lib unda 2-3nm kattalikdagi ipsimon DNK molekulasi va 15-20nm kattalikdagi ribosomalar va turli kiritmalar uchraydi.

Kristalarning soni va rivojlanish darajasi hujayraning funksional holatiga bog'liq. O'simliklarning mitoxondriyalarida kristalar soni kam bo'ladi, lekin o'simliklarning sekretor hujayralarida ularning soni hayvonlarnikidek ko'p bo'ladi. Mitoxondriyalar adaptatsiya hosil qilish xususiyatiga ega. Masalan, kalamushlarni gipodinamiya (kam harakatlanish) sharoitiga joylashtirganda, mitoxondriyalardagi kristalar va ko'ndalang targ'il muskul tolasidagi mitoxondriyalar soni keskin kamaya borganligi kuzatiladi. Lekin, hayvonlar aktiv harakatga keltirilganda (suzdirilganda), mitoxondriyalar o'z sonini va holatini tezda tiklaganlar.

Mitoxondriyalarning tashqi va ichki membranari tarkibi va fizik xususiyatlari bilan farq qiladi. Osmotik bosimning ortishi yoki kamayishidan ichki membrana burishib yig'ilib qoladi, lekin keyinchalik to'g'irlanishi mumkin. Tashqi membrana cho'zila olmasligi tufayli uziladi. Tashqi membranada lipidlar bilipid qatlamni hosil qilsa, ichki membranada faqat bir qism lipidlar bilipid hosil qilishda ishtirok etadi. Tashqi membrana endoplazmatik to'r membranalari bilan o'xshash bo'ladi. Ichki membrana va mitoxondriya matriksi oksidlanish va fosforlanish fermentlariga boy bo'ladi /2/ (49 bet).



13-rasm. Mitoxondriyaning tuzilishi

Mitoxondriya vazifalari

Mitoxondriyalarni asosiy vazifasi organik substratlarning oksidlanishi va ADF ning fosforlanishi orqali ATP sintezlash. Bu jarayonlar uchun boshlang'ich substrat bo'lib uglevodlar, yog' kislotalar va aminokislotalar xizmat qiladi. Uglevodlar oksidlanishining boshlang'ich etaplari gialoplazmada kislorod ishtirokisiz o'tganligi uchun anaerob oksidlanish yoki glikoliz deyiladi. Glikolizning asosiy substrati glyukozadir. Tirik hujayrada glyukozaning oksidlanishi bosqichma- bosqich borib, bu jarayonni bir qancha oksidlanish fermentlari amalgalashiradi va uning natijasida ATP molekulasi dagi makroergik bog'lar hosil bo'ladi. Birinchi bosqichda glyukoza triozagacha parchalanadi, bunda 2 molekula ATF sarflanib 4 molekula ATP sintezlanadi. An-aerobli parchalanish past energiya chiqimiga qaramay ko'pgina tirik organizmlarning asosiy energiya manbai hisoblanadi. Masalan, mikroorganizmlar, ichak parazitlari, shish hujayralari va mitoxondriyalari bo'lmaydigan sutevizuvchilarining eritrositlarida asosiy energiya manbai bo'lib glikoliz xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda hosil bo'lgan triozalar asosan pirouzum kislota mitoxondriyalarning o'zida sodir bo'ladigan oksidlanishda ishtirok etadilar. Bunda hamma kimyoiy bog'lar uzilib CO₂ ajralib O₂ sarflanadi, ajralgan energiya mitoxondriyalarda ATP ko'rinishida to'planadi.

Trikarbon kislotalar yoki Krebs siklida glikoliz mahsulotlarining to'liq oksidlanishi va undan keyin fosforli oksidlanish siklida oksidlanish natijasida ajralgan energiya maksimal ravishda ATP sintezi uchun sarflanadi [2] (50 bet).

Mitoxondriyalarning hosil bo'lishi

Fanda mitoxondriyalarning hosil bo'lishining 3 xil farazi mavjud :

1. Mitoxondriyalarning hujayrada gialoplazmadagi ultramikroskopik tuzilmalardan hosil bo'ladi.

2. Hujayraning boshqa membranalı tuzilmalaridan hosil bo'ladi.

3. Mavjud mitoxondriyalarning bo'linish yo'li orqali hosil bo'ladi.

Birinchi faraz o'z rivojini topmagani sababi shuki, mitoxondriya tarkibiga kiruvchi ko'pgina fermentlar sitoplazmada uchramaydi. Ikinchi faraz hujayrada hamma membranalı strukturalar o'zaro bir-biri bilan bog'liqligiga asoslangan bo'lib, uning negizida universal

elementar membrana gipotezasi yotadi. Lekin bu taxminlar ham biokimyoviy va morfologik dalillarga ega emas .

Uchinchi - mitoxondriyalar mavjud mitoxondriyaning bo'linishi orqali ko'payadi, degan g'oyani birinchi marta 1893 yilda Altman o'rtaga tashlagan. Uzun mitoxondriyalarning bir hujayrali suvo'tlarda fragmentatsiyasini (maydalanishini) kuzatgan.

Jigar hujayralarida mitoxondriyalarning o'rtasidan uzayib, ingichkalashib bo'linishi kuzatilgan.

Achitqi zamburug'larda anaerob sharoitda sitoplazmasida promitochondrial tuzilmalar bo'lib, aerob muhitda ularning morfologiyasi o'zgarib mitoxondriya sifatida rivojlanadi. Promitoxondriyaning kelib chiqishi sitoplazmadagi mavjud mitoxondriya bilan bog'liq.

Mitoxondriyalar oqsili sintezi tizimiga DNK, unda sintezlanadigan mitochondrial RNK va ribosomalarga ega. Mitoxondriyalarning DNKsi siklik shaklga ega bo'lib, bakteriyalarning DNK siga o'xshaydi va yadro DNK sidan nukleotidlarning ketma-ketligi bilan keskin farq qiladi. RNK ning hamma turi uchraydi.

Mitoxondriyaning bunday avtonom sistemaga ega bo'lishi uning kelib chiqishining endosimbiotik nazariyasining yaratilishiga olib kelgan. Unga asosan mitoxondriyalar bakteriyalar tipidagi organizm bo'lib, eukariotlar bilan simbioz hosil qilgandirlar. Bu g'oyani Altman o'zining bioblastlar nazariyasida ilgari suradi. Taxmin qilinishicha, evolyutsiya jarayoni mobaynida anaerob oksidlanish jarayonlari evaziga yashovchi ho'jayin hujayra ichiga oksidlanish fosforlanish fermentlariga ega prokariot simbiont kiritilgan. Uning natijasida mitoxondriyalar genetik materialining bir qismini yo'qotib, avtonomlik xususiyatiga ega bo'lib qolganlar (L.Margulis). Lekin mitoxondriyaning avtonomligi nisbiy hisoblanadi, chunki undagi ko'pgina oqsilalarinig sintezi yadro tomonidan genetic nazorat (control) qilinadi /2/ (*51 bet*).


Peroksisoma

Peroksisoma - eukariot hujayraning universal organoididir. Lizosomalar kabi K.De Dyuv tomonidan topilgan. Bir qavat membrana bilan o'ralgan bo'lib, membranalari suyuq mozaika tuzilishga ega. Ichida kristallsimon strukturalar - nukleoidi bo'ladi (yadroga aloqa-

si yo'q). U fibrill va mikronaychalardan iborat bo'lib uratoksidaza fermentiga ega(11rasm). Lizosomalardan farq qilib faqat mavjud peroksisomaning bo'linishi orqali ko'payadi. Shuning uchun o'z peroksisomalarini yo'qotgan hujayra ularni qayta tiklay olmaydi.

Odam va hayvon jigar va buyrak hujayralarida uchraydi. Soni 70-100 tagacha. Endoplazmatik to'r membranalari bilan aloqada bo'lib taxmin qilinishicha endoplazmatik to'rning kengaygan sisternalaridan kelib chiqadi. O'simliklarda peroksisomalar mitoxondriya va plastidalar bilan bog'liqdir.

Peroxisomalarning biokimyoviy vazifasi ulardagi oksidlanish reaksiyalarining fermentlari (katalaza) bo'lishi bilan bog'liq bo'lib moddalarining parchalanishi natijasida hosil bo'lgan vodorod peroksidini (H_2O_2) suv va kislородгача parchalaydi. Vodorod peroksidi hujayrada boradigan reaksiyalar natijasida hosil bo'lib, juda toksik zararlidir va hujayradan chiqarilishi kerak. Bu vazifani peroksisomalar tarkibidagi katalaza fermenti bajarib uni suv va kislородга parchalaydi. Peroxisomalarning biokimyoviy vazifasi ulardagi oksidlanish reaksiyalarining fermentlari (katalaza) bo'lishi bilan bog'liq bo'lib moddalarining parchalanishi natijasida hosil bo'lgan vodorod peroksidini (H_2O_2) suv va kislородгача parchalaydi.



11-rasm. Peroxisomaning elektron mikroskop ostidagi ko'rinishi.
1-membranas; 2-kristallsimon strukturalar; 3- matriks.

Vodorod peroksidi hujayrada boradigan reaksiyalar natijasida hosil bo'lib, juda toksik zararlidir va hujayradan chiqarilishi kerak. Bu vazifani peroksisomalar tarkibidagi katalaza fermenti bajarib uni suv va kislorodga parchalaydi.

Umumhujayraviy vazifasi hujayraga oziq moddalar tarkibi bilan kiradigan uzun zanjirli yog' kislotalarini parchalashdan iborat. Jigar hujayralari peroksisomalarga boy bo'lib organizmga tushayotgan etil spirtining 50% bu yyerda asetildegid va sirka kislotasigacha parchalaydi. Alkogolni (arabcha- al-kuhl-ingichka kukun) uzoq muddat va katta dozalarda iste'mol qilish, jigar hujayralari tarkibida sirka kislotsasi miqdorining ko'payishiga va undan yog' kislotalari sintezlanishiiga olib keladi. Natijada, lipidlar miqdori ko'payib sirroz (yunoncha sariq) kasali rivojlanadi.

O'simliklarda uchraydigan peroksisomalar 3 guruhni tashkil qildi:

1.Glioksisomalar-yog'larga boy urug'larda lipidlarning saxaro-zaga parchalanishida ishtirot etadi.


2.Barglarda uchraydigan peroksisomalar mitoxondriya va plastiдалar bilan bog'liq bo'lib nafas olishda ishtirot etadi.

3.Boshqa turdag'i to'qimalarda uchraydigan differensiatsiyalangan peroksisomalar.


11-LABORATORIYA MASHG'ULOTI. YORUGLIK MIKROSKOPI YORDAMIDA O'SIMLIK HUJAYRALARINIG MEMBRANALARINI O'RGANISH. MAVZU. PLAZMATIK MEMBRANANING TUZILISHI VA VAZIFASLARI

Uy yoki aftomobilning tashqi devorlari qattiq va egilmas materiallardan yasalgan. Tirik hujayrani tashqi chegarasi huddi shunday mustahkam materiallardan tuzilgan deb kutish mumkin edi. Lekin, hujayralar tashqi muxitdan yupqa va mo'rt struktura bilan chegaralangan – bu 5-10 nm li plazmatik membranadir. Kitobning bir varog'ining qalinligi 5 000 hujayra membranasiga teng keladi. 1950 yillargacha you'rlik mikroskopda plazmatik membranani tuzilishini organib bo'lmash edi. Uni tuzilishi faqat elektron mikroskopda aniqlandi.

Ilk mikrosuratlar bo'yicha Dj Robertson Dyuk Universitetidan plazmatik membrane 3 qatlamlı strukturada ya'ni tashqi va ichqi qorong'i, o'rta qatlami och ranga bo'yalishini aniqlagan (4.1 rasm).




4.1 (a) rasm 3 qatlamlı membrana. Eritratsit membranasi o'smiy metal bilan bo'yalgan strelkalar membrananing ichki va tashqi tomonlarini ko'rsatadi.



4.1(b) rasm defirinsatsiyaga uchragan muskul hujayrasini tashqi tomoni. PM-plazmatik membrana va SR-sarkoplazmatik retikulum.

Membranalar – yadronikimi yoki sitoplazmadanmi, o'simlik va hayvon yoxud mikroorganizmlardan olinganmi hammasi bir xil ultrastrukturaga ega. Bu elektron mikrosuratlar ko'p baxs munozaralarga sabab bo'lgan. Hujayra membranasi bu – lipidli qatlam va oqsillardan iborat (4.2 rasm).



4.2 rasm O'simlik hujayrasidagi membranalarning vazifalari. (1) Gidrolaza kislotasi vokual membranasi atrofida (2) CO_2 fermentni katalizatsiyalaydi. (3) Suv malekulasi plazmatik membranadan tez o'tadi va hujayrani ichida bosim ko'tariladi. (4) Vadarod ioni hujayrani ichidan hujayralar aro bo'shliqqa o'tishi. (5) Membrana informatsiyani o'tkazishga misol (Transduksiya). (6) Plzmadesmalar misolida hujayralararo kanalchalar. (7) Energetik misol ADFni ATF ga o'tishi mitoxondriyanı cihki

membranasi bilan zich aloqada bo'lishligi.

1. Membranalarni vazifalari

1. Kompartimentalizatsiya. Membranalar uzilmas va hujayralarni bo'limlarga ajratadi. Plazmatik membrana butun hujayrani ajrata di, shuni o'zida yadroviy va sitoplazmatik membranalar hufayrani hajmini qismrlarga ajratadi. **Kompartimentalizatsiya** hujayrani ichidagi iqtisoslashgan jarayonlarni kechishiga yo'l beradi.

2. Biokimyoviy faoliyatlar uchun kanal. Membranalarini o'zi bu hujayralarning alohida qismlari, membranalar hujayralardagi jarayonlarni amalga oshirishda asos hisoblanadi.

3. Tanlab o'tkazuvchanlikni ta'minlaydi. Membranalar hujayra ni ichida malekulalarni cheklanmas faoliyatiga yo'l bermaydi lekin shuni o'zida membranalar hujayrani har xil bo'limlari bilan aloqalarni ta'minlaydi. Hujayrani o'rab turadigan plazmalemma bino atri fidagi o'radya lekin uni ustida ko'prikchalar bor.

4. Transportni ta'minlash. Hujayrani membranasida moddalar bir tomonda ikkinchi tomonga o'tish hususiryatiga ega. Ko'p paytda malekulalar konsentratsiyasi kamroq bo'lgan joydan konsentratsiyasi ko'proq bo'lgan joyga o'tishi mumkin. Shuning uchun hujayrada shakarlar, aminokislatalrga o'xshagan kerakli moddalar to'planib turadi. Plozmolemmadan maxsus ionlar ham o'tishi mumkin. Bu nerv va muskul hujayralari uchun juda muxim hususiyat.

5. Tashqi ta'sirlarga javob. Plazmalemma ta'shqi ta'sirlarga javob berishda juda muxim ro'l o'ynaydi va bu signalni transduksiyasi deb ataladi.


6. Hujayralararo a'lqalarni ta'minlaydi. Har bir tirik hujayra ni tashqi chegarasini o'rab turadi va Ko'p xujayrali organizmlardagi plazmatik membrana hujayralararo a'lqani ta'minlaydi. Plazmatik membrana bir birini tanisji va signal uzatishini ta'minlaydi, materiallarni va axborotlarni o'z o'rnida ushlab turadi shuningdek almashinishini ta'minlaydi. Shuningdek plazmatik membranadagi oqsillar hujayradan tashqari materiallar va hujayraichi sitoskleti orasidagi o'zarotas'sirga imkon berishi mumkin.

7. Energetik transduksiya. Membranalar energiyani bir turini ikkinchi turga o'kazishda katta rol o'ynaydi. Eng asosiy o'tadigan energiya fotosintez jarayonida kuzatiladi. Bunda quyosh energiyasi membrana a'lqali pigmentlar bilan yutiladi va kimyoviy energiyaga

aylanadi. Kimyoviy energiya uglevodlarda saqlanadi. Membranalar kimyoviy energiyani uglevod va yog'lardan ATF ga o'tkazishda ham ishtirok etadi. Eukariotlarda bu o'tkazishlar xloroplast va mitoxondriyalar membranasida joylashadi. Biz bu plazmalemmanni tuzilishi haqida muxokama qilamiz lekin xuddi shu prinsplar hamma membranalar uchun hos.

2. Plazmatik membrana strukturasining o'rganilish tarixi.

Hujayrani tashqi chegara qavatining kimyoviy tabiatini to'g'risidagi birinchi g'oyani 1890 yillarda Styurix Universitetidan Ernsta Overton aniqladi. Overton to'liqsiz eriydigan moddalar to'liq eritadigan eritmalarga qaraganda to'liqsiz eritadigan eritmalarda katta tayorgarlik bilan erishini va to'liq eriydigan modda teskari eruvchanlikka ega bo'lishini bilardi. Overton modda hujayraga tashqi muhitdan kelar ekan avval hujayrani tashqi chegara qavati erishi kerakligini o'ylab ko'rdi. Overton tashqi chegara qavatini o'tkazuvchanlik xususiyatini tekshirish uchun o'simlikning ildiz tolachalariga erigan moddalarning keng spektrini saqlovchi yuzlab har xil eritmalarni qo'llab ko'rasi. U yog'da eriydigan eruvchi moddalarni ildiz tolasining hujayrasiga tezroq kirishuni aniqladi. U shunday hulosaga keldiki, hujayraning ichki chegara qavatini erish hususiyati yog'ni o'tishini tasdiqlaydi.




4.3 rasm. Bilipit qavatli Plazmatik membrana

Hujayra membranasida bilipitliy qatlami mavjudligi to'g'risidagi taklifni birinchi bo'lib 1925 yilda ikki gollandiyalik olimlar E. Gorter va F. Grendel g'oyani o'rtaga qo'ygan. Bu tadqiqotchilar odamni qizil

qon hujayralaridan lipidni ajratishgan va qaysi maydonno egallashini aniqlashgan (4.3 a rasm). Sutemizuvchilarda qizil qon hujayralarda yadrova organellalari bo'lmaydi. Shuning uchun faqat plazmatik membranada lipid tuzilmalar bor. Shuning uchun ekstraktsiyaga uchragan lipidlar hammasi plazmallemalarda joylashgan. Olingan lipid maydoni kutilgandan ikki baravar ko'proq bo'lган. Ya'ni 1.8 - 2.21 Gorter va Grendel shunga asoslanib hulosaga kelishganki ya'ni plazmallema bimolekulyar lipid qatlidan iborat (4.3 b rasm). Ular yana shunday fikrga kelishganki har bir molekulyar qatlam qutib tomonlari bilan tashqariga qaragan. Bu termodinamik nuqtai nazardan bunday joylashish foydali (4.3 c rasm). Ularda hato fikr bo'lsa ham asosiy fikr to'g'ri bo'lган – membrana bu bilipid qatlam.

1935 yilda Xyu Davson va Djeym Daniyele bir fikrga kelishganki ya'ni bilipid qatlamni globulyar oqsillar qoplab turadi. 50 yillarda shu olimlar qayta madelni ko'zdan kechirishgan va bilipid qatlam orasida oqsil molekulalari joylashgan aytishgan. 1972 yilda Kaliforniya Universitetidan S. Djonatan Singer va Gart Nikolson membranani suyuq - mozayik modelini taklif qilishdi va bu membranbiologiyani "Markaziy dogmasi" sifatida 30 yildan ko'proq vaqtidan beri xizmat qiladi. Bu madelda alohida lipid molekulalar membranani yassi qatlamida joydan joyga o'tishi mumkin(4.4 b rasm). Bu madelning eng asosiy jixati shuki hujayra membranalari bu – dinamik strukturalar. Uning komponentlari faol va birga yig'ilishi mumkin (4.4 c,d rasm).


[1] page (123-124)



4.4 rasm. Plazmatik membranning strukturasi

3. Membrananing kimyoviy tarkibi

Membranalar bu lipid oqsilliy agregatlar va shu komponentlar no-kavental bog'lamlar bilan bir biriga birkann. Membranani asosida bi-molekulyar lipidli qatlami membrane strukturasining asosi. Membrana oqsillari ko'p funksiyalarni o'ziga olgan strukturaniing tarkibiy qismi. Lipid va oqsillarning nisbati har xil hujayralarda har xil bo'lishi mumkin. Masalan plazmalemma va golji aparatida membranasi, shunng-dek bakteriya va o'simlik va hayvonlarda turlichal bo'ladi. Qoning qizil hujayralari bilan solishtirsa mitoxondriyaning ichki membranasida oqsillar ko'p. Mitoxondriyaning ichki memfranasida oqsilli elektron o'tkazuvchanlik zanjiri bor va bu joyda lipidlarni soni kamayadi. Nerv hujayralarini miyelen qobig'ida lipid qatlama qalin bo'ladi va oqsillar kamroq bo'ladi. Membranlalarda albatta uglevodlar ham bor ular yoki lipidga yoki oqsilga birkann bo'ladi (4.4 c rasm). Lipid bi qatlama tabiatini va ahamiyatini. Har bir hujayra membranalarini tipi faqat o'ziga hos bo'lgan lipidlardan iborat. Lipidlarni membranadagi oqsillarga ham ta'sir ko'rsatadi. Membranalar bu doimo uzulmasi va sinmas strukturalar. Lipidlarni bi qatlama bo'lgani uchun membranalar kurtaklanib ko'payadi. Biqatlamni muxum xususiyatlaridan yana biri u o'z o'zini tiklashi mumkin. Bu jarayonni probirkalarda ham ko'rsatsa bo'ladi. *[1] page (125-127)*



4. Hujayra membranasi orqali moddalar harakati

Ma'lum darajada plazmatik membrana ikki vazifaga hos bir tomondan u hujayrada erib turgan moddalarni saqlashi kerak boshqa tomondan plazmalemma modda almashinuvni jarayonini ta'minlashi kerak. Bunda membrana orqali harakatlanishning ikkita yo'li bor passiv – diffuziya yoki aktiv bu jarayonga energiya kerak. Mod-

dalar hujayradan chiqishi mumkin yoki hujayraga kirib borishi ham mumkin lekin ular ikkalsining biri ko'proq kuzatiladi. Qaysi modda hujayradan o'tgan bo'lsa o'shangasosalni har xil jarayonlar kuzatiladi : Birinchisi oddoy diffuziya lipid bi qatlamdan; Oddiy diffuziya

suvali yoki oqsilli kanaldan; Oqsil yordamida obson o'tadigan dif-fuziya; va aktiv transport. Bunda oqsilli "nasos" bo'lishi shar va bu jarayon konsentratsiya gradiyentiga qarshi bo'radigan jaaryon (4.33 rasm). **[1] page (147)**

12-LABORATORIYA MASHG'ULOTI MAVZU: MITOZ. MEYOZ.

Mavzuning masqadi. Yadro va hujayraning bo'linishini o'rghanish.

Kerakli jihozlar: mikroskop, lantset, pintset, pipetka, filtr qog'oz, buyum va qoplag'ich oynalar, suv, glitserin, sudan III eritmasi, osmiy kislotasi,

piyoz ildizi va doimiy preparatlar.

Ish tartibi: Piyoz ildizining o'sish konusidan uzunasiga kesib olingankesmada meristema to'qimasini ko'rish mumkin. Bu to'qima yadrosida kariokinetikbo'linish hodisasining hamma fazasi ro'y beradi. Mikroskopning kichik qilibko'rsatadigan ob'ektivi orqali qaralganda ildizning uchi konussimon ildiz g'ilofibilan qoplanganligini ko'ramiz. G'ilof ostida meristema to'qimaning parenximahujayralari bir qator bo'lib zinch joylashgan. Bu hujayralar yadrosi yirik vatsitoplazmasi ancha quyuq bo'ladi, ularning ba'zilari tinch holatda, ba'zilari esa bo'linishning har xil fazalarini kechirayotgan bo'ladi. Mikroskopning katta qilib ko'rsatadigan ob'ektivi orqali bo'linayotgan hujayralardan 4 (profaza, metofaza, anafaza va telofaza)larni ko'rish mukin. Yuqorida ayitilgan fazalarni rasm daftarga chizib olinadi.

Meyoz jarayonlarining bosqichlari taylor preparatlarda o'rganiladi.

GLOSSARY

Cell – the basic unit of all living things. Cells are metabolically active membrane bound bodies capable of reproduction.	Клетка - основная единица всех живых существ. Клетки метаболически активными мембраносвязанными тела, способные к воспроизведению.	Хужайра тирик организмларнинг буун бир тизимидир. Уларда мемброналаро моддалар алмашинуви, хамда күпайиш жараени амалга ошиди.
Cell Biology – the study of processes which cells use to survive.	Клеточная биология - изучение процессов, которые клетки используют, чтобы выжить.	Хужайра биологияси-фани ҳужайларда борадиган ҳастиж жараенларни ўрганади.
Cell Membrane – the outer boundary of the cell. It is composed of a double layer of phospholipids.	Клеточная мембрана - внешняя граница ячееки. Она состоит из двойного слоя молекул фосфолипидов.	Хужайра мембранныси – ҳужайранинг ташки чегарасидир. У 2 кават фосфолипид молекулаларидан иборат.
Cell Line – an immortal population of cells.	Клеточная линия - бессмертной популяция клеток.	Хужайра чегаралари – йирик тўплами ҳужайлардаги ингандисидан иборат.
Chromogen – a compound which changes colour, after undergoing a chemical reaction.	Хромоген - соединение, которое изменяет цвет, после прохождения химической реакции.	Хромоген- кимевий бўёклар таъсирида рангини ўзгартирувчи кисм.
Chromosome – A length of DNA.	Хромосома - Длина ДНК.	Хромосома- ДНК йили.
Culture – the practice of growing cells by providing them with the right temperature and nutrient requirements.	Культура - практика выращивания клеток путем предоставления им требований нужной температуры и питательных веществ.	Культура-хужайларни маҳсус кўпайтириш усули, бунда керакли харорат ва отзука муҳити керак бўлади.
Cytochemistry – the use of stains and dyes to demonstrate structures within cells.	Цитохимия - использование пяген и красителей для демонстрации структуры внутри клеток.	Цитокимё ҳужайларни бўяш ва уларни ички тузилишини аниқ намоён килувчи үсул.
Denaturation – a disruption to the structure of a macromolecule caused by the breaking of hydrogen bonds.	Денатурация - это нарушение в структуре макромолекулы, вызванного разрывом водородных связей.	Денатурация – макромолекулардаги водород боғларидаги узилишлар.
DNA – deoxyribonucleic acid – the biomolecule which stores the genetic information in most living things.	ДНК - дезоксирибонуклеиновой кислоты - биомолекула, которая хранит генетическую информацию в большинстве живых существ.	ДНК - дезоксирибонуклеин кислота-тирик организмларнинг барча генетикахборотларини ўзида саклайди.
Enzyme – a protein which acts as a biological catalyst – it speeds along reactions which would normally be too slow to be useful	Фермент - белок, который действует как биологический катализатор - это скорость по реакции, которые, как правило, слишком медленно, чтобы быть полезно.	Фермент- оксил, биологик катализатор.

Eukaryote – an organism whose cells containing membrane-bound organelles (eg. protists, fungi, plants and animals).	Эукариоты - организм, чьи клетки, содержащие мембранные органеллы (например, протистов, грибов, растений и животных.).	Эукариотлар-мукаммал хужайравий түзилишга эга бўлган организмлар.
Lipid – biomolecules which are generally insoluble in water.	Липиды-Липиды - биомолекулы, которые, как правило, нерастворимы в воде.	Липидлар- сувда эримайдиган биомолеклалар
Lymphocyte – a type of white blood cell involved in the immune response.	Лимфоцит - тип белых кровяных клеток, участвующих в иммунном ответе.	Лимфоцитлар – оқ қон таначалари бўлиб, организмнинг иммун реакциясга жавоб беради.
Medium – a combination of salts and nutrients.	Среда - это сочетание солей и питательных веществ,	Мухит- асосан ишқорий ва озуқа элементларидан ташкил топади.
Micropipette – a device used to accurately and precisely deliver small quantities (<1mL) of liquid.	Микропипетки - это устройство, используемое для точного и точно поставить небольшое количество (<1 мл) жидкости.	Микропипетка-суюкликни аник кўрсаткичили миқдорларда кўллашда ишлатилади.
Mitochondrion – a sub-cellular organelle which carries out cellular respiration in eukaryotic cells.	Митохондрия - это субклеточное органеллы, которая осуществляет клеточного дыхания в эукариотических клетках.	Митохондрия-эукариот хужайраларнинг нафас олишини тъминловчи суборгандларидир.
Mitosis – the process by which eukaryotic cells distribute chromosomes during cell division. Mitosis consists of prophase, prometaphase, metaphase, anaphase and telophase.	Митоз - процесс, посредством которого клетки эукариот распределяют хромосомы при делении клеток. Митоз состоит из профазы, прометафазы, метафазы, анафазы и телофазы.	Митоз – эукариот организмлар хромосомаларнинг бўлинишини тенг таҳсиланиши жараени. Митоз профаза, метафаза, анафаза и телофаза босқичларидан иборат.
Mutation – any change to the normal DNA sequence	Мутация - любое изменение нормальной последовательности ДНК	Мутация-ДНК да доимий жараенларнинг бузилиши.
Nucleic Acid – a biomolecule consisting of a chain of nucleotides connected by phosphodiester bonds. DNA and RNA are nucleic acids.	Нуклеиновые кислоты - биомолекулы, состоящий из цепи нуклеотидов, соединенных фосфодиэфирной связью ДНК и РНК нуклеиновые кислоты. Кислоты - биомолекулы, состоящий из цепи нуклеотидов, соединенных фосфодиэфирной связью ДНК и РНК нуклеиновые кислоты	Нуклеин кислотлар- фосфодиэфирли нуклеотидлар заизиридан иборат.
Nucleolus – a body found within the nucleus of cells involved in the manufacture of ribosomes.	Ядрышка - это тело, найденное в ядре клеток, участвующих в производстве рибосом.	Ядроча- Ядродаги кичик танача ҳисобланниб, рибосомаларнинг ҳосил бўлишида иштирок этади.
Organelle – a sub-cellular component which carries out a particular task	Органеллы - это субклеточное компонент, который выполняет определенную задачу.	Органелла-субмикроскопик компонент бўлиб, маҳсус вазифани бажаринга мослашган.

Osmosis - the diffusion of water across the cell membrane	Осмос - диффузия воды через клеточную мембрану.	Осмос-хужайра мембраасы оркали, диффузия йүли билан сувнинг харакатланиши
Peptide – a length of amino acids joined by peptide bonds	Пептид - длиной аминокислот, соединенных пептидными связями	Пептид-узун аминокислотали, пептидди бөгламладар
Plasma Cell – a cell derived from B lymphocytes which generates antibodies.	Плазмоцит - клетка получена из В-лимфоцитов, который вырабатывает антитела.	Плазмоцит-В-лимфоцитдан олингаи антитела хосил құлуучи хужайра.
Tissue – a collection of cells which work together to perform a function in the body	Ткань - совокупность клеток, которые работают вместе для выполнения функции в организме	Түкима-келиб чиқиши ва бажарадыған вазифаси бир хил бүлган хужайралар ийғинди.
Capsid the protein coverage around virus particle Капсида Охват белка вокруг вирусной частицы Cilia Hair-like structures that rhythmically undulate to propel particles	Реснички волосоподобная структуры, которые ритмично волнистый для приведения в движение частиц	Киприкчылар-үсікчалар күрінішида булиб, доимий, тұлқынсымон харакатлануучи кисимдир
Vacuole – a membrane bound body found within cells used for storage.	Вакуоль - связанный с мембраной тело находится внутри клеток, используемых для хранения	Вақуола- мембрана билан узний бөгләнгән, үсімлік хужайрсы марказыда жамғарыш вазифасини бажаради

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Alberts B., Brey D. i dr. Molekulyarnaya biologiya kletki. 3 t. M. "Mir", 1996, 400b.
- Atabekova A.I., Ustinova E.I. Sitologiya rasteniy, "Agropromizdat", M., 1987, 244b.
- Bilich G.L. Biologiya, sitologiya, histologiya, anatomiya cheloveka. Sankt-Peterburg, "Soyuz", 2001, 445b.
- Zavarzin A.A., Xarazova A.A. Biologiya kletki: Obshaya sitologiya. SPb, izd-vo SPb Un-ta, 1992g, 263b.
- Zavarzin A.A., Xarazova A.A. Osnovi obshey sitologii. L. izd. LGU, 1982, 240b.
- Kuznetsov S.L., Mushkambarov I.N., Goryachkina V.A. Atlas po histologii, sitologii i embriologii, M., 2002., 373b.
- Rollan J.K., Seloshi A. Atlas po biologii kletki. M., "Mir", 1974, 118b.
- Svenson K., Uebster P. Kletka. M."Mir", 1980, 303b.
- Sottiboev I., Qo'chqorov. O'simlik hujayrasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1991, 120b.
- Frey-Visling A. Sravnitel'naya organellografiya sitoplazmi. M., "Mir", 1986, 144b.
- Chentsov Yu.S. Obshaya sitologiya. M., MGU, 1984, 344b.
- Chentsov Yu.S. Vvedenie v kletochnyu biologiyu. M., IKTs "Akademkniga" 2004, 514b.

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
Ma’ruza 1. “Hujayra biologiyasi” fanining	5
Ma’ruza 2. Plazmatik membrananing tuzilishi va vazifalari	32
Ma’ruza 3. Sitoplazma. Hujayraning vakuolyar tizimi.	39
Ma’ruza 4. Sitoplazmaning ikki membranali organoidlari.....	71
Ma’ruza 5. Fotosintez va xloroplast	84
Ma’ruza 6. Membranaga ega bo‘lmagan organellalar.....	109
Ma’ruza 7. Xromatin va uning faoliyati	126
Ma’ruza 8. Hujayraning qayta tiklanishi	143
Ma’ruza 9. Endoreproduksiya	161
Ma’ruza 10. Hujayra patologiyasi va o‘limi. Nekroz va a poptoz.....	168
Laboratoriya mashg‘ulotlari	180
1-Laboratoriya mashg‘uloti.	180
2-Laboratoriya mashg‘uloti: mikroskopning tuzilishi va u bilan ishslash qoidalari.....	186
3-Laboratoriya mashg‘uloti.	188
4-Laboratoriya mashg‘uloti.	190
5-Laboratoriya mashg‘uloti.	192
6-Laboratoriya mashg‘uloti	192
7-Laboratoriya mashg‘uloti	193
8-Laboratoriya mashg‘uloti	194
9-Laboratoriya mashg‘uloti	196
10-Laboratoriya mashg‘uloti	197
11-Laboratoriya mashg‘uloti. Yoruglik mikroskopi yordamida o‘simlik hujayralarinig membranalarini o‘rganish.	205
12-Laboratoriya mashg‘uloti	211
Glossariy	212
Foydalilanilgan adabiyotlar:	214

**H.U.HALBEKOVA
I.A.ABDULOV**

HUJAYRA BIOLOGIYASI

Muharrir: S. T. Xashimov

Musahhih: S. Gapurova

Sahifalovchi: A. Hidoyatov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013 y.
Ofset qog‘ozi. Bosishga ruxsat etildi 14.02.2019.

Format 60x84 1/16. Garnitura «PT Se‘if».
Bosma taboq 13.5 Adadi 200 nusxa. Buyurtma №63.

«VNESHINVESTROM» mas’uliyati
cheklangan jamiyati.
100029, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30.
Tel./faks: (+99871) 244-75-75

ISBN 978-9943-4886-6-3

A standard one-dimensional barcode representing the ISBN number 978-9943-4886-6-3.

9 789943 488663